



ISSN: (E) 2181-1784
SJIF 2023 = 6.131
ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

*Exact sciences
Natural sciences
Engineering sciences
Pedagogical sciences
Social and Human sciences
Philological sciences
Philosophy sciences
Economic sciences*

VOLUME 3
No 7
2023





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

VOL. 3 / ISSUE 7

ISSN 2181-1784

Impact Factor: 6.131

ASI Factor = 1.7

**July
2023**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of “Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and
National idea” of Tashkent State Technical
University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical
Sciences, Head of the Department for the
organization of research activities of students of
TSUOS

Dr. ZAMIRA A. NUROVA

Candidate of Biological sciences
Associate professor of Termez branch of the
Tashkent Medical Academy

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical
Sciences, Senior lecturer of the Department of
Social Humanities of Tashkent State University of
Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast
Asian Languages of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of
Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate
professor of the department of Pedagogy and
Psychology of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

ҚОНУН БЎЙИЧА ВОРИСЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ НИЗОЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

Искандаров Бегзоджон Махмудович

Судьялар олий мактаби тингловчиси

АННОТАЦИЯ

Амалдаги қонунчилик фуқаролик-ҳуқуқий муносабат, шу жумладан ворислик соҳасидаги муносабат иштирокчиларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишининг турли усулларини белгилайди. Ворислик ҳуқуқий муносабатларида сезиларли ролни суд бажаради ва бунда суд ворислик ҳуқуқий муносабатлари иштирокчиларининг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоясини таъминлайди. Бироқ ворислик ҳуқуқи институтининг барқарорлигига қарамасдан, амалиётда суд томонидан кўриб чиқилиши лозим бўлган мерос ва бошқа масалалар бўйича турли низолар юзага келади. Турли меросхўрлар ўртасидаги низолар билан боғлиқ аксарият ворислик ҳуқуқий муносабатлар соҳасидаги ишлар даъво характерида эга бўлади.

Калим сўзлар: ворислик, мерос, фуқаролик ҳуқуқи, мерос гувоҳномаси, низо, суд процесси, тарафлар.

ABSTRACT

Current legislation defines various ways of protecting the rights and legal interests of the participants in the civil-legal relationship, including the relationship in the field of succession. The court plays a significant role in succession legal relations, and it ensures the protection of violated or disputed rights and legal interests of the participants of succession legal relations. However, despite the stability of the institution of succession law, in practice, various disputes arise regarding inheritance and other issues that must be considered by the court. Most cases related to disputes between different heirs in the field of legal relations of succession will have the character of a lawsuit.

Key words: succession, inheritance, civil law, inheritance certificate, dispute, court proceedings, parties.

КИРИШ

Амалиётда ворислик ҳуқуқи субъектлари ўртасида ўзаро ҳуқуқи ва мажбуриятларнинг ҳажми ва мазмуни масалаларида турли ихтилофлар вужудга келади. Хусусан, мерос олиш талабини билдираётган шахслар улар ўртасида мерос мол-мулкани бўлиниши, меросхўрлар доирасини шакллантирилиши (нолойиқ деб топиш, шахснинг меросхўрлар таркибига киритилмаслиги ва

бошқалар) хусусида келиша олмасликлари, шунингдек, меросхўрлар васиятнома бўйича, мерос бошқарувчисининг номзоди ёки унинг тайинланиши юзасидан низолашишлари, нотариус васиятномани тасдиқлашдан ёки мерос гувоҳномаси беришдан, меросни қабул қилиш муддатини тиклашдан воз кечиши мумкин. Мазкур ҳолатларда юзага келган ихтилофлар ва қарама-қаршилиқлар эса айна пайтда нотариал юрисдикция¹ соҳасига тааллуқли бўлмайди, чунки нотариуслар ва бошқа шахслар нотариал ҳаракатларни ҳуқуқий муносабат иштирокчилар ўртасида моддий низо мавжуд бўлмаганида амалга ошириш ваколати эга бўладилар. Бундай низо мавжуд бўлгани нотариус талаб этилган нотариал ҳаракатларни амалга оширишга ҳақли бўлмайди, манфаатдор шахслар ўзларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун тегишли даъво билан судга мурожаат қилиши талаб этилади. Қолаверса, ворисликда бир қатор низосиз фактларни, шунингдек қонун фақат суд тартибида белгиланишни назарда тутган муҳим ҳолатларни (масалан, фуқаронинг вафот этиш фактини белгилаш, қариндошлик даражасини аниқлаш ёки вафот этган деб эълон қилиш) аниқлаш зарурати юзага келиши мумкин².

Бу ҳолатда Т.Саломатованинг нуқтаи назари ўзига хос қизиқиш уйғотади. Унинг фикрига кўра, “ворислик даъвоси” деганда мерос таркибига кирадиган ҳуқуқлар ва ашёлар тўғрисидаги низолардан келиб чиқадиган ва хато ёки бошқа сабабларга кўра ўзини меросхўр деб ҳисоблаган шахсга мол-мулк мерос тартибида ўтиши билан боғлиқ фактларга асосан меросхўрнинг белгиланган процессуал тартибда судга кўриб чиқиш ва ҳал этиш учун тақдим этилган талаби тушунилади. Мазкур таърифга асосан муаллиф ушбу турдаги даъволарни тўртта мустақил гуруҳга ажратишни таклиф қилади:

- қонун бўйича меросхўрлар ўртасидаги низолар: меросхўр деб эътироф этиш тўғрисидаги, мол-мулкни бўлиш тўғрисидаги, улуш ажратиш тўғрисидаги, ворислик ҳуқуқидан маҳрум қилиш тўғрисидаги, меросни қабул қилиш муддатини узайтириш тўғрисидаги ва бошқа низолар;

- қонун бўйича ва васиятнома бўйича меросхўрлар ўртасида васиятномани тўлиқ ёки қисман ҳақиқий эмас деб топиш ҳақидаги низолар;

- васиятнома бўйича ёки турли васиятномалар бўйича меросхўрлар ўртасидаги низолар;

- меросхўрлар ва давлат ўртасидаги низолар. Давлат ҳам ўз навбатида, меросхўр бўлиши мумкинлигини қайд этган ҳолда, Т.Саломатова ушбу

¹ Алешина Т.Е. Нотариальная форма реализации права: Теоретико-правовое исследование: автореф. дис. канд. юрид. наук. – Саратов: 2001. – 4 с.

² Гушин В.В., Дмитриев Ю.А. Наследственное право и процесс: учебник для высших учебных заведений. – М, 2004. – С. 211; Павлова О.А. Наследственные дела или споры? (Что разрешают суды общей юрисдикции?) // Наследственное право. – 2006. – № 2.

низоларни алоҳида гуруҳга ажратишни таклиф этади ва ўз фикрининг асоси сифатида давлат иштирокидаги ишларни судда кўриб чиқиш ва ҳал қилишга хос бўлган процессуал хусусиятлар мавжудлигини келтиради³.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Фуқаролик судларида мерос билан боғлиқ кўп турдаги фуқаролик ишлари кўрилади. Уларни даъво тартибида кўриладиган ишлар, алоҳида тартибда кўриладиган ишлар ва шикоят тартибида кўриладиган ишлар сифатида классификация қилиш мумкин⁴.

Низо тартибида кўриладиган ишларни субъектлари таркибига кўра қуйидаги турларга бўлиш мумкин:

- Қонун бўйича ворислар ўртасида(мерос мулкни бўлиш хусусидаги, меросга бўлган ҳуқуқни тан олиш тўғрисидаги, мерос ҳуқуқидан маҳрум қилиш тўғрисидаги, меросдан улуш ажратиш тўғрисидаги);

- Қонун бўйича ворислар ва васиятнома бўйича ворислар ўртасида(васиятномани ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисида, меросдан мажбурий улуш ажратиш тўғрисидаги низолар);

- Васиятнома бўйича ворислар ўртасида ёки турли васиятнома бўйича ворислар ўртасида(хусусан, кейинроқ тузилган васиятномани ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисида, васиятнома бўйича меросхўрни нолайиқ деб топиш тўғрисида, мерос мулкни бўлиш тўғрисида);

- Қонун бўйича ворислар ва бошқа шахслар ўртасида (мерос қолдирувчининг кредиторларининг талаблари бўйича, мерос мол-мулкни бировнинг қонунсиз эгалигидан талаб қилиб олиш тўғрисида, васиятнома бўйича мажбуриятни бажариш тўғрисида, меросдан воз кечишни бажариш тўғрисида)⁵.

Судларда кўриладиган меросга оид ҳуқуқий муносабатларни Янева Р.Р. меросга оид даъволарнинг характеридан келиб чиққан ҳолда, уларни икки гуруҳга ажратишни таклиф этади:

- Меросга оид даъволар, яъни мазмунида даъвогар ўзининг меросга бўлган ҳуқуқларини ҳимоя қилишни сўраётган талаблар;

³ Саломатова Т. Виды исков о наследстве // Российская юстиция. – 2001. – № 7. – С. 22–23.

⁴ Р. Ю. Закиров, Я. С. Гришина, М. М. Махмутова. Наследственное право. – М.: Юристъ, 2005. 303-стр.

⁵ Опыхтина Е.Г., Макарова О.Г., Буднева О.Г. Процессуальные особенности рассмотрения и разрешения отдельных категорий гражданских дел. Учебно-практическое пособие. Казань – 2007. 63-стр.

- Мерос қолдирувчининг мажбуриятларидан келиб чиқадиган, даъвогарнинг мерос ҳуқуқларини тиклашга қаратилмаган даъволар бўлиб, мероснинг очилиш факти уларнинг даъволарига асос бўлиб хизмат қилади⁶.

Ушбу классификацияларни ҳар бирининг мезонига кўра турлари тўлиқ қамраб олинганлигини эътироф этган ҳолда, судларда кўриладиган меросга оид ишларнинг мазмуни бўйича даъво тартибида кўриладиган ишлар, алоҳида тартибда кўриладиган ишлар ва шикоят тартибида кўриладиган ишлар сифатидаги классификациясини назарий ва амалий жиҳатдан тўғри ва ишларни ўзига хос жиҳатларини ёритишда самарали бўлган таснифлаш деб ҳисоблаш мумкин.

Лекин шу билан бирга, бу классификацияни кўп миқдорда умумлаштириб юборилганлигини ҳам тан олиш лозим, чунки меросга оид ишларнинг асосий қисмини ташкил этувчи даъво тартибидаги ишларнинг ўзи кейинги навбатда бошқа мезонлар асосида яна классификация қилиниши мумкин.

Бу муаммони меросга оид ишларни субъектлари таркибига кўра классификация қилган муаллифлар таклифида самарали тарзда ҳал қилинганлигини кўришимиз мумкин.

Янева Р.Р.нинг таснифи эса, фақат даъво тартибида кўриладиган меросга оид ишларни классификация қилганлигини инобатга олиб баҳоланадиган бўлса, айтиш мумкинки, бу тасниф ҳам муайян даражада меросга оид низоларни ўзига хос хусусиятларини ёритишда муҳим аҳамият касб этиши мумкин.

Юқоридаги классификациядаги низоларни алоҳида ва амалиётда муҳим аҳамият касб этаётган меросга оид ишлар нуктаи назаридан ёритиб бериш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2011 йил 20 июлдаги “Судлар томонидан мерос ҳуқуқига оид қонунчиликнинг қўлланилиши тўғрисида”ги 5-сон қарорининг 20-бандида тушунтирилишича, Фуқаролик кодекси 1150-моддасига мувофиқ, меросхўрлар ўртасида меросни тақсимлаш, ундан улуш ажратиш тўғрисида келишувга эришилмаган тақдирда, тақсимот улардан исталган бирининг талаби бўйича суд тартибида амалга оширилади.

Лекин ворислик ҳуқуқий муносабатлари соҳасида вужудга келадиган низолар сонининг кўп бўлишига қарамасдан, ҳуқуқ тўғрисидаги низонинг

⁶ Янева Р. Р. Особенности рассмотрения судами дел, связанных с наследованием. Автореферат. Москва – 2009. 11-стр.

мавжудлиги билан боғлиқ бўлмаган, бироқ судда ҳал этилиши талаб этиладиган вазиятлар кўплаб учраб туради.

Қоидага кўра меросни қабул қилишнинг икки усул мавжуд:

1) мерос очилган жойдаги нотариусга меросни қабул қилиш ёки мерос ҳуқуқи тўғрисидаги гувоҳномани бериш тўғрисидаги аризани топшириш;

2) меросни амалда эгаллаганликдан гувоҳлик берувчи ҳаракатларни амалга ошириш. Қонунчиликда бундай ҳаракатларнинг рўйхати келтирилган. Хусусан, меросхўр меросни қабул қилган ҳисобланади, агар:

- мерос мол-мулки эгаллиги ёки бошқарувига киришса;

- мерос мол-мулкани сақлаш, унинг учинчи шахслар тажовузи ёки давволаридан ҳимоя қилиш чораларини кўрса;

- мерос мол-мулкани сақлаб туриш бўйича ҳаражатларини ўз ҳисобидан амалга оширса;

- мерос қолдирувчининг қарзларини ўз ҳисобидан тўласа ёки мерос қолдирувчи учинчи шахсдан олиши керак бўлган пул суммаларини олса.

Кўриниб турибдики, бу ҳолатда меросхўрнинг амалда мерос қабул қилинганлигидан гувоҳлик берувчи, кенг тарқалган айрим ҳаракатлар санаб ўтилган, холос. Зеро, меросхўрнинг амалда меросни қабул қилганлигидан гувоҳлик берувчи ҳаракатларининг тўлиқ рўйхатини келтириш имкони мавжуд эмас. Нотариал амалиётда меросхўрнинг мол-мулкка эгаллик қилишга ёки фойдаланишга ўз вақтида киришганлиги турли йўллар билан исботланади.

Шу ўринда эътироф этиш лозимки, амалдаги ФКда меросни қабул қилишга оид алоҳида нормалар мавжуд эмас. Бу ўз навбатида, мазкур соҳадаги ҳуқуқий бўшлиқни, ҳуқуқни қўллаш амалиётидаги муаммоларни вужудга келтиради. Айниқса, мерос мол-мулкани сақланиши, меросхўрлар томонидан уни ўзлаштириб юборилиши ёки учинчи шахслар томонидан талон-тарож қилинишига олиб келади. Мазкур муаммоларни бартараф этиш мақсадида ФКга мерос мол-мулкани қабул қилиб олишга оид қоидаларни киритиш лозим бўлади. Бундай қоидалар Германия, Россия, Қозоғистон каби давлатлар қонунчилигида мавжуд. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 апрелдаги Ф–5464-сонли Фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш Концепцияси 1-бўлим 1-бандида Фуқаролик қонунчилигини унификация қилиш ва тизимлаштириш мақсадида уни инвентаризациядан ўтказиш, шунингдек халқаро стандартлар талабларига ва энг яхши хорижий амалиётларга мувофиқлаштириш назарда тутилган.

Агар меросхўрнинг аризаси нотариусга бошқа шахс томонидан тақдим этилган ёки почта орқали юборилган бўлса, аризадаги меросхўрнинг имзоси нотариус ёки мазкур нотариал ҳаракатни амалга ошириш ваколатига эга бўлган мансабдор шахс томонидан тасдиқланган бўлиши лозим.

Меросни вакил орқали ҳам қабул қилиб олишга йўл қўйилади.

Меросни қабул қилиб олиш тўғрисида ариза берган шахс меросни қабул қилиб олиш учун белгиланган муддат ичида уни бекор қилиши мумкин.

Агар бошқа ҳолат исботланган бўлмаса, меросхўрнинг меросни амалда қабул қилиб олганлигидан гувоҳлик берувчи ҳаракатларни, хусусан қуйидагиларни амалга оширганлиги унинг меросни қабул қилиб олганлиги деб тан олинади:

мерос мол-мулкка ёки унинг бир қисмига эгалик қилиш ёки уни бошқаришга киришганлик;

мерос қолдирувчига тегишли бўлган уй-жойда у вафот этган вақтда яшаган ва унинг вафотидан кейин яшашни давом эттираётганлик.

Меросхўр томонидан мероснинг бир қисмини қабул қилиб олинishi унга тегишли барча меросни қабул қилиб олганлигини англатади.

Меросни бир ёки бир нечта меросхўрлар томонидан қабул қилиб олинishi меросни қолган меросхўрлар томонидан қабул қилиб олинганлигини англатмайди.

Меросни шартлар билан қабул қилиб олишга йўл қўйилмайди.

Мерос қолдирувчи бир вақтнинг ўзида бир нечта асослар бўйича (васият бўйича, қонун бўйича ёки мерос трансмиссияси тартибида) ворисликка чақирилганида, унга мазкур асосларнинг бири, бир нечтаси ёки барчаси бўйича тегиши керак бўлган меросни қабул қилиб олиши мумкин.

Қабул қилиб олинган мерос меросхўрга мерос қолдирувчининг мерос мол-мулкига бўлган ҳуқуқлари давлат рўйхатидан ўтказилиши талаб этиладиган ҳолларда унинг давлат рўйхатидан ўтказилган вақтдан қатъий назар мерос очилганидан кейин тегишли ҳисобланади.

Назаримизда, ушбу моддага меросхўрнинг мол-мулкка бўлган мулк ҳуқуқи ёки мерос таркибига кирувчи мулк ҳуқуқ ва мажбуриятларни олувчи бўлиш ҳуқуқини тартибга солувчи қисми киритиш таклиф этилмоқда.

Мазкур ҳуқуқни амалга ошириш учун меросхўр ўз иродасини билдириши, яъни меросни қабул қилиб олиши (ёки ундан воз кечиши) мажбур, шу сабабли у ҳуқуқий оқибатларни вужудга келтиришга қаратилган муайян ҳаракатларни (меросни қабул қилиб олиш шаклида) амалга ошириши лозим.

Шу муносабат билан, меросни қабул қилиб олишни таъминлаш мақсадида ушбу бобга меросни қабул қилиб олиш тушунчаси, унинг тартиби, усуллари ва муддатлари, шунингдек белгиланган муддатларда ёки улар тугагандан сўнг меросни қабул қилиб олиш масаласини ҳал қилишда зарур бўлмиш меросни амалий қабул қилиб олиш тушунчасини очиқ бериш билан боғлиқ қоидаларни киритиш таклиф этилади.

Мазкур механизм Россия Федерацияси, Қозоғистон Республикаси, Белоруссия ва Украинанинг Фуқаролик кодексларида мавжуд. Масалан, РФ ГКнинг 64-боби “Меросни эгаллаш” деб номланади ва унинг дастлабки моддалари айнан меросни қабул қилиш (1152-модда), меросни қабул қилиш усуллари (1153-модда), меросни қабул қилиш муддатига (1154-модда) бағишланган.

Қонунда меросни қабул қилиб олиш усулларинининг мавжуд эмаслиги, ўзига тегишли мерос улушини қабул қилиб олмайдиган ва ундан воз кечмайдиган, номаълум вақт ўтгандан сўнг меросга бўлган ҳуқуқини талаб қиладиган виждонсиз меросхўрларга имкон яратади. Натижада, мероснинг маълум бир улуши очиқ ва ҳал этилмасдан қолиб кетади. Бу эса, меросни амалда қабул қилиб олган, ундан фойдаланаётган, мерос мол-мулкига ҳаражатлар қиляётган (сақлаш, таъмирлаш ва бошқалар) виждонли меросхўрларга зарар етказиши.

Шунга кўра, меросни қабул қилиб олиш икки йўл билан амалга оширилиши керак:

расмий, яъни меросхўр томонидан меросни қабул қилиб олиш ҳақида берилган ёзма аризасига мувофиқ;

норасмий, яъни меросхўр томонидан меросни қабул қилиб олиш истагини ифодаловчи асосли ҳаракатларнинг амалга оширилиши.

Меросни амалий қабул қилиб олишнинг усуллари белгиланган.

Меросхўрлар меросни қабул қилиб олиш тўғрисида ариза топширгандан сўнг, уларга кейинчалик уни бекор қилиш ва меросни белгиланган муддатда қабул қилиб олишни рад этиш имконияти берилади.

Процессуал ҳуқуқ фанида аризачи ўз манфаатларини, агар нотариал орган унга ворислик ҳуқуқи тўғрисидаги гувоҳномани беришни меросни қабул қилиш фактини тасдиқловчи далиллар, гарчи улар тақдим этилган бўлсада, етарли эмаслиги сабабли рад этган бўлса қайси тартибда ҳимоя қилиши мумкинлиги тўғрисида узоқ вақтлардан буён баҳс давом этади.

Шу сабабли Д.М.Чечот аризачи судга нотариус ҳаракатлари устидан шикоят қилиб ёки мерос қабул қилинганлиги фактини белгилаш тўғрисидаги

ариза билан мурожаат қилиши мумкинлигини билдиради. Ҳимоя усулини танлаш ишнинг объектив ҳолатларидан келиб чиқиши лозим. Агар меросхўр нотариал органга меросни қабул қилиш тўғрисида тегишли ҳужжатларни тақдим этган бўлса, бироқ нотариус тақдим этилган ҳужжатларга ишонмаса ва ворислик ҳуқуқи тўғрисида гувоҳномани бермаса, меросхўр нотариус ҳаракатлари устидан шикоят қилиши мумкин бўлади. Агар меросхўр тегишли ҳужжатларни тақдим эта олмаса ва фақат гувоҳларни кўрсатмасини тақдим этса, у суддан меросни қабул қилиш фактини тасдиқлашни сўраши мумкин⁷.

Шунга ўхшаш нуқтаи назарни П.Ф.Елисейкин ҳам билдиради. Унинг назарича, суд томонидан аризада зарурий ҳужжатларнинг мавжудлиги аниқлангана, унинг меросни қабул қилиш фактини белгилаш ҳақидаги аризасини қабул қилиш рад этилиши лозим, чунки у даъволашилаётган фактни маъмурий (нотариал) тартибда белгилаш имкони эга ҳисобланади⁸.

Меросни қабул қилиш фактини белгилашга оид ишларни кўриш учун қуйидаги процессуал хусусиятлар ҳосдир. Меросни қабул қилиш фактини белгилаш тўғрисидаги ариза қуйидаги маълумотларни ифодалаши лозим:

- меросни амалда қабул қилиш ҳолати: айнан қайси мол-мулк, қайси пайтда ва қандай усулларда меросхўр томонидан қабул қилинган;

- даъволашилаётган фактни нотариал тартибда аниқлаш имконияти мавжуд эмаслигининг сабабалари – тегишли ёзма далилларнинг мавжуд эмаслиги;

- тегишли факт – ворислик ҳуқуқи тўғрисидаги гувоҳномани олишни белгилаш мақсадлари;

- аризани хулоса қисмида даъволашилаётган юридик факт, яъни айнан ким томонидан ва кимнинг вафотидан кейин мерос амалда қабул қилинганлиги аниқ шакллантирилиши лозим.

- тегишли ариза аризачининг яшаш жойи бўйича судга топширилади.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Алешина Т.Е. Нотариальная форма реализации права: Теоретико-правовое исследование: автореф. дис. канд. юрид. наук. – Саратов: 2001. – 4 с.
2. Гуцин В.В., Дмитриев Ю.А. Наследственное право и процесс: учебник для высших учебных заведений. – М., 2004. – С. 211;
3. Павлова О.А. Наследственные дела или споры? (Что разрешают суды общей юрисдикции?) // Наследственное право. – 2006. – № 2.

⁷Чечот Д.М. Неисковые производства. – М.: Юридическая литература, 2013. – С. 106.

⁸ Елисейкин П.Ф. Судебное установление фактов, имеющих юридическое значение. – М.:Юридическая литература, 2013. – С. 117.

4. Саломатова Т. Виды исков о наследстве // Российская юстиция. – 2001. – № 7. – С. 22–23.
5. Р. Ю. Закиров, Я. С. Гришина, М. М. Махмутова. Наследственное право. – М.: Юристъ, 2005. 303-стр.
6. Опыхтина Е.Г., Макарова О.Г., Буднева О.Г. Процессуальные особенности рассмотрения и разрешения отдельных категорий гражданских дел. Учебно-практическое пособие. Казань – 2007. 63-стр.
7. Янева Р. Р. Особенности рассмотрения судами дел, связанных с наследованием. Автореферат. Москва – 2009. 11-стр.
8. Ibrohimov, A. A. M. O. G. (2023). IJARA MUNOSABATLARIDA IJARA HAQINI TO'LASH BILAN BOG'LIQ MASALALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 607-612.
9. Чечот Д.М. Неисковые производства. – М.: Юридическая литература, 2013. – С. 106.
10. Елисейкин П.Ф. Судебное установление фактов, имеющих юридическое значение. – М.:Юридическая литература, 2013. – С. 117.

ЛИЗИНГ ШАРТНОМАСИНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ ВА БОШҚА ИЖАРА ШАРТНОМАЛАРИГА НИСБАТАН ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Исломов Бахриддин,

Судьялар олий мактаби магистранти

АННОТАЦИЯ

Лизинг моҳиятига кўра лизинг берувчи (одатда молиявий маблағлар эгаси бўлган ва молиявий хизматлар кўрсатиш мақсадида ташкил этиладиган махсус компания, банк ёки бошқа молиявий муассаса)нинг пул маблағларини тадбиркорлик фаолияти учун қўлланиладиган асбоб-ускуналарга йўналтириш орқали лизинг олувчи (тадбиркорлик субъекти)нинг техника воситалари ва шунга ўхшаш бошқа ишлаб чиқариш воситаларига бўлган эҳтиёжини қаноатлантиришнинг замонавий воситаси ҳисобланади. Шундай экан, лизинг берувчи учун лизинг бериладиган ишлаб чиқариш воситалари эмас, муомалага киритган ўз маблағларининг фоизи билан қайтиши саналади. Бу эса анъанавий ижарада бўлгани каби ижарага нима берилган бўлса, шу нарсанинг ўзи қайтарилишидан фарқ қилади. Шу сабабли ҳам лизингда ижарада бўлгани каби иккита эмас учта тараф иштирок этади ва бу лизинг конструкциясининг зарурий шарти саналади.

Калит сўзлар: лизинг шартномаси, лизинг берувчи, лизинг олувчи, сотувчи, ҳуқуқ ва мажбуриятлар, лизинг ва ижара шартномаси нисбати.

ABSTRACT

According to the nature of the lease, the lessor (usually a special company, a bank or other financial institution, which is the owner of financial funds and is established for the purpose of providing financial services) funds for the equipment used for business activities, the technical means of the lessee (entrepreneurial entity) and so on. is a modern means of satisfying the need for other similar means of production. Therefore, for the lessor, the return is calculated by the percentage of the own funds put into circulation, not the leased means of production. This is different from a traditional lease where you get back what you leased. For this reason, not two but three parties participate in the lease, as in the case of the lease, and this is considered a necessary condition of the construction of the lease.

Key words: lease agreement, lessor, lessee, seller, rights and obligations, ratio of lease and rental agreement.

КИРИШ

Қишлоқ хўжалигини иш самарадорлиги юқори бўлган, замонавий техника воситалари билан лизинг асосида таъминлаш тизимининг жорий этилиши

Ғоятда муҳим касб этмоқда. Шу нарса аниқки, қишлоқ меҳнаткашларини техника билан таъминлашнинг бу усули катта истиқболга эга. Шунинг учун бугунги ривожланиб бораётган бозор иқтисодиёти шароитида лизинг фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш алоҳида ўрин тутди. Лизинг тизими ҳозирги вақтда жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида кенг тарқалган бўлиб, иқтисодиётнинг янги-янги тармоқларини ўзига қамраб олмоқда.

Лизинг - инглизча «Forlease» сўзидан олинган бўлиб, “ижара олмоқ” деган маънони англатади. Лизинг шартномаси бўйича лизинг берувчи (ижарага берувчи) бир тараф лизинг олувчи (ижарага олувчи) иккинчи тарафнинг топшириғига биноан сотувчи учинчи тараф билан ундан лизинг олувчи учун мол-мулк сотиб олиш ҳақида келишиш мажбуриятини олади, лизинг олувчи эса бунинг учун лизинг берувчига лизинг тўловларини тўлаш мажбуриятини олади (ФКнинг 587-моддаси).

Юқоридаги таърифдан кўришиб турибдики, лизинг шартномаси қуйидаги ҳуқуқий белгиларга эга.

Биринчидан, лизинг уч тарафлама (сотувчи - лизинг берувчи - лизинг олувчи) ёки икки тарафлама (лизинг берувчи - лизинг олувчи) лизинг шартномаси бўйича амалга оширилади.

Лизинг берувчи ва сотувчи ўртасида икки тарафлама лизинг шартномаси тузилаётганида кўшимча равишда лизинг объектининг олди-сотди шартномаси тузилади.

Иккинчидан, лизинг шартномаси консенсуал шартномалар гуруҳига мансуб.

Учинчидан, шартнома ҳақ бараварига тузилади. Лизинг олувчи лизинг берувчига лизинг объектидан фойдаланганлиги учун лизинг тўловларини тўлайди.

Ўзбекистон Республикасининг “Лизинг тўғрисида”⁹ ги қонунининг 2-моддасига асосан лизинг (молиявий ижаралар)ни ижара муносабатларининг алоҳида тури сифатида белгилайди, бунда бир тараф (лизинг берувчи) иккинчи тарафнинг (лизинг олувчининг) топшириғига биноан учинчи тарафдан (сотувчидан) ҳақ эвазига 12 ойдан ошадиган муддатда эгалик қилиш ва фойдаланиш учун лизинг шартномасида белгиланган шартларда бериб қўйиш мақсадида мол-мулкни (лизинг объектини) олади¹⁰.

Бунда лизинг бўйича ижаранинг умумий аломатлари – ижарага олинадиган мол-мулкни бериб қўйиш, шартномага ҳақ тўланиши, лизинг олувчининг мол-

⁹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 1999 й., 3-4-сон

¹⁰ Қаранг: ўша манба

мулкка вақтинчалик эгалик қилиши ва ундан фойдаланиши, шунингдек фақат лизинг учун хос бўлган аломатлар – шартнома субъектларининг (лизинг берувчи, лизинг олувчи, сотувчи) албатта иштирок этиши, шартнома муносабатлари мажмуининг мавжудлиги, уни лизингга бериш учун лизинг берувчи томонидан лизинг объекти махсус сотиб олинishi керак.

О.Т.Ҳазраткуловнинг фикрича, лизинг – асосий ишлаб чиқариш воситаларини зудлик билан янгилаш, корхоналарни замонавий технологиялар билан таъминлаш ёки жорий этиш, шу асосида ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифати ҳамда ҳажмини кескин оширишга ёрдам беради¹¹.

Е.В.Кабатованинг ёзишича, ишлаб чиқарувчи ва фойдаланувчи ўртасидаги муносабат лизингни асосий ажратиб турувчи белгиларидан бири сифатида қаралади. Лизинг муносабатларида лизинг берувчи, сотувчи ҳамда лизинг олувчи ўртасидаги шартномавий муносабатни уч томонлама битим деб бўлмайди. Чунки лизинг ҳамда олди-сотди шартномаси институтларининг ҳар бири бу муносабатларда шартли равишда қўлланилади¹².

В.В.Витрянский фикрича, эса умуман лизинг уч томонлама шартнома эмас, балки шартноманинг икки тури, сотувчи ва лизинг берувчи ўртасида тузиладиган лизинг мулкани олди-сотди шартномаси ҳамда лизинг берувчи (лизинг мулкани эгаси сифатида) ва лизинг олувчи ўртасида тузиладиган, хусусан лизинг шартномасидан иборат бўлган шартномавий алоқалар тузилмасини ташкил этади, холос¹³.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Фикримизча, лизинг шартномаси учта томонлама келишув ҳисобланиб бу шартнома бевосита лизинг берувчи, лизинг олувчи ва сотувчи ўртасида тузиладиган мулк ижараси шартномаларига мансубдир. Чунки лизинг шартномасида лизинг берувчи ва сотувчи ўртасида лизинг олувчининг топшириғига биноан олди-сотди шартномаси вужудга келиши билан бунинг натижасида лизинг берувчи ва лизинг олувчи ўртасида ижара шартномаси келиб чиқади.

В.А.Горемыкиннинг таъкидлашича, лизинг – бу ташкилий фаолиятнинг асосий тури бўлиб ташкилий иқтисодий муносабатларнинг уч шаклини

¹¹ Ҳазраткулов О.Т. Лизинг муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Noshir, 2014. – 3 б.

¹² Кабатова Е.В Новые формы передачи машин и оборудования во временное пользование(лизинг) в гражданском праве буржуазных государств. - М.: 1981. – 135 с.

¹³ Витрянский В.В Договор аренды и его виды: прокат, фрахтование на время, аренда зданий, сооружений и предприятий, лизинг. - М.: Статут, 1999. - С. 291.

бирлаштиради: ижара, кредит ва савдо, лекин алоҳида шаклларининг ўзига хос мулкый молиявий жараёнларини тўлиқ бажармайди¹⁴.

Н.Хайдаров, лизинг деб – мулк эгаси ихтиёридаги ишлаб чиқариш асбоб ускуна, машиналарни, шу воситаларга муҳтож бўлган юридик ва жисмоний шахсларга маълум бир муддатга бериши ва шу вақт ичида истеъмолчидан келишилган миқдордаги йиллик (ойлик, чораклик, ярим йиллик) бадалларини олиб туришига айтилишини таъкидлайди¹⁵.

Шунингдек, И.Рафиқов ўз илмий ишида лизинг бу тадбиркорликнинг махсус шакли бўлиб, бунда лизинг компанияси машина, асбоб ускуна, транспорт воситалари, ишлаб чиқариш қурилмалари ва қишлоқ хўжалик техникаларини маълум муддатга ижарага бериш билан шуғулланади ва бу жараёндан фойда кўради¹⁶, - деб таърифлайди.

Ҳуқуқий муносабатларда “лизинг” ва “ижара” тушунчалари бир-бирига тўлалигича мувофиқ тушмайди. Шунга қарамасдан ФКнинг 6 параграфида лизинг шартномаси томонлари лизинг берувчи (ижарага берувчи) лизинг олувчи (ижарага олувчи) деб аталган, мазкур тушунча лизинг муносабатларининг барча хусусиятларини акс эттира олмайди. Ҳолбуки, лизинг – маҳсулот ишлаб чиқарувчилар ва уни қайта ишловчи корхоналар учун моддий-техника воситаларини сотиб олиш, сотиш, кредит битимини тузиш ва инвестиция киритиш ҳамда маълум муддатга ижарага бериш ва лизинг тўловини олиб туриш орқали фойда кўриш, шунингдек хўжаликларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлашдаги молиялашнинг ноанъанавий ўзига хос шаклидир¹⁷.

Маълумки, лизинг шартномаси маълум таркибий қисмлардан иборат. Лизинг шартномаси қуйидаги унсурларни, албатта, ўз ичига олган бўлиши керак: лизинг объектини; техникани етказиб бериш муддатини; шартномада белгиланган ижара муддатини; ижарага берувчининг яъни лизинг берувчининг мулк ҳуқуқини; хавф-хатар, жавобгарлик ускунанинг соз эканлигини; ускуналардан фойдаланиш йўриқномаларини; ускунани таъмирлаш ва унга хизмат кўрсатишни; зарарлар, тасодифий ҳодисаларни; шарномани суғурталашни; ижара тўловини; шартномада белгилан тўловни кечиктирганлик учун жаримани; ускунани сотиб олиш имкониятини; шартномани бекор қилиш шартлари; ускунани қайтариш вақтини; солиқ; томонларнинг қўшимча

¹⁴ Газман В.Д. Лизинг теория, практика, комментарий. – М.: “Фонд правовая культура”, 2012. – 416 с.

¹⁵ Хайдаров Н. Лизинг жараёни ривожлантириш // Иқтисод ва ҳисобот журнали. 2009. – №4. – 32 б.

¹⁶ Рафиқов. И.Э. Турли мулк шаклларида фаолият кўрсатувчи қишлоқ хўжалиги корхоналарига техник сервис хизматини ташкил этиш масалалари: иқтисод фан. номз. дис. ... – Тошкент: 1998. – 154 б.

¹⁷ Иванов Д.А. Общая юридическая характеристика договора лизинга: признаки и существенные условия // Государственная служба и кадры. 2014. – № 4. – С. 57-60.

хуқуқлари; лизинг шартномасининг кучга киришини кечиктирувчи шароитларни; зарур маълумотларни етказиш мажбуриятларини; томонларнинг жойлашган ўрни; банкнинг кафолат хужжатини; форс-мажор ҳолатларни, лизинг субъектлари томонидан лизинг шартномаси шартларига риоя этилишини назорат қилиш тартиби ва бошқаларни ўз ичига олиши лозим. Лизинг шартномасига қонун хужжатларига мувофиқ бошқа шартлар ҳам киритилиши мумкин.

Лизинг тушунчасига аниқлик киритиш билан бирга, лизинг фаолиятини ҳам ёритиш лозим. Лизинг тўғрисидаги қонуннинг 8 -моддасига кўра, лизинг фаолияти лизинг берувчи томонидан ўз маблағлари ва (ёки) жалб этилган маблағлар ҳисобидан лизинг объектининг сотиб олиниши ва уни лизинг шартномаси бўйича лизинг олувчига берилиши борасидаги инвестиция фаолияти туридир¹⁸. Бундан маълум бўладики, лизинг фаолияти лизинг объектини олди-сотди шартномаси билан боғлиқ субъектлар ўртасидаги ижтимоий муносабатларни ташкил этади.

Хусусан, лизинг фаолиятида лизинг шартномасининг шакллари алоҳида аҳамият касб этади¹⁹. Лизинг шартномасининг шакли “Лизинг тўғриси”²⁰даги қонуннинг 9-моддасида белгиланган бўлиб, лизинг шартномаси ёзма шаклда, қонун хужжатларида белгиланган тартибда тузилади. Лизинг шартномаси: шартнома тарафларидан бирининг талабига кўра; мол-мулк лизинг объекти ҳисобланиб, у ҳақда тузиладиган битимлар қонунга мувофиқ нотариал тасдиқланиши талаб қилинадиган ҳолларда нотариал тасдиқланиши лозим.

Лизинг моҳиятига кўра, лизинг берувчи (одатда молиявий маблағлар эгаси бўлган ва молиявий хизматлар кўрстайиш мақсадида ташкил этиладиган махсус компания, банк ёки бошқа молиявий муассаса)нинг пул маблағларини тадбиркорлик фаолияти учун қўлланиладиган асбоб-ускуналарга йўналтириш орқали лизинг олувчи (тадбиркорлик субъекти)нинг техника воситалари ва шунга ўхшаш бошқа ишлаб чиқариш воситаларига бўлган эҳтиёжини қаноатлантиришнинг замонавий воситаси ҳисобланади²¹. Шундай экан, лизинг берувчи учун лизинг бериладиган ишлаб чиқариш воситалари эмас, муомалага киритган ўз маблағларининг фоизи билан қайтиши саналади. Бу эса анъанавий ижарада бўлгани каби ижарага нима берилган бўлса, шу нарсанинг ўзи қайтарилишидан фарқ қилади. Шу сабабли ҳам

¹⁸ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 1999 й., 3-4-сон.

¹⁹ Черникова Е.В. Договор финансовой аренды (лизинга) в рыночных условиях хозяйствования: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: 2007. – С. 18.

²⁰ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 1999 й., 3-4-сон.

²¹ Андреева М.А. Понятие и сущность договора финансовой аренды (лизинга) // Современная наука: теория и практика. 2014. Т. 5. – № 1. – С. 113-118.

лизингда ижарада бўлгани каби иккита эмас учта тараф иштирок этади ва бу лизинг конструкциясининг зарурий шарти саналади.

Лизингнинг оддий ижарадан асосий фарқи шундаки, унда ижарага берилган асбоб-ускуналар шартнома муддати тугагандан сўнг уларнинг қолдиқ қиймати йиғиндисидан сотиб олиш кўзда тутилади. Лизингни фарқлантирувчи хусусиятлардан яна бири шундаки, лизинг компанияларида лизинг операцияларини амалга ошириш учун ўз маблағлари етишмайди²². Шу сабабли кўпинча лизинг операцияларида жалб қилинган маблағлар кенг қўлланилади. “Ривожланган хорижий давлатларда лизинг операцияларининг 85 фоизи жалб қилинган маблағлар ҳисобидан амалга оширилган лизинг операциялари эканлиги қайд этилган”²³. Бунда, одатда, банкнинг узоқ муддатли кредитлари жалб қилинади. Ижарачи ижарага берилаётган ускуналар қийматининг 80%гача ҳажмда узоқ муддатли кредит берилаётган ускуналар ва ижара тўловлари берилган кредитлар учун таъминланганлик ҳисобланади. Лизинг шартномаси предметдан ер участкалари ва бошқа табиий ресурсларнинг чиқарилиши уларнинг ижараси ўзига хос хусусиятларга эга бўлган махсус шартномалар орқали тартибга солиниши билан изоҳланади. Лизингнинг асосий хусусиятлари яна шундан иборатки, фойдаланишга илгари ижарага берувчи ишлатган ускуна эмас, балки у фақат ижарага бериш мақсадида харид қилган ускуна топширилади.

Лизинг шартномаси предметини ташкил қилувчи мол-мулкнинг истеъмол қилинмаслиги ижаранинг барча шаклларида хосдир, у лизинг муносабатларининг узоқ муддатли бўлишини таъминлайди, шартномага ижара муддати тугагандан сўнг ижарачи томонидан ижарага олинган мол-мулкни сотиб олиш тўғрисидаги шартларни киритиш имконини беради. Айни вақтда лизинг шартномасида, мисол учун ускуналарини узоқроқ муддатга ижарага олиш учун тузиладиган бошқа ижара турларидан ва тўлов шартлари хусусиятларидан бир қанча фарқлар мавжуд. Одатда лизинг чоғида ускуналарни ижарага бериш муддати бу ускуналардан самарали фойдаланиш, яъни тўла амортизация муддатига яқинлашади. Шу давр давомида шартномани тарафлардан бирортаси ҳам бекор қила олмайди. Лизинг тўловларининг умумий суммаси мол-мулк қийматидан, унинг харид нархидан ортиқ бўлади. Тўловнинг мол-мулк қийматидан ортиқча қисми лизинг берувчининг фойдасини ташкил этади

²² Бельский А.А. Лизинг в системе арендных отношений: правовые и экономические вопросы // Евразийский юридический журнал. 2015. – № 2 (81). – С. 200-201.

²³ Хайдаров Н. Лизинг жараёни ривожлантириш // Иқтисод ва ҳисобот. 2009. – №4. – 32 б.

Лизинг тўлови лизинг берувчининг лизинг объектини сотиб олиш учун қилган харажатларининг ҳаммаси ёки кўп қисми, шунингдек лизинг объектини етказиб бериш ва белгиланган мақсадда фойдаланиш учун уни яроқли ҳолга келтириш билан боғлиқ бошқа харажатлари лизинг олувчи томонидан қопланиши ҳамда лизинг берувчининг даромадидан иборат бўлади (ФКнинг 590-моддаси). Лизинг тўловлари шартноманинг бутун амал қилиш муддатига тақсимланади ва бўлиб-бўлиб тўланади. Лизинг тўловларининг миқдорлари ва даврийлиги лизинг шартномаси билан белгиланади²⁴.

Лизинг объектининг олди-сотди шартномаси лизинг берувчи ва сотувчи ўртасида тузилиб, унга кўра лизинг берувчи лизинг олувчининг топшириғига биноан лизинг объектини кейинчалик лизинг олувчига бериш учун ўз мулки қилиб олади²⁵.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки лизинг тушунчаси, лизинг фаолияти, лизинг турлари, лизинг тўлови, лизинг предмети билан узвий боғлиқ бўлиб лизинг субъектлари ўртасидаги муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишга хизмат қилади.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Ҳазратқулов О.Т. Лизинг муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Noshir, 2014. – 3 б.
2. Кабатова Е.В Новые формы передачи машин и оборудования во временное пользование(лизинг) в гражданском праве буржуазных государств. - М.: 1981. – 135 с.
3. Витрянский В.В Договор аренды и его виды: прокат, фрахтование на время, аренда зданий, сооружений и предприятий, лизинг. - М.: Статут, 1999. - С. 291.
4. Газман В.Д. Лизинг теория, практика, комментариев. – М.: “Фонд правовая культура”, 2012. – 416 с.
5. Хайдаров Н. Лизинг жараёни ривожлантириш // Иқтисод ва ҳисобот журнали. 2009. – №4. – 32 б.
6. Рафиқов. И.Э. Турли мулк шаклларида фаолият кўрсатувчи қишлоқ хўжалиги корхоналарига техник сервис хизматини ташкил этиш масалалари: иқтисод фан. номз. дис. ... – Тошкент: 1998. – 154 б.

²⁴ Бобоқулов С.Б. Ижара ҳуқуқ. – Тошкент: Адолат, 2009. - 277 б.

²⁵ Рўзиев Р.Ж. Лизинг шартномаси. – Тошкент: Адолат, 2002. – 29 б.

7. Иванов Д.А. Общая юридическая характеристика договора лизинга: признаки и существенные условия // Государственная служба и кадры. 2014. – № 4. – С. 57-60.
8. Черникова Е.В. Договор финансовой аренды (лизинга) в рыночных условиях хозяйствования: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: 2007. – С. 18.
9. Андреева М.А. Понятие и сущность договора финансовой аренды (лизинга) // Современная наука: теория и практика. 2014. Т. 5. – № 1. – С. 113-118.
10. Бельский А.А. Лизинг в системе арендных отношений: правовые и экономические вопросы // Евразийский юридический журнал. 2015. – № 2 (81). – С. 200-201.
11. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
12. O‘G‘Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
13. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
14. Имамов, Н. Ф. (2014). Авеста-источник гражданского права. *Молодой ученый*, (5), 353-355.
15. Имомов, Н. (2018). Задачи гражданского кодекса: правовое определение или правовое упорядочение социальных отношений. *Review of law sciences*, (1), 43-49.
16. Имомов, Н. (2019). ESSENCE OF CIVIL-LAW TOOLS IN THE ANTI-CORRUPTION SYSTEM. *Юридик фанлар ахборотномаси*, (3), 41-45.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK LAYOQATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING METODOLOGIK ASOSLARI

Zoxida Sharabidinovna Tursinova

A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot-instituti tayanch doktoranti

E-mail: zokhida87@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim tizimi, uning sifatini oshirish, hamda o'qituvchilar pedagogik layoqatining metodologik asoslari haqida so'z boradi.

***Kalit so'zlar:** O'zbekiston, integratsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, nazariy, ta'lim, bilim, pedagog, texnologiya, ta'lim tizimi, talaba.*

ABSTRACT

This article talks about the educational system, improving its quality, and the methodological basis of teachers' pedagogical competence.

***Key words:** Uzbekistan, integration, person-oriented education, theoretical, education, knowledge, pedagogue, technology, educational system, student.*

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston ko'p asrlik juda boy pedagogik tajribaga ega hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ma'lum an'analar shakllangan. Ushbu tajriba puxta tahlil va tizimli pedagogik usullarni ishlab chiqishni talab etadi, chunki bozor iqtisodiyoti hozirda maktab bitiruvchilariga nafaqat jamiyatda o'z o'rnini belgilashga, O'zbekistonni global ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, yangicha o'quv uslublarini izlash talabini qo'yadi.

O'zbekistonda ta'lim "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" ga asoslangan ilg'or yo'nalishlardan biri sifatida tasniflanadi. Ushbu tajriba empirik va nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'rganish va puxta tahlil qilish, pirovardida, mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilishga, ushbu sohadagi ilmiy faoliyatni tartibga solishga imkon beradi. Albatta, boshqa mamlakatlar ta'limiy qadriyatlarini, pedagogik tajribasini O'zbekiston ta'lim tizimiga to'liq tatbiq etish imkoni yo'q. Har bir millatning o'z mentaliteti mavjud bo'lib, u umumiy ta'lim tizimiga bevosita ta'sir qiladi, ta'lim sohasidagi integratsiyaning global tendensiyalari tufayli bunday tadqiqotlar turli millatlarning bir-birini yanada yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarning aksariyati umumiy, global xarakterga ega va dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yoshlar ongiga bevosita ta'sir qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim sohasida o'rganish va o'rgatish jarayonlarida pedagogik amalga oshiriladigan umumiy qoidalarni ifodalovchi, kelajak talabalarning malakali kasblarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini aniqlash, rivojlantirish, joriy etish va muvofiqlashtirish munosabati bilan bog'liq tadbirlarni ahamiyatga ega bolgan pedagogik fikrlar, maqsadlar, vazifalar va tamoyillar jarayonidagi barcha xususiyatlardir. Pedagogik layoqat ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib turadi. Bu quyidagi yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy pedagogik prinsiplar tizimidir:

1. Individualizatsiya: Har bir talabaning maxsus xususiyatlari va kerakliliklari hisobiga ta'limni tashkil etish.
2. Aloqadorlik: Talabalarning o'zaro hamkorlikda ishlashini ta'minlash.
3. Kooperativizm: Guruh ishlari va jamoatchilik bo'yicha talabalarni tarkib etish.
4. Demokratik huquqlar: Talaba huquqlarini himoya qilish va ularning o'zini ifodalash imkoniyatini berish.
5. Nutqni rivojlantirish: Talabalarning nutqini, munozaralarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash.
6. Bajaruvchi ilm-fan: Amaliyotda o'rganishni ta'minlash va teorik bilimlarni amalda ishlatish.
7. Muhokama va muhokamalar: Talabalar orasida fikr almashishni rag'batlantirish.
8. Ta'lim sifatining monitoringi: Talabalarning o'zlashtirilgan maqsadlar, vazifalar va rejalaridan kelib chiqqan natijalarini baholash.

Pedagogik layoqat ta'lim sohasining asosiy tamoyillaridan biridir va talabalarning tsivilizatsiya sarmoyasini qo'llab-quvvatlaydi, ularning shaxsiy qobiliyatlarini ochadi va rivojlantiradi. Bu pedagogik prinsiplar talablarga samarali, maqsadga muvofiq ta'lim berish uchun asosiy usullar sifatida qo'llaniladi.

Baholash mexanizmlari o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash uchun metodologik asoslarni belgilashda yordam beradi. Bu mexanizmlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

O'quvchilar bilim sifatini oshirishni baholash: Bu mexanizm o'quvchilarning bilim sifatini rivojlantirish darajasini aniqlayadi. Bunda, o'quvchilarning bilimga qancha qiziqish, muammolar yechish va yangiliklarga qanday reaksiya ko'rsatishi kabi ko'rsatkichlar hisobga olina oladi.

O'quv jarayonida ishtirok etishni baholash: Bu mexanizm o'quvchining o'qituvchi faoliyatiga qanday ishtirok etishini aniqlab beradi. Bunda, o'quvchi klasda

faollashtiradigan aktivliklarga, sohada ishtirok etishga qancha istakka ega bo'lishi hisobga olina oladi.

O'quvchi faoliyatini baholash: Bu mexanizm o'quvchining darsda va boshqa faoliyatlarida qanday ishlashi va vazifalarni bajarishi haqida ma'lumot beradi. Bunda, o'quvchi vazifa bajarish vaqti, tayyorlash jarayoni, natijalarni o'rganish kabi ko'rsatkichlar hisobga olina oladi.

O'quvchining bilim darajasini baholash: Bu mexanizm o'quvchining o'qituvchilar tomonidan berilgan imkoniyatlardan foydalanib qanday bilim darajasiga erishganligini baholashda yordam beradi. Bunda, o'quvchi o'tgan sinflarida va fanlarda qanday muvaffaqiyat ko'rsatganligi hisobga olina oladi.

O'quv jarayonidagi muhitni baholash: Bu mexanizm o'quv jarayonida tuziladigan muhitning pedagogik samaradorligini aniqlab beradi. Bunda, o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi muloqot, dars materiallarining qo'llanilishi, jadval va reja tuzish kabi ko'rsatkichlar hisobga olina oladi. Bu metodologik asoslar pedagogik layoqatni baholashda yordam beradi va o'qituvchilar uchun amaliy yordam beruvchi usullarni aniqlashda foydalangan bo'ladi.

Pedagogik layoqat, o'qituvchilarning o'quvchilarga xizmat qilishda kengaytirilgan pedagogik qobiliyat va ko'nikmalarini ifodalaydi. Bu esa o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida o'rnatilgan metod va usullarini baholashning muhim asosidir. Ta'lim sifatini oshirishda, o'qituvchilar uchun metodologik asoslarning bir necha boshqa mexanizmlariga ega bo'lishi kerak.

1. O'quvchi natijalari va ma'lumotlarni baholash: O'qituvchilar ta'limga oid ma'lumotlarni baholaydigan tartibni tuzishlari kerak. Bu tartibni tuzishning asosiy vazifasi, o'quvchi jihatidan ortiqcha qulayliklar yaratish va ularning rivojlanishi uchun zarur ko'maklashuvlar ko'rinishida shaxsiy talabalarni yuborishdir.

2. Kooperativ ta'limga qaratiladigan maslahatlar: O'qituvchilar, to'plam ishlarida mehnat va samaradorlikka ega bo'lishadi. Ushbu maslahatlar orqali, guruh a'zolarining hamkorlik qobiliyati va jamiyatga yuksak samaradorlik bilan xizmat qilishi kuchaytirilib boradi.

3. O'qitish metodlarini mustahkamlash: O'qituvchilar o'quvchilarga qat'iy vaqt rejalarini belgilab, o'quv jarayonida qo'llanadigan metodlarni mustahkamlashlari kerak. Bu, turli o'quv usullarini va texnologiyalarini o'rganish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

4. Ta'limga oid ma'lumotlar manbalaridan foydalanish: O'qituvchilar ta'limga oid ma'lumotlar manbalaridan, masalan, ilmiy izlanishlar, elektron kutubxonalar, ma'muriy axborot tizimlari va boshqalardan foydalanib, yangi va samarali pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishlari lozim.

5. Monitoring va baholash jarayonlari: O'qituvchilar ta'lim sifatini oshirish jarayonidan kelib chiqqan natijalarni monitoring qilishi kerak. Ushbu monitoring jarayoni orqali o'qituvchilar ta'lim sifatidagi kamchilik va yaxshi ishlarini aniqlab chiqishi mumkin.

Ushbu metodologik asoslar pedagogik faoliyatda pedagogik layoqatning rivojlanib borishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchilar bu asoslardan foydalanib, ta'lim sifatini oshirishda samarali bo'lib, o'quvchilarni yuqori darajada rivojlantirishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Pedagogika tarixi.-T:O'qituvchi, 1976.
2. O. Xasanboyeva, J. Xasanboyev, X. Xamidovalar. O'zbek pedagogikasi tarixi. T. «O'qituvchi» 1997 yil.
3. A. Zunnunov. O'zbek pedagogikasi tarixi. T. «O'qituvchi» 1997 yil.
4. J. Xasanboyev, O. Xasanboyeva. Pedagogika tarixi xrestomatiya. T. «O'qituvchi» 2002 yil.
5. K. Hojamov. «Pedagogika tarixi» T. «O'qituvchi» 2002 yil.
В этой статье рассматривается влияние и философия дизайна на воспитание человека. Были высказаны философские взгляды на то, как дизайн становится неотъемлемой повседневной потребностью людей и как этот процесс влияет на их этику. В нем рассматривается, в чем проблема общества и как философия дизайна влияет на развитие культурного сознания общества. Концепция дизайна в широком смысле направлена на то, чтобы показать людям, что она охватывает все аспекты мира, в котором они живут. Тот факт, что подъем культуры происходит в связи с непосредственным сравнением, объясняется осознанием того, что в основе эмоциональных желаний людей лежит философия дизайна. В нем подчеркивается, что влияние ведущих специалистов и отдельных лиц на прогресс может привести к резкому росту ситуации, воспитание таких личностей имеет первостепенное значение.

Ключевые слова: дизайн, этика-эстетика, параметрическая, ЭКО, анимационная, архитектурная, ландшафтная.

ABSTRACT

This article will talk about the impact and philosophy of design on human education. It has been suggested that design is a philosophical view of the progress of human transformation into a daily inherent need, and that this process affects them in ethics-aesthetics. In this case, it was thought about what is the problem of society and how design philosophy affects the development of the cultural consciousness of society. The concept of design in a broad sense is aimed at revealing the inclusion of people in all aspects of the world in which they live. It was he who explained the realization that the rise of culture goes directly in connection with imitation, that at the heart of human emotional desirability there is a philosophy of design. It is noted that the influence of leading specialists and individuals on this development can lead to a sharp increase in the situation, the upbringing of such individuals is important mihim.

Key words: *design, ethics-aesthetics, parametric, ECO, animation, architectural, landscape.*

KIRISH

Dizayn madaniyat hodisasi sifatida doimiy o'zgarishlarga duchor bo'ladi, u beqaror, tugallanmagan va asosan aniq ta'rifga yo'l qo'ymaydi. Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bilan, o'zgarishlar bilan, ijtimoiy-madaniy hayotning yangi qiyofasini modellashtirish, dizayn tushunchasini kengaytirish, chuqurlashtirish, o'zgartirish mavjud. Dizayn madaniyat fenomeni sifatida bog'liq vaqtdan boshlab, u faoliyat yuritadigan davrdan mavjud. Vaqt talablari, jamiyat ehtiyojlari dizayn oldida turgan ilg'or vazifalarni aniqlagan. (1)

Dizayn so'zi haytimizni deyarli har kunida ishlatiladiga iboralardan biriga aylandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil rivojlanish davrida barcha sohalarda etik-estetik yangilanish talab etiloqda bunga sabab xalqimizning kundalik yashash tarzida komfort va yuqori sifatga e'tibor o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Demak dizayn bu ijtimoiy o'zgarishlarni tashuvchisi hisoblanadi. Insonlarning hayotidagi o'zgarishlarni moddiy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarida ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon insonlarning ongiga ta'sir ko'rsatishdan tashqari, ularni tarbiyaviy tomonlarini ham yuksaltiradi. Tarbiyaviy ahamiyatiga ta'siri shundaki har bir shaxs tabiatan o'ziga eng yaxshi bo'lgan, hamma narsani xohlaydi. Hamma narsa uning jamiyatda yaxshi yashi uchun deb tushuniladi. Bu xohish istakdan kelib chiqib, dizayn so'zi yoqimli va doimiy iste'molda bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtaiy nazar bilan dizayn falsafasi tushunchasini anglash va uni tarbiyaviy tomonlariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish dizaynida, mahsulotlarni qadoqlash konstruksiyasini misol sifatida tahlil natijasi,

mahsulot iste'moli uchun har qanday makon uchun mo'ljallanga bo'lishi va uning o'zida iste'mol uchun qo'shimch sharoitlarning bo'lishi qulayligidir. Bunda konstruktor dizaynerning ijodiy yondoshuvi ahamiyatli hisoblanadi. Bu kabi misollarni har sohadan keltirish mumkin.

Dizayn murakkab ko'p o'lchovli ochiq doimiy modifikatsiyaga intilayotgan tizim. Shu munosabat bilan vazifa katta ahamiyatga ega zamonaviy dizaynning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, uning asoslari, shuningdek dizaynerning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar. Dizayn-bu murakkab hodisa ko'p qirrali ham, turli tadqiqotchilar ham murojaat qilishadi ushbu hodisaning turli jihatlariga. Dizaynning asosiy tushunchalari, uning boshqa dizayn va badiiy turlari orasida shakllanishi va rivojlanishi ko'rishimiz mumkin. (2)

Asosiy qism. ³⁵ **Dizayn** (inglizcha: design) — maqsadi, muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirishdir. Yangicha faoliyat turlarini ifodalovchi termin. Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste'mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va boshqalar kiradi. Dizayn 20-asr boshlarida yuzaga kelib, 1930-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G'arbiy Yevropa va AQShda shakllandi. 1980-yil 2-yarmidan boshlab dizaynning faoliyat rivojlandi. Barcha sohadagi ijodkorlarga dizaynerlar deb qaray boshlandi. Ta'lim maskanlarda dizayn yo'nalishlarda o'qitila boshlandi. Dizayn falsafasi va uning ahamiyati tushuntirildi. Bu jarayon mamlakat va uning xalqini ijtimoiy madaniy rivojlanishiga olib keldi. Dizayn tafakkuri bu innovatsia bilan ham intgallashib ulgurdi. Ko'nikmalar hosil qilib, masala va muammolarni ijodiy yondoshuv asosida hal qildi. Jamiyatning

- | | | |
|------------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|
| ➤ <u>Animatsion dizayni</u> | ➤ <u>Interyer dizayni</u> | ➤ <u>Poligrafiya dizayni</u> |
| ➤ <u>Arxitektura dizayni</u> | ➤ <u>Libos dizayni</u> | ➤ <u>Ishlab chiqarish dizayni</u> |
| ➤ <u>WEB dizayn</u> | ➤ <u>Anjumanlar dizayni</u> | ➤ <u>Yoritish dizayni</u> |
| ➤ <u>Geym dizayn</u> | ➤ <u>Ovoz dizayni</u> | ➤ <u>Transport dizayni</u> |
| ➤ <u>Grafik dizayn</u> | ➤ <u>Axborot dizayn</u> | ➤ <u>Futuro dizayn</u> |
| ➤ <u>Shaharsozlik dizayn</u> | ➤ <u>Kitob dizayn</u> | ➤ <u>Eko dizayn</u> |
| ➤ <u>Landshaft dizayni</u> | ➤ <u>Parametrik dizayn</u> | |

Hozirda har bir jarayonga xos yondoshuv tushunchasi shakllanmoqda. Bu jarayon insonlarni oilada yashash tarzini o'zgartira boshladi. Deyarli har bir sohada dizayn iborasi ishlatiladi. Har bir sohada ayrim qoida va normalar vaqt o'tishi bilan o'zgartirishga olib keladi. Buni tasviriy san'at yo'nalishining biridan misol siaftida keltirishimiz mumkin. Masalan XIX asrda shdevr deb qabul qilingan asarlar XXI

³⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dizayn>

asrga kelib insoniyat ongini rivojlanishi natijasida bir o'z ta'sirchanligini yo'qotganday tuyiladi. Tahlillar natijasiga ko'ra taraqqiyotning inson ongiga ta'siri ayrim yo'nalaishlarning doimiy istak xohishni so'ndirishi mumkin ekan. Insonlar ongiga yangi bir yo'nalish bilan ta'sir o'tkazib estetik tarbiyalash mumkin bo'ladi. Bunda albatta dizaynning o'rne ahamiyatli hisoblanadi. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan dizayn sohalarning barchasida ishtirok etadi. Dizaynning ishtirokisiz odatiy yondoshuvlar omma e'tiborni o'ziga qaratishga erisha olmaydi. Bunday holat esa soha auditoriyasi va qamrovini kichiklashtiradi. Taraqqiyotning sog'lom raqobat muhitida kurashuvchanlik motivini tushurib yuboradi. Natijada turdosh soha motivatsiyasi yangicha yondoshuv (dizayn) bilan o'zib ketadi. Yangilikning tadbiiq etilishi bu yangi dizayn kashf etilishi bilan bo'ladi. Hozirda yoshlar ongini rivojlantirishda yangicha yo'llar va metodlar bilan motivatorlar yo'l ochildi. Motivatorlar o'ziga xos so'zamonlik bilan biznes va yo'nalishlarga yetaklamoqda. Samarali natijalarga erishmoqda. Vaziyatning e'tiborli jihati, fikran yoshlar bir yo'ldan ikkinchi yo'lga o'tib o'z perspektiv maqsadlarini qat'iy belgilashni o'rganmoqda. Bu yutuqlarni zamirida o'ziga xos yondoshuv dizayn tushunchasi yotadi. Tanlovning ko'pligi bu iste'molchining didini o'stiradi. Iste'molchi yoki foydalanuvchi o'ziga mos tanlovni qabul qiladi. Davlat ta'limidan tashqari, xususiy talim maskanlarining joriy etilishi ta'limda raqobat va sifatli kadrlarni saralashi asosiy maqsad bo'lsa, ta'lim maskanlarining tartibi va tarkibi, dizayni uning yutug'i hisoblanadi. Fanlarda qabul qilingan normalar o'zgarib, lekin fanlarni o'qitishdagi metodlar o'ziga xos dizaynda bo'lishi o'zgaruvchan bo'lishi talab etilmoqda. Ta'limdagi misollarni ko'rib chiqishdan tashqari, boshqa barcha sohalarda ham bunday o'zgarishlar kuzatilyabdi. Sifat, tezlik, mukammallik va ijobiy natija yo'nalishlarning asosiy shiori bo'lmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

2008 yilgi Garvard Business Review jurnalining IDEO dizayn kompaniyasi rahbari va prezidenti Tim Braunning "Dizayn tafakkuri" nomli maqolasidan so'ng dizaynerlik jamiyatidan tashqarida o'z kuchini topa boshladi.

Yuqori darajada, dizaynni o'ylash jarayonida ishtirok etadigan qadamlar oddiy: birinchidan, muammoni to'liq anglash; ikkinchidan, mumkin bo'lgan echimlarning keng doirasini o'rganish; uchinchidan, prototip yaratish va sinovdan o'tkazish orqali keng takrorlash; va nihoyat, odatiy joylashtirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Dizaynning jadal rivojlanishi postmodernizm davriga to'g'ri keladi, bu iste'mol tovarlarini fetishizatsiya qilish, estetik eklektizm bilan tavsiflanadi va sinkretizm, intertekstuallik, video aloqalarning ustunligi insonni haqiqiylikdan uzoqlashtiradi va

boshqa o'ziga xos xususiyatlar postindustrial jamiyat. Ob'ektlar nuqtai nazardan ishlab chiqilmagan vazifalar va tuzilmalar, birinchi navbatda-badiiy tasvir va jozibadorlik. Dizaynda antropomorfik metafora keng qo'llaniladi, zoomorfik, o'simlik tasvirlari, bu yangi ma'no, ramziylikni beradi. (3)

³⁶Betakror va ma'noli so'zlar insoniyatning avvalidan mavjud. Ma'noli so'zlar aytilmagan birorta mavzu qolmagan aslida. Albatta, interyer va dizayn haqida ajoyib so'zlar, iqtiboslar, aforizmlar va fikrlar aytilgan. Bunday fikrlarning ma'lum qismini dizaynerlar tomonidan aytilgan, boshqa qismi dizayn bilan bevosita aloqasi bo'lmagan shaxslar tomonidan aytilgan. Aforizmlarda chuqur ma'no insonlarning maishiy hayotidagi yashash tarsi qisqa so'lar bilan yoritilgan. E'tibor bilan qaralganda ijodkorlar bilan birga jamiyatni madaniy ongini rivojlanganini ko'rish mumkin. (Milton Gleyzer).

Biz "Dunyoda tabiatdan yxshiroq dizayner yo'q" degan fikridan eko dizayn va landshaft dizayniga bo'lgan e'tiborini ko'rishimiz mumkin. (Li Aleksandr Makkuin)

"Dizaynning vazifasi insonlar va jihozlar ustida hukuron bo'lmasligi kerak, dizayn odamlarga qulaylik hosil qilishi kerak. Dizayn odamlarga yordam berishi kerak". Bu insonlarning o'z yasha prinsplariga behuda xarajatlarga yo'l qo'ymasligiga undaydiga fikrdir. (Diter Rams).

Dizayn madaniyatni yaratadi. Madaniyat qadriyatlarini shakllantiradi. Qadriyatlar kelajakni belgilaydi (Robert L. Peters-yozuvchi).

Dizayn bu narsaning ko'rinishi emas. Bu uning qanday ishlashi, uning asosiy mohiyati (Stiv Jobs, tadbirkor va ixtirochi).

Enga yaxsh dizaynerlar bu g'oyalar diktatoridir. (Karl Lagerfeld)

Dizayner mukammallikka qo'shadigan hech narsasi bo'lmaganda emas, balki olib tashlash uchun hech narsa bo'lmaganda erishganini tushunadi (Antuan de Sent-Ekzyuperi).

Yuqoridagi aforizmlarni tahlil qiladigan bo'lsak bunda yuqori did va nafosat mavjudligini ko'ishimiz mumkin. Bu ong va hissiy fikrlarga madaniyatning shakllanishini topasiz. Bu fikrlar egalarini hayotida jamiyatga o'zlarini yuqori did bilan ta'sir ko'rsatib jamiyatning estetik tabiatini o'zgartirishdi.

XULOSA

Etika va estetika inson ongini, madaniy fikrlashini, dunyo qarashini va jamiyatga munosabatini o'sishini jamiyatdagi yetakchi shaxslar tomonidan o'zgartiradi. Dizayn iborasi, har qanday yo'nalishda o'z aksini topadi. Natijada tarqqiyot evolyutsiyasi dizayn bilan bog'liqligiga guvoh bo'lamiz. Bu evolyutsa tarqqiyotning etik-estetik rivojlanishini ta'minlaydi. Bu jarayon jamiyat ongining

³⁶ <https://journal.homemania.ru/article/velikie-izreenija-ob-interere-i-dizajne>

nafosati, tabiatga, jamiyatga va atrof muhitni ham ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Maishiy texnologiyalar olamidaga aqlli bekatlarning jamiyatga qulayligi, bekatlar orasidaga masofa, vaqt aniqligi, tashuvchi transport vositasini harakat grafigini ko'rsatib turishi va insonlar uchun kerak sharoitning yaratilganligi inson ongini tarbiyalaydi. O'tmishdan taraqqiyotni renesans davrlarga e'tibor bersak, shu davrlarning rivojlanish chuqqisi sifatida etalon deb qabul qilingan shaxslar o'zlari ibrat namuna bo'lishi bilan birga soha rivojlanishiga qat'iy tartib yondoshuv asosida yutuqlarga erishgan. Shu bilan sohalarda yuksalish kuzatilgan. Bu natijalar madaniy ongni ham o'z yo'liga yetaklagan. Sohalardagi yuksalishlarni dizayn nuqtaiy nazari bilan qarasaq insoniyat nafosat ongiga ta'sir ko'rsatib shakllantirgan.

Jurnalistikada dizayn, yoritilayotgan voqeelikni o'zga xos tarzda yondoshuvi, so'zlardan foydalanish mahorati va translyatsiya sifati soha egalari auditoriyasi ko'lamini kengayishini ta'minlaydi. Sohadagi odatiy boshqaruv esa aksincha natija ko'satishi mumkin. Salohiyat, dizayn bilan boyitilib olib borilsa faoliyat rivojlanadi.

Yuqoridagi jadval ro'yxatida keltirilgan barcha sohalarda Bu kabi misollarni ko'rishimiz mumkin. Buni bir qarashda taraqqiyot deb ham atash mumkin, lekin barchasida o'ziga xos yondoshuv borligi bu dizayn bilan bog'liq. Demak xulosa o'rnida rivojlanish, taraqqiyot jamiyatning domiy istagi bo'lganligi va shu bilan birga madaniy ongning rivojlanishi ekanligini tushunishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. *МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ОСНОВАНИЯ ДИЗАЙНА*. М.Н., Долгих. № 377, Томск : Вестник Томского государственного университета, 2013.
2. **Михайлов С.М., Кулеева Л.М.** *Основы дизайна*. Казань : s.n., 1999.
3. **Е.В., Жердев.** *Метафора в дизайне*. s.l. : Архитектура-С, 2010. 462 с, 2010.
4. Qurbonova, B. M. (2022). ME'MORIY OBIDALARNING BADIY, ESTETIK QIYMATIDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 106-109.
5. Qurbonova, B. M. (2022). DUNYO MADANIY TARAQQIYOTIDA SHARQ KITOVATCHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS HAMDA BEQIYOS O'RNII. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 239-242.
6. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
7. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY

ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.

8. Yuldashev, I. (2022). URF-ODAT VA MAROSIMLAR MILLIY LIBOSLARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 78-83.

9. Yuldashev, I. (2022). BORLIQNI IDROK ETISH VA TASVIRLASHGA DOIR DASTLABKI MA'LUMOTLAR HAMDA ULARNI XARAKTERLI JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 9-15.

10. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.

11. Yuldashev, I. (2022). QADIMGI AN'ANALAR DAVOMIYLIGI USUL VA USLUBLARINI TURLI YO'NALISHLARDA TASVIRLASHDA KITOBAT HAMDA MINIATYURA SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 209-216.

12. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.

13. Madaminov, N. M., Yunusaliyev, M. T., & Mamurov, A. A. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA RANGLAR GARMONIYASI (ЦВЕТОТЕРАПИЯ) ORQALI INSONLARNI DAVOLASHNING O'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1265-1272.

14. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.

15. Mampirjonovich, M. N., Jumadillayevich, S. R., & Anvarovich, M. A. (2021). The Role Of Historical Monuments In The Development Of Central Asian Architecture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 1-5.

16. Yunusaliyev, M. T. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.

17. Yunusaliyev, M. T. (2022). RANGTASVIRDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 174-182.

18. Nazokat, A. (2021). Means of Ensuring the Integrity of the Image and Writing in the Performance of Visual Advertising.
19. Ахмедова, Н. Э. (2022). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 204-208.
20. Ахмедова, Н. Э. (2022). МЎЪЖАЗ САНЪАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
21. Ахмедова, Н. Э. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ БЕЗАК ТУРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАСИДА ЁШЛАРНИ АҚЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ САЛОХИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛИШ ОМИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 41-45.
22. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., Murodjon, K., & Makhpuzakhon, A. (2021). Drawing Tools And Design Elements In Geometric Drawing. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
23. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., & Murodjon, K. (2021). A BRIEF HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND TEACHING OF DRAWING SCIENCE IN UZBEKISTAN.

IQTIDORLI YOSHLARNI ANIQLASH VA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Karimova Mukaddas Otajonovna

Fargona davlat universiteti dotsenti

Email: mo.karimova@pf.fdu.uz tel.90 833 71 79

Todjimamatova Mashxura Erkinovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi.

Email: yahyobek02102017@gmail.com tel 97 197 62 23

To'ychiyeva Ra'noxon Nodirjon qizi,

Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iqtidorli yoshlarni aniqlash, bolaning o'ziga xos faoliyati, individual iste'dodni shakllantirish, iqtidor turlari, maxsus iste'dod, qobiliyat, potentsial iqtidor, aniq iqtidor, yashirin iste'dod, tarbiya, intellektual imkoniyatlar, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *o'quvchi, iqtidor, qobiliyat, iste'dod, tarbiya, ta'lim.*

ABSTRACT

This article describes the identification of talented young people, the specific activities of the child, the formation of individual talent, types of talent, special talent, abilities, potential talent, specific talent, hidden talent, upbringing, intellectual opportunities, education and development of gifted students.

Keywords: *student, talent, ability, talent, upbringing, education.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается выявление одаренной молодежи, уникальная активность ребенка, формирование индивидуальной одаренности, виды одаренности, особая одаренность, способности, потенциальная одаренность, явная одаренность, скрытая одаренность, воспитание, интеллектуальные возможности, обучение одаренных учащихся и развитие. описано.

Ключевые слова: *ученик, талант, способность, талант, воспитание, образование*

KIRISH

Pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishi sifatida iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va

rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4306-son qarori misol bo'la oladi.

Jumladan, "Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud" [1].

Bugungi kunda ko'plab pedagog – psixologlar iqtidorni rivojlantirish darajasi, sifatli o'ziga xosligi va tabiati har doim irsiyat (tabiiy mayllar) va bolaning faoliyati vositasida bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitning (o'yin, ta'lim, ish) murakkab o'zaro ta'siri natijasidir – deb fikr bildiradilar. Bunday holda, bolaning o'ziga xos faoliyati, shuningdek, individual iste'dodni shakllantirish va amalga oshirish asosida shaxsning o'zini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish alohida ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bilan so'nggi yillarda pedagog olimlar izchil shug'ullanib kelmoqdalar. Xususan, pedagoglarni iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga tayyorlash masalalari respublika olimlaridan N.Azizxodjaeva, M.Abdullajonova, N.Alimov, R.Djuraev, J.Yo'ldoshev, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, N.Erkaboeva, F.Yuzlikaev, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, G.Ibragimovalarning islarida yoritilgan, ularda oliy ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muammolari tadqiq etilgan. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirish masalasi F.Isaev, R.Safarova, B.Xodjaev, N.Shiyanov, N.Egamberdieva, M.Quronov kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

"Iqtidor" arabcha "qodir bo'lmoq", "qila olmoq", shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha [12] shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o'quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy

salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlashdan iboratdir.

Psixologik lug'atlarda "iqtidor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi:

1) iqtidor bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o'ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potentsial, ta'lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual tavsifi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, ularning tabiiy asoslarini o'ziga xosligi va namoyon bo'lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste'dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi [11.247].

NATIJARAR.

Ushbu tavsiflardan kelib chiqqan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in'om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta'lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Iqtidorli bola – bu u yoki bu faoliyat turida yorqin, ravshan, ba'zan ajoyib yutuqlar bilan ajralib turadigan (yoki bunday yutuqlarning ichki shart– sharoitlariga ega) bola.

Iqtidor turlarini ajratish mezonlari orasida quyidagilar mavjud:

1) Iqtidorli bolalarning faoliyat turlari va uni ta'minlovchi psixika sohalari

) Iqtidorning shakllanish darajasi

3) Iqtidorning namoyon bo'lish shakli

4) Turli faoliyatdagi namoyonlarning kengligi

5) Yosh rivojlanish xususiyatlari

Iqtidor turlari:

Amalda (hunarmandchilik, sport va tashkilotchilikda iqtidorli).

Nazariy faoliyatda (faoliyatning mavzu mazmuniga qarab har xil turdagi intellektual iste'dod).

Badiiy va estetik faoliyatda (xoreografik, adabiy-poetik, vizual va musiqiy).

Kommunikativ faoliyatda (boshqa odamlarni tushunish, ular bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatish, etakchilik qilish qobiliyati bilan ajralib turadigan etakchilik qobiliyati).

Ma'naviy qadriyatlar faoliyatida (yangi ma'naviy qadriyatlarni yaratishda va odamlarga xizmat qilishda namoyon bo'ladigan iqtidor).

Haqiqiy qobiliyat (yosh va ijtimoiy me'yorlarga nisbatan ma'lum bir fan sohasida yuqori darajadagi ishlashda namoyon bo'ladigan aqliy rivojlanishning bunday mavjud ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bolaning psixologik xususiyati).

Potentsial iqtidor (faoliyatning u yoki bu turida yuqori yutuqlarga erishish uchun faqat ma'lum aqliy qobiliyatlarga (potentsial) ega bo'lgan, lekin o'z potentsialini amalga oshira olmaydigan bolaning psixologik xususiyati. bu daqiqa ularning funksional etishmovchiligi tufayli vaqt). Potentsial iqtidor ishlatiladigan diagnostika usullarining yuqori prognozli qiymatini talab qiladi va qulay sharoitlarda o'zini namoyon qiladi [9].

Aniq iqtidor (bolaning faoliyatida, shu jumladan noqulay sharoitlarda ham juda aniq va aniq namoyon bo'ladi; bolaning yutuqlari aniq).

Yashirin iste'dod (niqoblangan shaklda paydo bo'ladi). Bolaning yashirin qobiliyatligining sabablari kattalar tomonidan uning tarbiyasi va rivojlanishidagi xatolarida, uning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarida, madaniy muhitning o'ziga xos xususiyatlarida (xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishda) yotadi.

Ushbu turdagi iqtidorli bolalarni aniqlash bolaning xatti-harakatini tahlil qilish, shu jumladan uni turli xil real faoliyat turlariga kiritish, uning iqtidorli kattalar bilan muloqotini tashkil etish va uning individual yashash muhitini boyitish usullaridan foydalangan xolda uzoq davom etadigan jarayondir [5].

MUHOKAMA.

Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki biron-bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi. Umumiy (aqliy) qobiliyat (har xil faoliyat turlariga nisbatan namoyon bo'ladi va ularning mahsuldorligining asosi bo'lib xizmat qiladi). Aqliy faoliyat va o'zini o'zi boshqarish uning asosiy shartidir. Umumiy iste'dod nima bo'layotganini tushunish darajasini, faoliyatga motivatsion va xissiy jalb qilish chuqurligini, uning maqsadga muvofiqlik darajasini belgilaydi.

Maxsus iste'dod (aniq faoliyatda namoyon bo'ladi va ma'lum sohalarga (she'r, musiqa, rasm, matematika, sport, etakchilik va ijtimoiy o'zaro ta'sir sohasidagi iste'dod - ijtimoiy iste'dod va boshqalar) nisbatan belgilanadi).

Maxsus qobiliyat egalari - biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob axtarishligi;

- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, kompyuter va kompyuter o'yinlariga, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;
- zamonaviy kompyuter texnologiyasida maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi [8].

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog'liq. Erta yosh davrlar -maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko'rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu -umumiy qobiliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ma'lum bir yo'nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo'layotganligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Aniq namoyon bo'lgan, ya'ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e'tibor berilgan qobiliyat -aktual, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat –potentsial qobiliyat deyiladi [10.34].

Ko'pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A. Motsart, F. Galton, I. Mechnikov, K. Gauss, N. Vinner, G. Leybnits, V. Gyugo) erta yoshda e'q o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko'p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo'lmagan bolalar yetuklik davrda muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

Bu aqliy potentsialga ko'pincha atrofdagilar e'tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda iqtidorni payqamaslikning sabablari turlidir. Potentsial qobiliyat haqiqatdan ham ma'lum bir vaqtgacha namoyon bo'lmagandir. Balki, ota-onalar pedagoglar va kattalar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o'zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagandir, intuitiv holda buni payqamagandirlar yoki bilimlari yetmagandir.

Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potentsial imkoniyatlarni sezmagandir, va xattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq deb hisoblaganlar, ya'ni, hammamizga shaxsiy tajribamizdan ma'lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom - sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo'yadigan ota-onalar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari, rahbarlar uchraydi.

Erta iqtidor . Erta iqtidorga misol "geeks" (ajoyib bola) - bular, qoida tariqasida, maktabgacha yoki boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar, har qanday faoliyat turida - musiqa, rasm chizish, matematika, she'riyat, raqs, qo'shiq aytish va hokazolarda

ajoyib muvaffaqiyatga erishadilar. Bunday bolalar orasida alohida o'rinni intellektual geeks egallaydi. Ular erta (2-3 yoshdan) o'qish, yozish va hisoblashni o'zlashtirish bilan tavsiflanadi; kognitiv qobiliyatlarning yuqori rivojlanishi (yorqin xotira, mavhum fikrlashning yuqori darajasi va boshqalar); birinchi sinfnig oxirigacha uch yillik o'quv dasturini o'zlashtirish; o'z ixtiyori bilan murakkab faoliyatni tanlash (masalan: besh yoshli bola o'z tarixi entsiklopediyasini tuzadi va hokazo).

Kech iqtidor . Iqtidorning keyingi yosh bosqichlarida ma'lum bir faoliyat turida namoyon bo'lishi.

Yosh, iqtidorning namoyon bo'lishi va faoliyat sohasi o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Dastlabki iste'dod san'at sohasida, ayniqsa musiqada, biroz keyinroq - tasviriy san'at sohasida, keyinroq - fanda (ajoyib kashfiyotlar, yangi yo'nalishlar va tadqiqot usullarini yaratish shaklida) namoyon bo'ladi. bilimlarni egallash zarurati bilan bog'liq bo'lib, ularsiz buning iloji yo'q ilmiy kashfiyotlar.

Matematik iste'dod boshqalarga qaraganda ertaroq namoyon bo'ladi [33.55].

Bolalar iqtidorining belgilari:

Qobiliyatlarni rivojlantirishning yuqori darajasi;

Yuqori darajadagi o'rganish;

Ijodiy ko'rinishlar (ijodkorlik); motivatsiya.

Iqtidorli bolalar uchun o'quv dasturlari odatdagidan yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini rivojlantirish, psixologik va shaxsiy rivojlanish, ijodiy qobiliyatlarni yaxshilash va, albatta, bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni yuqori darajada o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Iqtidorli bola - bu munosabatlarning uyg'un kombinatsiyasi: kommunikativ, intellektual, axborot, xissiy va shaxsiy sifalarga ega. Bola munosabatlarining har qanday sohasiga e'tibor bermaslik uning rivojlanishining uyg'unligiga ta'sir qiladi. Yuqori intellekt yoki akademik qobiliyat, amaliyot va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nafaqat balog'at yoshida, balki maktabda o'qish jarayonida ham muvaffaqiyatga kafolat bermaydi. Shuning uchun didaktik konstruktsiyalar iqtidorli bolaning shaxsiyatining birligi va murakkabligini tushunishdan kelib chiqishi juda muhimdir. Shu sababli, iqtidorli bolalar uchun ta'lim jarayoni maxsus ta'lim muhitini yaratishni talab qiladi.

1) iqtidorli bolalarning tabiiy moyilliklarini ochish va rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak (atrof-muhit ham mazmunan, ham faoliyat usullarida iloji boricha xilma-xil bo'lishi kerak);

2) iqtidorning situatsion turi bo'lgan bolalarga ijodiy harakat holatini boshdan kechirish imkonini beradigan vositaga aylanishi kerak (atrof-muhit ijodiy holatga

kirishga yordam beradigan vaziyatlar bilan to'yingan bo'lishi kerak, ijro paytida ijobiy hissiy mustahkamlash majburiydir. vazifa);

3) tanlangan faoliyatga bo'lgan ehtiyojni qondirish vositasi, shaxsiy o'zini o'zi tasdiqlash vositasi, shaxsiy iqtidorli bolalar uchun umuminsoniy qadriyatlarni joriy qilish vositasi bo'lishi kerak (atrof-muhit imkon qadar boy bo'lishi kerak). mavzu mazmuni va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi axloqiy-axloqiy g'oyalar nuqtai nazaridan).

XULOSA.

Ushbu rivojlanayotgan muhit o'quv jarayonining markaziy qismi sifatida turli xil ta'lim e'tiqodlarini, ularning elementlarini, o'quv materialini va ta'lim jarayonining sub'ektlarini birlashtiradi. Eng qiyini - o'qituvchi va iqtidorli bolaning sub'ektivligini uyg'un shakllantirish, chunki talaba avtomatik ravishda ta'lim faoliyati sub'ektiga aylana olmaydi [2.56].

Bu borada Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o'rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta'limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potentsial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan bashorat qilish muammosini muhim deb hisoblaydi. Shaxsning qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe'l - atvoridagi va faoliyatidagi fazilatlarini kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom yoki davlat arbobi bo'lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib uzluksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridanoq o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash va ta'lim mazmunini shu asosda tashkil etish maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning rivojlanishini ta'minlovchi, intellekt va bilimlarni ro'yobga chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4306-son qarori Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2019 й., 07/19/4306/3078-сон; 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон)
2. Kozyreva N.A. IQTISODIY BOLALARNI PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH // Zamonaviy tabiatshunoslik yutuqlari. - 2004. - No 5. - B. 55-58

3. Каримова, М., & Тойчиева, Р. (2022). Bolalarni oilada tarbiyalash haqida o'rta osiyo mutafakkirlarining falsafiy-etik, ijtimoiy-pedagogik qarashlari. *Общество и инновации*, 3(5), 139-145.
4. Каримова, М., & Шарипова, Д. (2023). 'Iajak mutaxassislarni innovatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyotini takomillashtirishning pedagogik asoslari. *Общество и инновации*, 4(3), 55-62.
5. Karimova M. O., PEDAGOGICAL BASES OF TRAINING OF FUTURE TEACHERS, "O'zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rn i" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 yil, 12 may.
6. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
7. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 311-317
8. Методические рекомендации по организации работы специалистов сферы общего образования по выявлению и сопровождению детей, проявивших выдающиеся способности. Авторы-составители: Яковлева Н.И., Иванова Т.С. и др. МОН РФ ГОУ ВПО Московский государственный областной университет. 2017 г.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – С.-Пб.: Питер, 2003.-713 с.
10. Раҳматова Ф.Ф. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлашнинг назарий-технологик жиҳатлари. Услубий қўлланма. Самарқанд-2019. – .46 б.
11. Психология: Словарь/ Под общ. ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. – М., 1990. – С. 247.
12. Ўзбек тилининг изохли луғати. 2-жилд. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. -264-б.
13. Ма'муров, А. А. (2022). TARBIYA JARAYONIDA AMALIY SAN'ATDAGI USTOZ VA SHOGIRD ODOBI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 138-142
14. Sulaymonova, S. B. Q. (2021). TASVIRIY SAN'AT ORQALI DUNYO SIVILIZATSIYASINI O'RGANISH OMILLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 730-735.
15. Мадаминов, Н. М. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИДАН

- КЕНГ ФОЙДАЛАНИШ ЕЧИМЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 46-50.
16. Yunusaliyev, M. T. (2022). RANGTASVIRDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 174-182.
17. Qurbonova, B. M. (2022). ME'MORIY OBIDALARNING BADIY, ESTETIK QIYMATIDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 106-109.
18. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САЊАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
19. Yuldashev, I. (2022). URF-ODAT VA MAROSIMLAR MILLIY LIBOSLARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 78-83.
20. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.
21. Yuldashev, I. (2022). QADIMGI AN'ANALAR DAVOMIYLIGI USUL VA USLUBLARINI TURLI YO'NALISHLARDA TASVIRLASHDA KITOBAT HAMDA MINIATYURA SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 209-216.
22. Ахмедова, Н. Э. (2022). МУЪЖАЗ САЊАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
23. Ахмедова, Н. Э. (2022). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ САЊАТИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 204-208.
24. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОРТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.
25. Мадаминов, Н. М. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАСВИРИЙ САЊАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КОМПЬЮТЕР ГРАФИКАСИДАН КЕНГ ФОЙДАЛАНИШ ЕЧИМЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 46-50.

PEDAGOGNING KASBIY KOMPOTENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIC ASOSLARI

Mamurov Abdusalom Anvarovich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Abdusalommurov@gmail.com

tel.90 632 61 28

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kompetentlik tushunchasi, kasbiy kompetentlik sifatлари, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik, kompetentlik turlari, jmillari, motivlari bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, kompetentlik, bilim, ko'nikma, malaka, motivlashtirish.*

ABSTRACT

This article describes the concept of competence, professional competence qualities, social competence, special competence, personal competence, technological competence, extreme competence, types of competence, jmill, motives.

***Keywords:** educational process, competence, knowledge, skills, skills, motivation.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье излагается понятие компетентности, профессиональные компетентностные качества, социальная компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, технологическая компетентность, экстремальная компетентность, виды компетентности, jmill, мотивы.

***Ключевые слова:** образовательный процесс, компетентность, знания, умения, навыки, мотивация.*

KIRISH

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan

foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli qarorida belgilangan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Ta‘limdagi islohatlar oliy ta‘lim sohasidagi davlat siyosati printsiplari asosida amalga oshiriladi. Oliy maktabda ta‘lim jarayoni bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish vazifasini amalga oshirishga qaratilgan o‘z mazmuni bilan ifoda etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy kompetentlik – ko‘p qirrali va ko‘p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo‘luvchi o‘zgarishlarga mos ravishda o‘zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko‘riladi. O‘qituvchining “kasbiy kompetentligi” tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko‘rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o‘rganilmoqda. Ye.V. Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, “ta‘limda hunarmandni” emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan “pedagogik madaniyat” tushunchasi bilan bog‘laydi.

Tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida kompetentsiyaning turli ta‘lim yo‘nalishlarida turli jihatdan tahlil qilishgan. N.A. Muslimov bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlagan [3.78]. Tayanch kompetentlikliklar – ta‘lim oluvchining ta‘lim jarayoni nihoyasida ega bo‘lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalaridir. Xulq-atvori va fikrlashi keng ma‘nodagi “kompetentlik” tushunchasiga kiritiladi. Ta‘lim jarayonining maqsadi ta‘lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag‘batlantirish hisoblanadi.

S.Ya. Batishev va B.S. Gershunskiy kasbiy kompetentlikni “savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat - mentalitet” umumiy bo‘g‘inidagi ta‘lim natijasi sifatida qaraydi. B.S. Gershunskiyning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, fanni o‘zlashtirish ko‘nikmalari va ularni faoliyatda amalga oshirish malakalarining shakllanganligining ma‘lum darajasi, sifat va natijaviy ko‘rsatkichini aks ettiradi. Uning yozishicha, kasbiy kompetentlik, asosiy ravishda kasbiy ta‘limining darajasi, insonning tajribasi va individual qobiliyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta‘limga va o‘z-o‘zini takomillashtirishga motivli intilishi, ishga ijodiy va mas‘uliyatli munosabati bilan aniqlanadi. U kasbiy kompetentlik funksional savodxonlikdan tashqari, fan mazmunidan ko‘ra shaxsning shakllantiriladigan sifatlari: mas‘uliyat, ijod, qiziquvchanlik, tirishqoqlik, yangi bilimlarni egallashga intilish, haqiqatni

estetik idrok etish, o'z ishining haqiqiy professionalini tasavvur etib bo'lmaydigan yuqori axloqiylikni ajratadi. Kasbiy kompetentlik o'z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tartibdagi jihatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

NATIJARLAR

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati quyidagicha yoritiladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

3. Shaxsiy kompetentlik -izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ekstremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik [4.85].

Pedagogning kasbiy kompetentligi–uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi me'yor. Kasbiy kompetentlik–mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Pedagogning kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Ta'lim strategiyasining

modernizatsiyasida kompetentlikni bilim, malaka va ko'nikmalarga qarama-qarshi qo'yish emas, balki amalda qo'llay bilish nazarda tutilgan:

MUHOKAMA

Kompetentlik tushunchasi bilim, ko'nikma va malaka tushunchalarining keng ma'noda qo'llanilishi bo'lib, o'z tarkibiga (aslida, gap kompetentlikni bilimlarning oddiy adaptiv yig'indisi sifatida emas – malaka – ko'nikma tushunchalarining ma'nosi bu bir qancha boshqa tushunchalarni anglatadi). Kompetentlik tushunchasi o'zida kognitiv va operatsional-texnologik tarkibiy qismigina emas, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulqiy qismlarini ham oladi. U ta'lim natijalarini (bilim va malaka), qadriyatli yo'nalganlik tizimi, odatlar va boshqalarni jamlaydi.

Kompetentliklarni ikki turga ajratish mumkin:

1) o'quv fani yoki ta'lim yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompetentliklar – ixtisoslikka oid maxsus kompetentliklar;

2) barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ham muhim hisoblanadigan kompetentliklar – umumiy kompetentliklar. Umumiy kompetentliklar ba'zan "transversal ko'nikmalar" deb ataluvchi, ya'ni, barcha yoki ko'pchilik fanlar yo'nalishlariga xos bo'lgan ko'nikmalarga o'xshab ketadi. Umumiy kompetentliklarning qanchalik muhimligi to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish maqsadida ularning eng muhimlarining ro'yxatini to'zib olish zarur, ularning ahamiyati va oliy ta'lim muassasalarida rivojlantirilayotgan kompetentliklarga mos kelish darajasi aniqlanishi kerak.

Kompetentlik turlarining umumiy tomonlari va farqlari aniqlanib, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha maxsus kompetentliklar ro'yxati shakllantirilishi kerak. Maxsus kompetentliklar guruhidan ularning qaysi birlari birinchi bosqichda, qaysisi ikkinchi bosqichda va qaysilari uchinchi bosqichda muhimligi, shuningdek, qaysi bosqichlari ularni rivojlantirish kerakligi aniqlanadi

Shuningdek, ta'lim mazmuni uch darajada:

- tayanch kompetentlik (o'quv rejasidagi barcha blok fanlari uchun);
- fanlararo kompetentlik (o'quv rejasidagi bir blok fanlari to'plami uchun);
- predmet doirasidagi kompetentlik (o'quv rejasidagi bir fan yuzasidan) shaklida

keltirilgan

Kompetentlik uch muhim omil bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

- boshqa odamlar bilan munosabatlar madaniyatini;
- o'z faoliyat sohasi haqida axborot olish ko'nikmasini;
- o'quv axborotini boshqalarga berish ko'nikmasini.

Shunday qilib, professional-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniy mo‘ljali;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- o‘z faoliyati sohasida mo‘ljali ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirganlik.

O‘qituvchidan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi:

– professor-o‘qituvchi tomonidan o‘z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo‘lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo‘lish;

– ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya, informasion texnologiyalari va o‘qitish vositalarining barcha turini qo‘llay olish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lish;

– anglangan va mustaqil faoliyat (mustaqil fikr, maqsad qo‘yish, o‘quv adabiyoti va qo‘shimcha manbalardan to‘g‘ri foydalana olish);

– tashabbuskorlikda o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish;

– tanqidiy fikr yurita olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish;

– hamkorlik, o‘zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o‘rnata olish;

– chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo‘lish.

Key words: *Jadid, phonetics, sound language, phonemes, Arabic orthography, memory of writing, history of the Uzbek language, historical phonetics, modern phonetics, artificial intelligence, modeling*

АННОТАЦИЯ

Изучение истории узбекской фонетики, изучение звуков речи и фонем языка изучаемого периода, анализ, выявление и предоставление необходимых

научных выводов относятся к числу проблемных вопросов, так как в период господства арабской орфографии невозможно в совершенстве определять произношение и количество звуков. По этой причине письменные памятники узбекского языка фонетически мало изучены. Такое положение затрудняет предоставление достаточных данных по фонетике учебников и пособий по истории узбекского языка. Это само по себе ограничивает возможность объективной оценки современной фонетики на основе выводов исторической фонетики и, в свою очередь, создает некоторые проблемы в рамках моделирования узбекского языка для искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Джадид, фонетика, звук речи, фонема, арабская орфография, памятник письменности, история узбекского языка, историческая фонетика, современная фонетика, искусственный интеллект, моделирование

КИРИШ

Илмий адабиётларда кўпинча ўзбек тилшунослиги ўтган асрнинг 40-йиллардан кейин шакллана бошлаган деган нотўғри талқин устувор бўлиб келди. Бунда ўзбек шўро тилшунослиги назарда тутилади, албатта. Аслида ўзбек адабий тилининг шаклланиш даври шу асрнинг 20-йилларидан бошлангани тилшунослар томонидан эътироф этилган [7; 6].

Жадидларнинг адабий тил, алифбо, имло бўйича олиб борган фаолиятини тўлиқ тадқиқ қилиш ўзбек тилшунослигининг кемтик бўлиб турган шу қисмини тўлдириши мумкин. Қолаверса, бошқа туркий тилларда мавжуд 8-9 та унли ўзбек тилида нима учун 6 та унлига тушиб қолгани, унлилар қисқаришига қандай омиллар таъсир қилгани каби саволларга жавоб олинад.

Ўзбек тили унлилари миқдорини белгилашда ўша даврда турли фикрлар мавжуд эди. Бундай фикрларнинг туғилишига ўзбек тилида туркий тиллардаги ҳар уч лаҳжа (қарлук, қипчоқ, ўғиз)нинг мавжудлиги ҳам сабаб бўлган, зотан, унда сингармонизм қатъий амал қилувчи шевалар ҳам, сингармонизм бузилган шевалар ҳам мавжуд эди. Бу ҳақда А.Алавий шундай ёзади: “Бунда энг аввал ҳал қилинмағи керак бўлган нарса – сайита (унли)ларнинг ададини таййин қилиш, бошқача айтганда, қайси шевани асас тутуш масаласидир, чунки бизнинг тилимизда бир қанча шевалар бардир. Ва булар савтий ва сарфий (фонитик ва морфулужий) жиҳатларда бир-бирларидан анчагина айриладурлар. Лекин бу шеваларни умумийатла иккига бўлмак мумкиндир: сингармўнизмли ва сингармўнизмсиз шевалар”[1].

Туркий тилларда, шу жумладан, ўзбек тилида унлилар миқдори товушлар оҳанги – сингармонизмга боғлиқ бўлганлиги хусусида юқорида айтиб ўтилди.

Бу даврда алифбо, имло масалалари билан жиддий шуғулланган Фитрат бошчилигидаги “Чиғатой гурунги” эди. Бу ташкилотга ўз даврининг таниқли маърифатпарварлари бўлган Шокиржон Раҳимий, Қаюм Рамазон, Шорасул Зунун, Чўлпон, Элбек, Боту, Саидахмад Назировлар аъзо бўлганлар. Айнан “Чиғатой гурунги” араб ёзувини ислоҳ қилиш, адабий тил меъёрларини шакллантириш бўйича жиддий ишларни амалга оширган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

1921 йилда Тошкентда биринчи ўлка ўзбек тили ва имлоси қурултойи бўлиб ўтади. Мазкур қурултойда 3 нафар асосий маърузачидан 2 нафари (Фитрат ҳамда Боту) мазкур гурунг вакиллари эди, қурултойнинг қарорлари ҳам улар томонидан ишлаб чиқилган эди. Фитрат ўз маърузасида амалда мавжуд бўлган муаммоларга тўхталади ва қуйидаги таклифларни билдиради:

“1) эски имломиз бузуқ, қайдасиз бўлгани учун маарипимизни бу имла ва йазу блан кенгайтмак мумкин эмас. Маарипни кенгайтмак ва савадсизликни битирмак учун имламизни ислаҳ этмак лазимдир;

2) алти чўзғи (унли – муаллиф.)ли имла қавул этилсин;

3) тилимиздаги йат сўзлар ҳам шул алти чўзғи блан йазилсин;

4) ҳар ҳарп ва ҳар чўзғининг ўзиға махсус шакл бўлсин;

5) уст чўзғиларини ўрунли йазмақ учун сўзларнинг қалинлиғи, ингичкалиғи(га) эътибар этилсин. Тилимиздаги арап сўзиға ҳам шул тўрт мадда қўлдан келганича йуритилсин;

б) ҳарпларнинг шакли икидан бирға тушиб, бутун сўзлар баш ҳарп билан йазилсин.

Тилимизға кириб қалған йат сўзлар туркча ҳарплар билан йазилсин” [4, 15]. Бу таклифнинг 2-моддасиға Ашурали Зоҳирий эътироз билдириб, унли товушлар сонини 5 та бўлсин деган таклиф киритади [4, 15]. Энди савол туғилади: Фитрат нега олти унли тавсия қилган, бошқа туркий тиллар каби тўққизта эмас ва қалинлик-ингичкалик (сингармонизмни)ни эътироф этяпти. Шу саволға жавоб топишға ҳаракат қиламиз.

Маълумки, бу даврда миллий тилшунослик ҳали фан сифатида шаклланмаган, ўзбек жадиличлик ҳаракати Туркия ва Татаристонда пайдо бўлган жадиличликнинг бевосита таъсирида шаклланган, тилшунослик бўйича илмий қарашларда айнан уларнинг роли кучли бўлган. Бу ҳақда Ш.Бобомуродова шундай ёзади: “1895-1915 йилларда Татаристонда ҳарфларни ислоҳ қилиш борасида ҳаракатлар авж олган бир пайтда татар тилшунослари орасида унлиларни белгилашда турли қарашлар мавжуд бўлиб, буларнинг ҳаммаси сингармонизм билан боғлиқ эди. Тилдаги йўғонлик ва ингичкаликни

сўз таркибидаги унлиларга боғлиқ деб талқин этган тилшунослар йўфон ва ингичка жуфтликдан иборат саккиз унлини белгилаб олганлар. Сингармонизм ҳодисасини айрим унли (алиф, хойи ҳавваз) ва асосан ундошларга боғлаб тушунтирган О.Иброҳимов ва унинг тарафдорлари дастлаб беш, кейинроқ қисқа “*и*” ни киритиб, олти унлини қабул қилдилар. Бу олти унлига асосланган татар ёзуви 1918 йилда ўрта имло номи билан кенг тарқалган бўлиб, ўзбек тилшунослари Фитрат ва Элбеклар ҳам ана шу имлога асосланиб 1919 йил ўзбек ёзуви учун олти унлини белгилаб олдилар” [2, 43].

Дарҳақиқат, миллий фонетика бўйича жиддий тадқиқотлар олиб борилмаган, ўзбек тили унли, ундош товушлари ҳақида етарли билимга эга бўлмаган зиёлилар турк, татар тилшуносларига эргашганлар, уларнинг назарий қарашларини ўзбек тилига жорий қилишга ҳаракат қилганлар, ўша пайтда ўзлари очган мактабларда ҳам ҳам турк, татар тиллари грамматикаси ўқитилган. Ш.Бобомуродова ҳам бу даврда очилган усули жадида мактабларида, 9 ойлик билим юртларида она тили ўқитиш ўқув режага киритилганлиги, ўзбек тили қоидалари ҳали махсус ўрганилмаганлиги сабабли муаллимлар шогирдларига тил қоидаларини усмонлича ва татарча китоблардан олиб ўқитмоққа мажбур бўлганларини, айрим жадид мактабларида эса туркий халқларнинг барчаси учун умумий бўлган ўрта тил ва имлони қабул эттириш гоёси остида турк тили грамматикаси ўқитилганини айтади [2, 12].

Ҳожи Муиннинг “Меҳнаткашлар товуши” газетасининг 1918 йил 20 августдаги сонидида эълон қилинган “Тил масаласи” мақоласида шундай фикрлар бор: “Биз туркча қоидаларни билмаганлари учун ҳозирги мирзо ва таржимон биродарларимизни айблай олмаймиз, алар бу тўғрида маъзурдурлар. Чунки алар ва бизларнинг ҳеч қайсимиз мунтазам мактабларда ўқуб чиқмағон. Тил қоидаларининг таълими мунтазам мактабларда бўладирки, мундай мактаблар ҳануз Туркистонимизда очилғон эмас. Ҳозиргача давом этиб келган янги мактабларимизда бўлса туркий тилимизнинг сарф ва наҳви ўқутила бошлағони йўқ. Бизнинг туркий тилимиз ишланмағон бир тил, мунинг сарф ва наҳвиға оид ҳануз бирор турли рисола босилиб чиқғон эмас. Бизнинг муаллим афандиларимиз тил қоидаларини яхши билмайдиларки, ушбу кунғача баъзилари тарафиндан ёзилғон мактаб китоблариндин маълумдир” [11, 92].

Шунинг учун ҳам ўзбек зиёлилари олдида турган энг асосий вазифа ўзбек тилининг қонун-қоидаларини ишлаб чиқиш, илмий тадқиқотлар олиб бориш эди. Бунинг учун халқимизнинг оғзаки ва ёзма манбаларини чуқур таҳлил этиш, уларни ўзаро таққослаб, илмий хулосалар қилиш ва шу орқали ўзбек адабий тили қоидаларини яратиш зарур эди: “Тилимиздаги товушларнинг

сонларини, чўзғи ўрунларини илмий сувратда яхшигина аниқлаб қўяйик. Тилимизнинг истеъдодли, бой бир тил бўлганини қичқириб сўйладиқ; “бу тил даққидир(қўполдир), бунинг ўрнига туркчанинг адабий бир шеvasини олайик” деган тил билмаслар билан курашдик – унларни енгдик. Бироқ ҳануз тилимизнинг белгили қоидаларини майдонга қўя олмадик. Ёзувларимизнинг шаклига “бирлик”, янги ёзғучиларимизга қулайлик бермак учун тилимизнинг қатъий қоидаларини билдириш керак. Ҳамадан бурун у қоидаларни ўзимизнинг-да билишимиз лозимдир” [10, 141].

Иброҳим Тоҳирӣ фонетика ҳақида сўз юритар экан, нутқ товушларининг бошқа товушлардан фарқ қилишини, улар инсон органларининг мураккаб хизматлари натижасида пайдо бўлишини, уларни оддий қулоқ орқали ўрганиб бўлмаслиги, бунинг учун махсус лаборатория асбоблари зарурлигини айтади: “Фанитика – товуш билими, товушларни ва уларнинг табиатларини, айтилишини онглаш учун сўзлаш аъзоларининг ишлари билан таниш бўлиш шарт, чунки тилдаги товушлар дўмбира товушлар эмас, улар сўзлаш аъзоларининг жуда қатламли, мураккаб хизматларининг натижаси бўлади. Мужаррад товушларни оддий қулоқ билан ўрганиш жуда оғир, ҳатто мумкин эмас. Шунинг учун фанитика лабўратўрийаларида товушларни ажратадурғон мингларча қуроллар бор” [4, 373].

Олим миллий фонетикамиз ҳали ишланмагани, ҳатто Ўрта Осиё давлат дорилфунунида ҳам оддий лаборатория жиҳозлари йўқлигини, фонетикани жиддий тадқиқ қилиш учун шундай лабораториялар яратиш зарурлигини, фонетикани ўзи билмасдан ўқувчига бу ҳақда билим беришга ҳаракат қилиш ўта қулгили ҳолат эканлигини афсус билан ёзади: “Мелиўранский каби олимларнинг лабўратўрийасида қатор тилни текшириб, йасалган жадваллари бор. Бироқ улар ўз тилимизга ҳамма тафсилоти билан чиққан эмас. Ўрта Осиё давлат дорилфунунида бу тўғрисида ҳеч нарса йўқ. Ҳатто о – ө, а – э каби жуда аниқ эшитиладурған товушларни ажратиб, уларнинг вазийатини кўрсатурлик ҳеч бир, ҳатто оддий қурол ҳам йўқ. Фанитикамизни ишлаш керак. Ишлагандан кейин йахшилаб ўрганиш керак. Бўлмаса ўзинг ҳам йахши тушунмасдан ўқучига тушунтираман деб азоб чекиш бекор гап” [4, 373]. Шунингдек, араб ёзувидаги уч унлили имлодан воз кечиш, уни 6 имлога келтириш ҳам жуда катта тортишув, жанжаллар билан бўлган. Бу ҳақда Элбек шундай ёзади: “ 6 чўзғи (унли)нинг ўзбек тилига етарли жавоб бера олмаслиги олдинроқ сезилмаса-да, сўнгги чоқлар, ойниқса, янги алифбега кўчиш олдида очик сезила бошлағон эди. Фақат у чоқдағи янги алифбега кўчиш олдидағи чўзғи жанжали 9 устида эмас, 6 устида бўлуб келганидан, то янги алифбега кўчмагунча бу

тўғрида сўз очиш оғир эди. Ҳарф иллатчиларининг шовқини ҳали босилмагон бир даврда 6 дан 9 га кўчиш тугил, шу 6 нинг ўзини сақлаб қолиш катта муваффақият эди. Мана шунинг учун-да 1926 йилгача 9 чўзғи устида оғиз очқучилар оз кўринди, тўғриси, бу масала устида ортиқча бош қотирилмади [12].

Маълумки, 1925 йилдан кейин барча туркий халқларда каби Ўзбекистонда ҳам лотин ёзувини тарғиб қилиш, лотин алифбоси асосида ўзбек миллий алифбосини яратиш, унли, ундошлар миқдорини белгилаш юзасидан жаҳидлар ўртасида баҳс-мунозаралар кучайди. Мавзу бўйича Тошкент, Самарқандда кенгаш, курултойлар бир неча марта ўтказилган бўлса-да, мунозараларнинг асосий майдони газета ва журналлар эди. Н.Янгибоевнинг таъкидлашича, “...бу даврда “Инқилоб”, “Билим ўчоғи”, “Учқун”, “Маориф ва маданият”, “Ўзгаришчи ёшлар”, “Маориф ва ўқитғучи”, “Ер юзи” ва “Аланга” каби журналлар фаолият кўрсатган бўлса-да, тилшуносликка оид мақолалар, асосан, «Маориф ва ўқитғучи» журналида эълон қилинар эди. Албатта, 20-йиллардаги ўзбек адабий тили, унинг график системаси тўғрисидаги мунозараларни ёритишни ойида бир марта чиқадиган бу журнал ўз даврида катта ҳурматга ва эътиборга молик бўлган. Ундаги тилшуносликка оид мақолалар адабий тил, унинг таянч диалекти, фонетика, грамматика, графика ва имло каби масалаларига бағишланган, улардаги назарий ва амалий хулосалар ўзбек тилшунослигининг шаклланишига асос бўлиб хизмат қилган” [13, 5].

Тилимиз луғат таркибига жуда кўп форсий, арабий сўзларнинг кириб келиши, айти форс тили таъсирида асосан шаҳар шеваларида сингармонизм қонунияти бузила борган. Шу сабабли ҳам шевалар сингармонизмли, сингармонизмсиз шеваларга ажратилган. Шаҳар шевалари эронлашув даражасига қараб қуйидаги гуруҳга бўлинган:

“Артуқ даражада эронлашқан: Самарқанд шеваси – 6 сайита, фарс “алиф”и, мафъул фиянинг йерига мафъул алийа ишлатилиши.

Бундан азрак эронлашқан: Ташканд шеваси – алти сайита, турк “алиф (а)” сиға йақин. Алифи мафъул фийанинг барлиғи.

Ундан азрак эронлашқан: Фарғана шаҳри шеваси – йетти-саккиз сайита.

Ундан ҳам азрак : анжан шеваси – тўққуз сайита, бир аз эронлашқан” [1].

Кўриб турганимиздек, ўша даврда йирик саноат марказларидан ҳисобланган Самарқанд ва Тошкент шаҳар шевалари эронлашган шевалар ҳисобланган.

Ўзбек тилида унлилар миқдорини белгилашда айти шу таснифга асосланилди. Сингармонизмга қарши бўлганлар 6 унлини ёқлаган бўлса,

сингармонизм тарафдорлари 9 унлини ёқлаб чиқдилар. Шу ўринда бир нарсани алоҳида таъкидлаш зарур, баъзи 6 унли тарафдорлари орасида сингармонизмнинг мавжудлигини эътироф этувчилар бўлган (Фитрат, Элбек, Ашуралли Зоҳирӣ, Шокиржон Раҳимӣ каби).

Машҳур тилшунос Я.Д.Поливанов ўзининг “Фонетика ташкентского сговора” асарида туркий тиллар фонологик тизимида рўй берган конвергенция, дивергенция ҳодисаларини очиб бериш асосида Тошкент диалектида сингармонизм қонунияти йўқолгани, олти унли фонема мавжудлигини кўрсатгани. Ўзбек ёзувининг ҳам шунга асосланиши лозимлигини таъкидлайди [7, 350]. Я.Поливанов ва Боту сингармонизмга қарши бўлган, савод чиқаришни енгиллаштириш учун ҳамда тилнинг таракқий этиши маданий марказларда бўлишини таъкидлаб, 6 унлини қатъий ҳимоя қилганлар. Лекин Фитрат, Абдулла Алавӣ, Элбек каби кўплаб маърифатпарварлар ўзбек адабий тили вокализмини белгилашда сингармонизмни қишлоқ шевалари хусусиятидан келиб чиқиш керак, деган фикрни илғари суришади. Шаҳар шевалари ўзбек тилининг ички хусусиятларини тўла очиб бера олмаслигини, аҳолининг асосий қисми сингармонизмни шеваларга мансуб эканлигини таъкидлайдилар: “Сингармонизм сақланган шеваларда албатта аҳанг қануни тамамила риая қилинадир. Бундай шевалар бизда аксарийат ташкил этадир. Бугун тилимизнинг шевалари йетарлик даражада текширилмаган бўлса-да, қўлимизда бўлган матирийал ва саналарга суйалиб, халқимизнинг саксан фазиси шундай шевада сўйлайдир дейа оламиз. Сайиталар белгилашда қайси шевани асос тутиш тўғрисида турли фикрлар бўлди. Муҳтарам прафиссур Паливануф Ташкент шевасини асос тутиш ва уни адабий шева қилиб олиш тўғрисида таклифда бўлунди. Далил ўларак, Ташкентнинг маданий марказ эканини, бугун Ўзбекистанда йазув билатурган халқнинг аксари шу шевага йахуд шунга йавуқ шеваларга мансуб эканини сўйлади. Лекин биз масалага бундай тар қарай алмадик, чунки:

биринчи: бизнинг (йаъни Туркистан туркларининг) кўп асрлардан бери келган аҳанг қанунига асос қилинган адабий тилимиз бар. Бу тил ҳамма шеваларга умумий бир тил бўлуб келган. Бутун йазувларимиз шу тилда йазилгон ва буни ҳеч ким йатсинмаган.

иккинчи: йазув билатурган кишиларимизнинг аксари эранлашгон шевага мансуб экан, бунинг аҳамийати йўқ. Аввал халқимизнинг кўпчилиги бўлган калимани назарда тутамиз. Бугун савадлиларимизнинг кўби эранлашган шевалар вакиллари бўлса, йақин заманда халқимизнинг ҳаммаси савадли

бўлишига қатъий ва қаттиқ ишанамиз. Затан тил деган нарса йалғиз “бугун” учун эмас, балки “эрта-индинлар” учун ҳам керакдир.

Мана шул сабаблардан ўзбек йанги алифба қанфирансийаси эски адабий тилимизнинг ҳам аксарийат халқимиз шевасининг сингармонизмли эканини кўзда тутуб, аҳанг қануни сақланган шеваларни асосқа алиб, тўққуз сайита белгилайдир”[1].

Маълумки, 1926 йилдаги Боку конференцияси барча туркий халқларнинг лотин ёзувига ўтиши ва барча учун умумий алифбо яратиш бўйича қарор қабул қилади. Конференциядан сўнг туркий халқлар учун умумий бўлган қонуниятлар ҳисобга олинган ҳолда алифбо яратилади. Мазкур алифбода сингармонизм қонунияти асос қилиб олиниб, унлилар миқдори 9 та деб белгиланади. Шунинг таъсирида Фитрат ҳам юқоридаги фикрларидан қайтиб, ўзбек тилшунослиги муаммоларига бағишланиб ёзилган “Сарф” асарида 9 та унли ҳақида баҳс юритади. Фитрат ўзбек тилини туркий тиллар таркибидаги бир тил сифатида барча туркий тилларда у ёки бу даражада мавжуд бўлган сингармонизм қонуниятини акс эттиришини, бу ҳолат эса шаҳар шеваларида форс-тожик тилининг таъсирида бузилганини, шунинг учун умумтуркий фонетик хусусиятини кўпроқ сақлаб қолган қишлоқ шеваларига таяниш жуда тўғри эканини таъкидлайди. Ана шу асосда ўзбек тилида унлиларнинг “йўғон”лик ва “ингичка”лик белгиси фарқловчи белги вазифасини бажариши ва шу белгига кўра унлилар икки қаторга бўлинишини кўрсатади. Шу билан бирга, йўғон-ингичкалик белгиси бўйича фарқланишга эга бўлмаган “э” унлисининг мавжуд эканини, жами ўзбек тилида 9 унли фонема борлигини баён қилади [1].

Тилшунос олим Тимур Кўчаўғли Фитратнинг унлилар бўйича қарашлари хусусида тўхталиб, муаллифнинг “Сарф” асарининг ўзида мавжуд бўлган учта наشري бўйича фикр юритади. Асарнинг биринчи нашрида унлилар сонини 6 та кўрсатгани, бунга қандай сабаб бўлганини изоҳлашга ҳаракат қилади. Муаллифнинг фикрича, “Fitrat soddallashtirilgan arab alifbosida nuqtasiz (harakasiz) *vov* (*و*) harfi bilan ham *o*, ham *ö* tovushlarini birgalikda, ustida o‘tra bilan nuqtali *vov* (*ۇ*) билан esa *u* bilan *ü* unli tovushini ko‘rsatishga harakat qilgan bo‘lishi mumkin. Fitrat shu arab alifbosi bilan yopiq *e* (*é*) bilan ochiq *ä* unli tovushlarini faqat hamza *◌* bilan ko‘rsatgan” [8, 34]. Бизнингча, бу фикрга қўшилиб бўлмайди, чунки Фитрат юқорида айтиб ўтилган Тошкент ўлка қурултойида “алти чўзғили имла қавул этилсин” деб унлилар миқдорини аниқ айтиб ўтган. Бундай фикрга келишига татар тилшунослари таъсир кўрсатгани ҳам айтиб ўтилди, яъни олти унлини ёқлади дегани унинг товушлар уйғунлигини инкор қилди деб

тушунилмаслиги керак, чунки у ўзбек тилида унлилар уйғунлиги мавжудлигини ҳамиша эътироф этган.

Ашурали Зоҳирийнинг “Қизил Ўзбекистон” газетаси 1929 йил 29, 31 март сонларида эълон қилинган “Тил ва имло масаласи” мақоласида адабий тил, имло, атама, сингармонизм ва ўзбек тилининг бошқа масалалари тўғрисида баҳс юритилган. Мазкур мақолада олим унлилар масаласига ҳам алоҳида тўхталиб ўтади. Бу ҳақда тилшунос олим А.Нурмонов шундай ёзади: “Ашурали Зоҳирий ўзбек адабий тилида олтитамас, тўққизта унли мавжудлигини, лотин алифбосида ҳам ана шу тўққизта унли учун ҳарф олиш кераклигини айтади. Гарчи муаллиф бу фикрини далиллар асосида исботламаса ҳам, Фарғона (Андижон, Марғилон, Қўқон каби) шеваларида маъно фарқлаш учун хизмат қиладиган тўққизта фонема борлигини ҳис қилади. Дарҳақиқат, унлиларнинг палатал белгиси Фарғонанинг бир қатор шеваларида бугунги кунда ҳам фарқловчи белги бўлиб хизмат қилади ва фонологик қимматга эга. Шу билан бирга, Ашурали Зоҳирий айрим муаллифларнинг тўққизтадан ортиқ унли фонемаларга эгаллиги ҳақидаги фикрларининг етарли исботланмаганини танқид қилади” [7, 350-351].

Адиб меросини тадқиқ қилган Т.Тоғаев ҳам юқоридаги фикрларни тасдиқлайди: “А.Зоҳирий ўзбек тилида унлилар ҳақида тўхталар экан, уларнинг сонини тўққизта деб белгилайди. Бунда олим “соф ўзбек тилида сингармунизм борлиги”га асосланган. Унинг фикрича, “сингармунизм билан чўзгининг тўққизталиғи бир-бирига қаттиқ боғлангон”. А.Зоҳирий унлилар масаласида ўзбек шеваларида маъно фарқлаш учун хизмат қиладиган 9 та унли фонема борлигини назарда тутган. У унлилар 6 та деб қаровчиларга қарши чиқиб, “уни қисқартириш кераклиги тўғрисида сўз очиш мантиқсизлик ва тўққизта бўлишининг асосини тушунмасликдир” деб таъкидлайди. Шу билан бир қаторда, унлилар сонини 9 тадан кўп деб қаровчиларни ҳам танқид қилади. Уларнинг ўз фикрларини исботлаб бера олмаганини ёзади. А.Зоҳирий унлилар сони 9 та деган фикрда қатъий туради: “Демак, ҳозирги 9 чўзги шу топдаги илмий асосга қурилгон, уни орттирмаймиз ҳам, камайтирмаймиз ҳам” [9, 86]. Лекин бу фикрлар қатъий яқуний эмаслигини, унлилар балки ортиши ёки камайиши мумкин эканлигини ҳам таъкидлайди: “Биз ҳозир тилимизни текшириш давридамиз. Тилимизни текшира борсақ, эшитилмаган сўзлар, билинмаган довушлар, эҳтимол чиқиб қолар. Бу вақт тамғаларимиз ортдирилар ёки камайтирилар. Чунончи, бир неча йуз йиллик тажрибалар орқасида ўруслар алифбосидан баъзи ҳарфларни чиқариб ташладилар. Бу билан

фўнетика жаҳатидан тилга ҳеч бир зарар ҳам йеткани йўқ. Балки осонроқ бўлди. Бизда ҳам қондоқ бўлишини кейинги тажрибалар кўрсатадур” [4, 304].

Унли товушлар устида изланишлар олиб бораётган Элбек тўққиз унлини қабул қилишни маъқул кўрса-да, тилимиз хусусиятлари яхши текширилганда, уларнинг ҳам озлик қилишини ёзади. У *a, æ, o, ø, y, u, i, ь, e* унлиларидан ташқари, *qara, ata, ana* сўзларининг биринчи бўғинидаги “*a*” учун (бу кирилл ёзувидаги “*o*” га тўғри келади); *dana, alim, tahir* сўзларидаги чўзиқ “*a*” учун; *bilim, tilim* сўзларининг биринчи бўғинидаги қисқа *i* учун; *sijla, suv* сўзларидаги *-ij, -uv* дифтонлари учун алоҳида унлилар белгилаш зарурлигини айтади (татар тилшуносларидан “ўнчилар” тарафдорлари *-yв* ва *-ий* дифтонларини унли ҳисоблаб, улар учун алоҳида ҳарфлар белгилаганлар. Элбек ҳам уларга эргашиб бу товушларни унли сифатида санаб ўтган). Элбек ўзбек ёзуви учун дастлаб 14 унлини белгилашни маъқул кўрса, яна бир ўринда уларнинг сонини 16 та қилиб кўрсатади. Бунга сабаб Элбек фонема билан товуш вариантыни фарқламайди. Ёзувимизнинг мукамал бўлиши учун ҳар бир эшитилаётган товушга алоҳида ҳарф белгилаш лозим деб ўйлайди. 30-йилларда бундай тушунча кўпчилик тилшуносларимиз онгида ҳукм сурган. Масалан, Ғози Олим “Ўзбек тилининг товушлари” мақоласида унлиларни 12 та деса, яна бир ўринда 29 та, улардан асосийлари 22 та деб кўрсатади [2, 44].

Юқоридаги маълумотлардан шундай фикр келиб чиқадики, ўзбек тили қонун-қоидалари ҳақида илмий қарашлар энди шаклланаётган, кўпчилик мутахассисларнинг ўзларида ҳам назарий билимларнинг етарли эмаслиги, шу асосда фикрларнинг хилма-хиллиги кўзга ташланади. Бу хусусда Ҳ.Жамолхонов шундай ёзади: “...ҳозирги ўзбек адабий тили вокализмини белгилаш юзасидан олиб борилган дастлабки ишларда бу масалага фонема назариясига таянган ҳолда ёндашилмаган, фонема билан унинг нутқдаги реал кўринишлари ўзаро қориштирилган, ҳатто 6 унли вокализм тарафдорлари қарашларида ҳам бу масалага илмий-назарий асосда эмас, интуитив сезги асосидагина ёндашилганлиги кўзга ташланади. Шунинг учун бўлса керак, уларда ўз фикрларидан чекиниш ҳолатлари тез-тез кўзга ташланади” [3, 18]. Улардан фарқли равишда, Иброҳим Тоҳирий товуш ва фонемани фарқлайди, ҳар қандай товуш фонема бўла олмаслигини айтади: “Одатда бутун маданий тилларнинг йозувида фанитика сўзини шарт билангина олиб, фанемаларгагина ҳарфлар йасалади, чунки амалий йозувнинг ҳеч бир ҳарфи овозни тўғри бера олмайди. Ул йуқорида айтилган равишда бир-бирига йақин бир неча товушларнинг тахминий ишорасигина бўлиб йуради. Мен Элбек, Қ.Рамазон, Йўлдош, Ғози Олим ўртоқларнинг сўзларига эътироз қилмайман. Чўзғилар

(унлилар) балки улар деганчадир, ёоки кўбракдир. Мен фақат шуни айтаман: русларнинг тил олимлари, тил лабўратўрийасида узок йиллар ишлаш натижасида рус тилида ўн минг товуш борлиғини исбот қилдилар. Бизда ҳам керак унли ва керак унсиз товушларнинг сонлари сиз айтгандан ҳам жуда кўп мартабалар ортиқдир. Бироқ фонемалар кўб эмас” [4, 374].

Абдурахим Йўлдош унлилар масаласида ҳам 9-10, ҳатто 14, 15 унли каби фикрлар бўлгани, энг муҳими, Янги алифбе марказқўмининг 1-плениумида 9 унли қарори қабул қилингани энг тўғри қарор эканини айтади. Мазкур қарор асосида қардош туркий тиллардаги каби бир товушга бир шакл масаласи, яъни ҳар бир эшитилган товушга бир шакл масаласи илмий асосда ҳал қилинди. Сўзларимизни тўғри ёзишга имкон берди, илгари араб ҳарфи билан ёзганда, 50 фоиз хато қиладиган ўқувчилар энди 70-80 фоизгача тўғри ёзишни ўрганди дейди. У ўзбек тилида 9 та унли бор эканлиги, уни камайтириш эса ҳар бир товушга бир шакл бериш асосига қарши туришдир дейди: “Биз шуни айтамиким, 9 чўзғи (унли)ни азайтириш – ҳар бир тавушга бир шакл бериш асосига қарши, 9 чўғи ҳар бир ўзбекнинг оғушидан чиқатурған ҳар бир тавушка тўла жаваб беради. Шунинг учун биз бу асосдан бир қадам арқага қайтмаслиғимиз керак” [4, 279].

С.Иброҳим ўғли 6 чўзғи тарафдорларининг даъволари илмий, асосли бўлмаганидан бундай фикрга қатъийан қўшилиб бўлмаслиги, бизга 9 эмас, кўбрак чўзғилар кераклигини айтади: “Имлада сингармания асос қилиб алингандан кейин 6 чўзғи тўғрисида сўзлаб ўтиришнинг ҳажати йўқ. Ҳатта ҳазирғи 9 чўзғи ҳам меним ағзимдан чиққан тавушларга тўла жаваб бера алмайди. Агар имкан бўлса, чўзғиларни 14 га чиқариш керак (Элбекнинг мисаллари бунга далил). 6 чўзғи бизнинг тил, имлаимизни мустақил тартибга – йўлга солиб алишимизга имкан бермайди” [4, 406].

Тадқиқотчиларнинг фикрича, 9 унлили вокализм тарафдорларининг ўша йилларда фаоллашувида 1926-1927 йилларда юзага келган “Бирлашган (муштарак) турк алифбоси” яратиш ғоясининг ҳам таъсири бўлганлиги шубҳасиз, чунки бундай муштарак алифбонинг яратилишида кўпчилик турк-татар тилларига хос бўлган сингармонизм қонуниятининг ҳисобга олиниши тақозо қилинарди, айна пайтда, бу ғоя эски ўзбек адабий тили вокализмига ҳамда ҳозирги айрим қишлоқ шеваларига хос бўлган контраст жуфтликларни адабий тил учун меъёр деб белгилаш имконини ҳам берарди [4, 75].

1926 йилда Озарбайжонда бўлиб ўтган туркологлар қурултойида лотин алифбосига асосланган янги алифбога ўтиш тўғрисида қарор қабул қилинади ва бу алифбени барча турк жумҳуриятларида қабул этишни тавсия қилинади.

Мазкур қурултойдан сўнг Ўзбекистонда ҳам янги алифбога ўтиш бўйича жиддий ҳаракатлар бошланади. Шу йили Самарқандда янги алифбонинг 1-Кенгаши ўтказилади. Кенгаш йиғилишига Ўзбекистондаги барча таниқли тилшунослар таклиф қилинади. Кенгашда лотин алифбосига асоланган янги алифбонинг лойиҳа варианты муҳокама қилинади ҳамда ўзбек адабий тили учун унлилар миқдорини 9 та деб белгилаб беради. Бу ҳақда Элбек ўзининг мақоласида маълумот бериб ўтади: “Кенгашнинг кўрсаткан чўзғилари қуйидагилар бўлиб, булар ҳали ҳам ишлатилмакдур:

- 1) уст чўзғилар: **а, ә** - қол, кәл;
- 2) ўтру чўзғилари: **о, ө, у, ү** – қол, қўл, қул, кул;
- 3) ост чўзғилари: **е, ь, і** – кел, тил, қиз.

Юқоридаги 9 чўзғини қалин ингичкаликка бўлганимизда **о, у, ь, а** қалин сўзларда ишлатила турғон чўзғилар **е, і, ү, ө, ә** ингичка сўзларда ишлатила турғон чўзғилар дейилади” [22, 228]. Лекин унлилар борасида Элбекнинг қарашларида ҳам қарама-қаршиликлар учрайди. Тилимиз хусусияти яхши текширилганда, 9 та унли ҳам камлик қилишини айтади. *Қара, бола* сўзларида биринчи бўғиндаги “**а**” унлиси билан иккинчи бўғиндаги “**а**” унлиси ўртасида ўзаро фарқ борлиги, қисқа “**ь**” билан чўзик “**і**” ўртасида яна бир товуш борлиги, улар учун ҳам алоҳида ҳарфлар олиш лозим, дейди. Шунинг учун унлилар сонини 12 та деб белгилаш бўйича таклиф беради дейди [4, 230].

Юқорида таъкидланганидек, 9 унли масаласида жадидлар ўртасида ягона фикр мавжуд эмас эди. Бу хусусда Боту шундай ёзади: “Биз муштарак алифбе қабул қилдик; тўққиз чўзғи олдик, бироқ жанжал бутунлай ечилгани йўқ. Тўққиз чўзғининг тилимиз учун озлигини даъво қилувчилар бўлгани каби, буларнинг кўплигини исбот этувчилар ҳам бор. Ўзбек тилининг хусусияти, тараққийси ўзбек янги алифбесида бир қанча янгиликларни тўлдиришни талаб қилар экан, мутаассиблик қилиш ярамайди. Биз, модомики, янги алифбе – ўзбек алифбеси, биринчидан, меҳнаткашларнинг саводсизлигини битиришга хизмат қилади ва шундай бўлиши керак, дер эканмиз, амалда ҳам шу томон боришимиз керак. Бир неча йиллик тажрибамиз ҳозирги тўққиз чўзғи омма учун сўнг даражада оғирлик келишини кўрсатди” [5, 314].

Унлилар миқдори бўйича шундай баҳс-мунозаралар, қарама-қаршиликлар таъсирида Элбек ҳам чекинишга мажбур бўлади. “Қизил Ўзбекистон” газетасининг 1933 йил, 15 октябрдаги сониди “Алифбемизни ихчамлаш учун” деган мақола эълон қилади. Мазкур мақоласида тилимиздаги унлилар миқдорини кескин камайтириш масаласини кўяди. Ашурали Зоҳирий тавсия қилганидек, 5 та унли тарафдорлари фикрларини қувватлайди. Унлиларни

қисқартириш унлилар ролини инкор қилиш эмас, балки бу орқали таълимда қулайлик юзага келиши ҳамда ёзувдаги чатоқликлар ўз-ўзидан барҳам топиши мумкинлигини айтади: “Албатта чўзғиларни қисқартириш –чўзғи рўлини инкор қилиш эмас, лекин тилдаги ҳар бир товуш орқасидан чопқанимизда, жумладан рўлига баҳо бермаган бўламиз. Юқоридаги кичкина мисолдан шу онглашилиши керакки, биз чўзғининг кўпайиши билан биздаги айрим товуш хусусиятларини сақлаб қолиш билан бирга ўзимизни қийин ҳолга қўйғон ва ҳатто ҳар бир сўзнинг ҳар бир бўғини учун ҳам айрим чўзғилар қабул этишка мажбур бўлғон бўламиз. Аксини ишлатканимизда бу нарсанинг енгил қутила ва тилимизни ҳам бундан бўшата оламиз” дейди [12, 68].

Жадидларнинг мана бундай соғлом тортишув, мунозараларига 30-йилларнинг охирига келиб чек қўйилди. Биринчидан, жуда кўпчилиги жисмонан йўқ қилинди, иккинчидан, 1940 йилда кирилл ёзувига ўтилгандан сўнг олти унли алифбо қабул қилинди. Бу мавзуга муурожаат қилиш таъқиқланди. Шу даврдан бошлаб бошқа туркий тиллардан фарқли равишда тилимизда асрлар давомида сақланиб келинган унлилар уйғунлиги инкор қилинди.

АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Абдулла Алавий. Ўзбек янги алифбосини тузишда асослар. – Тошкент-Самарқанд: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1927.
2. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожда Элбекнинг роли. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2002.
3. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
4. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. Мажмуа. 1-китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2017.
5. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. Мажмуа. II-китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2019.
6. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1993.
7. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012.
8. Timur Ko‘jao‘g‘lu. O‘zbek tilidagi unli tovushlar a unli uyg‘unligi muammolari haqida // Adabiy meros, 2022, № 5b 31-51-b.
9. Тоғаев Т. Ашуралӣ Зоҳирӣ ва унинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... автореферати. – Тошкент, 2005.

10. Фитрат. Танланган асарлар, IV жилд. –Т.: Маънавият, 2006.
11. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. –Тошкент: Маънавият, 2010.
12. Элбекнинг тилшуносликка оид асарлари (тўпловчи: Ш.Бобомуродова). – Тошкент, 2001.
13. Янгибаева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс...автореферати. – Қарши, 2019.

БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ТАФАККУР ЭЛЕМЕНТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШ

Б.М.Қурбонова

п.ф.б.ф.д. (PhD.), Фарғона давлат университети

barchinoy1802@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида бадий тафаккур элементларини шакллантириш ҳақида маълумот беради.

***Калит сўзлар:** бадий тафаккур, компонент, креатив, элемент, компетенция, интеллектуал қобилият, абстракт.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья информирует будущих учителей изобразительного искусства о формировании элементов художественного мышления у школьников.

***Ключевые слова:** художественное мышление, компонент, творческий, элемент, компетентность, интеллектуальная способность, абстракт.*

ABSTRACT

This article informs future teachers of fine arts about the formation of elements of artistic thinking in schoolchildren.

***Key words:** artistic thinking, component, creative, element, competence, intellectual ability, abstract.*

КИРИШ

Мактаб ўқувчиларида бадий тафаккур элементларини шакллантириш масалаларини ҳар томонлама чуқур ўрганиш, масаланинг туб моҳиятига етиб боришда ўрганилаётган муаммога оид тушунчаларнинг психологик, педагогик талқинларини ўрганиш ва уларни ижодий ўзлаштириш муҳим аҳамиятга эга.

«Бадий тафаккур ва унинг шаклланишини ўрганишни фалсафа, психология, педагогика фанлари ҳамкорлигида амалга ошириш ушбу жараённинг самарасини таъминлайди»⁴³. Бунда ўқувчиларнинг ақлий фаолиятини ташкил этиш масаласи катта аҳамиятга эга. Шу сабабли мавжуд адабиётлардан тафаккур, бадий тафаккур, унинг моҳияти, шаклланиш

⁴³ Структура и особенности художественного мышления студентов. <http://elibrary.ru/item.asp?id=17865470> (мурожаат санаси 20.02.2021)

хусусиятлари ва имкониятларини ўрганиш соҳада амалга ошириладиган тадқиқотларнинг ўзига хос методологик асоси бўлади.

«Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлаш соҳасидаги тажрибалар мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантириш ва иқтидорларини рўёбга чиқариш стратегиясини танлашга бевосита таъсир кўрсатади»⁴⁴. Бунинг учун педагогика фанида тўпланган тажрибаларни назарий жиҳатдан таҳлил қилиш алоҳидааҳамиятга эга. Айнан шундай таҳлил бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг касбий фаолият стратегиясини онгли танлашига имконият яратади.

«Мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараён нафақат маданият ва санъатдаги эстетик ҳодисаларни бадиий идрок этиш»⁴⁵, балки уларни атроф-оламда содир бўлаётган воқеликларни адекват англаш, уларга шахсий муносабат билдиришни ўргатади. Ўқувчилар бадиий тафаккур ёрдамида объектлар ўртасидаги муҳим алоқалар ва муносабатларни англайдилар. Бу компетенцияларнинг интеллектуал қобилиятларини ўсишига олиб келади. Шунинг учун ҳам мазкур илмий муаммони ўрганиш назарий аҳамиятга эга.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Фикрлаш қобилияти аста-секин ўқувчининг ривожланиши, унинг билиш фаолиятини ривожлантириш жараёнида шаклланади. Идрок тафаккурнинг ҳиссий асосини ташкил этувчи миянинг воқеликни сезгилар ва инъикослардаакс этишидан бошланади. Ўқувчининг бадиий тафаккури шаклланганлиги ва ривожланганлигини ҳодисалар орасидаги энг оддий алоқаларни акс эттира бошлаган ва уларга мувофиқ равишда тўғри иш тутишларига кўраанглаш мумкин.

Тафаккур атрофдаги олам инсон мияси томонидан атроф-муҳитни акс эттиришнинг энг юқори шакли, дунёни англашнинг фақат одамларга хос бўлган энг мураккаб билиш жараёнидир. Шу сабабли, болаларда тафаккур қилиш компететциясини шаклланиши ва ривожланишини ўрганиш жуда муҳимдир. Бу йўналишда изланишлар олиб боришни тўғри бўлишини таъминлаш учун, биринчи навбатда, атаманинг педагогик талқинигаойдинлик киритиб олиш лозим.

⁴⁴ Эстетика – это не только философия искусства. <http://elibrary.ru/item.asp?id=9244166> (мурожаат санаси 28.09.2021)

⁴⁵ Структура и особенности художественного мышления студентов. <http://elibrary.ru/item.asp?id=17865470> (мурожаат санаси 20.02.2021).

Педагогика энциклопедиясида «Тафаккур (*арабча* – фикр юритиш, ўйлаш, фикрлаш) 1.Объектив воқеликнинг тасаввур, тушунча ва муҳокамадаги фаол инъикос жараёни, инсоннинг фикрлаш қобилияти; фикрлаш. 2.Ўйлаш, фикр юритиш, муҳокама; ўй. 3. Тафаккур – инсон ақлий фаолиятининг юксак шакли; объектив воқеликнинг онгдаакс этиш жараёни»⁴⁶тарзида тавсифланган.

Дарҳақиқат, тафаккур – инсон ақлий фаолиятининг таркибий қисми, билишнинг оламдаги нарса ва ҳодисаларнинг умумий, муҳим хусусиятларини аниқлайдиган, улар ўртасидаги ички, зарурий алоқалар, яъни қонуний боғланишларни акс эттирадиган ақлий босқичи. Тафаккур мазмуни ва моҳиятига кўра бир қатор хусусиятларга эга: воқеликни умумлаштирган ҳолдаакс эттириш; борликни билвосита ифодалаш; шахс тафаккурини ижодий характерга эга эканлигини намоён қилиш; тафаккурнинг она тили билан узвий алоқадорликда намоён бўлиши кабилар.

Психолог Э.Ғозиевнинг таъкидлашича, «тафаккур атроф-муҳитни, ижтимоий ҳодисаларни, воқеликни билиш воситаси, шунингдек, инсон фаолиятини амалга оширишнинг асосий шarti саналади. У сезги, идрок, тасаввурларга қараганда воқеликни тўла вааниқ акс эттирувчи юксак билиш жараёнидир»⁴⁷.

Тафаккур жараёнида инсонда фикр, мулоҳаза, ғоя, фараз кабилар вужудга келади ва улар шахснинг онгида тушунчалар, ҳукмлар, хулосалар шаклида ифодаланади. Инсон тафаккури орқали воқеликни умумлаштириб, билвоситаакс эттиради, нарса ва ҳодисалар ўртасидаги энг муҳим алоқалар, муносабатлар, хусусиятларни англаб етади. Бинобарин, инсон муайян қонун, қонуният ва қоидаларга асосланган ҳолда ижтимоий воқеа ва ҳодисаларнинг вужудга келиши, ривожланиши ҳамда оқибатини олдиндан кўриш имкониятига эга.

«Тафаккур кўпгина фан соҳаларининг тадқиқот объекти ҳисобланади. Ижтимоий ҳаётда, таълим жараёни ва ишлаб чиқаришда одамлар ўртасидаги алоқа ва муносабатлар ҳам тафаккур ёрдамида намоён бўлади. Жамоода танқидий қараш, ўзини-ўзи танқид, баҳолаш, текшириш, ўзини-ўзи текшириш, назорат қилиш, гуруҳий мулоҳаза юритишдан иборат тафаккур сифатлари вужудга келади»⁴⁸.

«Фалсафа» изоҳли луғатида «тафаккур объектив олам инъикосининг олий шакли, тушунчалар, назариялар ва ҳ.к. ларда нарса ва ҳодисаларнинг муҳим

⁴⁶ Педагогика. Энциклопедия. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2015.– Б.193-194.

⁴⁷ Гозиев Э. Олий мактаб психологияси.–Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б.28.

⁴⁸ Тимошкина О.А. Развитие творческого мышления обучающихся через предмет «изобразительное искусство»: методическое пособие. <https://nsportal.ru/shkola/izobrazitelnoe-iskusstvo> (мурожаат санаси 28.12.2021)

боғланиш ваалоқаларини акс эттириш, янги назария, ғоя яратиш, бўлажак жараёнларни башорат қилиш кабиларда намоён бўладиган фаол жараёндир. Тафаккур жараёнида нарса ва ҳодисаларнинг ўзаро алоқадорлиги, ривожланиш қонуниятлари, истиқболи ҳақида билимлар, ғоялар, гипотезалар ҳосил бўлади. Тафаккур жараёнининг натижаси ҳамisha бирон-бир фикрдан иборат бўлади»⁴⁹.

«Тафаккур – инсон томонидан воқеликнинг бевосита ҳиссий идрок қилиб бўлмайдиган объектив хусусиятлари, алоқалари ва муносабатлари билан онгли равишда акс эттирилишини билдиради»⁵⁰.

Юқоридаги таърифларни умумлаштирган ҳолда шуни айтиш мумкинки, *тафаккур – объектив воқеа ва ҳодисаларнинг фаол инъикоси бўлиб, у шахсда билимларнинг тизимли кетма-кетликда: тушунча, мулоҳаза, фикр, хулоса, назариялар тарзида ҳосил бўлиши ва ривожланишидир.* Демак, тафаккур инсоннинг шундай ақлий фаолиятики, бу фаолият воқеликни энг аниқ, тўлиқ, чуқур ва умумийлаштириб акс эттиришга, инсоннинг янада оқилонаамалий фаолият билан шуғулланишига имкон беради.

Инсон воқеликни билиш жараёнида нарсаларни бир-бири билан таққослайди, уларнинг ўхшашлиги ва фарқини аниқлайди, анализ ва синтез йўли билан нарса ва ҳодисаларнинг моҳиятини очади, фикран уларнинг хос белгиларини ажратади, бу белгиларни абстракциялаштиради ва умумлаштиради. Натижада одам воқеликдаги нарса ва ҳодисалар тўғрисида тушунча ҳосил қилади.

«Бадий тафаккур эса эстетик тасаввурларни юқори савияси бўлиб, шахснинг бу сифати санъат асарларини онгда тўлиқ ва чуқур акс этиш жараёнида намоён бўлади»⁵¹. Бадий тафаккур айниқса, у, нодир бадий асар ва миллий бадий қадрият сифатида тан олинган муҳим ижодий ҳодисаларни ўрганиш жараёнида жуда фаоллашади ва юқори даражага эришади. Шунинг учун ҳозирги маданиятнинг жамият ҳаётидаги роли ошиб бораётган вақтда, ёш авлоднинг бадий маданият, хусусан, санъатнинг муҳим компоненти, бадий тафаккурни шакллантиришда санъат соҳасидаги ютуқлардан мумкин қадар кенг фойдаланиш зарур. Айни пайтда эътироф этиш жоизки, республикамиз олий таълим оид муассасаларининг педагогик жамоалари талабаларда бадий идрок этишга оид концепсияларни шакллантириш жараёнларини кузатиш бадий тафаккурни шахс камолотидаги аҳамияти муҳимлигига қарамай, педагоглар бу таълимий ва тарбиявий жараёнга етарли эътибор

⁴⁹Фалсафа изоҳли луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б.383.

⁵⁰ Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 314.

⁵¹ Структура и особенности художественного мышления студентов. <http://elibrary.ru/item.asp?id=17865470> (мурожаат санаси 20.02.2021)

қаратаётганликлари, шунингдек зарур методик адабиётлар билан таъминланмаганлик ҳолатлари кузатилмоқда. Натижада янги жамият аъзоларининг умумий маданияти тизимида ҳам муайян бўшлиқлар юзага келишига сабаб бўлмоқда.

Шундай қилиб, *бадший тафаккур – мужассам конструкция сифатида шаклни идрок этиши, баҳолаш-изоҳлаш ёрдамида асарнинг мазмун ва маъносини чуқур ўрганишни талаб қилувчи онгли фаолиятдир.*

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.211.
2. Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.144.
3. Бедерханова В.П. Становление лично-ориентированной позиции педагога. – Краснодар, 2001. – Б.83.
4. Сулаймонов А.П. Тасвирий санъат таълими сифат ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари. Монография. – Тошкент: ТАҚИ, 2017. – Б. 37.
5. Qurbonova, V. M. (2022). ME'MORIY OBIDALARNING BADI'Y, ESTETIK QIYMATIDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 106-109.
6. Qurbonova, V. M. (2022). DUNYO MADANIY TARAQQIYOTIDA SHARQ KITOVATCHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS HAMDA BEQIYOS O'RNINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 239-242.
7. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
8. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
9. Yuldashev, I. (2022). URF-ODAT VA MAROSIMLAR MILLIY LIBOSLARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 78-83.

10. Yuldashev, I. (2022). BORLIQNI IDROK ETISH VA TASVIRLASHGA DOIR DASTLABKI MA'LUMOTLAR HAMDA ULARNI XARAKTERLI JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 9-15.
11. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.
12. Yuldashev, I. (2022). QADIMGI AN'ANALAR DAVOMIYLIGI USUL VA USLUBLARINI TURLI YO'NALISHLARDA TASVIRLASHDA KITOBAT HAMDA MINIATYURA SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 209-216.
13. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.
14. Madaminov, N. M., Yunusaliyev, M. T., & Mamurov, A. A. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA RANGLAR GARMONIYASI (ЦВЕТОТЕРАПИЯ) ORQALI INSONLARNI DAVOLASHNING O'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1265-1272.
15. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОРТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.
16. Mamirjonovich, M. N., Jumadillayevich, S. R., & Anvarovich, M. A. (2021). The Role Of Historical Monuments In The Development Of Central Asian Architecture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 1-5.
17. Yunusaliyev, M. T. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.
18. Yunusaliyev, M. T. (2022). RANGTASVIRDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 174-182.
19. Ахмедова, Н. Э. (2022). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 204-208.

20. Ахмедова, Н. Э. (2022). МУЎЖАЗ САНЪАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
21. Ахмедова, Н. Э. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ БЕЗАК ТУРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАСИДА ЁШЛАРНИ АҚЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ САЛОХИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛИШ ОМИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 41-45.
22. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., Murodjon, K., & Makhpuzakhon, A. (2021). Drawing Tools And Design Elements In Geometric Drawing. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
23. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., & Murodjon, K. (2021). A BRIEF HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND TEACHING OF DRAWING SCIENCE IN UZBEKISTAN.

СИЁСИЙ ЛИДЕРЛИК ВА ИМИДЖ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Самадов Гуломжон Хурсандович

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академияси мустақил тадқиқотчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада замонавий сиёсий лидернинг имиджини яратишнинг муҳимлиги ва унинг биринчи галдаги вазифалари ёритилган бўлиб, унда сиёсий лидер аҳамият қаратиши лозим бўлган имидж шакллантириши технологиялари ва механизмлари, улардан тизимли фойдаланиши зарурати, ҳаттоки имидж яратиши афсонлари, ташқи кўриниши, нутқ, новербал мулоқот, хатти-ҳаракатлар ва перформанслар ёритилган.

Калит сўзлар: *имидж, сиёсий лидер, имиджмейкинг технологиялари, сиёсий лидер, перформанс, архетип, имидж стратегияси.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены значимость и первоочередные задачи создания имиджа современного политического лидера. Раскрыты технологии и механизмы формирования имиджа, на которые должен обратить внимание политический лидер, необходимость их системного использования, включая имиджевую легенду, внешний вид, речь, невербальное общение, поступки и перформансы.

Ключевые слова: *имидж, технологии имиджмейкинга, политический лидер, перформанс, архетип, имиджевая стратегия.*

ABSTRACT

This article highlights the importance and priorities of creating the image of a modern political leader. Technologies and mechanisms of image formation that a political leader should pay attention to, the need for their systemic use, including a figure legend, appearance, speech, non-verbal communication, actions and performances.

Keywords: *Key words: image, image-making technologies, political leader, performance, archetype, image strategy.*

КИРИШ

Барчамизга маълумки, **имидж** мавзуси оммавий сиёсатнинг энг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Гарчи, ушбу тушунча замонавий сиёсатда кенг қўлланилаётган технология деган тасаввур ўйғотсада, у неча минглаб йиллик тарихни ўз ичига оладиган сиёсатдаги услуб ва восита ҳисобланади. Чунки,

сиёсат ва иқтисоднинг энг асосий технологияларидан бўлган ушбу омил ҳар бир даврда сиёсий субъект томонидан объектга таъсир кўрсатишнинг энг муҳим, стратегик ва мақбул усул ва воситаси бўлиб келган. Кўплаб ҳукмдорлар ўз таъсирини ошириш, халқнинг ҳурматиغا, ўзининг сиёсий ва геосиёсий мақсадларига етиш учун ўз замонасига мос ва хос бўлган имидж услубларидан фойдаланганлари, турли хабарларни тарқатиш воситаси орқали катта муваффақиятга эришганликлари ҳам бугунги кунда соҳага, айниқса, сиёсий фанларга маълум.

Одатда имиджга нафақат имиджмейкернинг фаолиятидаги муваффақиятли услубларнинг яратилиши ва ишлаб чиқилиши, балки, омманинг онгу-шуурига таъсир кўрсатишдаги воситаларнинг танланишидаги зафарлар сифатида ҳам қаралади. Чунки, омма ҳар доим эшитишга ва кўришга, ундан эса тегишли хулосани чиқаришга мойил жамоа эканлиги масаланинг жиддийлигини англатади. Имиджнинг ўзи аслида мураккаб тузилишга эга бўлган ижтимоий ҳодиса сифатида атроф-муҳит унинг қонуниятлари, машҳурликка эришган шахслари, сиёсат ва иқтисодий ҳаёт муаммоларини кўтариб чиқадиган ва улардан ўз сиёсий мақсадлари йўлида фойдаланишни дастаклайдиган сиёсатчиларнинг ўзаро фаолияти, мувофиқлашган хатти-ҳаракатлари бўлиб, асносида шахс, гуруҳ, партия ёки тижорий компаниянинг, ташкилотнинг обрўсини кўтаришга қаратилган бўлади⁵².

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, имидж ўзининг алоҳида шакллантирилишига хизмат қиладиган тузилмаси, структуравий босқичларига эга бўлиб, улар етакчи ёки раҳбарнинг имиджини ижобий шаклланиши учун зарурий шарт-шароит ҳисобланади. Чунки, имидж мавзуси, янги термин сифатида XIX асрларда долзарбланиб бўлиб, унинг асосида инсон фаолиятида иқтисодий, ижтимоий самарадорликнинг ортиб бориши, демократик кадриятлар ва институтларнинг қарор топиши ва такомиллашуви, сайлов ва бошқа сиёсий кампанияларнинг авж олиши асосий омил бўлганлигини эътироф этмоқ жоиз. Чунки, ҳукуматларнинг, сиёсатчиларнинг, гуруҳларнинг, сиёсий партияларнинг, ҳаттоки, тижорий компанияларнинг ҳам тақдими аксарият ҳолларда, жамоатчиликнинг, сайловчиларнинг, истеъмолчиларнинг фикрига боғлиқ бўлиб бораверганлиги сайин, имиджнинг мавзу ва хусусият сифатида ўрни ҳам ортиб бормоқда.

⁵² What Is Image Processing : Overview, Applications, Benefits, and More. <https://www.simplilearn.com/image-processing-article>

Маълумки, бугунги кунда имидж ва уни шакллантириш, ривожлантириш, такомиллаштириш билан боғлиқ технологиялардан кўплаб сиёсатчилар, сиёсий лидерлар ўз мақсадлари йўлида жиддий фойдаланмоқдалар. Чунки, халқнинг, асосан электоратнинг ишончини қозониш, уларнинг овозларини қўлга киритиш сиёсий лидерларнинг энг асосий мақсади сифатида намоён бўлмоқда. Бундай шароитда раҳбарнинг, етакчининг, бир сўз билан айтганда лидернинг имиджини шакллантириш, унинг ижобий қиёфасини нафақат маълум бир жамият ёки мамлакат ичида, шунингдек, халқаро майдонда ҳам юксалтириш билан боғлиқ вазифалар бугунги кунда имиджеология, PR каби фанларнинг, турли ижтимоий фанлар йўналишларининг тараққиётига ҳам замин бўлмоқда.

Лекин шуни ҳам қайд этмоқ лозимки, идеал қиёфани, образни вужудга келтириш муаммоси (вужудга келган мураккаб вазият, ҳукумат ёки ижтимоий муносабатларнинг бошқа элементлари) ва уларни жамоатчилик онгига сингдира олиш билан боғлиқ вазифалар бугунги кунда масаланинг ҳал қилувчи жиҳатига айланди⁵³. Аммо бу ерда фақат имиджмейкинг технологиялари ўз мазмун-моҳияти билан ҳам сиёсий лидерга бирор бир сиёсий лойиҳа доирасида ўз мақсадига эришишга ёрдам берадиган шахсий сифатларни тақдим қила олмайди. Яъни агарки, сиёсий лидернинг ўз салоҳияти, харизмаси ёки қобилияти бўлмаган шароитда имидж технологиялари ҳам ожиз қолиши мумкин⁵⁴.

Кўплаб олимлар ва мутахассисларнинг фикрича, сиёсий лидернинг ижобий қиёфасини шакллантиришнинг самарали йўллари топиш билан боғлиқ кўплаб услублар, стратегик йўللари ишлаб чиқилмоқдаки, имиджмейкерларнинг бу ишлари бир томондан, уларнинг маблағ топишлари учун кўп даромадли манбага айланаётганлиги, иккинчи томондан эса жамоатчилик онгида, қарашларида сиёсий лидерга нисбатан фақатгина ижобий фикрларни шакллантираётганлигини айтиб ўтишимиз керак. Турли замонларда, мисол учун, Александр Македонскийдан тортиб, Амир Темургача, Наполеондан тортиб, ўз замонасининг қаттол лидери бўлган Сталингача ўз имиджини шакллантиришда оммавий ахборот воситаларидан жиддий фойдаланганлигини, керак бўлса, бу соҳа вакилларини “инсон қалби муҳандислари” деб атаганлигини алоҳида қайд этмоқ лозим⁵⁵.

⁵³ Шашлов, М. Н. Политический имидж как актуальный предмет исследования / М. Н. Шашлов // Актуальные проблемы политологии : сборник научных работ студентов и аспирантов Российского университета дружбы народов / отв. ред. д.ф.н., проф. В. Д. Зотов. – М. : МАКС-Пресс, 2001. – С. 87.

⁵⁴ Якушин, Дмитрий Александрович. Технологии формирования имиджа политического лидера в западных демократических системах: рациональный опыт для России : автореферат дис. ... кандидата политических наук : 23.00.02 / Якушин Дмитрий Александрович ; [Место защиты: Моск. гос. обл. ун-т]. - Москва, 2014. -27 с.

⁵⁵ Бердиев Б.О. Ўзбекистонда сиёсий ва фуқаролик институтлари фаолиятида PR технологияларини жорий қилишнинг долзарб масалалари. “МЕДИАЛИНГВИСТИКАНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”

Кейинчалик ҳам кўплаб сиёсий етакчилардан имиджни шакллантириш борасида кўплаб усуллар, технологиялар ва уларга ҳамоҳанг тарзда эҳтиёжлар ҳам шакллана бошлади. Бунга демократик институтлар ва муносабатларнинг, замонавий давлатчилик ва ахборот воситаларининг тобора ривожланиб борганлиги ўзига хос шароит яратилганлигини айтмоқ жоиз. Бундан ташқари, ҳар бир сиёсатчининг, сиёсий лидернинг, сиёсий партияларнинг, гуруҳлар ва кучларнинг ўз имидж стратегияси ва сиёсати шаклланганлиги, бунинг учун сайловлар ва бошқа кампанияларда ютиб чиқиш учун турли сиёсий жараёнларнинг ҳам авж олиши рўй берганлиги, бу ҳолат эса, бугунги кун сиёсатининг энг муҳим омилига айланганини таъкидлаш керак.

Сиёсий лидернинг узоқ муддатли имиджини яратиш учун (фақатгина бир сайлов кампанияси учун эмас) бугун **имидж стратегияси**ни ишлаб чиқиш талаб қилинаётганлиги, ушбу **стратегия** доирасида амалга ошириладиган вазифалар белгилаб олинаётганлиги, омма олдида қилинадиган нутқлар, кийиниш ва гапириш, телемулоқотлар, дебатлар сиёсий дидер имиджининг муваффақиятини таъминлайди. Аммо энг асосий вазифа – барибир **сиёсатчи ёки сиёсий лидер** ҳақидаги фикрларни шакллантириш билан боғлиқ бўлиб, бу ерда қуйидаги вазифаларга алоҳида аҳамият қаратилиши лозим:

1. Сайловчиларнинг, омманинг ахборотга бўлган эҳтиёжларини самарали ва мақсадли тарзда қондириш;

2. Имиджнинг омма онгига ва халқ маданиятига нисбатан таъсирини доимий баҳолаб, мониторинг қилиб борадиган ва шундан келиб чиққан ҳолда, кейинги қадамларни ташлаш билан боғлиқ вазифаларни белгилаб олиш (чунки одамлар кўз ўнгида сиёсатчининг имиджи уларга қардрийатлар тизимини таъминлайди);

3. Ўз командаси билан (агарки у мавжуд бўлса), кунлик ахборотлар тарқатиш ва рейтинг даражасини аниқлашга доир информацион таъминотни амалга ошириш;

4. Омmani қийнаётган ва айнан бугун сайловчилар нима хоҳлаётганлигини аниқлаган ҳолда, уларнинг ечими борасида кунлик ахборотларга эга бўлиши, улар томонидан қандай маиший, ижтимоий ёки коммунал муаммолар кўтарилиши ва уларга хозиржавоб бўлиши;

5. Мураккаб вазиятларга тушиб қолган ҳолатда ҳам омманинг олдида руҳий барқарор бўлиши, ҳар қандай кўркувни ва ички ҳадикларни енгиб ўта оладиган даражада тайёргарликка эга бўлиши ва ҳоказо.

Айнан ушбу функциялар ҳисобига имидж бир томондан сиёсий лидернинг ижтимоий-психологик хулқ-атворини мустаҳкам қилиши билан бир қаторда, электоратнинг танловини ҳам белгилаб беради⁵⁶. Сабаби, имиджнинг структур тузилиши ички мантиқ асосида бирлашган турли-туман-роллarning ноёб жамланмаси сифатида намоён бўлади. Айнан шунинг учун ҳам яхлит бир имидж фақатгина у ёки бу даражада конкретлаштирилган образлар, прототиплар мажмуи орқалигина шакллантирилиши мумкин.

Кўпчилик мутахассисларнинг фикрича, сиёсий лидер имиджини шакллантиришнинг асосий ва дастлабки вазифаси сиёсий лидернинг индивидуал “тарихий” ролини белгилаш, уни тарихдаги буюк шахслар билан тенглаштириш ҳисобланади. Бунга мисолни биз Туркия Республикасининг амалдаги Президенти Режеп Таййип Эрдоғанни имиджмейкерларининг яхши ишлаши натижасида Усманийларнинг сўнгги ҳукмдори Абдулҳамидхонга ўхшатилишига қаратилган мақсадли ахборотлар тарқатилишида кўришимиз мумкин. Ёки тарихан олиб қараганда, кўпчилик етакчиларнинг имиджи яратилишида уларни тарихий буюк шахсларга тенглаш жуда катта мафкуравий таъсир кўрсатганлиги, аксарият ҳолларда, муваффақият келтирганлигини ҳам қайд этмоқ лозим. Чунки, прототип кўпинча имиджнинг асосида ётади ва тарихий қаҳрамонларнинг “вориси” сифатида илгари сурилаётган номзод ёки бўлажак сиёсий лидер учун жуда катта имкониятларни тақдим қилади. Бунга мисолни биз АҚШ, Япония, Туркия ва Россия мисолида кўплаб келтиришимиз мумкин. Шунингдек, кўплаб етакчилар ўз имиджини юксалтириш учун иккинчи жаҳон уруши давридаги қаҳрамон сиёсатчилар суъратидан фойдаланганлигини, улар ёнига ўз суъратларини кўйиш орқали, баъзи ҳолларда сайловларда ғалаба қозонганлиги, халқнинг кўз ўнгида ўта ижобий қиёфаси яралганлигини алоҳида қайд этишимиз мумкин.

Яна бир мисол тариқасида, Германия сайловларида кўп бора қўлланилган ҳолат, яъни Ангела Меркелнинг ҳалоллик намунаси, шунингдек, коррупцияга қарши муросасиз курашчи сифатидаги, иқтисодий фаровонлик рамзи эканлиги борасидаги прототипларнинг яратилганлиги, Буюк Британияда бош вазир бўлган Маргарет Тэтчер хонимнинг қаттиққўллик ва ватан манфаати ҳимоячиси сифатидаги рамзий имиджи яратилганлиги, АҚШ Президенти Трумэнни миллий қаҳрамон сифатидаги рамзи, Хитой етакчиси Си Цзинпинни донишманд етакчи сифатидаги имиджи ва хоказоларни келтиришимиз мумкин. Буларнинг барчаси имиджеологиянинг нақадар катта тажриба тўплаганлигини

⁵⁶ Bernays E. Down with Image, Up with Reality // Public Relations Quarterly. – 1977, - Spring, - Vol. 22, - №1. – P. 12-15

унинг самарадор услуб ва воситага айланаётганлигини амалда кўрсатиб турибди.

Шунингдек, яна бир омил, яъни сиёсий мифология ҳам имиджнинг энг муҳим элементларидан бўлиб, уни шакллантирувчи энг самарали технологиялардан бири сифатида майдонга чиқмоқда. Чунки у ижтимоий онгнинг ўзига хос шакли бўлиб, сиёсатда амал қиладиган имидж тизимига у ёки бу даражада таянган бўлади. “Сиёсий мифология – асосан сиёсий онгга, дунёни имидж орқали қабул қиладиган, имидж билан тафаккур қиладиган ва уларни омма онгига сингдиришга интиладиган сиёсатчиларнинг ўз-ўзини англашига хос бўлган хусусиятдир. Одатда мифлар, ёки аниқроғи афсоналар сиёсий имиджни мустаҳкамловчи энг муҳим ахборотлардир”⁵⁷.

Сиёсий имидж сиёсий лидер учун виртуал феномен сифатида жуда катта муваффақиятларни тақдим қилади, агарки у: а) мавжуд сиёсий афсоналарга, мифларга; б) жамиятда қарор топган қадриятлар тизимига; в) одамларнинг бевосита манфаатлари ва эҳтиёжларига; г) барқарор тасаввурларга ва жамиятда қарор топган стереотипларга зид бўлмаса.

Шунингдек, сиёсий имидж – бу махсус моделлаштирилган, барқарор эмоционал ранг-баранг шакллантирилган образ бўлиб, жамиятдаги мақбул ёки устун қарашлар, орзу-умидлар, армонлар ва стереотиплар асосида вужудга келади ва инсоннинг жамият сиёсий соҳасидаги хулқ-атворини белгилаб берадиган ижтимоий-психологик омиллар ёрдамида шаклланади⁵⁸. Чунки, сиёсий лидернинг имиджи босқичма-босқич шаклланади ва қуйидаги поғоналарни, шароитларни босиб ўтишга мажбур бўлади:

- мақсадли аудиториянинг мазкур сиёсий етакчига ёки сиёсий партиёга нисбатан талабларини ва кутаётган орзуларини аниқлаш (яъни, халқ сиёсатчида қандай сифатларни кўришни хоҳлайди, қандай сифатларни хоҳламайди);

- режалаштириладиган ёки шакллантириладиган имиджнинг зарурий таснифларини қидириб топиш, яъни мақсадли гуруҳ аниқ бир сиёсатчи ёки партиё учун ушбу вақтда муҳим ва зарур деб ҳисоблайдиган у ёки бу асосий (жамият томонидан маъқулланадиган) сифатларни танлаб олиш;

- танлаб олинган характеристикаларни, сифатларни ва образ намуналарини сиёсатчининг, партиёнинг, мақсадли аудиториянинг образига айлантириш;

- “Сотиш”, яъни оммавий коммуникация воситалари, сиёсий консалтинг, реклама, махсус PR тадбирлар, тарғиботлар ва шахсий учрашувлар ёрдамида ушбу образларни илгари суриш.

⁵⁷ Denton R.E., Wodward G.C. Political communication in America. – New York. 1985. S.16

⁵⁸ Рюкле Х. Ваше тайное оружие в общении. Мимика, жест, движение: Пер с нем.: - М. – 1996. С 280.

Чунки, “сиёсий лидернинг имиджини шакллантириш унинг бутун карьераси давомида содир бўлади ва бу ўз навбатида ўзаро алмашинув жараёни сифатида, яъни сиёсатчидан – халққа, халқдан – сиёсатчига формуласи асосида юз беради”⁵⁹.

Одатда, сиёсий имиджни шакллантириш стратегиясини ишлаб чиқиш, бир томондан, аҳолида муайян бир сиёсатчи ҳақидаги мавжуд тасаввурларни, иккинчи томондан, мақсадли аудиториянинг ҳокимият тузилмасида маълум бир постга даъвогарлик қилаётган сиёсатчи томонидан қондирилиши лозим бўлган эҳтиёжларини баҳолашга имкон берадиган сифатли ва кўп миқдордаги сиёсий, психологик ва ижтимоий тадқиқотлар хулқ-атворидан бошланади. Зеро, “сиёсий лидернинг имиджини шакллантирилишининг асоси – мақсаддир. Мақсад бўлмаса, демак имидж ҳам йўқ деганидир”⁶⁰.

Сиёсий кампаниянинг мақсадини аниқлаб олиб, мақсадли гуруҳларга жиддий мафкуравий ва ахборий таъсир кўрсатадиган, яъни турли рамзлар ва образлар орқали манипуляция қилиш билан аҳолини ушбу сиёсатчига ишонтириш зарурлиги билан “стратегик образ”ни шакллантиришга қаратилган имидж стратегиясини ишлаб чиқиш зарур. Мақсадли аудиториянинг кўнглидаги, орзусидаги сиёсий лидер образининг талабларини ва эҳтиёжларини, унга нисбатан шаклланган ижобий ва салбий қарашларини чуқур англаган ҳолда, ушбу сиёсатчининг қайси хусусиятларини, сифатларини тузатиш, қайси томонларини кучайтириш ёки ижобий имиджга таъсир кўрсатадиган ҳолатларини баҳолаш лозим бўлади.

Сиёсий лидернинг имиджини шакллантириш ва мустаҳкамлаш билан боғлиқ вазифаларнинг энг қийин босқичи – бу омма онгининг, қарашларининг доимий ўзгариб туриш табиатига асосланган ҳолда, унга мослашиш, аҳолининг ҳар бир категорияси билан ишлаш ва уларнинг хусусиятларини ҳисобга олиш, минтақалар ва уларнинг ўзига хос муаммоларини чуқур ўрганиш ва уларга ечим топиш, аҳоли ўртасидаги ишсизликдан тортиб, коммунал-маиший муаммоларни ҳам ҳал қилиш учун ваъдалар бериш (албатта кейин бу ваъдаларни бажариш муҳим) ва ҳоказолар сиёсий лидер имиджини шакллантиришнинг энг асосий омили ҳисобланади.

Аслида, сиёсий лидернинг сиёсий имиджини шакллантиришнинг механизмлари — унинг мақсадли аудитория, яъни халқ, омма, электорат учун зарур бўлган образини шакллантиришнинг услублари бўлиб, улар ичида **сиёсий**

⁵⁹ Бешукова Ф.Б., Алрикаби Сажжад Салим Гарид. Современные PR - технологии создания политического имиджа. Ежеквартальный рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 2 (257) 2020. С. 159

⁶⁰ Петрова Е.А. Имиджелогия: проблемное поле и направления исследования. 2009. URL: <http://www.academim.org/>.

лидерни халққа яқинлаштириш, омманинг унга нисбатан меҳрини ошириш воситаларини яратиш, лидерда “мен ҳам сизларнинг бирингизман” тамойилини вужудга келтириш ва қарор топириш кабилар муҳим ўрин тутди.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, **сиёсий лидер** ўз имиджини яратиш учун аввало, лидерликка лойиқ сифатларга эга бўлмоғи лозим. У халқ билан ҳамнафас бўлиши, унинг дарду-ташвишларини, орзу-армонларини яхши англаб етган, уни ўраб турган ҳолатни, мамлакатдаги сиёсий, ижтимоий, иқтисодий вазиятдан жуда яхши хабардор шахс бўлмоғи лозим. Шу билан бир вақтда сиёсатчи ўзининг лидерлик сифатларини намоён қила оладиган, ўзининг алоҳида шахсий фазилатлари билан ажралиб турадиган, керак бўлса, бошқа лидерлардан замонавий фикрлаши, технологиялардан фойдалана олиши, мақсадини халқ ва давлатнинг барқарор тараққиётига йўналтира оладиган бўлиши, чуқур мулоҳазалилиги, адолатлилиги, самимийлиги билан ажралиб турадиган бўлмоғи лозим.

Шу билан бир қаторда, замон талаблари асосида ўз имиджи устида чуқур ишлаши, ўз-ўзини доимо такомиллаштириб бориши, ҳар бир ишида қатъиятни кўрсата олиши, мамлакати, тарафдорлари ва халқи манфаати учун сўнгги нафасгача кураша олиши билан алоҳида ажралиб турмоғи лозим. Мана шу ҳолатларни эса турли замонавий имиджмейкерлик технологиялари воситасида ҳам намоён эта олиши унинг ҳақиқий сиёсий лидерлигига ва имиджи юксалишига хизмат қилишини асло унутмаслиги керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. What Is Image Processing : Overview, Applications, Benefits, and More. <https://www.simplilearn.com/image-processing-article>
2. Шашлов, М. Н. Политический имидж как актуальный предмет исследования / М. Н. Шашлов // Актуальные проблемы политологии : Сборник научных работ студентов и аспирантов Российского университета дружбы народов / отв. ред. д.ф.н., проф. В. Д. Зотов. – М. : МАКС-Пресс, 2001. – С. 87.
3. Якушин, Дмитрий Александрович. Технологии формирования имиджа политического лидера в западных демократических системах: рациональный опыт для России : автореферат дис. ... кандидата политических наук : 23.00.02 / Якушин Дмитрий Александрович ; [Место защиты: Моск. гос. обл. ун-т]. - Москва, 2014. -27 с.
4. Бердиев Б.О. Ўзбекистонда сиёсий ва фуқаролик институтлари фаолиятида PR технологияларини жорий қилишнинг долзарб масалалари.

“Медиалингвистиканинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент – 2020. Б.143.

5. Bernays E. Down with Image, Up with Reality // *Public Relations Quarterly*. – 1977, - Spring, - Vol. 22, - №1. – P. 12-15

6. Denton R.E., Wodward G.C. *Political communication in America*. – New York. 1985. S.16

7. Рюкле Х. Ваше тайное оружие в общении. Мимика, жест, движение: Пер с нем.: - М. – 1996. С 280

8. Бешукова Ф.Б., Алрикаби Сажжад Салим Гарид. Современные PR - технологии создания политического имиджа. Ежеквартальный рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». Выпуск 2 (257) 2020. С. 159

9. Петрова Е.А. Имиджелогия: проблемное поле и направления исследования. 2009. URL: <http://www.academim.org/>.

ЭСТЕТИК ИДРОК БАДИЙ ТАФАККУР МАХСУЛИ

Б.М.Қурбонова

п.ф.б.ф.д. (PhD), Фарғона давлат университети

barchinoy1802@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада эстетик идрок бадий тафаккур махсули эканлиги тўғримида маълумот берилди.

***Калит сўзлар:** идрок, эмоционал-эстетик, бадий-эстетик, тафаккур, образ, абстракт, мантиқий, индукция, дедукция.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о том, что эстетическое восприятие является продуктом художественного мышления.

***Ключевые слова:** восприятие, эмоционально-эстетическое, художественно-эстетическое, мышление, образ, абстрактное, логическое, индукция, дедукция.*

ABSTRACT

This article provides information that aesthetic perception is a product of artistic thinking.

***Key words:** perception, emotional and aesthetic, artistic and aesthetic, thinking, image, abstract, logical, perception, deduction.*

КИРИШ

Бадий тафаккур – бу вазифалар, уларни ҳал қилиш усулларини топиш, ҳаракатларни белгилаш ҳамдир (синтез, анализ, умумлаштириш, абстракклар ва конкретлаштириш).

Бунда тафаккурнинг барча турларидан фойдаланиш муҳимдир:

- санъат асарини бевосита идрок этишда таянувчи аниқ амалий тафаккур;
- тасаввурларда акс эттириладиган кўрғазмали-образли тафаккур;
- назарий масалаларни ҳал қилиш ҳамда бадий-эстетик идрок этишнинг (таҳлил қилиш) мантиқийлиги билан боғлиқ абстракт назарий тафаккур.

Бадий тафаккур санъат асарининг бадий ғоясини материаллаштиришга қаратилган ёрқин образли тафаккур тури ҳисобланади. Бу ғоянинг образли ифодаланиши, идрок этувчи шахснинг ўзига хос бадий-эстетик фаолиятидан бошқа нарса эмас.

Тафаккур, хусусан, бадий тафаккур – ақлий, маънавий ва умумий бадий-эстетик ривожланишининг муҳим омилдир. О.М.Жабборованинг фикрича, «ақлий ривожланиш бадий идрок этиш жараёнида талабаларнинг қизиқувчанлик, тиришқоқлик, чаққонлик ва ҳаракатчанлик, мантиқий ҳамда танқидий тафаккур каби сифатлари ривожланади ҳамда такомиллашади, умуман олганда, шахс ривожланади. Кўрсатиб ўтилган сифатлардан ташқари бадий тафаккур орқали шахснинг ҳаётий тажрибаси такомиллашади, қизиқишлари доираси кенгаяди, ҳиссиётлари кучаяди (эмоционал-эстетик), улар чуқурлашади, тафаккур даражаси ошади (улар янада мукамал бўлади), иродаси кучаяди, ақлий маданияти сезиларли даражада ўсади, ақлий фаолияти фаоллашади (санъат соҳасидаги билимга интилиши; янгиликни, ўзига хосликни, ажойбликни кўра билиши, унинг моҳиятини тушуниши, асосийсини, муҳимини тушуниб етиши, ажратиб кўрсатиши; фақатгина бадий идрок этиш эмас, балки умуман тафаккур амалиётида турли операция турларини қўллаши)»⁶¹.

Шундай қилиб, бадий тафаккур санъат тўғрисида, унинг аниқ бир тури тўғрисидаги билимларни талаб этади. Бадий тафаккур бевосита санъат асарини эмоционал идрок этишдан бошланади. Унда, албатта, ҳукм элементи мавжуд бўлади. Бадий тафаккурнинг марказий бўғини- мантиқий-таҳлилий тафаккур шаклланади.

Шу билан бирга, бадий тафаккур идрок этувчининг назарий ҳамда амалий билим даражасини оширишга йўналтирувчи восита бўлиб хизмат қилади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Илмий методик манбалар, бадий таълим амалиётининг ҳолатининг таҳлиллари бадий тафаккур хусусиятлари даражасига келсак, унинг қуйидаги сифат кўрсаткичлари аниқланишигаасос бўлди:

эмоционал-психологик идрок этиш;

интеллектуал - бадий-таҳлилий тафаккур, умумлаштирилган «кўра билиш» (талаб этиш) даражасида баҳолаш;

эмоционал-психологик қизиқиш, истак, ижобий муносабат, эмоционал таъсирчанлик, иродавий тайёрликни баҳолаш кабилар.

Шундай қилиб, бадий тафаккур бадий асарнинг барча компонентлари ғоявий-бадий мазмунини моддийлаштириш орқали хаёлан ишлаб чиқишдан иборатдир.

⁶¹ Жабборова О.М. Бўлажак ўқитувчилар бадий идрокни шакллантириш. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – Б.140.

Бизнинг мисолимизда элемент (французча *element*, лотинча *elementum*-мураккаб ва яхлитнинг, тизимнинг бир бўлаги) атамаси ўқувчиларда шакллантириладиган бадий тафаккурнинг таркибий қисмлари бўлиб, ҳар бир элемент фақат унгагина хос бўлган функцияни бажариб, мазмун ва талқин интеграциялашиб яхлит бадий тафаккур элементларини ташкил этади.

Кўпгина олимлар ўтказган тадқиқот ишлари шуни кўрсатадики, мактаб ўқувчиларининг тахминан 30%ида барқарор қизиқишлар бошланғич синфлардаёқ шаклланар экан. Ўқитувчининг вазифаси ўқувчиларнинг қизиқишларини мумкин қадар олдинроқ аниқлашдан иборат. Шунингдек, инсон шахсини ҳар томонлама уйғун камол топтириш учун шарт-шароитлар яратиш асосий мақсаддир. «Яратиладиган шароитлар ҳам турлича компонентлардан иборат бўлиб, ҳар бири ўқувчида шакллантириладиган бадий тафаккурнинг у ёки бу элементини шакллантиришда устуворлик хусусиятига эга бўлади»⁶².

Юқори синф ўқувчилари индукция ва дедукция методларини эгаллаб, кузатиш ва таржибаларга таяниб, ҳодисаларнинг сабабларини мустақил қидириб топишга ўргатила борилади, бошқачаайтганда, саволларга тўғри жавоб бериш ўқувчини қониқтирмайди, «Нега шундай?» эканлигини изоҳлаб бериш талаб этилади. Натижада ўқувчилар кузатиш натижалари, мисол, факт, далиллардан фойдаланишни ўрганадилар. Ўқувчини бундай даражага эришишида, шубҳасиз 1-7-синфларда «Тасвирий санъат» дарсларида эгаллаган бадий тафаккур элементлари муҳим ўрин тутади.

Ушбу фикрий ҳаракатлар юқори синф ўқувчиларда бадий тафаккурни таркиб топишига ёрдам беради.

Ўқувчиларёш ва шахсий психологик жиҳатларига асосан фаолият йўналишлари ва уларни ташкил этиш бўйичабиллим, кўникма ва малакаларни ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар. Ўқувчиларнинг мазкур даврдаги ёш ва психологик хусусиятлари маълум йўналишларда фаолият юритиш борасидаги имкониятларини синаб кўриш, турли соҳаларда, жумладан, бадий ижодиётда ҳам ўз кучини намоиш этиш, ўз-ўзига бўлган ишончни намоиш этиш ҳиссининг қарор топишига замин яратади.

Психология соҳасида олиб борилган тадқиқот ишлари натижаларидан маълумки, ўсмирлик ёшидаги ўқувчиларда ижтимоий борлиқда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларни кузатиш, моҳиятини англаш ҳамда уларга нисбатан шахсий муносабатни билдириш ва баҳо бериш истаги кучли бўлади.

⁶² Преобращения детей к декоративно-прикладному искусству своего народа. <http://rusholnik.ru/docs/index-22388929.html> (муружаат санаси 24.11.2020)

Ўсмирлар кичик мактаб ёшидаги ўқувчилардан фарқли равишда турмушда ўз ўрнини топишга интила бошлайдилар, уларда муайян бадий асарни ўрганишга бўлган интилиш юзага келади. Улар ижтимоий жараёнларда фаол иштирок этиш, шахсий имкониятларини намойиш қилиш, аксарият ҳолатларда жасорат, мардлик намуналарини кўрсатишга интиладилар. Бироқ ўсмирлардаги жўшқин куч-ғайрат, шижоат, мардлик ва қаҳрамонлик намуналарини кўрсатишга бўлган интилиш, атроф-муҳитга, ижтимоий воқеа-ҳодисалар ҳамда кишиларга нисбатан романтик муносабатда бўлиш жараёнлари мураккаб кечади. Уларнинг етарли даражада *ҳаётий* тажрибага эга эмасликлари, ўз билимларига ортиқ даражада баҳо беришлари аксарият ҳолларда улар томонидан маълум хатоликларга йўл қўйилишига сабаб бўлади.

Ўсмир ёши психологияда «ўтиш даври», «қийин ёш даври» деб юритилади. Мазкур даврда улар ижтимоий ҳаётда ўз ўринларини топиш йўлида дастлабки ҳаракатларни амалга ошира бошлайдилар. Оила шароити, тенгдошлари давраси ҳамда ўзи мансуб бўлган микромуҳитда ташкил этилаётган муносабатлар жараёнида шахсий қарашлари, фикр- мулоҳазаларига эга субъект сифатида иштирок эта бошлайди. Бироқ аксарият ҳолатларда ўсмир организмда кечаётган айрим физиологик ўзгаришлар, руҳиятида рўй бераётган «қандайдир тушунарсиз ҳолатлар» боис улар кўпроқ тенгдошлари даврасида бўлишга интилади. Катта ёшли кишилар билан бўладиган мулоқотлардан ўзларини четга ола бошлайдилар. Бундай ҳолатнинг юзага келишига сабаб бўлувчи омиллардан яна бири ўсмирнинг ўзини вояга етгандек ҳис этиши, катталар билан муносабатда унга нисбатан «у ҳали бола» тарзида ёндашишдан воз кечишларини талаб қилиши, катталарнинг эса бундай фикрга қарши эканликлари туфайли келиб чиқувчи зиддиятлар ҳам сабаб бўлади. Шу боис ўсмир ҳаётида биринчи навбатда ўзи мансуб бўлган микромуҳит етакчи ўрин тута бошлайди. Бу жараёнда бола онгидаги ўзгаришларни ижобий мазмун касб этишда уларнинг «Тасвирий санъат» дарсларида таркиб топтирилган бадий тафаккур элементларидан фойдаланишгаалоҳида эътибор қаратиш лозим. Бу ҳолат шуни англатадики, мактаб ўқувчиларида бадий тафаккурни шакллантиришни ва босқичма-босқич ривожлантириш узлуксиз таълимий-тарбиявий жараён бўлиб, шахснинг ривожланиши босқичларида мазмунан тўлдирилиб, ривожлантирилиб борилади.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларига мактаб ўқувчиларида бадий тафаккур элементларини шакллантиришга тайёрлашга доир назарий билимларни тарғиб этиш, юқорида қайд этилган психологик хусусиятларга таянган ҳолда иш кўриш ана шу мақсадга йўналтирилган педагогик

фаолиятнинг муваффақиятини кафолатлайди. Бундан ташқари, мазкур ишга масъул этиб белгиланган шахс (ўқитувчи, синф раҳбари ва бошқалар)нинг етарли даражада психологик-педагогик билим ва маҳоратга эга бўлиши муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқотчи Н.Юлдашевнинг таъкидлашича, «мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантиришда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларидадастлаб уларнинг шахсий имкониятлари, психологик ва физиологик хусусиятларини ўрганиш орқали оила, таълим муассасаси, жамоатчилик ва тиббиёт соҳаси вакиллари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликка таянган ҳолда фаолият юритишга оид коммуникатив компетенцияларни ҳам шакллантириб бориш лозим»⁶³.

Бадиий тафаккур аслида шахсий сифатларнинг кўпгина компонентлари билан узвий алоқадорликда комплекс тарзда такомиллаштирилганда мукамал бўлади. Демак, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантиришга тайёрлашда комплекс ёндашув принципини қўллаш ҳамда муайян педагогик шарт-шароитларни юзага келтириш талаб қилинади:

1) бадиий тафаккур элементларини шакллантиришнинг амалиётдаги ҳолатини таҳлил қилиш;

2) мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини ривожлантиришнинг ўзига хос психологик-педагогик ҳодиса сифатида таҳлил этиш;

3) аниқланган кўрсаткичларга таянган ҳолда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантириш жараёнига яхлит дидактик ҳодиса сифатида ёндашиш;

4) мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантиришга тайёрлаш мақсадида чиқарилган хулосаларни муайян шаклларда тасвирлашга эришиш, бунда уларнинг истиқболда иқтидорли ўқувчилар билан ишлаш хусусиятларини ҳисобга олиш кабилар.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг муҳим ижобий сифатларидан бири – унинг ўқувчиларга бўлган муносабатидир. Ўқувчиларга бўлган муносабат ўқитувчининг ўз касбига бўлган муҳаббатидир. Ўқитувчи ўз ўқувчилари билан муносабатга киришар экан, бу соҳада унинг муваффақиятини таъминловчи асосий ҳолатлар касбий билимдонлиги, умуминсоний ҳамда шахсий сифатлари билан боғлиқдир.

⁶³ Юлдашева Н.И. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг бадиий-эстетик компетентлигини шакллантириш технологияларини такомиллаштириш. Педагогика фан.бўй. PhD дисс. – Тошкент: ТДПУ, 2021. – Б.62.

А.Расуловнинг таъкидлашича, ўқитувчининг ахлоқий жиҳатлари унинг қиёфасини белгиловчи ўқув-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш имконини берадиган йўналтирувчи ҳолатдир.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини тарбиялаш ва ривожлантиришнинг асосий мақсадларидан бири – уларни юксак касбий маҳоратга эга бўлган мутахассис сифатида шакллантиришдан иборат. Бўлажак ўқитувчиларнинг шахсий сифатлари касбий маҳоратига қўйилган талаблардан биридир.

Ш.Н.Мажитованинг фикрича, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчисининг яхлит қиёфасини моделлаштиришда унинг «касбий такомиллашуви учун зарур бўлган қуйидаги шахсий сифатларини касбий сифатлари билан уйғунлаштиришга эътибор қаратиш талаб этилади: профессионализм, маънавиятлилик, ахлоқийлик кабилар. Мазкур сифатлар касбий билимга эга бўлган ўқитувчи шахси ҳақидааниқ тасаввур ҳосил қилиш имконини беради. Бундай мутахассислар ўзининг шахсий-касбий қиёфаси ва касбий ривожланиш йўлига эга бўлади»⁶⁴.

Биз ўз изланишларимиз давомида бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларида шакллантирилиши зарур бўлган профессионализм тушунчасига нисбатан ёндашувларни таҳлил қилиш ва уларгаасосланишга интилдик. М.Б.Уразова, Ш.Қ.Мардонов, Б.Б.Маъмуров, Н.А.Муслимовларнинг тадқиқотларида «бўлажак ўқитувчиларда шакллантирилиши зарур бўлган профессионализм учта муҳим ўзаро узвий тарзда боғланган таркибий қисмлардан – умуммаданий, психологик-педагогик, предметли-технологик билимлардан иборат. Касбий профессионал муҳитнинг ҳар учала параметри бевосита бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини тайёрлаш билан ҳам боғлиқ бўлиб, ўқувчилардамуайян сифатларни, бизнинг мисолимизда бадий тафаккур тушунчаси устувор аҳамият касб этади»⁶⁵.

Педагогик профессионализм бўлажак ўқитувчининг ўз касбига қадрият сифатида ёндашишининг олий ифодасидир.

Б.Б.Маъмуровнинг таъкидлашича, «бўлажак ўқитувчи профессионализмни эгаллаши учун қуйидагиларни ўзлаштириши лозим: а) касбий компетентлилик; б) касбий ижодкорлик; в) касбий кўникмалар; г) касбий маҳорат каби. Аслида касбий компетентлик касбий ижодкорлик ва кўникмаларни қамраб олса-да, уларни алоҳила кўрсатилганлиги боиси умумий касбий компетенциядаги айрим

⁶⁴ Мажитова Ш.Н. Педагогические основы целостного развития личности будущих учителя в процессе профессиональной подготовки (на примере курсов “Педагогика”): Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – Ташкент, 2004. – С.24.

⁶⁵ Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.211.

компонентлар ўқитувчининг соҳасига кўраалоҳида эътибор талаб қилади. Бизнинг тадқиқотимизда касбий ижодкорликка устувор вазифа сифатида қарганмиз. Чунки бу омил тасвирий санъат ўқитувчисининг педагогик фаолиятида дидактик аҳамияти вааҳамиятига кўра муҳимроқ ҳисобланади»⁶⁶.

Ўқитувчининг касбий компетентлиги ундаги профессионализмнинг асосий таркибий қисми ҳисобланади. Унда бўлажак ўқитувчининг назарий ва амалий тайёргарлиги уйғун тарзда намоён бўлади. Касбий компетентлик шаклланмаган тақдирда ўқитувчи ўз фаолиятини талаб даражасида амалга ошира олмайди. Амалдаги мавжуд ёндашувларга кўра ўқитувчининг профессионализи яхлит тарзда интеллектуал, ҳиссий, ҳаракатли-иродавий ҳолатларини ифодалайди. Чунки мазкур ҳолатлар ўқитувчи фаолиятининг барча йўналишларини ўзида мужассамлаштиради. Айниқса, унинг касбий ўсиши ва маҳорати ушбу тизимда яққол намоён бўлади.

Олий педагогик таълим муассасаларининг битирувчилари ўз касбий фаолиятларига хос бўлган бир қатор қадриятларни эгаллашлари лозимлигини эътироф этар экан, Ш.Қ.Мардонов айнан «бўлажак ўқитувчи кадрлар уларнинг шахсий касбий қиёфалари, ўзига хос фаолият услубига эга бўлишни таъминлашига ишора қилади. Ахлоқий-иродавий сифатлар, қадриятли йўналишларни эгаллаш ўқитувчи шахсияти ва касбий қиёфасининг шаклланиши учун ниҳоятда зарурдир. Ўқитувчининг шахсий-касбий сифатлари унинг касбий маҳорати билан мунтазам тарзда бойитилиб борилиши лозим»⁶⁷.

Кўплаб мутахассислар ўқитувчининг касбий қиёфаси унинг лаёқатлари орқали намоён бўлишини таъкидлайдилар. Ўқитувчи касбий лаёқатнинг намоён бўлишида уларнинг ўқувчилар иқтидорларини рўёбга чиқара олиши ва уларни замонавий ахлоқий талаблар даражасида тарбиялашларида намоён бўлади. Жумладан -ўқувчиларнинг ички ҳолатлари ва кечинмаларини тўғри баҳолай олиш; ўқувчилар учун намуна бўлиш; ўқувчиларда хайрихоҳлик ва миннатдорлик туйғуларини уйғотиш ҳамда уларнинг интилишлари, истакларини қондириш воситаларини билиш; ўқувчиларнинг ўзига хос жиҳатлари ва иқтидорларини ҳисобга олган ҳолда уларга таълимий-тарбиявий таъсир кўрсата олиш; ўқувчиларда ўзларига бўлган ишончни кучайтириш, улар билан мулоқотга киришишнинг зарур услубларини излаб топиш, ўқувчиларда ўзларига нисбатан ҳурмат туйғусини уйғотиш кабиларни киритиш мумкин.

⁶⁶ Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.144.

⁶⁷ Мардонов Ш. Янги таълимий қадриятлар асосида педагог кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.119.

Замонавий педагогика фанида бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнини такомиллаштиришга хизмат қиладиган имкониятлар мавжуд. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларига сингдириладиган касбий компетенцияларга уларга танлов имкониятини беради. Шу мақсадда мактаб тасвирий санъат таълимининг устувор жиҳати, эстетик тарбиянинг мавқеи, мазмуни ва вазифалари ҳам кенгайтирилмоқда. Чунки ўқитувчи ўз касбий фаолиятини амалга ошириш жараёнида ўқувчи бадиий эстетик таълими ва тарбиясининг барча жиҳатлари, унинг эҳтиёжларини ҳисобга олиши лозим. Зеро, шахсининг шаклланиши ва ривожланишида ўқувчилик даври инсон ҳаётининг энг қимматли даври бўлиб, бу давр мустақил шаклланиш майлларини ҳосил қилиш, янги кадриятларни яратишга тайёрланиш жараёни сифатида шахс ҳаётига сезиларли таъсир кўрсатади. «Айниқса, уларда ижодий интеллектуал компитенциянинг муҳим компоненти, бадиий тафаккур шахс комолотининг асосий элементларитдан бири сифатида аҳамиятлидир»⁶⁸. Бунинг натижасида ўқувчилар ўзлари эгаллаган билим, кўникма ва малакалар ёрдамида мустақил қарорлар қабул қиладилар.

Юқоридаги фикрларни умумлаштирган ҳолда қайд этиш мумкинки, тасвирий санъат ўқитувчисини педагогик фаолиятга тайёрлашда, биринчи навбатда, уларда коммуникатив лаёқатни шакллантириш, ўз фаолиятига нисбатан ижодкорлик руҳини сингдиришга ўргатиш талаб этилади.

М.Еrickson (2002) нинг фикрича, «ўқувчиларга бўлган муҳаббат бўлажак ўқитувчининг касбий ривожланиши учун кўзғатувчи кечинмаларни вужудга келтириб, унинг ички жиҳатлари ўқитувчи педагогик маҳоратини йўналтирувчи воситадир. Мазкур кечинмалар ўқитувчининг ўқувчиларга нисбатан ижобий муносабатида ўз ифодасини топади. Бу муносабатнинг натижаси ҳамкорликдаги фаолиятнинг сифати ва самарадорлиги билан ўлчанади»⁶⁹.

Ў.К.Худойбергенова ҳамкорлик жараёнида ўқитувчининг ўзини ўқувчи ўрнига кўя олиши ва хулқ-атвор стратегиясини ишлаб чиқиши уларни қийинчиликларни бартараф этиш усулларини излаб топиш ҳамда ўз фаолиятини йўналтиришигаасос бўлишини таъкидлайди. Мазкур лаёқатнинг асосини ўқувчиларнинг ички ҳолати, кечинмалари, иқтидорлари ва ўзларига хос бўлган қобилиятларини тўғри баҳолай олиш кўникмасини ташкил этади. Бўлажак ўқитувчиларнинг ушбу лаёқатлари олий педагогик таълим жарёнида муайян билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш асосида шаклланади.

⁶⁸ Структура и особенности художественного мышления студентов. <http://elibrery.ru/item.asp?id=17865470> (мурожаат санаси 20.02.2021)

⁶⁹Erickson, M. A developmental dilemma: Education stakeholders' commitment to artlearning. // Art Education, 2002. 55 (1). – P. 11-16.

«Ўқитувчи билан ўқувчиларнинг ҳамкорлиги шахсга йўналтирилган педагогик жараённинг асосини ташкил қилиб ўқувчиларнинг ақлий ривожланишнинг муҳим кўрсаткичи, бадиий тафаккурини ривожлантиришда уларда юқори даражада ривожланган руҳий функцияларнинг шаклланиши натижасида амалга ошади. Ўқитувчининг кўмаги ва шахсга йўналтирилган педагогик жараёни бошқариши натижасида ўқувчиларнинг маданий, ижодий, интеллектуал тараққиётлари амалга ошади»⁷⁰.

Ўқувчиларга таълим бериш ва уларни ривожлантириш муаммосининг дидактик жиҳатдан алоқадорлиги кўплаб мутахассислар: Э.Ғозиев, М.Г.Давлетшин, С.Л.Рубинштейн, А.Н.Леонтьев, И.Ф.Харламовлар томонидан педагогик ҳамда психологик жиҳатдан асослаб берилган.

Муаммонинг назарий ҳолатини ўрганиш, ўзаро яқин бўлган тадқиқот ишларини умумлаштиришга имкон берди. Бир қатор хорижлик олимлар К.Кharod (2006), D.A.Pariser, M.M.Vollrath (2006) лар муаммо мавзусининг фалсафий томонини ўрганганлар.

Н.Н.Волков ва В.П.Бедерхановаларнинг эстетик тарбия назарияси бўйича жумладан, «тасвирий санъат асарларини эстетик идрок этиш, тасвирий санъатда ранг муносабатлари»⁷¹га оидишлари эътиборга молик.

Зеро, ўқувчиларнинг бадиий тафаккури структурасида тасвирий санъатнинг ифодавий воситалари, хусусан, рангшунослик, уларни идрок этишнинг психологик механизмлари муҳим аҳамият касб этади.

Файласуф, психолог, педагог-олимлар Б.С.Мейлахнинг бадиий идрок этишнинг илмий муаммо сифатидаги, П.М.Якобсоннинг бадиий идрок этиш психологияси тўғрисидаги, Н.Н.Волков ва бошқаларнинг санъат асарларини идрок этишнинг қадриятли жиҳатлари тўғрисидаги бадиий идрок этишга бағишланган ишларининг таҳлили қуйдагича хулоса чиқаришга асос бўлади: олимлар томонидан муаммога оид кўплаб ёндашувлар илгари сурилган бўлсада, унинг психологик - педагогик хусусиятлари тадқиқ этилмаган.

Тадқиқотимиз муаммосининг йўналишига кўра, Ўзбекистонлик олимлар - М.Ахмедов, С.Р.Бекматовларнинг ишларида эстетика ва эстетик тарбия масалалари ўқувчиларни бадиий қадриятлар билан таништириш жараёнида очиб берилган. Айниқса, Н.В.Гильманованинг тадқиқотларида бадиий идрок, бадиий тафаккурнинг муҳим параметрларидан бири-ранг ва ёруғлик муносабатларига оид илмий ғоялар, хулосалар ҳамда олинган амалий натижалар эътиборга молик. А.П.Сулаймоновнинг изланишларида тасвирий санъат

⁷⁰Муслимов Н. А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. докт. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 106.

⁷¹ Бедерханова В.П. Становление личностно-ориентированной позиции педагога. – Краснодар, 2001. – Б.83.

воситасида тарбиянинг турли томонлари жумладан, «тасвирий санъат таълими сифати ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари, бадиий тафаккурнинг муҳим элементлари-замонавийлик ва тарихийлик, Шарқ ва Ғарб тасвирий санъатининг синтези»⁷² масалалари тадқиқ этилган бўлса, С.Х.Файзулинанинг изланишларида Ўзбекистонда эстетик тарбиянинг шаклланиши ва ривожланишининг методологик жиҳатлари тақиқ этилган. Р.Хасановнинг тадқиқотларида тасвирий санъат дарсларида маҳаллий материаллардан фойдаланиш масалалари, О.М.Жабборова тадқиқот ишларида бадиий идрок этиш муаммоларига эътибор қаратилган.

Республикамиз олимлари томонидан бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккурни шакллантиришга тайёрлаштирилиши, шу жумладан, уларни комплекс ёки маълум ўзаро боғлиқликда мактаб амалиётига тайёрлаш муаммоси махсус тадқиқ этилмаган. «Шу маънода бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккурни шакллантиришга тайёрлашмасаласизамонавий бадиий педагогиканинг долзарб муаммоларидан биридир».

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.211.
2. Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёнини лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.144.
3. Бедерханова В.П. Становление личносно-ориентированной позиции педагога. – Краснодар, 2001. – Б.83.
4. Сулаймонов А.П. Тасвирий санъат таълими сифат ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари. Монография. – Тошкент: ТАҚИ, 2017. – Б. 37.
5. Qurbonova, V. M. (2022). ME'MORIY OBIDALARNING BADIY, ESTETIK QIYMATIDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 106-109.
6. Qurbonova, V. M. (2022). DUNYO MADANIY TARAQQIYOTIDA SHARQ KITOVATCHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS HAMDA BEQIYOS O'RNINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 239-242.

⁷² Сулаймонов А.П. Тасвирий санъат таълими сифат ва самарадорлигини оширишнинг дидактик имкониятлари. Монография. – Тошкент: ТАҚИ, 2017. – Б. 37.

7. Бобоева, З. (2022). ИЖТИМОЙИ ФАОЛЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 51-55.
8. Boboyeva, Z. A., & Mo'Minova, D. B. Q. (2022). TALABALARNING KREATIVLIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 221-233.
9. Yuldashev, I. (2022). URF-ODAT VA MAROSIMLAR MILLIY LIBOSLARNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY VOSITA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 78-83.
10. Yuldashev, I. (2022). BORLIQNI IDROK ETISH VA TASVIRLASHGA DOIR DASTLABKI MA'LUMOTLAR HAMDA ULARNI XARAKTERLI JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 9-15.
11. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.
12. Yuldashev, I. (2022). QADIMGI AN'ANALAR DAVOMIYLIGI USUL VA USLUBLARINI TURLI YO'NALISHLARDA TASVIRLASHDA KITOBAT HAMDA MINIATYURA SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 209-216.
13. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.
14. Madaminov, N. M., Yunusaliyev, M. T., & Mamurov, A. A. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA RANGLAR GARMONIYASI (ЦВЕТОТЕРАПИЯ) ORQALI INSONLARNI DAVOLASHNING O'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1265-1272.
15. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОРТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.
16. Mamirjonovich, M. N., Jumadillayevich, S. R., & Anvarovich, M. A. (2021). The Role Of Historical Monuments In The Development Of Central Asian Architecture. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(02), 1-5.

17. Yunusaliyev, M. T. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 5-8.
18. Yunusaliyev, M. T. (2022). RANGTASVIRDA KONTRAST VA NYUANS'LARNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 174-182.
19. Ахмедова, Н. Э. (2022). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 204-208.
20. Ахмедова, Н. Э. (2022). МЎЪЖАЗ САНЪАТНИНГ БЕТАКРОР НАФОСАТ ОЛАМИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 125-130.
21. Ахмедова, Н. Э. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ БЕЗАК ТУРЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАСИДА ЁШЛАРНИ АҚЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ТАРБИЯЛАШ САЛОХИЁТИГА ТАЪСИР ҚИЛИШ ОМИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 41-45.
22. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., Murodjon, K., & Makhpuzakhon, A. (2021). Drawing Tools And Design Elements In Geometric Drawing. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
23. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., & Murodjon, K. (2021). A BRIEF HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND TEACHING OF DRAWING SCIENCE IN UZBEKISTAN.

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБУ АБДУЛЛО РУДАКИ

Вахабова Дилфуза Разиковна

40-средняя школа, города Бухары

Преподаватель истории

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена философским взглядам выдающегося персидского поэта и мыслителя IX века, Абу Абдулло Рудаки. Рудаки оставил значительный след в истории персидской культуры своими глубокими мыслями и поэтическими произведениями. Цель исследования заключается в анализе ключевых аспектов философии жизни Рудаки и их влиянии на его литературное творчество.

***Ключевые слова :** мыслитель, философия, искусство, психология, этика , образования, развитие гармоничных и этических личностей*

ABSTRACT

This scientific article is devoted to the life philosophy of the eminent 9th century Persian poet and philosopher, Abu Abdullah Rudaki. Rudaki left a significant mark on the history of Persian culture with his deep thoughts and poetic works. The aim of the study is to analyze the key aspects of Rudaki's life philosophy and their impact on his literary work.

***Key words:** philosopher, philosophy, art, psychology, ethics , education, development of harmonious and ethical personalities*

ВВЕДЕНИЕ

Философские взгляды является фундаментальной областью исследования, которая привлекает внимание мыслителей и философов на протяжении многих веков. В различных культурах и эпохах, философия жизни служит основой для понимания глубоких вопросов о смысле и цели нашего существования. В контексте персидской культуры IX века, философия жизни Абу Абдулло Рудаки занимает особое место. Абу Абдулло Рудаки, выдающийся персидский поэт и мыслитель, оставил неизгладимый след в истории персидской литературы и философии. Его произведения считаются классическими и восторженно воспринимаются поэтами и читателями до сегодняшнего дня. Однако, помимо его литературного достижения, важно понять и исследовать философские установки, которые пронизывают его работы.

Цель данной научной статья состоит в анализе философские взгляды Абу Абдулло Рудаки и ее влияния на его литературное творчество. Исследование

включает анализ оригинальных произведений Рудаки, таких как стихотворения и прозаические работы, а также применение методов текстового анализа и тематического подхода для выявления основных концепций и идей, выраженных в его работах.

В данной работе мы обращаем особое внимание на три ключевых аспекта философские взгляды Рудаки. Во-первых, мы рассматриваем его взгляд на преходящий характер жизни и его учение о значимости осознания настоящего момента. Во-вторых, мы изучаем его представление о природе и ее влиянии на человека, а также его понимание красоты и гармонии. И, в-третьих, мы анализируем его учение о моральных ценностях и добродетелях, которые он считал важными для достижения истинного счастья.

Результаты данного исследования представят более глубокое понимание философские взгляды Абу Абдулло Рудаки и ее влияния на его литературное наследие. При этом мы уделяем особое внимание актуальности его философии в современном мире и ее значимости для поиска смысла и гармонии в жизни.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Абу Абдулло Рудаки, является выдающейся фигурой в персидской литературе и мысли IX века. О его ранней жизни существует немного достоверной информации, и большая часть биографических данных основывается на его собственных произведениях и легендах, передававшихся устно.

Предполагается, что Абу Абдулло Рудаки родился в 858 году в селе Панжикент, которое находилось в то время в составе Саманидского государства (ныне это территория Таджикистана). Он был сыном крестьянской семьи и получил свое образование в Самарканде, где он познакомился с тогдашними великими учеными и поэтами.

Период, в котором жил Абу Абдулло Рудаки, относится к эпохе Саманидов, которые правили в Средней Азии с IX по XI век. В это время процветала персидская культура, и великие поэты, философы и ученые оказывали значительное влияние на общество.

Саманиды содействовали развитию науки, литературы и искусства, и это создало благоприятную среду для творчества Рудаки. Он получил поддержку и покровительство от правителей Саманидского государства, что позволило ему развивать свои таланты и влиять на культурную среду своего времени.⁷³

⁷³ Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы, М., 1960. 147 с

Абу Абдулло Рудаки считается основоположником персидской классической поэзии и оказал значительное влияние на развитие литературы и культуры в Персии и Средней Азии. Его поэтические произведения были широко признаны и уважаемы не только в свое время, но и в последующие эпохи.

Рудаки овладел различными жанрами поэзии, включая газели, касиды, киты и рубаи. Его творчество отличалось высокой мастерством, эмоциональной глубиной и философским содержанием. Он воспевал природу, любовь, красоту и размышлял над смыслом жизни и человеческими ценностями.

Творчество Абу Абдулло Рудаки оказало значительное влияние на персидскую и мировую литературу. Его стихи были широко цитированы и использованы в других произведениях, а его эстетические и философские идеи продолжали вдохновлять поколения поэтов и мыслителей.

Многие его произведения стали классикой персидской литературы и являются неотъемлемой частью культурного наследия региона. Его философские взгляды на жизнь, природу, красоту и моральные ценности продолжают оставаться актуальными и вдохновлять современных читателей и мыслителей. Философские взгляды играют центральную роль в творчестве Абу Абдулло Рудаки. Он был глубоко заинтересован в вопросах смысла жизни, человеческой судьбы и духовного развития. В своих стихотворениях и прозаических работах Рудаки выражал свое понимание мира и человеческого существования.⁷⁴

Анализируя произведения Рудаки, можно выделить несколько основных идей и концепций, которые пронизывают его философию жизни. Одной из ключевых идей является осознание преходящего характера жизни. Рудаки проникается пониманием временности и бренности всего сущего и призывает нас ценить и наслаждаться моментом настоящего. Другой важной концепцией в философии Рудаки является гармония с природой. Он восхищался красотой и величием природы и видел ее как источник вдохновения и внутренней гармонии. Рудаки считал, что гармоничное взаимодействие с природой способствует развитию души и приводит к более полному и счастливому существованию.⁷⁵

Для Рудаки эстетика и красота были важными аспектами его философии жизни. Он придавал большое значение красоте как способу раскрытия

⁷⁴ Маллаев Р.К., Рахимов Н.Х.. г. Худжент, Таджикистан .Некоторые философско-этические и эстетические взгляды Абу Абдуллаха Рудаки.341

⁷⁵ Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. — М.: Наука, 1968. 180 с

духовности и созданию гармонии. В его произведениях мы встречаем восхваление прекрасного, отражение красоты природы и искусства, а также поиск внутреннего равновесия через восприятие и творчество. Рудаки придавал великое значение моральным ценностям и добродетелям. Он высоко ценил справедливость, честность, сострадание и мудрость как основные принципы жизни. В своих произведениях он призывал к поступкам, соответствующим этим ценностям, и утверждал, что они являются основой для достижения истинного счастья и гармонии.⁷⁶

Философские взгляды Рудаки оказала значительное влияние на персидскую культуру и литературу. Его идеи и концепции проникли в многие аспекты искусства и мысли региона. Он стал символом высокой духовности, глубокого понимания человеческой природы и стремления к гармонии с миром. Абу Абдулло Рудаки в своей философии подчеркивал преходящий характер жизни. Он понимал, что ничто не остается неизменным, что время неумолимо и что каждый момент жизни является ценным. В современном быстротемповом обществе, где люди постоянно стремятся к успеху и достижениям, учение Рудаки напоминает о важности остановиться и насладиться настоящим моментом.⁷⁷

Философия Рудаки включает в себя гармонию с природой. В современном мире, где растет экологическое сознание и важность сохранения окружающей среды, учение Рудаки о взаимодействии с природой становится особенно актуальным. Он призывал к уважению к природе, к осознанному обращению с ресурсами и к поиску гармонии с окружающим миром.⁷⁸

Абу Абдулло Рудаки придавал большое значение красоте и эстетике. В современном обществе, где сталкиваются разные взгляды на красоту и где многие ищут визуальное удовольствие и гармонию, его учение оценивается и воспринимается как источник вдохновения. Он показывал, что красота является важной частью нашего существования и способствует нашей духовной эволюции.

Времена меняются, но значимость моральных ценностей и добродетелей остается неизменной. Философия Рудаки напоминает нам о важности справедливости, честности, мудрости и сострадания в современном мире. Он призывает к развитию духовных качеств и к осознанному выбору добрых поступков, что является актуальным и важным в современном обществе.

⁷⁶ Брагинский И. С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. — М.: Наука, 1989. 91 с

⁷⁷ Тагирджанов А. Т. Рудаки. Жизнь и творчество. История изучения. — Изд-во Ленинградского университета, 1968.

Сиёсий маданиятнинг бугунги кундаги долзарблиги шундаки, айнан унинг ёрдамида жамият аъзолари мавжуд бошқарув шакллари қонуний тарзда қабул қилишлари ёки уни рад қилишлари билан боғлиқ чегара ўрнатилади, одамларнинг сиёсатни англашлари ва унинг воситасида миллий ва халқаро меёрлар асосида бошқарилишига қаратилган хулқ-атвор шаклланади. Чунки, юқорида таъкидлаганимиздек, айнан у муайян жамият учун хос бўлган сиёсий билимлар, меёрлар, қоидалар, урф-одатлар, сиёсий хулқ-атвор стереотиплари, сиёсий баҳ бериш, сиёсий тажриба ва сиёсий ҳаёт анъаналари, сиёсий тарбия ва

¹⁰⁷ Ш.Яхшибаев. Сиёсий маданият ва унинг концептуал-назарий муаммолари.
file:///C:/Users/user/Downloads/ZDIF+0601.pdf

сиёсий ижтимоийлашув кабиларни қамраб олиши бугунги кун сиёсий ва бошқа гуманитар фанлар учун сир эмас. Яна шуни ҳам қайд этиш лозимки, аксарият ҳолларда сиёсий маданият – бу тафаккурнинг маълум бир услубидир (way of thinking). Чунки, у жамият учун нима мақбул ёки қандай тизим, муносабатлар, сиёсий институтлар мақбул эмаслигини кўрсатиб берувчи барометр сифатида ҳам намоён бўлади. Бунга мисол тариқасида, АҚШ томонидан 20 йилдан ортиқ вақт давомида Афғонистонда демократик муҳитни, тизимни қарор топтиришга бўлган беҳуда уринишлари, Ироқда европача демократик институтлар фаолиятни йўлга қўйишга бўлган интилишлари охир оқибат муваффақиятсизликка юз тутганлигини қайд этмоқ жоиз. Сабаби, бу жараёнларда мусулмон-шарқ жамиятларининг сиёсий онги ва маданияти ҳисобга олинмаганлиги ва сиёсий инновацияларни жорий қилишда халқнинг менталитети чуқур ўрганилмаганлиги эди¹⁰⁸. Мисол учун, агарки, жамият аъзоларининг мутлақ кўпчилиги патриархал сиёсий маданият ташувчилари бўлсалар, улар учун тоталитар ёки авторитар сиёсий режим бутунлай легитим ҳисобланиш эҳтимоли катта. Демократик сиёсий маданият тарафдорлари учун эса юқоридаги ҳолат сиёсий тирания ёки деспотизм сифатида қабул қилинади.

Маълумки, сиёсий маданият етарлича мўрт бўлиб, у жамият сиёсий тузилишининг анъанавий шакллари қайта вужудга келтириш қобилятига эга. Шунинг учун ҳам аксарият ҳолларда, патриархал жамиятларда амалга оширилган демократик ислохотлар кутилган натижани бермайди. Шу билан бирга, сиёсий маданият ўз-ўзини ривожлантириш ва четдан сиёсий инновацияларни босқичма-босқич тарзда қабул қилиш қобилятига ҳам эга. Умуман олганда, сиёсий маданият жамият маънавиятининг, маданий дунёқарашининг муҳим бир қисми, фуқароларда тарихан шаклланган сиёсий қарашлар, анъаналар, ахлоқий меъёрлар, сиёсий институтларга ва фуқаролик жамиятига ишонч тизими сифатида ҳам кўрилиши мумкин.

Шунингдек, сиёсий маданиятнинг жамиятда бажарадиган маълум бир функциялари ҳам мавжудки, бу унинг жараён сифатидаги ролини белгилаб беради. Сиёсий фанларда сиёсий маданиятнинг қуйидаги функцияларини алоҳида ажратиш кўрсатиш мумкин:

- Индивид томонидан ўзи қайси гуруҳга, қатламга хослигини тушуниб этиш ва сиёсий фаолиятнинг мақбул услубларини аниқлаб олишдан иборат бўлган **сиёсий идентификация** функцияси;

¹⁰⁸ АНАЛИТИКА - Причины фиаско американской разведки в Афганистане. www.aa.com.tr/ru/анализ-новостей/аналитика-причины-фиаско-американской-разведки-в-афганистане/2360580. Причина фиаско Запада в Афганистане. <https://exclusive.kz/expertiza/politika/125553/>

•Муайян сиёсий тизим доирасида бир қанча ижтимоий гуруҳларнинг биргаликда мавжуд бўла олишини таъминлайдиган ҳамда уларнинг ўзаро жипслашувига сабаб бўладиган **сиёсий интеграция** функцияси;

•Индивид ва ижтимоий гуруҳларга жамият сиёсий тизимининг доимий ўзгарувчанлик шароитига мослашувга имкон берадиган **сиёсий мослашув** функцияси;

•Сиёсий анъаналарни авлоддан-авлодга ўтказиш имконини берадиган **сиёсий трансляция** (меърос қолдириш);

•Сиёсий субъектларга умумий таниш бўлган мулоқот тизими асосида ўзаро алоқага киришиш ва ўзаро тушунишни таъминлайдиган **сиёсий коммуникация** функцияси;

•Сиёсий воқеликларни, ҳодисаларни ва жараёнларни англашга ёрдам берадиган **сиёсий талқин қилиш** функцияси;

•Лозим бўлган сиёсий хулқ-атворни белгилаб берадиган **сиёсий меъёрлаштириш** функцияси ва хоказо.

Сиёсий маданият таъсири остида жамият учун анъанавий сиёсий ҳаётни ташкил қилишнинг шакллари, улар ҳаттоки давлат томонидан сиёсий режимга хос ўзгаришлар ва ислохотлар амалга оширилиши шароитида ҳам, қайта ишлаб чиқилиши мумкин. Бундан ташқари, сиёсий маданият жамият учун жамият учун сиёсий ҳаётни ташкил қилишнинг янги шаклларини ҳам вужудга келтириши ҳамда унинг анъанавий ва инновацион элементларини аниқлаб бериши мумкин.

Сиёсий маданият албатта кўплаб ўзаро муносабатда бўлган ва боғланган таркибий қисмлардан иборат бўлади. Чунки, бир неча бор таъкидлаганимиздек, сиёсий маданиятнинг ўзи хта мураккаб жараёндир. Шулардан келиб чиққан ҳолда, сиёсий маданиятнинг тузилишини ўзида акс эттирадиган бир қанча компонентларни келтириб ўтсак:

•Қадрият-меърий — сиёсий ҳиссиёт, қадриятлар, идеаллар, эътиқод, меъёрлар ва қоидалар;

•Англаш — сиёсий билимлар, сиёсий фикрлаш, кўникма ва малака усуллари;

•Баҳолаш — сиёсий режимга, сиёсий воқеликларга, етакчига нисбатан муносабат;

•Аниқловчи — хулқ-атворнинг шахсий барқарор ҳолатлари, у ёки бу шароитда қандайдир ҳаракат қилишни маъқул кўриш ёки кўрмаслик;

•Хулқий — муайян бир вазиятда у ёки бу турдаги ҳаракатга тайёр бўлишлик, зарурат бўлганда ушбу ҳаракатларда иштирок этиш ва хоказо.

Сиёсий маданият нафақат воқелик ёки категория, балки муайян бир фаолият эканлигидан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, унинг турли даражалари ҳам бўлади. Масалан:

- Дунёқараш даражаси — сиёсат ва унинг турли жиҳатлари тўғрисидаги тасаввурлар;

- Фуқаролик даражаси — ўз фуқаролик мақомини мавжуд сиёсий имкониятлар мос тарзда белгилаб олиш;

- Сиёсий даража— сиёсий режимга, ўз иттифоқчилари ва рақибларига нисбатан ўз муносабатини белгилаш кабилардир.

Аксарият ҳолларда сиёсатга ва сиёсий режимга нисбатан муносабат у ёки бу воқеликлар сабабли ўзгариши мумкин. Чунки, инсон турли сиёсий воқеликларга турлича муносабатда бўлади ва бу уларнинг фикрига жуда тез таъсир кўрсатади¹⁰⁹. Мисол учун, бирор шаҳарда рейтинги жуда баланд ҳокимнинг обрўси, ушбу шаҳарда бир муддат коммунал муаммоларнинг пайдо бўлиши билан тезда тушиб кетиши мумкин. Бундан ташқари, турли миллат, дин, синф, этник гуруҳларнинг ҳам сиёсатга, тузумга ва лидерларга нисбатан муносабати турлича бўлади¹¹⁰. Бу умуман олганда инсон фитратига хос бўлган ҳолат ҳисобланади. шунингдек, бир мамлакат доирасида ҳам сиёсий маданият турлича бўлиб, масалан, Хоразм вилояти аҳолисининг сиёсий маданияти Андижон вилояти аҳолисиникидан бир мунча фарқланади. Ёки Ўзбекистон аҳолисининг сиёсий маданияти Қирғизистон аҳолисининг сиёсий маданиятидан кескин фарқланади. Бунинг ўзига хос минтақавий ва субмаданий сабаблари мавжуд бўлади.

Юқоридагилар билан бир ҳолатда сиёсий маданият ўз ичига сиёсий тажрибани, стереотипларни, сиёсий афсоналарни, инсон ва гуруҳларнинг сиёсий хулқ атвор-моделларини, шунингдек, сиёсий институтлар фаолиятининг самарадорлиги, мафкура, сиёсий рамзлар, сиёсий ижтимоийлашув ва бошқаларни ҳам олади. Булар ичида сиёсий стереотип алоҳида мавзу сифатида ажралиб туради ва ўз моҳиятига кўра, у сиёсий объектлар тўғрисидаги соддалаштирилган, тебранувчан ва мақсадли йўналтирилган тасаввурларни ташкил этади. Унинг ажралиб турадиган хусусияти сифатида: воқеаларни персонификациялаш (Personification), яъни у ёки бу ҳодисаларни албатта бирор шахс ёки гуруҳ билан боғлаш; воқеаларни англаш ва талқин қилишда ҳис-хаяжонга берилиш (одатда, бирор ҳолатга нисбатан ўта негатив ёки ўта позитив

¹⁰⁹ Carole Pateman. Political Culture, Political Structure and Political Change. British Journal of Political Science Vol. 1, No. 3 (Jul., 1971), pp. 291-305 (15 pages). Published By: Cambridge University Press

¹¹⁰ Stephen Chilton. Defining Political Culture. The Western Political Quarterly. Vol. 41, No. 3 (Sep., 1988), pp. 419-445 (27 pages). Published By: University of Utah

ёндашув); ақлга номувофиклик (одатда стереотипга зид келувчи фактлар эътиборга олинмайди ёки билиб билмасликка олинади); барқарорлик (стереотип узок умрлик бўлиб, ўзгаришларга дучор бўлмайди ёки ўта радикал ўзгарувчан вазиятда ҳам ўз-ўзини сақлаб қолишга лаёқатли бўлади) ¹¹¹ кабиларни алоҳида эътироф этмоқ жоиз.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, сиёсий фанлар тизимида тобора муҳим роль ўйнайдиган сиёсий маданият ўз концептуал моҳиятига кўра сиёсат, сиёсий фаолият, одамларнинг хулқ-атвори ва онги билан боғлиқ бўлган, инсоният маданиятининг умумтанолинган соҳасидир. Сиёсий маданият тушунчаси орқали индивид, кичик ва катта гуруҳларнинг сиёсий қарашлари, халқ-атвори шаклланишига таъсир кўрсатадиган миллий ва умуинсоний тарихий ва ижтимоий тажриба тушунтирилади.

Инсонларнинг сиёсий маданиятга нисбатан қизиқишининг асосий сабаблари сифатида уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги ортиб бориши ва сиёсатда ўз манфаатларини излаши орқали тушунтирилади. Сиёсат, гарчи жамият аъзоларининг қарашлари, манфаатлари, сиёсатдаги иштироқи турлича бўлишига қарамасдан, уларни доим ўзига тортаверади. Бу эса фуқароларда сиёсатда иштирок этиш имконияти ёки вужудга келтиради, ёки уларнинг сиёсатдан кўнгли қолишига олиб келади. Буларнинг барчаси, одамларда сиёсий маданиятга бўлган эҳтиёжни юксалтиради.

Бугунги замон сиёсатшунослигида сиёсий маданият тўғрисидаги билимлар тизимлашган ва илмий адабиётларда улар ҳақида турли таърифлар ва қарашлар чуқур шаклланган. Бугунги кунга қадар сиёсий маданият концептуал ва илмий жиҳатдан ривожланишда давом этмоқда. Илмий адабиётларда сиёсий маданиятга икки жиҳат шаклланмоқда: биринчиси, бу тор талқинлар бўлиб, унда индивиднинг сиёсий қарашлари, табиати ва хулқ-атвори назарда тутилади; иккинчисидан эса сиёсат билан боғланган жамият маданиятининг элементи сифатида қабул қилинади. Сиёсий маданият борасида мақола давомида шаклланган хулосалар шундан иборатки:

1) сиёсий маданият сиёсат ва у қизиқадиган фактлар ҳақидаги билимлар мажмуидир;

2) сиёсий жараёнларга баҳо бериш: ҳокимият қандай амалга оширилиши тўғрисидаги мулоҳазалар;

¹¹¹ Jürgen R. Winkler. Political culture. <https://www.britannica.com/topic/political-culture>

3) сиёсий позицияларнинг эмоционал томонлари, масалан, ватанга мухаббат, душманга нафрат, сиёсатдан қўнгил қолиш ва бошқалар;

4) қандай шароитда қандай йўл тутиш кераклигини белгилаб берадиган сиёсий хулқ-атвор ва уларнинг жамият ҳаётида акс этиши.

USMONLILAR DAVLATINING BOLQON DAVLATLARI BILAN OLIB BORGAN TASHQI SIYOSATI VA QUDRATLI IMPERIYAGA AYLANISHIDAGI AHAMIYATI

Farxodjonov Farruh

Namangan Davlat Universiteti magistranti

farhadjanov1998nd@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Usmonli sultonlarining Bolqon mamlakatlariga qarshi olib borgan jangovor tashqi siyosati va undagi g'alabali natijalari haqida ma'lumot keltrilgan. Serblar, Bosniya, Moldviya va Vengriya ustidan qozonilgan g'alabalarning kelajakdagi ahamiyati va qudratli imperiyaga aylanishdagi ta'siri keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Usmonlilar, sulh, yurish, jang, Yevropa, aloqa, g'alaba, Bolqon malakatlari, sulton, tuklar, siyosat, vassal, serblar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о воинственной внешней политике османских султанов против балканских стран и их победоносных результатах. Упоминается будущее значение побед над сербами, Боснией, Молдавией и Венгрией и их влияние на становление могущественной империи.

Ключевые слова: *османы, мир, поход, битва, Европа, общение, победа, балканские государства, султан, перья, политика, вассал, сербы.*

ANNOTATION

This article provides information about the combative foreign policy of the Ottoman sultans against the Balkan countries and their victorious results. The future importance of the victories over the Serbs, Bosnia, Moldavia, and Hungary and their influence on becoming a powerful empire are mentioned.

Key words: *Ottomans, peace, march, battle, Europe, communication, victory, Balkan states, sultan, feathers, politics, vassal, Serbs.*

KIRISH

Usmonlilar davlatining tarixi, uning siyosiy va harbiy yukslash davri (XV-XVII asrlar), jahon tarixining muhim bir qismidir. Usmonli davlati siyosati ko'p qirrali va muhim voqealarga to'la bo'lsa butun jahon tarixi uchun ahamiyatli, uni o'rganish batafsilroq ko'rib chiqishga va O'rta asrlarning oxirlarida Yevropa va Yaqin Sharqda sodir bo'lgan voqealarni tushunishga yordam beradi. Shuni aytish kerakki, urush va tashqi aloqalarni muayyan davlatlarning siyosiy rivojlanishining umumiy kontekstida o'rganish, zamonaviy tarixchi E.V. Runga [5: 3], ham nazariy, ham aniq tarixiy jihatdan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning asosiy muammosiga aylanib

bormoqda. Usmonlilar davlati kabi imperiyalarning mavjudligi ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlatlar tarixchilarni doimo qiziqtirib kelgan, chunki ular sivilizatsiyaning muvaffaqiyatli va ba'zan muvaffaqiyatsiz tajribasini namoyish etadi. Usmonli davlati katta va uzoq vaqt mavjud bo'lgan imperiyalardan biri edi. Usmonli imperiyasi Bolqon yarim oroli, Sharqiy, Shimoliy Afrika, Janubiy va Shimoliy Kavkaz mamlakatlari hududlarini o'z ichiga olgan. U Birinchi jahon urushi tugaguniga qadar, to'g'rirog'i, 1923 yilda respublika deb e'lon qilinmaguncha, ushbu hududlar imperiya mulki deb hisoblangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umonli sulton Mexmed II ning 1453-yili dunyo tarixidagi yirik imperiyasidan biri bo'lgan o'n asrdan ortiq tashkil topib kelgan Vizantiya imperiyasini qullashi, butun Yevropa xalqida havotir uyg'otdi. Chunki olib bo'lmas deb bilingan Kanstantinopol zabt etilgan edi. Ushbu hodisa Yevropa tarixidagi mamlakatlararo diplomatik aloqalarni keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Vizantiya zabt etilgach Usmonlilar sultonlari asosiy e'tiborini Bolqon yarimoroliga qaratdi va bu tabiiyki Bolqon mamlakatlari kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Imperiya va bu davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalarda yanada keskinlashuv yuzaga keldi. Bolqon mamlakatlarining tarqoqligi va bo'linishi jangovor va g'ayratli islomiy turk davlatiga qarshilikni zaiflashtirdi.

“Biz to'lashga majbur emasdik, lekin o'zimizni himoya qilishga imkonimiz bo'lmagani uchun, ota-bobolarimiz kabi bizda hech kimdam hech qanday yordam va najot yo'q edi, agar biz to'lamaganimizda, ular birodarlarimiz xotinlarini va bolalarni olishardi. Biz qayg'uni kuchimiz bilan yengib o'tishni va bu butparastlar oldida bosh egib, ularni tinchlantirish uchun qo'limizdan kelganini topib, rahmdil Xudo rahm-shafqat ko'rsatmaguncha va Xudoning yordami bilan qanday qilib ularni yengish haqida maslahatlashdik. Ota-bobolarimiz qilganidek, biz ham ittifoqchilar topamiz.” [2: 175]

Yuqorida keltirilgan matnda Moldava hokimi so'zlari orqali Bolqon yarimorolida davr keskin bo'lganligini ko'rish mumkin. 1456 yil boshida Yevropa Usmonlilarning yangi hujumi boshlanishini intiqlik bilan kutayotgani, inobatga olsak, Moldava hokimini qo'rqishi uchun yetarli sabab bor edi. Yuqorida aytilgan “birodarlar” va ularnin azob uqubatlariga ishora qilish Vizantiyaliklarga o'xshash taqdirga tusib qolish qo'rquvini bildiradi Matnda Moldaviya ajdodlaridan ko'ra ancha keskinroq siyosiy vaziyatga tushib qolgani va o'zini himoya qilish uchun yetarli kuchga va kuchli ittifoqchiga ega emasligini taidlaydi. Shuningdek Martin Kromerning qayd etishicha Polsha o'z

ittifoqchisi Moldaviyaga o'z ichki nizolari tufayli yordam berishi imkonsizligi sababli, Kanstantinopol bosib olinganidan keyin sultonning Moldaviyaga bosqinlari ortidan 2000 dukat o'lpon to'lagan. [2: 175] 1456 yil Moldova knyazligi Turklar hokimyatini tan olgandan so'ng Usmonlilar o'z yurishlarini boshqa hududlarga yo'naltirishdi.

Serblar bilan birinchi qarama-qarshilik 1344-yilda bo'lib o'tgan edi, unda serblar g'alaba qozonishdi. Keyingi bosqinlar davrida Serbiya yirik mag'lubiyatga uchradi. Usmonlilarning asosiy yirik bosqinlari XIV asrning 80-yillarida boshlandi, Morava vodiysi va Kosova hududlariga yo'nalgan edi. Kosova jangida turk sultoni Murod I ga qarshi knyaz Lazar qumondonlik qilgan. Garchi sulton Murod I jangda g'alaba qozongan bo'lsa ham, keyinchalik serb zodagoni tomonidan o'ldirilgan va u o'z chodirida asirga olinib sulton yanicharlari tomonidan qatil etilgan. Kosovo jangi Serbiyaning taqdirini belgilab berdi, chunki bundan keyin u turklarga qarshi turishga qodir bo'lgan kuchni maydonga tushira olmadi. Bu knyaz Lazarning o'g'li Stefan Lazarevich hukmronligi bilan ajralib turadigan beqaror davr edi - haqiqiy evropacha ritsar, harbiy rahbar va hatto shoir. Kosova jangidan so'ng 1389 yilda Serbiya Usmonlilar vassaliga aylanadi. Lazarning o'limidan so'ng boshqaruvning qo'liga olgan Stefan Lazarevich Markaziy va janubiy Serbiya hududlarini boshqargan, va har yillik o'lpon to'lash va turklar ixtiyoriga jangchilar yuborishni o'z zimmasiga olgan.[3: 145] U 1402 yilgi Anqara jangidan so'ng Usmonlilar davlatida paydo bo'lgan tarqoqlik davrini hisobga olmaganda umrini ohirigacha Usmonlilarga sodiq vassal bo'ladi. O'zining amakivachchasi Brankovich bilan birga u poytaxtni shimolga yangi qurilgan mustahkam Smederevo shahriga ko'chirdi. Usmonlilar 1459-yilda shimoliy Serbiya hududini oxirigacha egallab Smederevo ularning qo'lga olishguncha o'z istilolarini davom ettirdilar. 70 yillik qarshilik davomida serblar bir necha bor g'alaba qozonishdi.

1459 yildan keyin Serblarning yagona erkin hududlari Bosniya va Zetaning bir qismi edi. Bosniya qirolligi qulaganidan so'ng Serbiya deyarli to'rt asr davomida Usmonlilar imperiyasi tomonidan hukmronlik qildi. Hozirgi Slavoniya, Voyvodina, Shimoliy Serbiya va Bosniya hududlarida Brankovich qulaganidan keyin Vengriya himoyasi ostidagi Serb knyazligi tashkil etildi. Davlat butun umrini Usmonlilarga qarshi kurashda o'tkazdi va Serb qirolligidan qolganlarning davomi edi. U 1540 yilda, Usmonlilar tomonidan serb yerlarini bosib olish, 200 yil davom etgan doimiy urush nihoyat yakunlanganida quladi.

Usmonlilarning Bosniyaga qarshi dastlabki yurishi 1388 yilda boshlandi. Ammo birinchi jang omadsiz kechdi, mag'lubiyatga uchrab ortga chekinishga majbur

bolishdi. Vlatko Vukovich boshchiligidagi 30 ming bosniyalik askarlar Kosova jangida qatnashishdi va turklarni ehtimoli hujumidan himoya qilishdi lekin Serbiyaning quashi bosniyaliklarni chekinishiga sabab bo'ldi. Bosniyalik feodallarning ko'p qismi XV-asr boshlarida Usmonlilarning vassaliga aylandi va XV-asr o'rtalariga kelib Sharqiy Bosniyada (Hozirgi Sarayevoning sharqida) turklar slavyan manbalarida "Bosniya Kraynaya", turkchada esa "Vilayet Hodidyed" yoki "Vilayet Saray-ovasy" nomlari bilan mashhur bo'lgan harbiy-ma'muriy birlikka asos soldi. Bosniyada ichki nizolar tufayli, Turklar vassaliga aylanishga majbur bo'lishdi. Lekin ushbu qaror Bosniya qulashini oldini ololmadi. Bosniya hududiga egalik qilish uchun Vengriya va Usmonlilar o'rtasida to'qnashuv boshlanadi. Mehmet II 150 ming jangchi bilan vengriyaliklarni yengdi va Bosniyani barcha hududini o'zini qilib oldi. Ushbu jangda turklarga qarshi kurashgan Bosniya qiroli Stefan VII asirga olinib sulton farmoniga asosan qatl etildi. 1463 yilda Bosniya va Gersogovina Usmonlilar provinsiyasiga aylantirildi. [4: 465]

1519 yil Fransiya qiroli Fransisk I Gabsburglardan bo'lgan Karl V Muqaddas Rim imperiyasi imperatori bo'lganidan norozi edi va bu norozilik kelajakda ular o'rtasida urush boshlanishiga sabab bo'ldi. Ikki yirik mamlakat to'qnashuvi Usmonlilarga Yevropa siyosatida o'z tashqi siyosatini va ta'sirini kuchaytirishga yo'l ochib berdi. 1525 yilda Fransisk Karl Vga asrga tushganidan so'ng Turk sultonidan yordm so'radi. [6: 102]

Ushbu Vaziyatdan foydalangan Usmonlilar anchadan beri rejalashtirib kelingan Vengriyaga yurish boshladi. Usmonlilar armiyasi Vengriyani bosib olguncha ularga qarshi ko'plab to'qnashuvlar sodir bo'lgan. Birinchi to'qnashuv 1396 yil Bolgariyani bosib olgandan so'ng boshlandi. Asosiy janglar Bosniya, Serbiya va Dunay knyazliklari hududida bo'lib o'tdi. Yanosh Hunaydi boshchiligidagi Salib armiyasining Mehmed II ustidan qozonilgan g'alaba Usmonlilar qo'shinining Vengriya hududiga bosqinini 70 yilga kechiktiradi. Lekin Vengriya o'z ittifoqchilari Serbiya, Bosniya va Gersagovina zabt etilishiga qarshilik qila olmadi. Keyinchalik Turklar bosimni kamaytirib 1503 yil avgust oyida Ulaslo II bilan yetti yillik Dunay sulhi imzolashdi. 1510 yilda yana uch yillik sulh tuziladi, 1513 va 1517 yillarda esa ikki marotaba turklar tomonidan sulh uzaytiriladi. Ammo 1518 yilga kelib esa sulh tugatiladi va yangi qarama qarchilik boshlanadi. [7: 237]

Sulaymon I 1512 yilda Vengriyaga yurishni boshladi va bu yurush shunchaki bosqinchilik yurishi emas balki butunlay zabt etish niyatida boshlangan yurish edi. Vengriya zabt etilishi Sulaymonga Markaziy Yevropaga yo'l ochib, Usmonlilarga Yevropaning eng yirik dengiz yo'llaridan birining egasiga aylantirdi. 1526 yilda Moxachedagi to'qnashuv eng hal qiluvchi jang bo'di. Jangda Vengerlar qiroli jarohat

oldi va va vafot etdi. Moxachedagi jang Turklarni jangovor salohiyati naqadar qudratli ekanligini ko'rsatib berdi. So'ngra Vengriyaning qolgan hududlari ham asta-sekin Usmonlilar qo'l ostiga o'ta boshladi. Bosib olingan hududlar strategic muhim shahar Belgraddan boshqarilar edi. Qolgan hududlarni vassal sifatida qoldirishdi chunki usmonlilar uchun ular mudofa chizig'ini o'tab berardi. Sulaymon I Bolqon davlatlari bilan ajoyib tashqi siyosat olib borgan, xalqlarda norozilik kuchaytirmaslik uchun tezlik bilan bosib olish o'rniga ularni o'zlari vassalga aylanishini kutishgan va Usmonlilar boshqaruviga ko'nikishgandan so'ng qolgan hududlarni batamom zabt etishgan. [8: 255]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda XIV –XV asrlarda o'z hududini kengaytirmoqchi bo'lgan Usmonlilar va Bolqon yarimoroli mamlakatlari o'rtasidagi aloqalar tabiyki juda keskin tus olgan. Ba'zi kichik knyazliklar ushbu keskinlikda katta talofat olmaslik uchun vassalga aylanishgan va doimiy o'lpon to'lab kelishgan. Kechinlik ayniqsa Vengriya davlati bilan bo'ldi, Vengriya xalqi bir necha yil o'z hududini Usmonlilardan himoya qilishsada lekin ohir oqibat yengiladi. Ushbu to'qnashuvlar Usmonlilar imperiyasining Bolqon knyazliklari bilan juda qattiq tashqi siyosat olib borganligi ko'rsatadi. Sultonlarning ushbu siyosati tabiyki imperiyaning hududlari kengayishi va Yevropa siyosatida o'z o'rniga ega bo'lishiga olib keladi. Oldin kichik bir beylik deb bilingan Usmonlilar endi har bir davlat u bilan hisoblashadigan imperiyaga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Петросян Ю.А. “Османская империя: могущество и гибель”, М.: Интербук, 1990.-С. 253-256.
2. Pilat. L. “ Europe and the Ottaman world” – The Isis press- Istanbul, 2013
3. Katic. T. “ Serbia under the Ottaman Rule” – Jahrgang 47 - Wien, 2005.
4. “Энцикопедический словарь Брокгауза и Ефрона” – Том-4, Санкт-Петербург, 1891
5. Рунг, Э.В. “ Греко-персидские отношения в конце V – начале IV вв. до н. э.” – Казань, 2009.
6. Новичев, А.Д. История Турции. В 4 т. Т. 1. Эпоха феодализма (XI–XVIII вв.). - Л.: Издательство Ленинградского университета, 1963. – 314 с.
7. “История Венгрии” Первый том – «Наука», Москва 1971
8. Жилина.Ф.И. “Внешняя политика османского султаната в правление падишаха сулеймана I кануни”- Вестник ТИ, 2016

ЎЗБЕКИСТОНДА АГРАР СОҲАГА ОИД ҚАБУЛ ҚИЛИНГАН ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИ: ИСЛОҲОТЛАР ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ

Бегамова Насиба Холмурзаевна

Термиз агротехнологиялар ва инновацион
ривожланиш институти катта ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)

АННОТАЦИЯ

Иқтисодий ислоҳотларнинг ҳал қилувчи бўғини сифатида қишлоқ хўжалигида ислоҳот ўтказиш, уни жадал ривожлантиришга алоҳида эътибор берилди.

Калит сўзлар: ер мулкчилиги, пайчилик, ширкат хўжалиги, мелиоратив ҳолат, деҳқон хўжалиги, фермерлик.

ABSTRACT

Special attention was paid to agricultural reform and its rapid development as a crucial part of economic reforms.

Key words: land ownership, shareholding, cooperative farm, land reclamation, farming, farming.

КИРИШ

Мамлакатимиз иқтисодиётида муҳим тармоқ ҳисобланган аграр соҳанинг ривожланиши ва тараққий этиши учун мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ алоҳида эътибор қаратилиб, иқтисодий ислоҳотларнинг ҳал қилувчи бўғини сифатида қишлоқ хўжалигида ислоҳот ўтказиш, уни жадал ривожлантиришга алоҳида эътибор берилди. Бунинг сабаби Ўзбекистон аҳолисининг 64 фоиздан кўпроғи қишлоқ жойларда истиқомат қилиши, яъни ялпи ички маҳсулотнинг 24 фоизи аграр секторга тўғри келиши ва қишлоқда истиқомат қилганларнинг 37 фоизга яқини қишлоқ хўжалиги билан машғуллигида эди. Қишлоқ хўжалигидаги ислоҳотларни амалга оширишда энг устувор масала сифатида ерга мулкчилик масаласи ҳал қилинди. Ўзбекистон Республикасида суғориладиган ерларнинг камлигини ҳисобга олиб, ер хусусий мулк қилиб сотилиши мумкин эмаслигини, балки уни узоқ муддатли ижара шартлари билан топшириш мумкинлиги ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб қўйилди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Мустақилликнинг дастлабки қадамларидан бошлаб қабул қилинган меъёрий ҳужжатларда, хусусан «Ер тўғрисида» ги (20 июн, 1990 йил) ва

бошқа қонунларда ва Президент фармонларида қишлоқ хўжалигидаги туб ислохатларнинг ҳуқуқий асослари яратилди. 1991 йил 21 декабрда қабул қилинган «Дехқон (фермер) хўжалиқларини янада мустаҳкамлаш ва тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармон қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини замон талаблари асосида ташкил қилишда муҳим қадам бўлди. 1992 йил 3 июлда «Дехқон хўжалиги тўғрисида»ги Қонун қабул қилинди. 1992 йилдан атиги уч йил ичида мавжуд 1137 давлат хўжалигидан 1066 таси мулкчиликнинг акциадорлик, жамоа ва ижарадаги хўжаликка айлантирилди. Қишлоқ хўжалигида кўп укладли иқтисод вужудга келди. Шунингдек, чорвачиликда ислохатларни такомиллаштириш ва дехқон (фермер) хўжалиқлари ҳамда хусусийлаштирилган фермаларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги 1994 йил февралда қабул қилинган ҳукумат қарорлари ҳам катта аҳамиятга эга бўлди. 1991-1996 йилларда қишлоқ хўжалигида раҳбарликни яхшилаш, қишлоқда ўтказиладиган ислохатларнинг ҳуқуқий асосини яратиш чоралари кўрилди. Вазирлар Маҳкамаси биргина 1994-1995 йилларда қишлоқда ислохатлар ўтказишга доир 10 дан ортиқ қарорлар қабул қилди. Уларда қишлоқ хўжалиги комплексига раҳбарликни яхшилаш, замонавийлаштириш борасида қатор тадбирлар ишлаб чиқилди. 1996 йил 26 ноябрда Республика ҳукумати қишлоқ ва сув хўжалигини бошқаришнинг, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг самарадорлигини оширишга йўналтирилган янги тизимини яратиш мақсадида «Қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги вазирлиги фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида» қарор қабул қилди. Бундан олдинроқ 1996 йил 3 апрелида Президент «Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чоратадбирлари тўғрисида»ги Фармонни имзолаб, унда қишлоқда ислохатларни такомиллаштиришга қаратилган қатор тадбирлар кўзда тутилган эди. Мамлакат Олий Мажлиси 1996 йил 29 августда «Уруғчилик тўғрисида», «Селекция ютуқлар тўғрисида» Қонунларни қабул қилди. Ушбу қонунлар республикада уруғчилик масалаларига доир давлат сиёсатини амалга оширишнинг ҳуқуқий асосини яратди 1997 йилда шахсий томорқа хўжалиги 3 млн. гектарни ташкил қилди. Томорқа хўжалигининг экин майдони 1989 йили 257 минг гектар бўлса, 1997 йил 599,7 минг гектарга кўпайди. 1996 йили шахсий ёрдамчи хўжалиқларда 640 минг т. гўшт, 2,968 минг т. сут, 1,711 минг т. сабзавот, 321 минг т. мева, 307,8 минг т. полиз, 338,1 минг т. картошка, 729 млн. дона тухум етиштирилди. Ғаллакорлар 1996 йил давлатга 2 млн. 100 минг т. ғалла топширган бўлса, 1998 йили 4,6 млн. т. ғалла ҳосили етиштирилиб,

шундан 3,5 млн. т. си буғдой эди. Пахта майдонлари қисқартирилиб, донли екинлар майдони 2,5 млн. гектарга етказилди. Шунини таъкидлаш керакки, Ўзбекистон қисқа муддат ичида, яъни 1996 йил ғалла мустақиллигига эришди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг I чақириқ X сессияси (7 декабр, 1997 йил) аграр ва иқтисодий муносабатларни тубдан ўзгартириш юзасидан қатор қонунлар қабул қилди. “Ер кодекси”, “Қишлоқ хўжалиги кооперативи (ширкат хўжалиги) тўғрисида”, “Дехқон хўжалиги тўғрисида”, “Ер кадастри тўғрисида”ги Қонунлар қишлоқ хўжалигида иқтисодий ислохатларни чуқурлаштиришнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлади. Аграр ислохатларнинг дастлабки йилларида совхоз ва колхозлар жамоа хўжаликларига айлантирилган эди. Аммо улар хўжалик юритишда ўзларини тўла-тўқис оқламаганликлари туфайли мулк пайлари асосида ширкатларга айлантирилди. 1999 йил 898 та, 2000 йилда 856 та қишлоқ хўжалиги корхоналари ширкатларга айлантирилди. Уларнинг умумий сони 2003 йил 1 январ ҳолатига кўра, республика бўйича 1900 тага етди, уларда 1 млн. 400 минг киши ширкат аъзоси сифатида меҳнат қилди. Бироқ ширкат хўжаликлари ҳам ўзини оқламади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 24 мартдаги «Қишлоқ хўжалигида ислохатларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим йўналишлари тўғрисида»ги Фармонида аграр ислохатларнинг янги йўналишлари белгилаб берилди. Фармонга биноан 2003-2007 йилларда ширкат хўжаликлари тугатилди, уларнинг негизда фермер хўжаликлари ташкил этилди. 2007-2008 йилларда пахтачилик, сабзавотчилик, чорвачиликка ихтисослашган фермер хўжалиklarининг ер майдонлари қарийб 2,5 баробарга кенгайтирилди. Фермер хўжаликлари қишлоқ хўжаликлари ишлаб чиқарувчисининг асосий шаклига айланди. Маълумки, ҳукумат томонидан фермер хўжалиklarини ривожлантиришни тартибга солувчи бир қатор қонунлар, фармонлар, қарорлар ва меъёрий ҳужжатлар қабул қилинди. 2003 йил 27 октябрдаги № ПФ-3342- сонли «2004-2006 йилларда фермер хўжалиklarини ривожлантириш концепцияси тўғрисида»ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 30 октябрдаги «2004-2006 йилларда фермер хўжалиklarини ривожлантириш концепциясини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 476-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2005-2007 йилларда фермер хўжалиklarини жадал ривожлантиришга қаратилган тақлифлар тайёрлаш бўйича махсус тақлифлар тузиш тўғрисида», 2004 йил 4 ноябрдаги Ф-2069-сонли

Фармойиши, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 24 декабрдаги 607-сонли «2005-5007 йилларда фермер хўжалиklarини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорларида яқин йилларда фермер хўжалиklarини барқарор ривожлантиришни таъминлашнинг асосий йўналишлари белгилаб берилди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2008 йил 6 октябрдаги «Фермер хўжалиklари тасарруфидаги ер участкалари майдонини муқобуллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-3077-сон ва 2009 йил 22 октябрдаги «Фермер хўжалиklари тасарруфидаги ер участкалари майдонини янада муқобуллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-3287-сон Фармойишлари асосида 2008 йилдан бошлаб фермер хўжалиklarининг ер майдонларини муқобуллаштириш борасида йирик тадбирлар амалга оширилган. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 15 декабрдаги 362-сон «Фермер хўжалиklarига бериладиган ер участкалари майдонларини муқобиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори фермер хўжалиklarининг ер майдонларини муқобиллаштириш ишлари изчил давом эттирилди. 2003 йилда республикада қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқарилган жами маҳсулотларнинг 22,2 %и ширкат хўжалиklarига, 14,9 %и фермер хўжалиklarига, 62,9 %и деҳқон хўжалиklarида етиштирилди. 2005 йилда эса фермер хўжалиklarида 1 млн.дан ортиқ киши банд бўлиб, пахтанинг 66 %и, ғалланинг 55 %и фермер хўжалиklarида етиштирилди. 2006 йил биринчи ярмида 210 та ихтисослаштирилган мева-сабзавотчилик ва узумчилик ширкат хўжалиklари негизида 39 та фермер хўжалиklари ташкил этилди. Пахтачилик ва ғаллачиликда эса 447 ширкат фермер хўжалиklarига айлантирилди. Республикада етиштирилаётган қишлоқ хўжалигининг асосий маҳсулотлари фермер хўжалиklари хиссасига тўғри келмоқда. Хусусан, 1990-2013 йилларда мамлакатимизда дон ишлаб чиқариш тўрт баробар, картошка 7 карра, мева 3,4, гўшт 2,3, сут 2,6, тухум 3,6 баробарга ошди. 1991 йилда мамлакатда 1908,2 минг тонна донли екинлар ишлаб чиқарилди, 1996 йетиштирилган. Фермерлик ҳаракатининг ривожланиши натижасида 2017 йилда мамлакатимиз бўйича 8 млн. 377 минг т. ғалла, 2 млн. 930 т. дан зиёд пахта, 12 минг 450 т. пилла, 2 млн. 318 минг тонна гуруч, 23 млн т. мева-сабзавот, 13 млн т. гўшт ва сут маҳсулотлари олишга эришилди. 2018 йилда эса 6 млн. 124 минг т. ғалла, 2 млн. 300 минг т. пахта, 8 млн. 661 минг т. сабзавот, 2 млн. 411 минг т. картошка, 1 млн. 607 минг т. полиз маҳсулотлари, 2 млн. 100 минг т. га яқин мева, 1 млн. 314 минг тонна узум, 18 минг т. пилла, 1 млн. 789 т. гўшт, 7 млн. 830 минг т. сут

тайёрланди. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотларига кўра, 2018 йилда қишлоқ хўжалигининг Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотигаги улуши 28,8 % ни ташкил қилди. 2018 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 53,2 % и ўсимлик маҳсулотлари, 46,8 % чорвачилик маҳсулотлари ташкил этди. 2017 йилда қишлоқ хўжалигида 3,7млн. киши иш билан таъминланди (жами иш билан таъминланганларнинг 27,2 % и). Мамлакат аҳолисининг деярли ярми қишлоқ жойларда яшайди (2019 йил 1 январ ҳолатига кўра Ўзбекистонда 33,25 млн. киши, шу жумладан, қишлоқ жойларда 16,45 млн. киши (аҳолининг 49,5 % и) яшайди). Бугунги кунда ҳам ушбу соҳаларни янада ривожлантириш ва замон талабларига мослаштириш мақсадида жуда кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, тажриба сифатида қишлоқ хўжалигида «агросаноат мажмуаси» жорий этилмоқда, унда фермерлар пахтани давлатга эмас, балки тўғридан-тўғри кластердаги қайта ишлаш корхоналарига соади. Шунингдек, мева ва сабзавотларни экспорт қилиш бўйича ҳам маъмурий тўсиқлар олиб ташланиб, қулайликлар яратилмоқда. Яна бир жиҳат қишлоқ хўжалигини илм-фан билан боғлаш ва соҳада инновацияларни жорий қилишга ҳам катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, ресурс тежамкор технологияларни жорий этиш мақсадида 2019 йилда республика бўйича жами қарийб 11 минг гектар пахта майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий қилинган бўлиб, ҳар бир гектар учун давлат бюджетидан 8 миллион сўмдан жами 86,2 млрд. сўм субсидия ажратилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 июлдаги ПҚ-3824-сон «Фермер хўжаликларида ҳисоб тизимини тубдан яхшилаш ва уларга банк хизматлари кўрсатишни такомиллаштиришнинг қўшимча чоратadbирлари тўғрисида»ги қарорига асосан, туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари ҳузурида Фермер хўжаликлари бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботини юритиш марказлари ташкил этилди ва давлат бюджетидан молиялаштирилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, «ЎАЖБНТ» Маркази, 2003. Б. - 675.
2. Аҳмедова У.М. Ўзбекистонда фермерлик фаолиятини модернизация қилиш-тараққиёт омили. «Ўтмишга назар» журнали, № 15, 2019 й. Б. – 20-25.
3. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа коцерни Бош таҳририяти, 2000. – 560 бет.

4. Усмонов Қ. ва б. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, «Иқтисод-Молия», 2016. - 496-бет.
5. Усмонов Қ.ва б. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, «Иқтисод-Молия», 2006. Б. – 520.

YOSHLAR MEDIA MADANIYATI: O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich

Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola O‘zbekistonda yoshlarning media madaniyati, internetning yoshlar ong-u tafakkuriga ta’sirini o‘rganish borasidagi tarjiba va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Yoshlar, media, internet, axborot, veb-sayt, kompyuter, AKT.*

МОЛОДЕЖНАЯ МЕДИАКУЛЬТУРА: ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье опубликовано опыт и рекомендации по изучению медиакультуры молодежи Узбекистана, влияние Интернета на мышление молодежи.

Ключевые слова: *Молодежь, СМИ, интернет, информация, сайт, компьютер, ИКТ.*

YOUTH MEDIA CULTURE: UZBEKISTAN PRACTICE

ABSTRACT

This article presents the experience and recommendations of studying the media culture of young people in Uzbekistan, the influence of the Internet on the thinking of young people.

Keywords: *Youth, media, internet, information, website, computer, ICT.*

KIRISH

Hozirgi kunda global axborot tarmoqlari (internet, uyali va sun‘iy yo‘ldosh aloqasi) har bir mamlakatning rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy omilga aylanmoqda.

Hozirgi kunda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarurati ortib bormoqda. Qayd etish zarurki, 2016 yilda internetdan muntazam foydalanadigan aholi 12.1 mln kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2019 yilda bu raqam 22,5 milliondan ortiq foydalanuvchini tashkil etdi. “Mamlakatda mobil aloqa abonentlarining umumiy soni 22,8 mln kishini tashkil etadi, bunda uchinchi va

to‘rtinchi avlod mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 16 milliondan ortiq abonentni tashkil etdi”¹¹².

O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning 60 foizini 25 yoshgacha bo‘lgan kishilar tashkil etadi. Qolganlarning yoshi 25 dan yuqori, ya’ni, yoshlar O‘zbekistondagi eng faol Internet foydalanuvchilardir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Avvalambor shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda mazkur sohadagi ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va tashkiliy munosabatlarni 100 dan ortiq normativ-huquqiy aktlar tartibga soladi. Ushbu hujjatlar asosida AKT va internet tarmog‘ining oila mustahkamligiga va rivojiga ta’siri, oilaviy turmush tarzi qadriyatlarini targ‘ib qilish, oilalardagi, bolalar tarbiyasidagi salbiy ijtimoiy holatlarning profilaktikasiga qaratilgan bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”g‘iqonunida bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirish (11-modda), bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflashga (16-modda) doir alohida moddalar kiritilgan”¹¹³. Jumladan, mazkur qonunning 16-moddasida bolalar o‘rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti jumlasiga:

– bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sog‘lig‘iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazishga, o‘z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ‘ib qilishga undaydigan;

– bolalarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilish, qimor o‘yinlarida, ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish, fohishalik, darbadarlik, tilanchilik yoki g‘ayriijtimoiy xatti-harakatning boshqa shakllari bilan shug‘ullanish istagini paydo qiladigan;

– oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ‘ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a’zolariga nisbatan hurmatsiz munosabatni shakllantiradigan;

– g‘ayriqonuniy xulq-atvorni oqlaydigan va huquqbuzarlik sodir etishga olib keladigan;

– jamiyatda buzg‘unchilik g‘oyalarini targ‘ib etishga chaqiradigan;

–uyatli so‘zlarni o‘z ichiga olgan;

–pornografiya xususiyatiga ega axborotlar kiritilgan.

¹¹² O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi// <https://regulation.gov.uz/>

¹¹³ O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni// lex.uz/

Milliy va xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, Global tarmoqqa yoshlar ongiga ta‘sir etuvchi salbiy omil sifatida qarab, internetga kirishga taqiq qo‘yish emas, balki undagi foydali va zararli tomonlarni farqlash va ajrata olishga o‘rganishlari, yoshlarda axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish zarur va muhim.

“Yosh avlodga internet tarmog‘ida qulay, xavfsiz muhit yaratish, ta‘lim va bilim beruvchi resurslardan yagona nuqtadan foydalanishlarini tashkil qilish orqali sog‘liklari va rivojlanishlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi axborot hamda kiber-xurujlardan himoya qilish maqsadida “O‘zbektelekom” AK tomonidan 2017 yilda maxsus tarif rejalarini, “Xavfsiz internet” turkumi va qo‘shimcha xizmatlar”¹¹⁴ joriy qilingani diqqatga sazovordir.

Bu ishlarning natijasida yoshlar uchun deyarli 3 ming saytni qamrab olgan Yagona axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Aytish joizki, ularning ichida ilmiy-ta‘limiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sahifalar mavjud bo‘lib, ular yoshlarning barkamolligiga ijobiy ta‘sir etadi¹¹⁵. Natijada yoshlarni global tarmoqdan himoyalash ta‘minlanadi. Qolaversa, “ota-onalar uchun farzandlarining tarbiyasi uchun ma‘qul deb topgan hamda yoshlarda qiziqish uyg‘otadigan saytlarni tanlash yuzasidan taklif ham yo‘llash imkoni berildi”¹¹⁶.

Hozirda O‘zbekistonda internetdan foydalanayotganlarning yarmi mobil telefon orqali turli ijtimoiy tarmoqqa ulanadi. Mobil telefonlar ommalashuvi telekommunikatsiya kompaniyalari taqdim etayotgan nisbatan arzon va simsiz aloqaning mavjudligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, turli muassasalarda keng tarqalayotgan bepul Wi-Fi hamda internetdan simsiz foydalanishda qulay infratuzilma ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda internetga ulanish uchun faqat sim-karta kerak bo‘ladi, xolos. O‘zbekistonda mobil internet juda yaxshi rivojlangan – mamlakat aholisining mobil internetdan faol foydalanuvchilari soni qariyb 12 million nafardan ziyod fuqaro ijtimoiy tarmoqdan foydalanadi, deganidir. Shu bilan birga, yoshlar mahalliy veb-saytlardan foydalanishida ko‘proq nodavlat axborot manbalariga qiziqishining yuqoriligi va ularga ko‘proq ishonishi aniqlangan.

Similar Web, saytidan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda Imo ilovasi Android operativ tizimida yuklangan eng mashhur ilova hisoblanadi. Telegram ilovasi esa, ikkinchi o‘rinni egallaydi. Biroq Telegram Apple do‘konida 2018 yildagi ilovalarda Instagram va Imo ilovasidan yuqorida, birinchi o‘rinni egalagan bo‘lsa-da, O‘zbekistondagi Google Play do‘konida doimo yuklash trendida turibdi.

¹¹⁴ Internetdan samarali foydalanish – davr talabi // <https://ictnews.uz/uz/04/04/2018/internet-use/>

¹¹⁵ O‘zbekistonda bolalar uchun “xavfsiz internet” tarifi joriy qilindi // <https://www.terabayt.uz/post/uzbekistonda-bolalar-uchun-xavfsiz-internet-tarifi-joriy-qilindi>

¹¹⁶ Internetdan samarali foydalanish – davr talabi // <https://ictnews.uz/uz/04/04/2018/internet-use/>

Mamlakatimizda borgan sari ommalashib borayotgan Snapchat ijtimoiy tarmog‘i ushbu ko‘rsatkichda to‘rtinchi o‘rinda ko‘rsatilgan.

Virtual dunyoga bevosita bog‘lanib qolgan o‘smir yoshlar internetdan olinayotgan axborotlarga qaram bo‘lib qolishlari va mustaqil fikrlash qobiliyati susayishi mumkinligini ham nazarda tutish lozim. O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, internet o‘yinlari ularning ongida inson hayotining qadrini pasaytirishi va “yorqin kelajak”ka bo‘lgan puch xayol va orzularga qaram bo‘lishiga, “jihodchilar” g‘oyalari tarafdoriga aylanishigasabab bo‘lishi mumkin;

Biz natijasida o‘rganilayotgan sohani takomillashtirishga oid qo‘yidagi choralarni qo‘llash tavsiya qilimiz:

1. Zamonaviy axborot texnologiyalari odamlarning fikrlash tarzi, oila institutining barqaror rivojlanishi, yosh avlodning jamiyatdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatlarini ham tubdan o‘zgartirish xususiyatiga ega ekanini nazarda tutgan holda maktab o‘qituvchilari bolalarning bilim olishida yo‘l boshlovchilik vazifasini ham bajarishi lozim.

2. “Internet – ilm manbai”, “Internetdan foydalanish madaniyati” kabi mavzularda haftalik o‘tkazish va ularda internetdan unumli foydalanish va bolalarda axborot immunitetini shakllantirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar berish, seminarlar o‘tkazish va maktab o‘quvchilari ishtirokida turli viktorina va o‘quvchilar tomonidan yaratilgan multimedia mahsulotlarining prezentatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash lozim. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarning internetdan ermak uchun emas, balki samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

3. Yoshlarni internet va mobil aloqa vositalaridan foydalanish qoidalariga o‘rgatish, ularni internet tarmoqlarida tarqatilayotgan buzg‘unchi xabarlardan ogoh etish masalasiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Metodik maslahatlar va “davra suhbatlari” yakunlari bo‘yicha har chorakda Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi va pedagogik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda tegishli qo‘llanmalar nashr etishni yo‘lga qo‘yish lozim.

4. Maktabda ta‘lim olish jarayonlariga kompyuter va multimedia vositalari yordamida ma‘lum mavzular bo‘yicha mustaqil prezentatsiyalarni tayyorlash ko‘nikmalarini hosil qilish uchun tegishli tavsiyalar tayyorlash va ularni respublika maktablarida bosqichma bosqich joriy etish darkor.

5. Ta‘lim muassasalarida o‘qituvchilarning ma‘lum bir qismi zamonaviy kompyuter texnikasidan o‘quv jarayonida yetarli foydalanish malakasiga ega emas.

6. Shuning uchun ta‘lim muassasasidagi o‘qituvchilarni kompyuterda ishlashga o‘rgatishni quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, ta'lim muassasasida o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini aniq belgilab chiqish kerak.

Ikkinchidan, ta'lim jarayonida kompyuter texnikasining maqsadli ishlatilishiga erishish zarur. Bu bosqichning hayotga tatbiq qilinishi ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan ta'lim jarayonining hozirgi davr talablari, ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimi darajasiga yetkazish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, kompyuter texnikasidan o'quv jarayonida umumli foydalanish uning asosida amaliy darslar va seminar-treninglar o'tkazish hisoblanadi. Bu bosqichda asosan kompyuter texnikasini professional darajada biladiganlar qismidan foydalaniladi. Har bir fan o'qituvchisi o'zining fanidan kelib chiqib, AKTni dars jarayonida foydalanish ko'effitsiyentini aniqlashni bilishi kerak, ya'ni o'z o'quv fanida AKTdan foydalanish mumkinligi va qay o'rinda zarurligini aniq bilishi va tasavvur qilishi kerak.

7. Ota-onalarga farzandlari bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Mazkur usul o'spirin yoshlarni onlayn-xavfsizlik qoidalariga o'rgatishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi// <https://regulation.gov.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni// lex.uz/
3. Internetdan samarali foydalanish – davr talabi// <https://ictnews.uz/uz/04/04/2018/internet-use/>
4. O'zbekistonda bolalar uchun "Xavfsiz internet" tarifi joriy qilindi // <https://www.terabayt.uz/post/uzbekistonda-bolalar-uchun-xavfsiz-internet-tarifi-joriy-qilindi>.
5. Kadamovich, Y. J., Muzaffarovna, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarovna, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
6. Ramatov, J.S., Baratov, R.O'., Sultanov, S.H., Muratova, D.A., Xasanov, M.N., & Erniyozov, U.K. (2022). Yoshlar zamonaviy madaniy qiyofasi va umuminconiy qadpiyatlap tushunchacining mazmun-mohiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
7. Ramatov, J.S., Baratov, R.O'., Sultanov, S.H., Kushakov, Fayzulla Abdullaevich., Valiev, L.A., & Xasanov, M.N. (2022). Hozirgi davrda ijtimoiy adolat

haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlarning o'ziga xos talqini. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.

8. Ismoil Saifnazarov, & Sirojbek Habibullaevich Sultanov (2022). Ijtimoiy adolatni mustahkamlashda ijtimoiy tadbirkorlikni ustuvop jihatlap. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.

9. Ramatov, J. S., Muratova, D., Sultanov, S. H., Tuxtaboev, E., Kushakov, F., & Xasanov, M. N. (2022). Ijtimoiy adolat va qadriyatlar plyuralizmi. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.

10. Ramatov, J. S., Erniyozov, U. K., Sultanov, S. H., & Xasanov, M. N. (2022). San'atning tarixiy-falsafiy asoslarining bugungi kundagi ahamiyati. *World scientific research journal*, 9(2), 65-70.

11. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Sultanov, S., & Khasanov, M. (2022). Methods and means of formation of spiritual moral consciousness in students and youth of Uzbekistan. *World scientific research journal*, 10(1), 257-262.

12. Jo'raboev, N. Y., Baratov, R. O., Kushakov, F. A., Sultanov, S. H., & Xasanov, M. N. (2022). Xitoy falsafasining ijtimoiy-siyosiy qarashlari. *World scientific research journal*, 9(2), 43-48.

13. Ramatov, J., Sultanov, S., Nazarova, N., Khasanov, M., & Valiev, L. The place and role of women in the railway transport system of Uzbekistan. *Teoriya i praktika sovremennoy nauki Uchrediteli: OOO" Institut upravleniya i sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya"*, (12), 49-52.

14. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Sultanov, S., Nazarova, N., & Khasanov, M. Ways of regulating family relations and preventing conflicts (in the example of the state of Uzbekistan). *Teoriya i praktika sovremennoy nauki Uchrediteli: OOO" Institut upravleniya i sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya"*, (12), 45-48.

TYPES OF VOCABULARY AND THEIR ROLE IN HUMAN LIFE

Sh. D. Saidova

Uzbekistan State World Languages University, Master's department, Linguistics
(English language)

ABSTRACT

In our age of rapid accumulation of information, we first turn to dictionaries to get the necessary information quickly and conveniently. Regardless of our specialty, we always need it. This article focuses on the types of vocabulary and their place in human life.

Key words: *lexicography, thematic, terminological, encyclopedia, graph, morpheme, ideographic, vocabulary, phrase, cognitive.*

INTRODUCTION

Vocabulary concept. Different sources define the dictionary differently. A dictionary is a collection of words (or morphemes, phrases, idioms, etc.) arranged according to a certain principle and containing their meaning, use, origin, translation into another language and a reference that provides information about others. An important issue in creating a dictionary is the issue of the order of the material. Most often, it is used in alphabetical order, sometimes in combination with one or another arrangement principle. For example, nesting is used in many cases, that is, to combine words related to a common root into a single "nest" (within a dictionary entry), even if it breaks the alphabetical order. In fact, in these cases there is a retreat from the alphabetical order of words to the alphabetical order of roots. This turns out to be very convenient for some types of dictionaries, for example, derivational and etymological dictionaries. In reverse dictionaries, there is a special use of the alphabetic principle, where words are arranged alphabetically by the last letter of the word, rather than by the first letter of the word. The dictionary is a special encyclopedia of the language and provides the richest materials in the field of theoretical research in the field of linguistics. Many theoretical problems first find their solution in vocabulary. Dictionaries implement and test the results of linguistic theory, and often dictionaries are ahead of science with practical solutions to unexplored problems. Lexicographic descriptions themselves contain the results of linguistic analysis and therefore have great scientific value. We will get acquainted with the basic concepts and terms of lexicography, which both the compiler and the user should deal with in each dictionary. In the modern sense, a dictionary is an ordered (systematized) list of language units (usually words) of the same level with certain linguistic comments, interpretations, etc., usually in the form of a separate

book or series. Thus, we see that the original narrow meaning of the term (set of words) is now understood broadly: words are not necessary, because these can be morphemes or dictionaries of phraseological units, etc. We emphasize three more points when defining the concept of "dictionary": sorting - the described units are arranged in a certain way for the speed of finding or for other purposes: often in alphabetical order, but there are other ways of organizing the dictionary. can be (internal, frequency, semantic, etc.), we will discuss later; linguistic review - one or another aspect of word description (spelling, pronunciation, usage, education, semantics, etc.); usually in the form of a separate book - but a dictionary can also be a textbook or an appendix to another book (the first dictionaries were the same). Among the non-alphabetical principles of material placement, the most important is the principle of systematics (logical classification) of concepts represented by lexical units.

It is on the basis of this principle that ideographic dictionaries (also called "ideological" or "thematic" dictionaries) are created. One or another logical classification of concepts has been developed, and everything that should be included in the dictionary is located under the headings of this classification. Ideographic dictionaries can be bilingual or multilingual. Compiling dictionaries is a very difficult task. In addition to the general linguistic rules about the word, its meanings and usage, grammatical and phonetic features, it is necessary to know the technique of creating dictionaries and understand the content of the dictionary: 1) dictionary, i.e. lug selection of nouns (headwords) with cross-references and references; 2) highlight the meanings of a certain vocabulary;

DISCUSSION AND RESULTS

Lexicography (from the Greek *lexikos* - and refers to the word ...graphics) is a branch of linguistics dealing with the practice and theory of compilation. In the development of practical forms, lexicography is divided into 3 similar periods in different nations: 1) pre-word period. The main task is to explain unclear words; 2) the period of the first vocabulary. The main task is to learn the literary language, which is different from the spoken language for many peoples; 3) the period of development of lexicography is related to the development of national literary languages. The main task is to describe and normalize the vocabulary of the language, to improve the language culture of the society. Modern lexicography emphasizes the important social function of dictionaries, which record a collection of knowledge about the society of a certain period. Lexicography develops a typology of dictionaries. Monolingual lexicography (explanatory and other dictionaries), bilingual lexicography (translation dictionaries) are distinguished: educational lexicography

(dictionaries for language learning), scientific and technical lexicography (terminological dictionaries). Terminological dictionaries are dictionaries that contain the terminology of one or more special fields of knowledge or activity. Any dictionary consists of dictionary entries. A dictionary entry is the basic structural unit of a dictionary; text that explains the heading unit in the dictionary and describes its main features.

The structure of the dictionary entry is determined by the functions of the dictionary. But the lexical entry of any dictionary begins with a head word [otherwise: head word, lemma, black word (usually of the bold type that defines the head word)]. A collection of headed entries forms the dictionary or the left side of the dictionary. The right side of the glossary explains the title unit. The right part of the explanatory dictionary, as a rule, includes zones: grammatical features of the word, interpretation, type of meaning (direct, figurative); pictures (quotes, words); derivative nest; the so-called "zarhombo" part (phraseologisms) and others. Zones of the right part are developed for each dictionary. The sum of all dictionary entries constitutes the dictionary corpus. In addition to the corpus, any dictionary has a preface, a section "How to use the dictionary" (for some reason, no one reads it); list of conditional abbreviations, etc. The problem of vocabulary is one of the central issues in lexicography, because the choice of words determines both the type of vocabulary and the descriptive nature of words. For example, in the normative explanatory dictionary, only the words of the literary language are included in the dictionary, therefore false vocabulary is excluded: vernacular, slang, dialect words. The dictionary of the orthoepic dictionary contains only difficulty and pronunciation variants, etc. Dictionaries can be of different types.

First of all, they are clearly divided into two groups: encyclopedic and linguistic. The peculiarity of encyclopedias and encyclopedic dictionaries is that they explain not words, but reality expressed by certain words (objects and persons, events and concepts). The word encyclopedia comes from the ancient Greeks, which means "scope of knowledge", "study in the whole range of knowledge". Any student at any level of education can find the necessary information on the topic of interest in the encyclopedia. An encyclopedia is an important tool for self-education. It defines the structure of the encyclopedia, the content and principles of covering the material.

Along with universal encyclopedias and encyclopedic dictionaries, there are encyclopedias and encyclopedias on philosophy, history, technology, mathematics, physics, agriculture, medicine, mining, diplomacy, pedagogy, literature and many other fields. These are special encyclopedias and encyclopedic dictionaries. Their task is to explain the concepts (phenomena themselves) of the relevant fields of

knowledge, art, production, etc., in a certain framework, to arrange the words representing these concepts in alphabetical order. The number of words (dictionaries) described in the dictionary is the size of the dictionary. Usually information about the size of the dictionary is given on the title page or footnote of the dictionary. The set of dictionary access components is determined by the type of dictionary. For example, the most complete set of components is provided in explanatory dictionaries, the least - in spelling and similar one-sided dictionaries. Some explanatory or educational dictionaries cover so many descriptive parameters that each of them is distinguished in a special zone (visually, graphically): grammar zone, compatibility zone, meaning zone, picture zone, etc. Typology of dictionaries. Typology of dictionaries is a scientific classification based on the concept of an ideal dictionary (that is, a type of dictionary, as an example). However, it is usually built on a practical basis, that is, according to existing dictionaries. Therefore, we are not talking about the scientific typology of dictionaries in this sense, but only we can talk about the principles of its construction. Thus, there are several directions or parameters for the classification of dictionaries, which we can take as a basis: linguistic, semiotic, formal and socio-pragmatic. The role of dictionaries in human life. In our time, in the age of scientific development, the flow of publications in all fields of knowledge is increasing sharply in the conditions of rapid accumulation of information. All of this immeasurably increases the importance of various reference literature designed for quick and easy access to reliable information of a scientific, practical or cognitive nature. Currently, it is impossible to do without dictionaries and reference books, because they contain a huge amount of human knowledge arranged in alphabetical order. But not always a person can be civilized in his speech. All knowledge, especially knowledge of speech culture, should be acquired from primary school. Thus, in adulthood, he is already literate, and the use of additional sources of knowledge is based on his environment, profession, etc. Along with the development of the language, its standards are also improved. It is impossible to learn the norms of literary language once, it is necessary to improve speech culture regularly. In such cases, they turn to various dictionaries for help.

Each dictionary is not only a reference book, but also a theoretical essay on a specific branch of the language, which has the same scientific status as theoretical linguistics. Therefore, the dictionary is the most important learning tool. The dictionary not only saves time and effort, opens the way to knowledge accumulated by previous generations, but also fulfills the most important requirement of didactics. Therefore, any dictionary is primarily a work for learning. This feature is most clearly manifested in special educational dictionaries.

Summary. Dictionaries and reference books are a constant companion of our life and serve to expand our knowledge and improve our language culture. They are rightfully called satellites of civilization. Dictionaries are truly an inexhaustible treasure of the national language. It is the dictionaries that are encouraged to reflect the successes of the nation's development in the field of material and spiritual culture. It is not surprising that the French lexicographer Alan Ray rightly stated that "modern civilization is the civilization of vocabulary". With this, he wanted to emphasize the important role of dictionaries in the modern world, which penetrates into all aspects of our life. The famous French writer Anatole France wrote: "Dictionaries are the whole universe in alphabetical order! If you think about it, a dictionary is a book of books. It contains all the other books, you just need to extract them from it.

REFERENCES

1. Islamov I. Bobojonov SH. "Word Grading Dictionary of the Uzbek Language" 2007-2009.
2. Mengliyev B. Khudoyberdiyeva M. "Learning dictionary of Uzbek language phrases" 2007-2009.
3. Khojiev A. Explanatory dictionary of linguistic terms. - T.: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2002.
4. Gak VG, Roysenblit EB .. Essays on the comparative study of the French and Russian languages. - M.: Higher school, 1965.-243p.
5. Abdukhalilova, D. (2019). The formation of double words and their place in linguistics. In Proceedings of the scientific-practical conference "Young philology of Uzbekistan-2019 (Vol. 1, No. 30, pp. 172-173)
6. Sanakulov, Z. Linguistic Classification of Word-Forming Units in German and Uzbek: in the Confrontational Aspect. ACTA NUUZ, 1(4), 2020. 81-86p.

NOFILOLOGIK YO‘NALISHLARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILINI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH XUSUSIYATLARI: TARIXI VA ISTIQBOLLARI

Tojimatova Madinabonu Umidjon qizi

Namangan davlat universiteti 1-kurs doktoranti

MadinaIminjonova0207@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ESP (English for specific purposes) ya'ni, ingliz tilini maqsadli o'qitish xususiyatlari, tarixi va istiqbollari haqida so'z boradi. Hozirgi kunda chet tilga bo'lgan ehtiyoj faqatgina tilshunoslarda emas, balki boshqa kasb egalarida ham ortib bormoqda. Shu sababli, xorij va yurtimizda ESP yo'nalishi va uning ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: nofilologik ta'lim yo'nalishi, ESP (English for specific purposes), ESP xususiyatlari, EGP (English for general purposes)

ABSTRACT

This article talks about the characteristics, history and prospects of ESP (English for specific purposes) that, purposeful teaching of English for students studying non-philological education. Nowadays, the need for a foreign language is increasing not only among linguists, but also among other professions. Therefore, theoretical information about the direction of ESP and its importance in our country and abroad is provided.

Key words: non-philological education, ESP (English for specific purposes), features of ESP, EGP (English for general purposes)

KIRISH

Hozirgi jadal rivojlanayotgan dunyoda chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu jumladan, ingliz tili ham bizning mamlakatimizda chet tili sifatida anchagina o'z nufuziga ega bo'ldi. Ingliz tilini faqatgina tilshunoslar til nuqtayi nazaridan o'rganish va ingliz tilini umumiy maqsadlarda EGP (English for general purposes) egallashlari emas, balki boshqa soha vakillari ham o'zlarining kasblarini kelajakda rivojlantirish maqsadida ESP (English for specific purposes) o'rganishlari zamon talabi etib qo'yilmoqda. Bu borada hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlar va shu qatori yurtimizda ham ingliz tilini nofilologik yo'nalishlarda o'qitishni amalga oshirish uchun ko'plab ishlar qilinmoqda.

TADQIQOT METODLARI

Mamlakatimizda ingliz tilini o‘qitish va uni o‘rganishga juda katta e‘tibor qaratilib kelinmoqda va boshqa soha vakillarining ham chet tillarini shu bilan bir qatorda ingliz tilini egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida “ 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori imzolandi va amalda tadbiriq qilina boshlanishi ingliz tilini o‘qitishga bo‘lgan e‘tiborga yaqqol misol bo‘la oladi. Qabul qilingan qarorga ko‘ra, xorijiy tillarni keng ommalashtirish amalga oshirilmoqda va 2024/2025- o‘quv yiliga qadar davlat oily ta‘lim muassasalarda faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy til yo‘nalishidan tashqari) o‘qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darjadagi milliy va unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishini taminlash, xorijiy tillarni o‘qitishni raqamlashtirish, sohaga kerakli bo‘lgan zamonaviy axborot-komminikasiya texnologiyalarini keng joriy etish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Boshqa soha vakillari ingliz tilini o‘rganishlari nimani anglatadi? degan savol tug‘ilishi mumkin, bunga javob tarzida: shifokor, uchuvchi, mexanik, dizayner, kimyogar, biznesmen va boshqa kasb egalarining o‘z yo‘nalishi bo‘yicha kelajakda egallab turgan kasbini rivojlantirish maqsadida ingliz tilini o‘rganishlari nazarda tutiladi va bu ilm fanda ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o‘qitish ESP (English for specific purposes) deb yuritiladi.

Tilshunos bo‘lmagan boshqa soha vakillari uchun, ya‘ni nofilologik ta‘lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ESP o‘qitish EGP dan anchagina farq qiladi va o‘qituvchi va o‘quvchidan ham katta mas‘uliyat talab qilinadi.

Xorij tajribalarida ESP ning paydo bo‘lish sabablariga qiziqadigan bo‘lsak, buning uchta umumiy sabablarini mavjud: zamonaviy dunyo talablari, tilshunoslik fanlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, til o‘rganuvchilarga bo‘lgan e‘tiborning oshishi.

Tom Hutchinson va Alan Walternig (1987) fikriga ko‘ra,ESP ning muomalaga kirib kelishida ikkita muhim tarixiy davr asosiy ro‘l o‘ynaydi. Birinchidan, ikkinchi jahon urushining tugashi, o‘zi bilan xalqaro miqyosda ilmiy-taxnikaviy va iqtisodiy faoliyatning ulkan va misli ko‘rilmagan kengayish davrini olib keldi. Turli xil sabablarga ko‘ra, Qo‘shma Shtatlarning iqtisodiy qudrati sabali urushdan so‘ng xalqaro til sifatida ingliz tilidan foydalanish ommaviy tus oldi. Ikkinchi sabab esa, 1970-yillar boshidagi neft tanqisligi G‘arb boylik va bilimlarning neftga boy mamlakatlarga oqib kelishiga olib keldi. Bu hodisa ingliz tili nufuzini yanada ko‘tardi va oldin ingliz tili o‘z taqdirini o‘zi hal qilgan bo‘lsa, endilikda u til o‘quvchilardan

tashqari boshqa insonlarning xohish-istak, talab va ehtiyojlariga bo‘ysuna boshladi.¹¹⁷ Tilshunoslik fanlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ESPning paydo bo‘lishining ikkinchi asosiy sabablaridan edi. Oldingi davrlarda tilshunoslar tilning xususiyatlarini tavsiflashga kirishgan bo‘lsa, endilikda tilning real muloqotda qo‘llanilish usullariga e‘tibor qarata boshladilar. Muhim kashfiyotlardan biri ingliz tilining og‘zaki va yozma (produktiv) nutq shakllarini o‘rgatishda o‘ziga xos qiyinchiliklardir. Agar turli vaziyatlarda til turlicha bo‘lsa, u holda til o‘rgatishni muayyan kontekstlarda o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib moslashtirish ham mumkin. Shu tarzda, 1960-yillarning oxiri va 1970- yillarning boshlarida ingliz tilini fan va texnologiya tili (EST-English for science and technology)¹¹⁸ sifatida o‘rganila boshlandi.

ESPning paydo bo‘lishiga so‘ngi sababi endilikda til o‘rganuvchilariga ko‘proq e‘tibor qaratila boshlandi. Tilni yetkazib berish metodlariga shunchaki e‘tibor berish o‘rniga, o‘rganuvchilarning tilni o‘zlashtirish usullaridagi farqlarga ko‘proq diqqat qaratildi. Talabalar o‘qitishda turli ta‘lim strategiyalarini qo‘llashlari, turli ko‘nikmalardan foydalanishlari, turli ehtiyoj va qiziqishlardan kelib chiqqan holda harakat qilishlari kuzatildi. Shunday qilib, til o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga e‘tibor lingvistik bilimlarni berishda qo‘llanadigan metodika bilan bir xil darajada ustuvor bo‘ldi. Bunday individual ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun maxsus kurslarni ishlab chiqish bu fikrlashning tabiiy davomi edi. Hozirgi kunga kelib, ESL kurslaridagi asosiy e‘tibor o‘quvchilarga (learner-centred) yoki o‘rganishga (learning-centred) qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

ESP yondashuvini turli tadqiqotchilar turlicha tariflagan. Shunday tariflardan biri:” tilni o‘qitishga yondashuv, unda mazmun va uslub bo‘yicha barcha qarorlar o‘rganuvchining tilni o‘rganish sababiga asoslanadi deb hisoblashadi.¹¹⁹ Thomas Orr (1998) ning fikriga ko‘ra,” Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) umumiy maqsadlar uchun ingliz tili (EGP) bilimlari asosiga qurilgan o‘qitish bo‘lib, talabalarning aniq maqsadlarini amalga oshirish uchun ma‘lim fanlar yoki kasblarda ishlatiladigan ingliz tili bo‘yicha tayyorlashga mo‘ljallangan”¹²⁰. Yuqorida keltirilgan fikrlarga qaraydigan bo‘lsak, ikkalasi ham deyarli bir xil mazmunni anglatadi,lekin Thomas Orrning fikri nisbatan aniq va lo‘ndaroq,chunki qanday maqsadda ingliz tili o‘qitilmasin, albatta, fundamental umumiy bilimlar kerak bo‘ladi yani, EGP.

¹¹⁷ Tom Hutchinson, Alan Waters.1987.*English for Specific Purposes*.Cambridge University Press:Scotland , page 7

¹¹⁸ <https://www.sciedu.ca/journal/index.php/elr/article>

¹¹⁹ Hutchinson, T. & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centered approach*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.

¹²⁰ Orr, Thomas. (1998). The Language Teacher. ESP for Japanese Universities: A Guide for Intelligent Reform, 22(11), URL: <http://www.jalt-ublications.org/tlt/files/98/nov/orr.html>.

Yana bir olimning fikriga qiziqadigan bo‘lsak,” ESP- bu maxsus maqsadli til o‘rgatishning umumiy toifasining alohida holati”, -deb ta’kidlaydi Peter Strevens (1988). Strevens ESPni uning mutlaq va o‘zgaruvchan xususiyatlarini ko‘rsatish orqali aniqlab berdi. Strevens (1988) ESPning o‘ziga xos to‘rtta xususiyatini ko‘rsatib o‘tdi”

1. O‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan talablar
2. Ingliz tili o‘qitish mazmunining muayyan fan, kasb va ixtisosliklar bilan bog‘liqligi (integratsiyasi)
3. Leksika, grammatika va talaffuzni o‘rgatishda ushbu faoliyatga mos keladigan til va nutq mashqlarini tahlil qilishga qaratilganligi
4. Maxsus maqsadlarda ingliz tilini o‘qitish umumiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishdan farq qilishi.¹²¹

Biroq so‘ngi o‘ttiz yilliklarda keng chet tillar o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlar ESP yondashuvida “ kimni o‘qitamiz?, nimani o‘qitamiz? Va qanday o‘qitamiz?” degan tushunchalarda jiddiy munozaralarga sabab bo‘lmoqda.ESP bo‘yicha 1997-yilda Yaponiya konferensiyasida Tony Dudley-Evans o‘zgartirilgan ta’rifni taklif qildi:

1. ESP o‘rganuvchining o‘ziga xos talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilgan
2. ESP o‘zi xizmat qiladigan fanning asosiy metodologiyasi va faoliyatidan foydalanadi
3. ESP ushbu faoliyatga mos til (grammatika,leksika) va nutq faoliyatlarini o‘rgatishga qaratilgan.

Shunday qilib, ESPni o‘qitishda quyidagi o‘zgaruvchan xususiyatlar alohida ta’kidlab o‘tilgan.

1. ESP muayyan fanlar bilan bog‘liq yoki ular uchun mo‘ljallangan bo‘lishi lozim
2. ESP muayyan o‘qitish holatlarida umumiy ingliz tilidan boshqa metodologiyadan foydalanishi mumkin
3. ESP oliy o‘quv yurtida yoki kasbiy (professional) ta’lim sharoitida mutaxassislarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan.
4. ESP odatda o‘rta yoki yuqori til darajasidagi talabalar uchun mo‘ljallangan¹²²

¹²¹ Strevens, Peter. (1988). ESP after twenty years: A re-appraisal. In M. Tickoo (Ed.), ESP: State of the art (1-13). SEAMEO Regional Language Centre.

¹²² Dudley-Evans, Tony. and St John, M. (1998). Developments in ESP: A multi-disciplinary approach. Cambridge:Cambridge University Press. Pages 4-5

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, Tony Dudley-Evans ushbu atamaga ta'rif berishda Strevensning gaplaridan ilhomlangan va foydalangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish ya'ni, ESP ning paydo bo'lish tarixi va uning xususiyatlari haqida nazariy ma'lumotlar berib o'tildi. ESP bu maxsus ingliz tilini o'rganuvchilar (talabalar)ga amaliy maqsadni amalga oshirish uchun ma'lim bir sharoitda (muhandislik, tibbiyot sohasi, biznes, fan va boshqalar) kasbiy va ixtisoslik maqsadlarini xisobga olgan holda chet tillarini o'qitishdir. Shu sababli, ESP o'qituvchilari o'z talabalariga umumiy ingliz tili bilimlarini berishdan ko'ra, ular kelajakda kasbiy faoliyatlarida qo'llay oladigan til materiallari va til ko'nikmalarini o'rgatishlari lozim. ESP yo'nalishining kelajagi porloq, chunki bu yo'nalishda hali olib boriladigan ishlar talaygina. Yurtimizda sanoqli ixtisosliklar uchun ESP yo'nalishida o'quv dasturi va materiallar olimlar tomonidan ishlab chiqib, tadbiiq qilindi.Endilikda har bir ixtisosliklar uchun ESP yo'nalishida maxsus o'quv dastur va materiallar yaratilishini o'qituvchilar tomonidan kutib qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Tom Hutchinson, Alan Waters.1987.*English for Specific Purposes*.Cambridge University Press:Scotland , page 7
2. Hutchinson, T. & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centered approach*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
3. Orr, Thomas. (1998). The Language Teacher. ESP for Japanese Universities: A Guide for Intelligent Reform, 22(11), URL: <http://www.jalt-ublications.org/tlt/files/98/nov/orr.html>.
4. Strevens, Peter. (1988). ESP after twenty years: A re-appraisal. In M. Tickoo (Ed.), *ESP: State of the art* (1-13). SEAMEO Regional Language Centre.
5. Dudley-Evans, Tony. and St John, M. (1998). *Developments in ESP: A multi-disciplinary approach*. Cambridge:Cambridge University Press. Pages 4-5

Web saytlar

1. <https://lex.uz/docs/-5426736>
2. <https://www.sciedu.ca/journal/index.php/elr/article>

МАЪМУРИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА МАҲАЛЛИЙ ВАКИЛЛИК ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ

Шодмонов Бахтиёр Абдуллаевич

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академияси таянч докторанти

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада халқ депутатлари Кенгашлари фаолиятини такомиллаштириш бўйича сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислоҳотлар ва бу соҳада қонунчиликда амалга оширилаётган ишлар таҳлил қилиб берилган. Шунингдек, муаллиф томонидан “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида” қонун лойиҳасини такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.

***Калит сўзлар:** Маъмурий ислоҳотлар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, маҳаллий вакиллик органлари, маҳаллий ижро органлари, халқ депутатлари Кенгашлари, депутат, ҳоким, қонун лойиҳаси.*

ВОПРОС СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕСТНЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ В ПРОЦЕССЕ АДМИНИСТРАТИВНОЙ РЕФОРМЫ

Шодмонов Бахтиёр Абдуллаевич

Докторант Академии государственного управления при Президенте
Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются осуществленные за последние годы реформы по совершенствованию деятельности Советов народных депутатов и работа, проведенная в законодательстве в этой сфере. Также автором были внесены предложения по совершенствованию законопроекта «О местных представительных органах».

***Ключевые слова:** Административной реформы, местные органы государственной власти, местные представительные органы, местные исполнительные органы, Советы народных депутатов, депутат, хаким, законопроект.*

THE ISSUE OF IMPROVING THE ACTIVITIES OF LOCAL REPRESENTATIVE BODIES IN THE PROCESS OF ADMINISTRATIVE REFORM

Shodmonov Bakhtiyor Abdullaevich

base doctoral student of the Academy of Public Administration under the
President of the Republic of Uzbekistan

ABSTRACT

This article analyzes the reforms carried out in recent years to improve the activities of the Councils of People's Deputies and the work carried out in the legislation in this area. Also, the author made proposals to improve the draft law "On Local Representative Bodies".

Key words: *Administrative reform, local government bodies, local representative bodies, local executive bodies, Councils of People's Deputies, deputy, khokim, draft law.*

КИРИШ

Сўнги йилларда мамлакатимизда давлат ва жамият бошқаруви соҳасида мавжуд бўлган муаммоларни бартараф этиш учун маъмурий ислохотлар ўтказиш зарурати юзага келди. Шу сабабли маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятини такомиллаштириш билан боғлиқ муҳим ислохотлар амалга оширилмоқда.

Ушбу ислохотларнинг ҳуқуқий асоси сифатида 2017–2021-йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини ва унинг асосида қабул қилинган Маъмурий ислохотлар концепциясини айтишимиз мумкин. Ундан ташқари 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида ҳам ушбу ислохотларнинг мантиқий давомини кўришимиз мумкин.

Тараққиёт стратегиясининг 2-мақсадида халқ депутатлари Кенгашларини ҳудудларда мавжуд муаммоларни ҳал қилишдаги асосий бўғинга айлантириш, 3-мақсадида эса маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятининг институционал асосларини замон талабларига мослаштириш каби вазифалар белгилаб қўйилган [1]. Ундан ташқари Президентимиз ўзининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида “Маҳаллий ҳокимлик ва Кенгашлар бундан 27 йил аввал, яъни, ҳокимлик институти жорий этилган дастлабки пайтда қабул қилинган қонун асосида ишламоқда. Бу ҳужжат бугунги ислохотларимиз талабларига мутлақо жавоб бермаслигини ҳисобга олиб, уни тубдан янгилаш зарур” [2] деган эди. Ана шу мақсадларни амалга

ошириш ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг фаолиятини янада такомиллаштириш учун “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида” [3] ва “Маҳаллий ижроия ҳокимияти тўғрисида” [4] қонун лойиҳалари ишлаб чиқилиб халқ муҳокамасига қўйилган.

Маҳаллий давлат ҳокимияти конституциявий ҳуқуқий институт ҳисобланади. Бунинг асосий сабаби шундаки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг XXI боби “Маҳаллий давлат ҳокимияти асослари. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари” деб номланган бўлиб, унда маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ташкил этиш тартиблари, ваколатлари, мақоми ва вазифалари белгилаб қўйилган.

2023 йил 30 апрелдаги умумхалқ референдуми натижасида янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида “халқ депутатлари Кенгашларига ҳокимлар бошчилик қилиши” ҳақидаги норма чиқариб ташланиб, “Халқ депутатлари Кенгашига унинг депутатлари орасидан қонунга мувофиқ сайланадиган раис бошчилик қилади” [5] деган норманинг киритилиши демократияни мустаҳкамлаш йўлидаги дадил қадам деб эътироф этиш мумкин. Чунки амалдаги конституциямизнинг 11-моддасида “Ўзбекистон Республикаси давлат ҳокимиятининг тизими — ҳокимиятнинг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши принципига асосланади” [6] деб белгилаб қўйилган бўлиб, ушбу уч ҳокимият бир-биридан мустақил ҳолда фаолият юритади. Ҳоким тегишли ҳудуддаги ижроия ҳокимиятига бошчилик қилган ҳолда шу ҳудуддаги вакиллик ҳокимияти органи бўлган халқ депутатлари Кенгашларига ҳам бошчилик қилиши бу – демократияда мос бўлмаган ҳодиса эди.

Янги таҳрирдаги конституциямизнинг яна бир афзаллик томони шундаки, 100 ва 101 моддаларда халқ депутатлари Кенгашларининг ваколатлари ва вилоятлар, туманлар, шаҳарлар ҳокимларининг ваколатлари аниқ белгилаб қўйилди. Аввал халқ депутатлари Кенгашларининг ва вилоятлар, туманлар, шаҳарлар ҳокимларининг ваколатлари умумий қилиб “Маҳаллий ҳокимият органлари” шаклида талқин қилинган эди. Бу икки органнинг ваколатларини ажратиб, аниқ белгилаб қўйилиши ҳам маҳаллий давлат органлари фаолиятининг самарадорлигини оширишда жуда муҳим воқелик бўлди.

“Сўнгги йилларда кўп ваколатларни Олий Мажлисга ўтказдик, уларни янада кенгайтиришни ўйлаяпмиз. Янги вазирни тайинлашда ҳам депутатлар иштирок этмоқда, режалари билан танишиб, маъқуллаяпти” [7]. Шунга мос равишда маҳаллий вакиллик органлари бўлган халқ депутатлари Кенгашларининг ваколатлари кенгайтирилиб, ҳокимларнинг кўпгина

ваколатлари Кенгашларга ўтказилиши ҳам ислохотларнинг мантиқий давоми бўлмоқда.

Янги тахрирдаги конституциямизда маҳаллий давлат ҳокимияти органларига оид нормалар янгиланиб, демократик принциплар янада мустаҳкамланган бўлсада, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолияти ҳали 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонун билан тартибга солинади. 2022 йил 27 декабрда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталига жойлаштирилган “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги ва “Маҳаллий ижроия ҳокимияти тўғрисида”ги қонун лойиҳалари ҳали Олий Мажлис Қонунчилик палатаси муҳокамасига киритилмади.

Шуларни инобатга олган ҳолда “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳасини янада такомиллаштириш мақсадида, ушбу қонун лойиҳаси юзасидан бир қатор таклиф ва тавсияларимизни ишлаб чиқдик.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон, қарорлари ва нутқларидан методологик манба сифатида фойдаланилди. “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳасига таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишда асосан контент таҳлилидан, шунингдек, илмий билишнинг анализ, синтез, тарихийлик ва мантиқийлик усулларида фойдаланилди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Юқорида айтиб ўтганимиздек, Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятини такомиллаштириш мақсадида “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳаси ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу қонун лойиҳасига ўзимизнинг таклифларимизни ишлаб чиққанмиз.

“Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳасида Халқ депутатлари Кенгашлари раиси ва унинг ўринбосарини ваколатлари кўрсатилмаган. Халқ депутатлари Кенгашлари раиси ва унинг ўринбосари янги ташкил этилган институт бўлиб, авваллари Халқ депутатлари Кенгашларига ҳокимлар раҳбарлик қилган (бу норма эски тахрирдаги конституцияда белгиланган эди) [8].

Қонун лойиҳасида халқ депутатлари Кенгашлари раиси ва унинг ўринбосарини ваколатлари аниқ қилиб кўрсатилиши лозим. Халқ депутатлари Кенгашлари ҳудудлардаги вакиллик ҳокимияти органлари эканлигини инобатга олсак, давлатимиз олий вакиллик органи бўлган Олий Мажлис Сенати раиси ва Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Спикерининг ваколатлари “Ўзбекистон

Республикаси Олий Мажлиси Сенати тўғрисида” [9] ги ва “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси тўғрисида” [10] ги қонунларда белгилаб қўйилган. Агарда Халқ депутатлари Кенгашлари раиси ва унинг ўринбосарини ваколатлари қонун лойиҳасида аниқ белгиланмаса, оқибатда қонунчиликдаги бўшлиққа, халқ депутатлари Кенгашлари раиси ва унинг ўринбосари фаолиятида ваколатларидан четлашишга ёки ваколатларини тўлиқ бажара олмаслигига (бажармаслигига) сабаб бўлиши мумкин.

Қонун лойиҳасида халқ депутатлари Кенгашларининг фаолиятини (7-модда) ва Халқ депутатлари Кенгашида доимий асосда ишловчи Депутатлар корпусининг(21-модда) молиялаштириш манбалари аниқ белгиланмаган, ушбу молиялаштириш манбалари аниқ белгиланиши керак.

Халқ депутатлари Кенгашларининг ўз ваколатларини муваффақиятли амалга ошириши учун молиявий имкониятлар билан тўлиқ таъминланиши лозим. Масалан: “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати тўғрисида” [11] ги ва “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси тўғрисида” [12] ги қонунларида Сенат ва Қонунчилик палатасининг фаолиятини молиялаштириш “Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан амалга оширилади ва ушбу бюджетда алоҳида сатрда назарда тутилади” деб белгилаб қўйилган. Халқ депутатлари Кенгашларининг фаолиятини молиялаштириш Давлат бюджетиданми ёки маҳаллий бюджетдан амалга оширилиши аниқ баён қилиниши зарур.

Қонун лойиҳасининг 6-моддаси “Маҳаллий вакиллик органларининг Ўзбекистон Республикаси бошқа маъмурий-ҳудудий тузилмалари давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари билан ўзаро муносабатлари” [13] деб номланган. Ушбу моддада халқ депутатлари Кенгашларининг маҳаллий ижроия органлари билан муносабатлари тўлиқ ёритилмаган.

Қонун лойиҳасида халқ депутатлари Кенгашларининг маҳаллий ижроия органлари билан муносабатлари, шунингдек, маҳаллий ижроия органларининг халқ депутатлари Кенгашлари олдида ҳисобдорлиги белгиланиши лозим.

2023 йил 30 апрелдаги умумхалқ референдуми натижаларига кўра янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 122-моддасида халқ депутатлари Кенгашларининг ваколатларига “ҳокимни лавозимга тасдиқлаш, унинг фаолияти тўғрисидаги ҳисоботларни эшитиш” [14] ва 125-моддасида “Вилоят, туман ва шаҳар ҳокими тегишли халқ депутатлари Кенгашига вилоятни, туманни, шаҳарни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим ва долзарб масалалари юзасидан ҳисоботлар тақдим этади” [15] деб белгилаб қўйилган. Ушбу нормалар яъни маҳаллий

ижроия органларининг халқ депутатлари Кенгашлари олдида ҳисобдорлиги “Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида”ги қонун лойиҳасида янада тўлиқроқ акс этиши зарур.

Қонун лойиҳасининг 10-моддасида “Халқ депутатлари Кенгашининг сессиялари халқ депутатлари Кенгашининг асосий иш шакли сессиядир. Халқ депутатлари вилоят, Тошкент шаҳар, туман, шаҳар Кенгашининг сессиялари Кенгаш раиси томонидан заруратга қараб бироқ, йилига камида икки марта чақирилади” [16] деб белгиланган. Бизнингча, йилига камида икки марта сессия чақириш етарли эмас.

Қонун лойиҳаси 10-моддасида сессия чақириш муддатини камида ҳар чорақда бир марта қилиб белгилаш лозим. Чунки қонун лойиҳасининг 42-моддасида “Туман (шаҳар) ички ишлар бошқармаларининг (бўлимларининг) бошлиқлари ҳар чорақда ва уларнинг ёшлар масалалари бўйича ўринбосарлари – ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси бўлимлари (бўлинмалари) бошлиқлари ҳар чорақда халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашларига ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва уларнинг профилактикаси ҳолати тўғрисида ахборотлар тақдим этади” [17] деб белгилаб қўйилган. Ушбу ахборотлар халқ депутатлари Кенгашининг сессиясида тақдим қилиниши ва депутатлар томонидан муҳокама қилиниши зарур. Шунинг учун ҳам сессия чақириш муддатини камида ҳар чорақда бир марта қилиб белгилаш лозим.

Қонун лойиҳасининг 26-моддаси “Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг халқ депутатлари Кенгашдан мустақиллиги” [18] деб номланган. Фикримизча, “ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг халқ депутатлари Кенгашидан мустақиллиги” жумласи ҳокимиятлар бўлиниши принципига зид. Ушбу моддадаги “ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг” сўзини олиб ташлаб, “Суд органларининг халқ депутатлари Кенгашидан мустақиллиги” деб номлаш ва қайта таҳрир қилиш лозим.

Аёнки, суд ҳокимияти давлат ҳокимиятининг мустақил тармоғидир, лекин ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар давлат ҳокимиятининг ижро этувчи ҳокимият тармоғига тегишли бўлиб, давлат ҳокимиятининг вакиллик органи бўлган халқ депутатлари Кенгашининг назоратида ва унга ҳисобдор бўлиши лозим.

2023 йил 30 апрелдаги умумхалқ референдуми натижаларига кўра янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 116-моддасида “Вазирлар Маҳкамаси ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон Республикаси Президенти олдида жавобгардир” [19] деб белгилаб қўйилган. Ушбу нормада давлатнинг ижро этувчи

ҳокимиятини амалга оширувчи органи (Вазирлар Маҳкамаси) давлат ҳокимиятининг вакиллик органи (Олий Мажлис) олдида жавобгарлиги белгилаб қўйилган бўлиб, бу норма маҳаллий даражада ҳам ишлаши лозим.

Қонун лойиҳасининг 28-моддасида “ҳалқ депутатлари вилоят ва Тошкент шаҳар Кенгашининг Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишларига зид бўлган қарорлари Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати томонидан бекор қилиниши”, “ҳалқ депутатлари туман ва шаҳар Кенгашлари қарорлари Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси қонунлари ва қарорларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарор ва фармонларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорларига, шунингдек юқори турувчи халқ депутатлари Кенгаши қарорига зид бўлса, тегишли вилоятлар ва Тошкент шаҳри халқ депутатлари Кенгашлари томонидан бекор қилиниши”, “маҳаллий вакиллик органларининг тегишли равишда Қорақалпоғистон Республикаси Адлия вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар адлия бошқармалари, тегишли равишда уларнинг туман (шаҳар) бўлимлари томонидан ҳуқуқий экспертизадан ўтказилмасдан қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари тегишли адлия органи киритган тақдимномага асосан шу ҳужжатни қабул қилган маҳаллий вакиллик органи томонидан бекор қилиниши” [20] каби нормалар белгиланган. Қонун лойиҳасининг 33-моддасида эса “ҳалқ депутатлари Кенгаши томонидан қабул қилинган ҳамда чиқарилган ҳужжатлар устидан фуқаролар, жамоат бирлашмалари, корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар томонидан суд тартибида шикоят қилиниши мумкин” [21] лиги белгиланган бўлиб, бунда суд халқ депутатлари Кенгаши томонидан қабул қилинган ҳамда чиқарилган ҳужжатлар устидан шикоят қилган фуқаролар, жамоат бирлашмалари, корхоналар, муассасалар ва ташкилотларнинг шикоятини қаноатлантирса ушбу ҳужжатлар суд томонидан ҳам бекор қилиниши мумкин. Шу сабабли қонун лойиҳасининг 28-моддасига “ҳалқ депутатлари вилоят, Тошкент шаҳар, туман ва шаҳар Кенгашларининг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Олий Мажлиси қарорларига, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарор ва фармонларига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорларига зид бўлса суд органлари томонидан ҳам бекор қилиниши мумкин” деган нормани ҳам киритиш лозим.

Президентимиз ўзининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида “Маҳалла раиси ва унинг ўринбосарлари ваколатларини

кенгайтириб, уларга аҳоли муаммоларини бевосита ҳал қилиш имконини яратишимиз керак. Бунда маҳалла раисига маҳаллий кенгаш мажлисида кўрилиши мажбурий бўлган масалаларни киритиш ҳуқуқини бериш лозим. Бу орқали муаммоларни тезкор ҳал қилишга эришиш имконияти яратилади” [22] деган фикрни илгари сурган эди. Шу сабабли қонун лойиҳасида маҳалла раисига маҳаллий Кенгаш мажлисида кўрилиши мажбурий бўлган масалаларни киритиш ҳуқуқи қайд этилиши лозим.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, қонун лойиҳасининг энг муҳим, эътиборга молик жиҳатлари бу – ҳокимларни Кенгаш ишига таъсири чекланганлиги, Кенгашга раҳбарлик қилиш учун Кенгаш раиси ва унинг ўринбосарлари лавозимини жорий этилганлиги, маҳаллий Кенгашда доимий асосда фаолият юритадиган депутатлар корпусининг жорий этилиши, ҳокимларнинг вакиллик ҳокимиятига ҳисобдорлиги реалликка айланиши ва натижада маҳаллий даражада ҳам ҳокимиятнинг бўлиниши принципи самаралироқ ишлашига шароит яратилаётганлигидир. Ундан ташқари, Кенгаш раиси ва уларнинг ўринбосарлари номзодини кўрсатишда партия фракциялари фикрларини инобатга олиш кўзда тутилганлиги сиёсий партияларни маҳаллий сайловларга ҳам кўпроқ эътибор қаратишига сабаб бўлади. Шу сабабли қонун лойиҳаси мамлакатимизда олиб борилаётган маъмурий ислоҳотларнинг мантиқий давоми сифатида халқ депутатлари Кенгашлари фаолиятини такомиллаштиришда муҳим ўринга эга бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
3. Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/oz/d/74612>
4. Маҳаллий ижроия ҳокимияти тўғрисида қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/uz/d/74600>
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
7. Ўзбекистон Республикаси конституцияси. Эски тахрир. // <https://lex.uz/docs/-20596?ONDATE=09.02.2021%2001>
8. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати тўғрисида”ги қонун. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021-й., 03/21/683/0375-сон) // <https://lex.uz/acts/-51799>
9. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги қонун. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021-й., 03/21/683/0375-сон) // <https://lex.uz/acts/-51961>
10. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати тўғрисида”ги қонун. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021-й., 03/21/683/0375-сон) // <https://lex.uz/acts/-51799>
11. “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги қонун. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021-й., 03/21/683/0375-сон) // <https://lex.uz/acts/-51961>
12. Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/oz/d/74612>
13. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
14. Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/oz/d/74612>
15. Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/oz/d/74612>
16. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
17. Маҳаллий вакиллик органлари тўғрисида қонун лойиҳаси. <https://regulation.gov.uz/oz/d/74612>
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

ТАШКИЛОТЛАРДА МЕНЕЖМЕНТ БОШҚАРУВИ ВА УНИНГ ФУНКЦИЯЛАРИ

Атажанова Дилфуза Махкамовна,

2-Фарғона тиббиёт коллежи

Бизнесни ташкил этиш ва юритиш фани ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада ташкилотларда бошқарувчилик фаолияти, менежмент бошқаруви ва унинг функциялари ҳақида маълумотлар ёритилган. Таҳлилий мулоҳазалар юритилган.

***Калим сўзлар:** менежмент, меҳнат тақсимоти, бошқарувчанлик, фаолиятни мувофиқлаштирувчи, ишлаб чиқариш*

ABSTRACT

The article provides information about managerial activities, management management and its functions in organizations. Analytical comments are made.

***Key words:** management, division of labor, management, activity coordinator, production*

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация об управленческой деятельности, управленческом менеджменте и его функциях в организациях. Сделаны аналитические комментарии.

***Ключевые слова:** менеджмент, разделение труда, управление, координатор деятельности, производство.*

КИРИШ

Менежмент бу маълум бир иш тури, фаолият ҳисобланади. Бу махсус турдаги меҳнат билан бирга ҳамкорлик ва меҳнат тақсимоти. Ҳамкорлик шароитида ҳар бир ишлаб чиқарувчи умумий ишнинг фақат бир қисмини бажаради, шунинг учун умумий натижага эришишда бу жараёнда биргаликдаги ҳаракатлар талаб этилади ҳамда биргаликдаги меҳнатнинг барча иштирокчиларининг фаолияти мувофиқлаштирилади. Менежментнинг тўлиқ таърифни бериш қийин, чунки бу жуда мураккаб, кўп қиррали ҳодиса. 300 дан ортиқ таърифлар мавжуд.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Менежмент классикаси А.Фаёл куйидаги таърифни беради: “Бошқариш учун олдиндан билиш, тартибга солиш, бошқариш, мувофиқлаштириш ва

бошқариш; тахмин қилиш, яъни келажакни ҳисобга олиш ва ҳаракатлар дастурини ишлаб чиқиш; ташкил этиш, яъни икки томонлама моддий ва ижтимоий корхоналар қуриш; тасарруф этиш, яъни ходимларни тўғри ишлашга мажбур қилиш; барча ҳаракатларни мувофиқлаштириш, яъни боғлаш, бирлаштириш, уйғунлаштириш ҳаракатлари; белгиланган қоидаларга ва берилган буйруқларга мувофиқ амалга оширилган ишларни назоратга олиш”.

Ли Якокка эса менежмент “созлаш” дан бошқа нарса эмас деб ҳисоблайди. Акио Морита менежернинг сифатлари ҳақида фикр юритиб, у кўп сонли одамларни қанчалик яхши ташкил қила олишига қараб баҳо берилади, дейди. У энг яхши натижаларга қанчалик самарали эриша олиши уларнинг ҳар бири ўз ишларини бир бутун яхлит ҳолда бирлаштира олишида, деб билган. Питер Друкер эса менежментни ўзига хос фаолият тури сифатида белгилайди. Яъни уюлмаган оломонни мақсадли, самарали гуруҳга айлантиради, деб билади.

Менежмент ҳақида кўплаб таърифларни келтириш мумкин. Юқоридаги барча таърифларни умумлаштириб айтиш мумкинки, муайян мақсад асосида бошқарув субъектининг маълум бир бошқарув объектига таъсирдир.

Менежмент меҳнатнинг алоҳида тури сифатида меҳнатдан фарқ қилади. Бу моддий товарлар ва хизматларни яратади.

Бошқарувнинг хусусиятлари қуйидагилар:

- * бошқа одамларнинг иши бўлган меҳнат мавзуси;
- * меҳнат воситалари-ташкилий ва компьютер технологиялари, ахборот, уни йиғиш, қайта ишлаш ва узатиш тизими;
- * одамлар жамоаси бўлган меҳнат объекти муайян ҳамкорлик доирасида;
- * бошқарув қарори бўлган меҳнат маҳсули;
- * якуний натижаларда ифодаланган жамоанинг фаолиятига айланган меҳнат натижалари.

Ҳар қандай ташкилот очик тизимдир. Ташкилотнинг ҳаётий фаолияти учта асосий жараёндан иборат:

- 1) ташқи муҳитдан ресурсларни олиш;
- 2) ресурсларни тайёр маҳсулотга айлантириш;
- 3) ишлаб чиқарилган маҳсулотларни ташқи муҳитга ўтказиш.

Менежер бу ташкилот фаолиятининг муайян турлари бўйича қарорлар қабул қилиш ваколатига эга шахс.

Менежмент изчилликни таъминлайдиган ягона жараён сифатида қўшма меҳнат жараёни турли шаклларда амалга ошириладиган турли хил бошқарув функцияларидир. Бошқариш функцияларининг таркиби бошқариш тизимининг

ҳар қандай нарсага самарали жавобини таъминлаш, бошқариладиган тизим ва ташқи муҳитнинг ўзгариши билан боғлиқ.

Бошқарув объектига тўғридан-тўғри назорат таъсири уч функциянинг ўзаро таъсири орқали амалга оширилади:

- режалаштириш,
- ташкил етиш
- мотивация

Бу асосий бошқарув функциялари, улар ҳар қандай ҳолатда ташкилотда амалга оширилади. Асосийларидан ташқари, ўзига хос бошқариш вазибалари ҳам мавжуд. Уларнинг тўплами ва таркиби бошқариладиган объектнинг ўзига хос хусусиятларига боғлиқ. Буларга қуйидагилар киради: асосий ишлаб чиқаришни бошқариш, ёрдамчи ишлаб чиқаришни бошқариш, инсон ресурсларини бошқариш, молиявий менежмент, маркетингни бошқариш, инновацияларни бошқариш ва бошқалар.

Умуман олганда, режалаштириш жараёнининг ядроси мақсадларни белгилашдир.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Шарафиддинов, Хурсанд. Мавзу белгилашда давр ижтимоий мазмунининг ўрни. THEORITICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES 9 (9), 105-107. 2023
2. X Шарафиддинов. УРУШ ГУВОҲИ БЎЛГАН ДАРЁ. Filologiyaning dolzarb muammolari va innovatsion yechimlari, (2023), 8-11.
3. X Шарафиддинов. Алишер Навоий ижодининг ижтимоий кирралари. Хоразм Маъмун академияси, (2022), 206-207.
4. X Шарафиддинов. Уруш даври она ва бола фожиасининг бадий тасвири. Analytical Journal of Education and Development 3 (3), 10-109, 2023.
5. Nilufar Sharafutdinova. THE WORDS GOD AND BLUE (KO,,K) ARE THEONYMS, THE WORDS GOD AND BLUE (KO,, K) ARE THEONYMS, Vol-7-Issue Q2- 2022.
6. Sharafutdinova N. Mythology - ancient man's fiction. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 7 | Issue: 5 May 2021.

THEORETICAL STUDY ON THE IMPROVED COTTON TRAP

Akhmadjonova Gulshoda Adikhamjon qizi

Namangan Institute of Engineering and Technology

Natural fiber processing technology student

gulshodaaxmadjonova3@gmail.com

ABSTRACT

Firstly, members of large groups such as "BB", "X", "Y" and "Z" and "a" generation, in determining the differences under the influence of national, demographic, professional, geographical and other factors in the process of economic socialization, Uzbekistan It is appropriate to describe the socio-psychological uniqueness of the republic's territories by dividing them according to their "demographic" division and the similarity of their subcultures.

Secondly, although unorganized youth aged 26-29 years old in the regions know the meaning, essence and economic order, they are unable to fully observe the events happening around them, and show a lower level of reaction ability, while working with unorganized youth, specifies the need for the help of agents of economic socialization in coordinating their activities, clarifying their future plans, and rising to the position of subjects of active economic relations.

REFERENCES

1. Strategy for achieving gender equality in the Republic of Uzbekistan until 2030 // <https://lex.uz/docs/5466673>
2. Development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 // <https://lex.uz/docs/5841063>

3. SafarovD.Kh. Socio-psychological mechanisms of improving seller-buyer relations: Psychol. science. false on doctor (PhD)... dis: 19.00.05. - Navoiy: NavDPI, 2021. - 120 p.
4. Hayitov, O.E. Socio-psychological characteristics of entrepreneurial activity motivation: Psychol. science. candidate ... dis.: 19.00.05. - Tashkent: ToshDIU, 2005. - 146 p.
5. <https://adage.com/artisle/opinion/why-gen-z-wants-be-brand-so-creators/2435896>

XAVFSIZ TURIZM TERMINLARINING STRUKTUR-SEMANTIK VA CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Radjabova Hafiza Shukrulloevna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xorijiy tillar markazi boshlig'i

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xavfsiz turizm bilan bog'liq atamalarning tizimli va leksik tahlili o'tkazilgan. Jumladan, tadqiqot doirasida atamalarning strukturaviy-grammatik xususiyatlari, sinonimik munosabatlardagi ishtiroki, leksik-semantik tasnifi ko'rib chiqiladi, shuningdek, ushbu mavzuga bag'ishlangan misollar va adabiy manbalar asosida natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

***Kalit so'zlar:** termin, tub termin, yasama termin, turizm, xavfsizlik, xavfsizlikni ta'minlash, leksik tadqiq, grammatik tahlil, qisqartma terminlar.*

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ И СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ БЕЗОПАСНОГО ТУРИЗМА

Раджабова Хафиза Шукруллоевна

Начальник Центра иностранных языков МВД Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Данная статья проводит систематический и лексический анализ терминов, связанных с безопасным туризмом. В рамках данного исследования рассматриваются структурно-грамматические особенности терминов, их участие в синонимических отношениях, лексико-семантическая классификация, а также проводится анализ и обобщение результатов на основе примеров и литературных источников, посвященных данной тематике.

***Ключевые слова:** термин, корневой термин, производный термин, туризм, безопасность, обеспечение безопасности, лексический анализ, грамматический анализ, термины-аббревиатуры.*

COMPARATIVE AND STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF SAFE TOURISM TERMS

Radjabova Khafiza Shukrulloevna

Head of the Foreign Language Center of the Ministry of Internal Affairs of the
Republic of Uzbekistan

ABSTRACT

This article conducts a systematic and lexical analysis of terms related to safe tourism. Within the framework of this study, the structural and grammatical features

of terms, their participation in synonymous relations, lexico-semantic classification are considered, as well as the analysis and generalization of the results based on examples and literary sources devoted to this topic.

Keywords: *term, root term, derived term, tourism, safety, security, lexical analysis, grammatical analysis, abbreviation of terms.*

KIRISH

Ish o‘rinlari va korxonalar yaratish, infratuzilmani rivojlantirish hamda xizmatlar eksportidan daromad olish orqali zamonaviy turizmni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy dvigateliga aylantirib, turizmni rivojlantirishga sarmoya kiritayotgan mamlakatlar soni ortib bormoqda. Xizmatlar xalqaro savdosining manbai sifatida turizm dunyodagi eng yirik savdo kategoriyalaridan biriga aylanib bormoqda. Shunday ekan, har bir sohaning rivojlanishi shu sohaga oid terminlarning shakllanishini taqazo etadi. Olib borilayotgan tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishdagi amalga oshirilayotgan ishlar jadal sur‘atlarda rivojlanib, turizm diskursiga oid lug‘atlarning kundan-kunga ko‘payayotganligi ham sohaga yangicha yondashuvlarni kirib kelayotganidan dalolat beradi.

Turizmning rivojlanishi bilan uning xavfsizligini ta‘minlashga doir masalalarning ham ko‘tarilishi muhim ahamiyat kasb etadi. “Xavfsizlik”, “Jamoat xavfsizligi” tushunchalariga – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik

holati, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlaydi, “jamiyat xavfsizligini ta‘minlash” – davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim”¹³⁰ kabi izohlar berilgan.

B.Turdaliyevga ko‘ra, “xavfsizlik” va “turizm”ning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi va millatlararo o‘zaro ishonch hissini uyg‘otish omili ekanligi¹³¹ keltirib o‘tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bugungi kunga qadar leksikologiya bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ular asosida har bir sohaga oid ko‘plab lug‘atlar shakllantirilgan.

¹³⁰ 29.11.2021 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-son farmoni.

¹³¹ Б.Турдалиев. “Туризмда хавфсизликни таъминлашга оид атамаларнинг инглиз ва ўзбек тилларидаги хусусиятлари” ‘Science and Education’ Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8.

S.Ibrohimovning kasb-hunar, N.Mamatovning paxtachilik, N.Mirzayevning etnografiya, T.Tursunovanning amaliy san'at, M.Asomiddinovaning kiyim-kechak, N.Bakievaning zardo'zlik, A.Jo'raboyevning to'y marosimlari, A.Madvaliyevning kimyo, A.Sobirovning tomosha san'ati, I.Yo'ldoshevning kutubxonashunoslik, S.Usmonovning yilqichilik, Z.Mirahmedovanning anatomiya, H.Dadaboyev, D.Baxronovalarning harbiy-mudofaa, D.Mishraning hammualliflikdagi online o'qitish terminologiyasi va hokazo sohalarga bag'ishlab yozilgan tadqiqotlarda muayyan soha leksikasining nazariy hamda amaliy muammolari ma'lum bir ma'noda o'z yechimini topdi¹³²¹³³¹³⁴. Yuqoridagi tadqiqot ishlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda o'zbek tilining muayyan sohasiga oid leksemalar tadqiqot ishlarining asosi ekanligi va asosiy e'tibor ko'prok terminlarning grammatik, tarixiy-etimologik, terminologik xususiyatlariga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ma'lumki, tilning asosiy birligi leksema – so'zdir. Har bir soha tilining o'zaro shakllanish davri, rivojlanishi va turli xil lug'at tarkibi – so'z boyligi mavjud bo'lib, uni tadqiq etish murakkab va ko'p qirrali hodisa sanaladi. Sababi, so'z – tilning haqiqiy, jonli, mustaqil birligidir¹³⁵.

Qolaversa, so'z ham til birligi, ham nutq birligi sifatida o'zida muayyam munosabatlar, belgi – xususiyatlar harakat va holatlarning o'ta murakkab jihatlarini ifodalab kela oladi¹³⁶. Har bir so'z muayyan qirra, tomon va imkoniyatlarga ega o'ziga xos kichik barqaror butunlik (sistemadi)dir¹³⁷.

Xavfsiz turizm leksikasiga oid terminlarni o'rganish orqali shunday xulosaga kelindiki, bunday terminlar asosan ot, sifat, fe'l, iboralar va yasama terminlarning ikki, uch, to'rt va undan ortiq komponentli shakllaridan tashkil topgan. Ular quyidagicha:

1. Ushbu terminlarning ko'p qismi **tub termin**lardan tashkil topgan.

a) Ot so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlar:

tour - sayohat, sayr;

coach - sayohat avtobusi;

sale - chegirma

trip – safar, sayohat;

¹³² O.O'rinova "O'zbek tilidagi qoramolchilik terminlarining leksik – semantik tadqiqi..Fil. f.n disser. 2007 15 b.

¹³³ Dadaboyev K., Bakhronova D. The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. Religación //Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades. – 2021. – T. 6. – №. 30. – С. e210871.

¹³⁴ Mishra D., Bakhronova D. & Djalilova U. Activity-Based Learning: An Analysis to Teach Learners Using Online Methodologies. Chapter. 2023 February Part of the Studies in Computational Intelligence / book series (SCI, volume 1068).

¹³⁵ Л.Лоя. История лингвистических учений. – Москва, 1968. - С.184.

¹³⁶ Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа //Ўзбек тили ва адабиёти. 1992. – № 5-6. – Б. 36 - 37.

¹³⁷ Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва, 1971. – С.16.

sightseeing – diqqatga sazovor joylar;
journey – safar;
safari – safari (yovvoyi hayvonlarni tomoshasi sayohati)
guide – gid (yo‘l boshlovchi)
patrol – patrul;
fine – jazo;
zone – zona;
shuttle - yo‘nalishli avtobus;
duty - xizmat vazifasi;
visa – viza;

b) Fe‘l so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlar:

detect- ochmoq, fosh etmoq;
prevent – oldini olmoq;
violate – qonunni buzmoq;
comply – qonunlarga bo‘ysunish;
expedite – yo‘naltirmoq;
frisk - tintuv o‘tkazmoq.

c) Sifat so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlar:

safe – xavfsiz;
historical – tarixiy;
medical – tibbiy;
cultural – madaniy;
formal – rasmiy;
national – milliy, mamlakatga oid.

2. Yasama terminlar orqali yasalishi. Xavfsiz turizm sohasiga oid terminlarda suffikslarning o‘rni muhim, ular fe’llardan va sifatlardan ot yasashda ancha faol ekanligini ko‘rish mumkin. Quyidagi suffikslar soha terminlari tizimida keng tarqalganlari hisoblanadi.

a) -ion, -tion, -sion, -ment, -ure, -age suffikslari orqali fe’llardan otga aylanuvchi ma’lum tushunchalarni anglatadigan terminlar yasalishi:

decontamination – zararsizlantirish;
indication - yo‘riqnoma, ko‘rsatma;
direction - yo‘nalish;
prevention – oldini olish;
limitation – cheklov;
regulation –tartibga solish;
violation –qonunbuzarlik;

rotation – xodimlarni almashtirish;

humiliation – xo‘rlash;

deterioration – vaziyatni yomonlashishi;

devastation – vayronagarchilik, halokat;

detection – aniqlash, fosh etish;

suppression – kuch bilan bostirish;

apprehension – qo‘lga olish;

detachment – guruh, bo‘linma;

alignment – tarafkashlik;

enforcement – ijro etish, amalga oshirish;

internment – qurolsizlantirish, ushlab qolish;

harassment – tahqirlash;

posture – tananing muayyan holati;

exposure – himoyasiz qolish;

expenditure – sarf-harajatlar;

legislature – qonun chiqaruvchi hokimiyat;

baggage – yuk;

sabotage – buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik;

documentation – hujjatlarni rasmiylashtirish;

resolution – qaror;

identification – aniqlash;

punishment – jazolash;

b) -ism, -ty, -ity, -ness, -ence, -ance ort qo‘shimchalar yordamida sifatlardan yangi terminlar yasalishi orqali:

antagonism - antagonizm (bir-biriga qarshi kuchla);

hooliganism – bezorilik;

vandalism – buzg‘unchilik, vandalizm;

extremism – ekstremizm (diniy);

nationalism – milliylik;

terrorism – terrorizm;

safety – xavfsizlik;

externality – tashqi ta’sir;

cruelty – shafqatsizlik;

legality – qonuniylik;

tranquility – tinchlik;

property – mulk, buyum;

awareness – ogohlik, xabardorlik;

willingness – hozirlik, shaylik;
indifference – befarqlik;
negligence – loqaydlik, beparvolik;
violence – zo‘ravonlik, kuch ishlatish;
surveillance – kuzatuv;
resistance – qarshilik;
circumstance – vaziyat;

3. Qo‘shma terminlar orqali yasalishi:

a) Sof qo‘shma terminlar orqali:

mileage – bosib o‘tilgan masofa;
coverage – o‘rab olish, kuzatuv zonasi;
package – pochta, posilka;
storage – saqlash joyi;
paperwork – hujjatlar tekshiruvi;
pilgrimage – ziyorat;
ecotourism – ekoturizm;
airline – aviakompaniya;
checklist – bajariladigan ishlar ro‘yxati;
fingerprint – barmoq izi;
switchblade – buklanadigan pichoq;
crossroad – chorraha;
pickpocket – kissavur, cho‘ntakkesar;
guesthouse – kichik mehmonxona;
database – ma’lumotlar bazasi;

b) **Qisqartma** terminlar orqali:

Interpol (International Police) – Xalqaro polisiya tashkiloti;
ATM (Automated Teller Machine) – bankomat;
ID (identification) – o‘zini tasdiqlovchi hujjat;
GPS (global positioning system) - global joylashuvni aniqlash tizimi;
SW&M (special weapons and munitions) - maxsus qurol va o‘q-dorilar;
OH (on-hand) – naqd pul;
WO (warning order) – ogohlantiruvchi buyruq;
PIN (personal identification number) - shaxsiy identifikatsiya raqami;
TR (traffic post) – transport nazorati posti;
AWOL (absent without leave) – xizmat joyini o‘zboshimchalik bilan tark etish.

c) **Birikmali** terminlar orqali:

1. Ikki komponentli

a) ot + ot shaklidagi

crime prevention – huquqbuzarliklar profilaktikasi;

population density – aholi zichligi;

nature tourism - tabiat turizmi;

tourism industry – turizm sanoati;

public control – jamoatchilik nazorati;

penalty area – jarima maydoni;

youth tourism – yoshlar turizmi;

juvenile delinquency - voyaga etmaganlar jinoyati;

safety standards - xavfsizlik standartlari.

b) sifat +ot shaklidagi

offensive touching - ahloqsiz hatti-harakatlar;

international crimes – xalqaro jinoyatlar;

prevailing law - amaldagi kelishuv;

anonymous news - anonim xabarlar;

malicious criminal – ashaddiy jinoyatchi;

antisocial behavior – axloqqa qarshi huquqbuzarlik;

ethnic tourism, gastronomic tourism, domestic tourism, recreational tourism

criminal activity – jinoiy faoliyat;

security measure – xavfsizlik chorasi;

2. Uch komponentli

tourist information point - turistik ma'lumot punkti;

Tourist Police Station – turistik politsiya bo'limi

ensuring public safety – jamoat xavfsizligini ta'minlash

fight against criminality – jinoyatchilikka qarshi kurashish

ensuring safe tourism – xavfsiz turizmni ta'minlash;

medical reception station – tez tibbiy yordam posti;

individual protective equipment – shaxsiy himoya vositalari

3. To'rt va undan ko'p komponentli:

maintenance of public order – jamoat tartibini saqlash

prevention of road accidents – yo'l-transport hodisalarini oldini olish;

mouth to mouth resuscitation – sun'iy nafas;

early identification of causes and conditions – sabab va shart-sharoitlarni

barvaqt aniqlash;

safety of tourist activities – sayyohlik faoliyati xavfsizligi.

Ingliz tilidagi soha terminlarining shakllanishi va boyishida lotin, nemis va fransuz tillaridan o‘zlashgan terminlarning o‘rni alohida. Misol sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

denunciation – odamlar oldida ayblash (lat. *denuntiation*)

loiter – bemaqsad yurmoq, atrofga alanglab yurmoq (nem. *loteren*)

garrison – garnizon (fran. *garison*)

defend – himoya qilish, mudofaa qilmoq (fran. *defendre*)

detachment – guruh, bo‘linma (fran. *détachement*)

O‘zbek tilidagi terminlar esa lotin, nemis, fransuz tillaridan tashqari, ingliz va rus tillaridagi o‘zlashgan so‘zlar va birikmalar shaklidagi terminlardan tashkil topgani ma’lum bo‘ldi.

identification – identifikatsiya (lat. *identificat*)

provoke –provokatsiya (fran. *provoquer*)

factor –faktor (lat. *factor*)

interview – intervyu (suhbat), savol-javob qilmoq (fran. *entrevue*)

integration – integratsiya (birlashish) (ingl.)

Terminologiyada minimum farqlanishlar prinsipi muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun o‘zlashtiriluvchi til grammatikasi nuqtai nazaridan o‘zlashmalar morfemalarga (ma’noli qismlarga) ajratilmaydi, faqatgina suffikslar yoki prefikslar bilan boyitiladi hamda leksikadan o‘rin oladi¹³⁸.

Soha terminologiyasi tizimida leksema va iboralarni sinonimik munosabatga kirishishini ham kuzatish mumkin, lekin tarjima jarayonida ularning har biriga mos keladigan o‘ziga xos aniq ma’noni hisobga olinishi lozim.

malicious criminal (syn. *hardened criminal, hardened offender, habitual criminal*) – ashaddiy jinoyatchi;

profit-motivated crime (syn. *acquisitive crime, lucrative crime, mercenary crime, acquisitive offence*) – g‘arazgo‘ylik jinoyati;

implement (syn. *execute, accomplish, carry out*) – amalga oshirmoq, bajarmoq;

fault (syn. *guilt, blame*) – ayb.

XULOSA.

Xavfsiz turizm terminlarining leksik tadqiqi shuni ko‘rsatdiki, ularning yasalishi, tuzilishi va shakllanishi quyidagicha:

1. Soha terminlari, asosan ot, sifat, fe‘l, ibora va yasama terminlardan tashkil topganligi dalillandi.

¹³⁸ Валиев Т.К. “Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур – семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини” фал.ф.б.ф.д.дисс. автореф. Самарқанд . – 2018.

2. Terminlarning boyishida lotin, nemis va fransuz tillaridan o‘zlashgan leksemalarning katta ahamiyatga egaligi asoslandi.

3. Soha terminlarining boshqa terminlar bilan sinonimik munosabatlarga kirishishi faktik misollar orqali tasniflandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021-yildagi 27-son farmoni.
2. Валиев Т.Қ. “Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур – семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини” фал.ф.б.ф.д.дисс. автореф. – Самарқанд . – 2018.
3. Dadaboyev K., Bakhronova D. The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. *Religación //Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades*. – 2021. – Т. 6. – №. 30. – С. e210871.
4. Лоя Л.В. История лингвистических учений. – Москва, 1968. - С.184.
5. Мирзахмедова Х.В. “Форс тили транспорт терминларининг структур қатламлари ва ясаиш усуллари” фал.ф.б.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент . – 2017.
6. Mishra D., Bakhronova D. & Djalilova U. Activity-Based Learning: An Analysis to Teach Learners Using Online Methodologies. Chapter. 2023 February Part of the Studies in Computational Intelligence / book series (SCI, volume 1068).
7. Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). фил.ф.д.дисс. – Тошкент. - 2016.
8. Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа //Ўзбек тили ва адабиёти. 1992. -№ 5-6. - Б. 36 - 37.
9. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. -М., 1971. - С.16.
10. Турдалиев Б. “Туризмда хавфсизликни таъминлашга оид атамаларнинг инглиз ва ўзбек тилларидаги хусусиятлари” “Science and Education” Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8.
11. Эркинов С. Э. “Ҳарбий касбга оид лисоний бирликларнинг систем-функционал хусусиятлари (инглиз тили материали асосида)” фал.ф.б.ф.д.дисс. автореф. – Самарқанд . - 2020
12. О‘rinova O.T. “O‘zbek tilidagi qoramolchilik terminlarining leksik – semantik tadqiqi. fil. f.n ilmiy dar olish disser., 2007 15 b.

RHETORIC IN THE ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Mukhammetkharisova Albina Ilgizovna

Faculty of Tourism, Chirchik State Pedagogical University

ABSTRACT

In this article discusses about rhetoric in the English and Russian languages and given some important information about them

Keywords: *rhetoric, speech, linguocultural, languages, express, research*

РИТОРИКА НА АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Мухамметхарисова Альбина Ильгизовна

Факультет Туризма, Чирчикский Государственный Педагогический
Университет

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается риторика в английском и русском языках и дается важная информация о них.

Ключевые слова: *риторика, речь, лингвокультурология, языки, экспресс, исследование.*

INTRODUCTION

Scientific research directed at studying rhetoric aspect of speech culture is being carried out in a number of prestigious leading scientific centers and higher educational institutions of the world [1]. In N.A. Kashey, G.M. Yarmarkina, Z.I. Kurtseva [2] and other scholars approached to rhetoric aspect from Russian point of view. Scholars such as V.O. Nemchenco, N.U. Georgeva [3] approached to this topic from teaching point of view.

The gender and linguocultural peculiarities of rhetoric, linguistic and extra linguistic factors of it on the basis of dialogic speech have not been studied in not kindred languages by foreign and Russian scholars yet. Thus, it will strengthen the necessity of a new research work on the dialogic rhetoric.

In both languages women achieve a speech efficiency by pleasing, asking politely (*Please, Geordie, just for me, Geordie / Она смотрела на него своими юнными глазами. Плакала и умоляла: «Что это за зрелище?»*). They use repetition, exclamatory sentences in their speech (*will you enter... will you be there... Geordie... please, Geordie / ...Что это за зрелище? Как я могу оставить своего ребенка!; Will you be there, Geordie? / Должны ли мы вообще покидать Индию?*

Please, Geordie! / Пожалуйста, дорогой!). Expressiveness is gradually increased in their speech (You must win. You must beat that Weber. I shall wish it with all my heart! I want you to win, Geordie / ...сколько было мечтаний в моей голове...если только бы наш сын верно служил этой стране. Что,если мечты сбываются!).

DISCUSSION AND RESULTS

Women of the both nations try to express their speech politely and softly, this way expressiveness in their speech is increased. In persuading they use terms of endearment, praising words (*laddie* – паренек, *darling* – дорогой, милый, родной, *you are very beautiful tonight* – ты сегодня прекрасна.). While using terms of endearment English women in major cases use noun phrases, Russian women use verbal phrases additional to noun phrases (such as *my love, sweet, honey / дорогой, милый, золотко*).

They often use paralinguistic means such as crying, pleasing («*Have a mercy on me*», *she said cring / Она смотрела на него своими юными глазами. Плакала и умоляла...*).

They also achieve a speech efficiency by giving advice (*You must be very gentle, David. Now you must try to bring each other happiness. Marriage is full of difficulties, David / А ты читал,золотце мое, что в нашем объявлении написано?*). This linguistic phenomenon is mostly used in Russian women’s speech. They make very long sentences while giving advice and express their speech in whole texts. They remind the patterns taken from narrated stories and the religious book. Meanwhile the English women make shorter sentences, they just speak to the point.

In dialogic rhetoric praying for the sake of a listener is mostly used by Russian women (such as *Пусть Бог хранит тебя, желаю долголетия, будь здоров*). This linguistic phenomenon is mostly used in older women’s speech. English women rarely use these kind of phrases (such as *God bless you*).

Moreover the Russian women make their speech more efficient by using phrases such as “*что скажут люди?*” (What do other people, neighbours say about it?). This linguistic phenomenon is not used by English women, in these cases they can use the phrase *shame on you*.

English men widely use pleasing sentences while talking to women. Russian men prefer to be a bit proud in this situation and they don’t use linguistic units that have a pleasing meaning.

In both languages religious words and phrases, wishing good wishes, praying for the sake of a listener, advising are used (*God bless you..., be healthy.../ будь здоров..., храни тебя Господь..., всегда поддерживайте друг друга...*).

Different lifestyle, religion, culture and other factors that are related to these both nations reflect the existence of national gender peculiarities in dialogic rhetoric.

REFERENCES:

1. A review of international research on the topic of dissertation: <http://rhetoric.sdsu.edu/>; <http://ricercafilosofica.it/home/eikos/>; <http://ishr-web.org/aws/ISHR/pt/sp/journal>; <http://www.dissercat.com/content/sovremennaya-ritorika-v-sotsialno-politicheskom-vzaimodeistvii>; www.rhetor.ru/ and others.
2. Кашей Н.А. Современная риторика в социально-политическом взаимодействии. Дис. ...док. филол. наук. – Великий Новгород, НГУ, 2005. – 290 с.;
3. Ярмаркина Г.М. Обыденная риторика: просьба, приказ, предложение, убеждение, уговоры и способы их выражения в русской разговорной речи: Дис. ...канд. филол. наук. – Саратов: СГУ имени Н.Г. Чернышевского, 2001. – 180 с.;
4. Курцева З.И. Коммуникативно-нравственный аспект риторического образования: Автореф. дис. ...канд. пед. наук. – Москва: МПГУ, 2002. – С. 70.
5. Немченко В.О. Формування внутрішнього переконання судді в адміністративному процесі України: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Запоріжжя, ЗНУ, 2013. – 20 с.; Георгієва Н.Ю. Просодія переконування в англійському діалогічному мовленні: Автореф. дис. ...канд. філол. наук. – Одеса: ОНУ, 2005. – 21 с.

O‘SMIRLARDA IRODA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Boboyeva Feruza Nosirjonovna
Psixologiya va xorijiy tillar instituti
1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'smirlarda iroda shakllanishining psixologik xususiyatlari yoritib berilgan. Hamda har bir o'smir shaxsi o'ziga xos ruhiy kenglik bo'lib, unda o'quvchining ichki "men"ligi namoyon bo'ladi. Bu menlik uning tashqi menligi bilan birgalikda shaxsning o'zligini anglash imkoniyatlarini yaratadi. Natijada, o'quvchi o'qib o'rganish orqali o'zining atrofdagi borliqni, mavjud narsalarni, jamiyat tarixi va milliy madaniyatni, insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy, ma'naviy boyliklarni chuqur anglab yetadi. Bu esa uning milliy o'zligini anglashida o'z aksini topadi. O'smir shaxsining irodaviy sifatlarini o'rganish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: iroda shakllanishi, empirik ma'lumotlar, statistik tahlil, fenomen, o'smirlik yoshi, inqiroz, krizis.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЛИ У ПОДРОСТКОВ

Бобоева Феруза Насиржоновна
Магистрант Институт психологии
и иностранных языков

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются психологические особенности формирования воли у подростков. Личность каждого подростка-это своего рода духовная широта, в которой проявляется внутреннее "я"ученика. Это "я" в сочетании с его внешним" я " создает возможности для самореализации человека. В результате читатель, читая и изучая, достигает глубокого понимания окружающего его бытия, существующих вещей, истории общества и национальной культуры, культурных, духовных ценностей, созданных человечеством. И это отражается на его восприятии национальной идентичности. Выявлены пути изучения волевых качеств личности подростка.

Ключевые слова: формирование воли, эмпирические данные, статистический анализ, явление, подростковый возраст, кризис, кризис.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF WILL IN ADOLESCENTS

Boboyeva Feruza Nasirjonovna

Master's student Institute of Psychology
and Foreign Languages

ABSTRACT

This article highlights the psychological features of the formation of Will in adolescents. Also, each adolescent personality is a kind of spiritual breadth, in which the Inner "I" of the student is manifested. This self-consciousness, combined with his external self, creates opportunities for the perception of the identity of the individual. As a result, by reading and learning, the reader becomes deeply aware of his surrounding being, what exists, the history of society and national culture, and the cultural, spiritual riches created by mankind. This is reflected in his awareness of his national identity. Ways to explore the volitional qualities of a teenage personality have been revealed.

Keywords: will formation, empirical data, statistical analysis, phenomenon, adolescence, Crisis, Crisis.

KIRISH.

Jahonda insonning o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, biror faoliyatga qat'iyat bilan kirishishi, qiyinchilik va to'siqlarga qaramasdan mazkur ishni amalga oshirishda shijoat ko'rsatishi, tirishqoqlik va tashabbuskorlik namoyon etishi muvaffaqiyatli faoliyat garovi bo'lib qolmoqda. Zero, har qanday faoliyatda inson omili, uning irodasi yetakchi zahira hisoblanadi. Shuning uchun mazkur psixik voqelikka ta'sir etuvchi ichki, tashqi, ijtimoiy, tabiiy omillarni o'rganish, psixik imkoniyatlarni optimallashtirish usullarini aniqlash va tatbiq etish yuqori saviyali, kompetent mutaxassis, axloqli, insofli, o'z manfaatidan ko'ra jamiyat manfaatini ustun qo'yuvchi insonni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon psixologiyasida irodani tadqiq etishning ustuvorligi kuzatilmoqda. Xususan, zamonaviy inson hayot tarzining ijtimoiy-iqtisodiy globallashtirish natijasida keskin o'zgarishi, shaxs oldidagi psixologik, pedagogik, sotsial muammolarning vujudga kelishi undan kuchli iroda va ma'naviy-ma'rifiy resurslarni takomillashtiruvchi fundamental ilmiy izlanishlarni talab etmoqda. Jamiyatda raqobatbardosh, malakali mutaxassislarga bo'lgan talabning ortishi va ularning tanlov tizimining jiddiylashishi aynan bugungi o'zgaruvchan, shiddatli, interaktiv voqelikka tez moslashadigan, o'zi va faoliyatini mahoratli boshqara oladigan, maqsadi sari sobitqadam, sabotli, chiniqqan, serbardosh, qat'iyatli, mehnatkash kadrlarga ehtiyoj

juda ortib bormoqda. Shuning uchun, zamonaviy psixologiyada shaxsning ichki irodaviy imkoniyatlarini tadqiq etish, uning yosh, jinsiy xususiyatlarini aniqlash, qonun va mexanizmlarini ishlab chiqish mazkur ilmiy-tadqiqot va ilmiy-amaliy muammoga yuqori dolzarblik baxsh etmoqda.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLARTAHLILI

XX asrning 30-yillarida Yevropa mamlakatlari hamda AQSH psixologiyasida irodaning nazariy, eksperimental jihatdan tez sur'atlar bilan tadqiq qilinganligi ko'zga tashlanadi. Lekin ijtimoiy madaniyatning keyingi taraqqiyot bosqichlarida iroda kategoriyasiga nisbatan qiziqish birmuncha pasayganligi kuzatildi.

Hozirgacha soxa mutaxassislaridan ko'pchiligi o'smirlarda iroda shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. O'smirlarda iroda shakllanishining psixologik xususiyatlari, o'smirlarda irodaviy xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, ular irodaviy sifatlarini rivojlantirishning yo'llari, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar irodasini mustahkamlash bilan aloqador tasavvurlarning shakllanishi masalalari rus olimlaridan K.N. Kornilov, S.L. Rubinshteyn, B.M.Teplov, B.G.Ananyev, N.D.Levitov, A.V.Vedenov, V.A.Kruteskiy, P.A.Rudik, A.S.Puni, V.K.Kalin, L.S.Vigotskiy va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganib chiqilgan. Mamlakatimiz olimlaridan E.G'.G'oziyev, G.Q.To'laganova, R.I.Sunnatova kabilarning izlanishlarida o'smirlarda iroda shakllanishi muammosi tahlil qilingan.

O'smirlik yoshining klassik tadqiqotiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvohi bo'lamiz. O'smirlik yoshiga xos yorqin psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy (1930) tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo'lib, unda o'smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o'zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretasiyasi berilgan.

S.Xoll (1940) o'zining rekapitulyasiya nazariyasida o'smirlik yoshi insoniyat rivojlanish tarixining romantik davriga to'g'ri kelib, bolalik bilan kattalik orasidagi bosqich ekanligini ta'kidlaydi.

O'smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan yana biri nemis faylasufi va psixologi E.Shpranger (1924) o'smirlik yoshining birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to'g'ri kelib, bu yoshda bolalikdan qutulish sodir bo'lishini izohladi.

E.Shprangerning izdoshlaridan biri V.Shtern o'smirlik yoshini shaxs shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri deb qaraydi. V.Shtern "Do'stingni ko'rsatsang, kimligingni aytaman" degan naqlga "Hayotingdagi eng qimmatli kechinmangni ayt, men sening kimligingni aytaman" degan ma'no berib, uni

izohlashga harakat qiladi. Chunki o‘smir hayotining mazmunini tashkil etuvchi kechinmalar ta’sirida uning shaxsi shakllanadi.

Shunday qilib, XX asrning boshlarida o‘smirlik yoshini eng qiyin psixologik yosh deb tan olindi.

Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, hatti-harakat motivlari ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas», - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muxim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a’zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekresiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekresiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o‘sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi.

Har qanday o‘smir shaxsida o‘z-o‘zini baholash orqali unga ta’sir etadigan ijtimoiy omillarni aniqlash mumkin. Chunki odamning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi, o‘z ustida ishlashi avvalo, uning diqqati, ongi, bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, his-hayajon kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. O‘smir shaxsining o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlarini anglashi qanchalik adekvat, to‘g‘ri, real bo‘lishi uning barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. Shuning uchun shaxsning tarbiyalanganligini bilishda, uning o‘zi va o‘z sifatleri to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘rganish lozim. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning ijtimoiy normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni shaxs tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘smirlik davri maktab va boshqa ta’lim maskanlarida o‘qish davrlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrdagi yetakchi faoliyat o‘qish bo‘lib, unda bola bilim olish bilan bog‘liq, malaka va ko‘nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida ham muhim

o'zgarishlarga yuz tutadi. O'smir shaxsining har tomonlama yetuk shakllanishi, uning qiziqishlari ijtimoiylashuvi, ehtiyojlar tizimi, mehnat ustanovkalariga bog'liq jihatlarni to'g'ri tarbiyalash kerak. O'smirlik davridagi maktabdan bezish (dezadaptasiya) ga sabab bo'luvchi affektiv ruhiy hayajon, kuchli ehtiros, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixik holat jabhalarini o'rganish lozim. Ayniqsa, ushbu hodisaning tuzilishi, uning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini o'rganish o'smirlar bilan amalga oshiriladigan profilaktik va korreksion ishlarning samaradorligini belgilaydi.

O'smir yoshidagi bolalar psixologiyasi va ularda irodaviy xususiyatlarning shakllanishi

Jahon psixologiyasida iroda va uni tarbiyalash muammolariga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Iroda kategoriyasining tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, inson ongi va mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxs irodasining tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan.

XVII asrda Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaning paydo bo'lishi, deb tushunish mumkin emas. Chunki uni shaxsiy kuch-quvvatning hissiy intilish bilan uzviylikdagi jarayoni, deb qaramoq lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unda bu tarzdagi tasdiqiy munosabatning tug'ilishi irodaning ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u mustaqil substansiya sifatida ham tan olinadi.

Vilgelm Vundtning mulohazasiga ko'ra, iroda negizida appersepsiya aktining sub'yekti tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Ushbu konsepsiya "emosional" yoki "affektiv" tushunchalari bilan psixologiya faniga kirib keldi.

U.Djemsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadir. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

Psixologiyada iroda – bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishishiga yo'naltirilgan ongli faolligi, degan qat'iy fikr qaror topgan. "Iroda" tushunchasi mohiyatiga - kishining maqsad qo'ya olish qobiliyati, o'z emosiyasini boshqarish va xulqini iroda qilishi kiradi.

V.I.Selivanov irodani tadqiq etib, quyidagi xulosalarga kelgan:

a) iroda – bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini-o'zi boshqarish shakllarini anglash tavsifidir;

b) iroda – inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) iroda – bu amaliy ong, o‘zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o‘zini ongli idora qilishidir;

g) iroda – bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatidir. Ammo u qaysidir harakatning motivi hisoblanmaydi.

Irodani boshqarishni rivojlantirish uchun mashqlar.

Qulay o‘tirib oling, o‘zingizni bo‘sh tutishga harakat qiling. (K. Rodjers (1902 yil))

1. Irodaning kuchsizligi sababli siz va sizning yaqinlaringizda sodir bo‘lgan ko‘ngilsizliklarni yorqinroq ko‘z oldingizga keltiring. Shuning natijasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklarni tasavvur qiling. Ularning har birini batafsil o‘rganing, uning nimadan tashkil topganini chuqurroq aniqlashga harakat qiling. Shundan so‘ng sodir bo‘lgan ko‘ngilsizlar ro‘yxatini tuzing. Sizda oldin aks etgan uyat, o‘zidan qoniqmaslik holatlarini his eting va mavjud holatni o‘zgartirish istagi hamda uning yana qaytarilmasligiga intiling.

2. Irodangizni rivojlantiradigan ustunlikni, siz va sizning yaqinlaringiz undan oladigan yaxshilik va xursandchiliklarni yorqinroq tasavvur qiling. Ushbu ustunliklarni batafsil tahlil qiling. Ularning har birini aniq o‘rganishga harakat qiling va yozib qo‘ying. Ushbu fikrlarni uyg‘otadigan tuyg‘ularga batamom beriling: sizning oldingizda imkoniyatlarni ochadigan xursandchilik, uni amalga oshirishdagi kuchli xohish, zarur hatti-harakatni darhol boshlashga intiling.

3. Kuchli va qat‘iyatli irodaga egaligingizni yaxshiroq tasavvur qilishga harakat qiling. Mustahkam va qat‘iyat bilan qadam tashlayotganingizni, turli-tuman vaziyatlarda o‘zingizni qanday jasurlik bilan boshqarishingizni tasavvur qiling: siz qo‘yilgan maqsadlarni aniq tasavvur qilayapsiz, bunga bor kuchingizni sarflashga qodirsiz. Tasavvur qiling, qanday qat‘iyatlisiz, o‘z hatti-harakatlaringizni qay darajada boshqara olasiz. Hech nima sizni dovdiratib qo‘yolmaydi. O‘zingiz o‘ylagan ishda muvaffaqiyatga erishishni tasavvur qiling.

Yuqoridagi holatlarga yaqin vaziyatlarni tanlang va bunda iroda kuchiga tayanishga harakat qiling. Ushbu holatlarda siz istalgan sifatlarni qay tarzda namoyon etishingiz mumkinligini tasavvur qiling.

Oldin aytib o‘tganimizdek, iroda – bu turli psixologik elementlar orqali namoyon bo‘ladigan umumlashgan tushunchadir. Irodaning tarkibiy elementlari haqida gapirib, ularning yaxlitligi, soni, ular orasidagi farq hamda aloqalar nazarda tutiladi. Ko‘p hollarda maqsad sari intilish, qat‘iyatlilik, chidamlilik, sabotlilik, mustaqillik, jasurlik, o‘zini idora eta olish va tashabbuskorlik kabi sifatlar ajratib ko‘rsatiladi. Iroda elementlariga tanqidiylik, ijrochilik va o‘ziga ishonchni kiritish mumkin.

1-jadval. Shaxsning irodaviy xususiyatlari (K.K.Platonov)

Irodaviy xususiyat-lar	Maqsad va unga intilish	Imkoni-yatlar va motivlar	Motivlar kurashi va sababni tanlash	Qaror qabul qilish	Qarorni amalga oshirish
Kuchli iroda	Aniq maqsad qo'yish Kuchli intilish	Yetarli	Asoslangan va tez	Kuchli intilish bilan asoslangan	Barqaror
Tirishqoqlik	intensiv intilish bilan yiroqlash-gan	Normal			Juda qat'iyatli
Qaysarlik	Ob'yektiv-o'zini oqlamagan	Barcha imkoniyatlarni hisobga ogan holda emas, balki sodda fikr bilan		Asoslanmagan, intensiv harakat bilan	Qat'iyatli
Muloyimlik	Tez o'zgaruvchan	Boshqa kishilarning ta'siri bilan namoyon bo'ladigan		Tez o'zgaradi	Turlicha
Ta'sirlanuvchanlik	Ishtirok etmaslik			Chetdan beriladi	Xuddi shu
Qat'iyatlilik	Maqsadni aniq anglash	Yetarli, ba'zan haddan ziyod	Tez, biroq har doim ham asoslanma-gan	Aniq va barqaror	Chidamli
Qat'iyatsizlik	Bu ham	Bu ham	Uzoq muddatli	Ishtirok etmaydi yoki tez o'zgaradi	Ishtirok etmaydi
Irodaning sustligi	Noaniq, Kuchsiz intilish bilan	Noaniq	Tugallanma-gan	Uni bajarishga intilmas-lik	Qat'iyatsiz-lik

A.S.Puni aytilishicha, har bir odamda irodaviy sifatlar yagona yaxlit tuzilma kabi ishtirok etadi, biroq, ushbu tuzilmaning bo'g'inlari strukturasi turli kishilarda turlicha bo'ladi. Binobarin, alohida olingan bir kishida turli faoliyatlarda u o'zgarib turadi. Shuning uchun, irodaviy sifatlarni bo'g'inlari turlicha bog'lanadigan harakatchan, dinamik tuzilma sifatida qarab chiqish lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktab o'quvchilarining iroda kuchini aniqlash maqsadida 15 ta savoldan iborat bo'lgan N.N.Obozovning "O'zining iroda kuchiga baho berish" metodikasi qo'llanildi. Tadqiqotda 20 nafar 8-sinf o'quvchisi ishtirok etdi.

N.N.Obozovning "O'zining iroda kuchiga baho berish" metodikasi. Metodika 15 ta savoldan iborat bo'lib, "Ha" javob variantiga - 2 ball, "Bilmayman" yoki "Ba'zan" javob variantiga - 1 ball, "Yo'q" javob variantiga - 0 ball beriladi. Shuni unutmaslik kerakki, savolnomada yaxshi va yomon javoblar yo'q. Savollarga javob berishda ob'yektivlik bilan yondashish va xayolga kelgan birinchi javobni yozish talab etiladi.

T/r	S a v o l n o m a
1.	Vaqt va vaziyat undan uzoqlashishni va yana unga qaytishni taqozo qiladigan, sizga qiziqarli bo'lmagan boshlangan ishni oxiriga yetkazishga qodirmisiz?
2.	Sizga yoqmaydigan nimanidir qilish kerak bo'lsa, ichki qarama-qarshiliklarni ortiqcha urinishlarsiz yenga olasizmi (masalan, dam olish kuni navbatchilikka borish)?
3.	Ishda yoki maishiy hayotda ziddiyatli vaziyatlarga duch kelganingizda, o'zingizni qo'lga olishga qodirmisiz?
4.	Agar sizga parhez belgilangan bo'lsa, uni buzmaslikka kuch topa olasizmi?
5.	Agar kechqurun ertalab turish rejalashtirilgan bo'lsa, odatdagidan vaqtliroq turishga kuch topasizmi?
6.	Guvohlik ko'rsatmasi berish uchun voqea sodir bo'lgan joyda qola olasizmi?
7.	Xatlarga tez javob berasizmi?
8.	Agar sizda samolyotda uchish yoki stomatolog ko'rigidan o'tish qo'rquv hissini vujudga keltirsa, hech qanday qiyinchiliksiz bu hissiyotni yengib, oxirgi lahzagacha o'zingizning fikringizni o'zgartirmasdan tura olasizmi?
9.	Shifokor tavsiya qilgan yoqimsiz dorini qabul qila olasizmi?
10.	Agar berilgan va'dani bajarish ko'pgina ovoragarchilikka olib kelsa ham, qiziqqonlik bilan bergan va'dangizning ustidan chiqqa olasizmi?
11.	Notanish shaharga safarga, zarur bo'lganda ikkilanishsiz otlanasizmi?
12.	Uyqudan uyg'onish, ovqatlanish, mashg'ulotlar, uy yumushlari va boshqa ishlarni bajarishda tartibga qat'iy amal qilasizmi?
13.	Kutubxonadan qarzdorlarga nisbatan salbiy munosabat bildirasizmi?
14.	Eng qiziqarli teleko'rsatuv ham Sizni zarur ishni bajarishdan chalg'ita olmaydi. Shundaymi?
15.	Qarshi tomonning so'zlari sizni qanchalik xafa qilmasin, baribir Siz janjalni to'xtatishga va indamaslikka qodirmisiz?

Ma'lumotlarni izohlash va qayta ishlash. Agar siz 0 dan 12 ballgacha to'plagan bo'lsangiz, unda sizda iroda kuchi qoniqarsiz. Sizga nima oson va qiziqarli bo'lsa, faqat shuni bajarasiz, majburiyatlarga qo'l uchida munosabatda bo'lasiz va bu turli ko'ngilsizliklarning sababi bo'lishi mumkin.

13-21 ball. Sizda iroda kuchi o‘rtacha. Agarda siz turli to‘siqlarga duch kelsangiz, ularni yengishga harakat qilasiz. Chap berish yo‘lini ko‘rsangiz, undan foydalanishga harakat qilasiz. O‘z xoxishingiz bilan ortiqcha majburiyatlarni o‘z zimmangizga olmaysiz.

22-30 ball (erishilgan natijalar 22 dan 30 ball oralig‘ida bo‘lishi mumkin). Sizga ishonish mumkin. Siz pand bermaysiz. Lekin ayrim hollarda sizning qattiq va murosaga kelolmaydigan yo‘lingiz atrofdagilarni xafa qilib qo‘yishi mumkin.

Eksperimental tadbirlarni amalga oshirish natijasida biz qo‘llagan metodikada o‘quvchilarning irodaviy sifatlari orasidagi maksimal va minimal farqlarni ko‘rsatadigan har bir savol bo‘yicha ijobiy va salbiy javoblar nisbati hisobga olindi (2-jadval).

2-jadval. O‘quvchilarda o‘zining iroda kuchiga baho berish dinamikasi.

Darajalar	O‘quvchi soni	%
Yuqori “iroda kuchi”	8	40
O‘rta “iroda kuchi”	10	50
Past “iroda kuchi”	2	10

Ma‘lum bo‘lishicha, sinaluvchilarning eng ko‘p qismi “o‘rta” iroda kuchiga ega o‘quvchilardir. Past iroda kuchiga ega bo‘lgan o‘quvchilar nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Shuning uchun nisbatan past iroda kuchiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion tadbirlarni muntazam tarzda tashkil etish talab qilinadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinaluvchilarning 40 foizi, ya‘ni 8 nafar o‘quvchi “yuqori” iroda kuchiga ega. Iroda kuchining ushbu darajasiga mansub bo‘lgan o‘smirlar o‘ziga ishonuvchan, har qanday sharoitda ham o‘z aytganidan qaytmaydigan, qat‘iyatli, mustahkam iroda kuchiga ega bo‘lishadi. Ularga ishonish mumkin, ular hech qachon pand berishmaydi.

“O‘rtacha” iroda kuchini o‘quvchilarning 10 nafari (50%) namoyon etdi. Iroda kuchining ushbu darajasiga mansub bo‘lgan o‘smirlarda turli to‘siqlarga duch kelinsa, ularni yengishga harakat qilish, chap berish yo‘li ko‘rinadigan bo‘lsa, undan foydalanishga harakat qilish kabi xislatlar xos. Ular o‘z xoxishlari bilan ortiqcha majburiyatlarni o‘z zimmalariga olishga harakat qilishadi.

“Past” iroda kuchiga ega o‘quvchilar soni kam, atigi 2 nafar, bu jami o‘quvchi soniga nisbatan 10 foizni tashkil etdi. Iroda kuchi qoniqarsiz bo‘lgan o‘smirlarda nima oson va qiziqarli bo‘lsa, faqat shuni bajarish, majburiyatlarga qo‘l uchida munosabatda bo‘lish, qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslik, belgilangan vazifalarning o‘rtasida uni tashlab ketishga intilish kabi xislatlar xos bo‘ladi.


Sinaluvchi-o‘quvchilarning ko‘pchiligini (50%) “iroda kuchi”ning o‘rtacha rivojlanish darajasiga mansub bo‘lgan bolalar tashkil etdi; iroda kuchining “yuqori”

rivojlanish darajasiga mansub bo‘lgan bolalar esa nisbatan kam (40%). Unchalik katta bo‘lmagan bolalar soni va nisbati (10%) ni iroda kuchining “past” rivojlanish darajasiga mansub bo‘lganlar tashkil etdi.

Guruhlardagi o‘g‘il va qiz bolalar natijalarini alohida o‘rganish ko‘rsatishicha, iroda kuchining o‘rtacha rivojlanish darajasiga ega o‘quvchilar qiz hamda o‘g‘il bolalarda ko‘pchilikni tashkil etdi. Biroq, qizlarda irodaning yuqori rivojlanish darajasiga ega bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil etdi, o‘g‘il bolalarda esa bu parametrlar bo‘yicha natijalar nisbatan ancha past namoyon bo‘ldi.

Metodikaning iroda kuchi parametri bo‘yicha natijalarni sifat jihatdan tahlil etish natijasida qiz va o‘g‘il bolalardagi bir-biridan muhim farqlarni aniqlashga erishdik. Jumladan, tashkillashtirilganlik, tartib-intizom, mas’uliyat hissi kabi iroda sifatleri bo‘yicha farqlar ancha katta ekanligi va bunda qizlar o‘g‘il bolalardan ustun ekanligi aniqlandi. Jasurlik, mardlik kabi iroda sifatleri bo‘yicha esa o‘g‘il bolalar ustun ekanligini kuzatdik.

1-diagramma. O‘smirlarda o‘zining iroda kuchiga baho berish dinamikasi.



XULOSA

O‘smirlarda iroda sifatlarini tarbiyalash zamonaviy pedagogik psixologiyaning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, o‘smirlik davri bu - o‘tish davri bo‘lib, yosh inqirozini boshdan kechirish, o‘zini ma’lum darajada kattalardek his etish, shu sharoitda kattalar tomonidan uning yetarli darajada tan olinmasligi holatlari o‘smirlarda turli psixologik muammolarni keltirib chiqarishi kuzatiladi. Bular esa aynan iroda sifatlarini yangicha tafakkur sharoitida ilmiy-psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish, o‘rganishni taqozo qiladi.

Shu munosabat bilan amalga oshirilgan mazkur bitiruv malakaviy ishida o‘smir shaxsi, ushbu yoshda namoyon bo‘ladigan va uni tarbiyalash zarur bo‘lgan irodaviy sifatlar, xossalalar hamda xususiyatlarning psixologik tabiati, unga ta’sir etish yo‘l va usullari, korreksiyasi bilan bog‘liq turli psixologik usullarni ishlab chiqish borasida tadqiqot ishi olib borildi va quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Irodani inson tomonidan o‘z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish tuzilmasi sifatida baholash mumkin, zero, iroda maqsadga yo‘naltirilgan hatti-harakat va xulq-atvorning amalga oshishida tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengib o‘tishga imkon yaratadi.

2. Ijtimoiy yo‘nalganlik shaxsning motivasion-irodaviy xislati sifatida o‘z ifodasini topadi, o‘quvchi shaxsining irodaviy jarayonlari, holatlari, xislatlari faoliyatining motivlari va maqsadini amalga oshirishning o‘ziga xos usuli sifatida yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человека / Под ред. А.А.Бодалева. М., 1996.
2. Асмолов А.Г. Проблемы психологии субъекта. М., 1994.
3. Абрамова Г. С. Возрастная психология: Учебное пособие для студентов вузов. – 5-е изд. – М.: Акад. Проект, 2005. – 702 с.
4. Barotov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. T.: O‘qituvchi, 1995. – 56 b.
5. Barotov Sh.R. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatini baholash. T.: O‘qituvchi, 1992. – 48 b.
6. Выгоцкий Л.С. Психология развития человека, - М.: Смысл: Эксмо, 2014.
7. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.: 2004.

O‘SMIRLARDA XULQIY OG‘ISHLAR NAMOYON ETILISHINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jo‘rayeva Dildora Isroilovna

Psixologiya va xorijiy tillar instituti

1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'smirlarda xulqiy og'ishlar namoyon etilishini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari hamda o'smirlilik davridagi xulq og'ishlariga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiqotlar, jamiyat taraqqiyotida o'smirlarning o'zaro munosabati va ularning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq- atvori muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlar yoritib berilgan. Shuningdek maktab va litsey o'quvchilari o'rtasida nizoli vaziyatlarni o'rganish uchun aniq xulosa va tavsiyalar ishlab chiqolgan.

Kalit so'zlar: psixologik jarayonlar, o'smirlilik, xulq og'ishlari, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya, qiyosiy-tipik tahlil.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются особенности изучения проявления поведенческих отклонений у подростков и некоторые общие аспекты, связанные с поведенческими отклонениями в подростковом возрасте, с точки зрения социальной психологии, взаимодействия подростков в развитии общества и общества. Выделены научные исследования, которые могут показать необходимость проблемы их поведения в конфликтных ситуациях и обосновать ее «методологические корни». Также были разработаны конкретные выводы и рекомендации по изучению конфликтных ситуаций между школьниками и лицеистами.

Ключевые слова: психологические процессы, подростковый возраст, поведенческие отклонения, этика, этнография, история, социология, сравнительно-типический анализ.

ABSTRACT

In this article, the peculiarities of studying the manifestation of behavioral deviations in adolescents and some general aspects related to behavioral deviations in adolescence are studied from the point of view of social psychology, the interaction of adolescents in the development of society. and the scientific studies that can show the necessity of the problem of their behavior in conflict situations and justify its "methodological roots" are highlighted. Also, specific conclusions and

recommendations were developed for the study of conflict situations between school and lyceum students.

Key words: *psychological processes, adolescence, behavioral deviations, ethics, ethnography, history, sociology, comparative-typical analysis.*

KIRISH

Insoniyat paydo bo'lganidan e'tiboran farzandlarining barkamol voyaga etishi jamiyatda muhim muammo sifatida qarab kelingan. Chunki, jamiyat mavjud ekan, insonga xos barcha sifatlar, mafkuraviy qarashlar uning xarakteriga, ongiga, tafakkuriga singdirib boriladi. Tarbiyaning maqsadi, mazmuni va unga qo'yiladigan talablar jamiyat o'zgarishi, davr o'tishi va zamon rivojlanishi bilan ham o'zgarib boraveradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda barqarorlashib borayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni idrok qilishning natijasi har bir shaxsda paydo bo'layotgan psixologik holatlar, psixologik jarayonlar u yoki bu tarzda shaxsdan kuchli bilim va tajribalarni talab etmoqda.

Har qanday xalqning, davlatning, yoki millatning ma'naviy taraqqiyoti darajasi o'sha davlatda, yurtda mavjud ma'naviy boyliklar ko'lami butun bir xalq yoki har bir insonning ma'naviy-ma'rifiy barkamolligi bilan o'lchanadi. Insoniyat tafakkuri necha ming yillik tarixga ega bo'lsa, uning har bir bosqichida o'ziga xos bilim va g'oyalar vujudga kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ma'lumki, psixologiya fanida aynan o'smirlik davri va o'smirlik davridagi xulq og'ishlari muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida o'smirlarning o'zaro munosabati va ularning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, o'smirlik davridagi xulq og'ishlariga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi. Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda o'smirlik davridagi xulq og'ishlari uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab berganlar. Bular ichida o'smirlarning xulq-atvori uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreyeva G.M., Zabrodin YU.M., Karnegi D, Karimova V.M., Parigin B.D., Snigireva T.V., Filippov A.V., YAdov V.A., G'oziev E.G.; Grimak

L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A., Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L.; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili SH.A., Uznadze D.N., Shixirev P.N., Allpokt G.W., shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollari bag'ishlangan tadqiqotlarni Zdravomislov A.G., Kuzmin E.S., Lazurskiy A.F., Muksinov R.I., Stolin V.V., Bogoslavskiy V.V.; ta'lim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni Breynshteyn M.S., Dubrovina I.V., Kala U.V., Rudik V.V., Leymets X.O., Mattes G.O., Pratuivich YU.M., Sierd YU.L. alohida qayd etish mumkin. Bu esa o'smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori jarayonining bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o'ylashga, fikr mulohaza yuritishga va o'z tadqiqotimiz vazifalarini belgilab olishga nazariy - ilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o'ylaymiz. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlari asosida yondoshuv muammosining (M.G.Andreeva, YU.M.Zabrodin, D. Karnegi, E.G'oziev, V.M.Karimova, I.S.Kon, C.I. Koralev, B.D.Parigin, E.V.SHoroxova) va shaxs va faoliyat uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvni ta'minlash muammosining (L.S.Vigotskiy, M.G. Davletshin, U.Djeyms, A.G.Kovalev, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, S.L. Rubinshteyn, V.A.Tokareva, E.Fromm, Kodirov B.R.) o'rtaga tashlanishi o'smirlarning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori metodologiyasi haqida jiddiyroq o'ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq inson psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Vaholanki, iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim.

O'smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik - 14 - 15 yoshlarni o'z ichiga oladi. O'smirlik - organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezga achchiqlanadigan

yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya xolatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin.

Natijalar tahlili. - Tadqiqotni o'tkazish uchun quyidagi metodlarni tanladik:

1. O'smirlar faoliyatini kuzatish suhbatlar olib borish.
2. o'smir xulq-atvorini o'rganish uslubi (T.Tomas testi asosida).
3. Suhbat metodi - bunda yuqorida ko'rsatilgan metodikalarni o'tkazib bo'lgandan keyin, natijalarni bilib, guruhdagi har bir o'quvchi bilan individual suhbat o'tkaziladi va ular o'rtasidagi munosabatlarning salbiy yoki ijobiy ekanligini aniqlash mumkin.

Maktab va litsey o'quvchilari o'rtasida nizoli vaziyatlarni o'rganish uchun biz amerikalik olim psixolog N. K.Tomasning testidan foydalandik. Bu test 1973 yilda psixolog N.V. Grishina tomonidan adaptatsiya qilingan. Mazkur metodika shaxsning ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketish uchun o'z-o'zini muxofaza qilishga qaratilgan ma'lum yo'nalishni tanlashi va shu asosida o'z -xulq atvoridagi bahs munozaraga, o'zaro hamkorlikka, o'zaro kelishuvga, o'zini chetga olishga, o'zini moslashtirishga qaratilgan ichki etakchi harakat motivatsiyasini aniqlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Binobarin mazkur metodika yordamida u yoki bu o'smirdagi ma'lum psixologik himoya imkoniyatlari haqida tegishli mulohazalar yuritish mumkin.

N.Tomasning takidlashicha, nizoli vaziyatlarda har bir shaxs o'ziga xos (tipik) harakat usulini tanlaydi. Ushbu harakat usulini o'rganib olish orqali bu shaxslar bilan nizolarni hal etish usuliga ega bo'lishi mumkin.

Metodikani qo'llash tartibi: Sinovchiga 30 juftlikdan iborat savolnoma taqdim etiladi va har bir savolnomadagi juftlikdan faqat bittasini ya'ni o'z xoxishlariga mos keladiganini tanlash va belgilash tavsiya qilinadi. Undan so'ngra xar bir tanlangan juftlikdagi savol ("a" yoki "b") metodika kaliti asosida baholanadi.

Mazkur metodika yordamida shaxs ichki motivatsiyasi va shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va ziddiyatli holatlarni boshqarish individual uchun xarakterli holatlarni belgilab olinadi. Yana shuni aytish joizki, ziddiyatlar tipologiyasiga asoslanib K.Tomas bu jarayon uchun, etakchi bo'lgan ikki hol xulq-atvor yo'nalishini belgilaydi. Ya'ni, birinchisi, kooperatsiya konfliktga jalb etilgan shaxsning o'zgalarga qiziqishga o'z diqqatini qaratganligi bo'lsa, ikkinchisi ziddiyatga kirishgan o'z shaxsiy qiziqishlarini himoya qilish uchun o'ta qat'iylikni namoyon etishini o'z ichiga oladi.

Binobarin mazkur ikki yo'nalish yoki mezon asosida K.Tomas ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi individual uslublarni tavsiya etadi: Bu test 30 ta savoldan iborat bo'lib nizoli vaziyatlarga nisbatan shaxsning harakat reaksiyasini 5 yo'nalish bo'yicha aniqlaydi.

A) Bahs-munozara (raqobat) o‘zgalarni engish hisobiga qiziqishlarini qondirishga erishish uchun intilish.

B) Hamkorlik-vaziyat ishtirokchilari muqobillikka keladilar, bu muqobillik ikkala tomon manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

V) Kelishuv (kompromiss) – o‘zaro bir-biriga yon berish yo‘li orqali ziddiyatli vaziyat ishtirokchilarining bir murosaga kelishi.

G) O‘zini chetga olish – o‘z maqsadlari va o‘zgalar maqsadlarini birdek amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan harakatda faol ishtirok etmaslikka moyillik.

D) Moslashish – bahs munozaraga kirishmasdan o‘z shaxsiy qiziqishi va manfaatlarini o‘zgalar faoliyati uchun qurbon qilishga tayyorlik.

Mazkur usulni qo‘llash orqali respondentlarning ziddiyatli vaziyatga nisbatan faolligini namoyon etuvchi xulq-atvor motivatsiyasi ko‘rinishlariga baho berishi haqida tegishli tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Endi o‘smirlikning bevosita ziddiyatli holatni bartaraf etishga qaratilgan individual xulq-atvor motivatsiyasi ko‘rsatkichlari tahliliga o‘tamiz. Chunki mazkur yo‘nalishdagi tahlil asosida ziddiyatli holatlarda o‘smir ichki motivatsiyasida namoyon bo‘ladigan psixologik muxofaza imkoniyatlari haqida tegishli empirik ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad: o‘smirlik davri uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash, ikkinchidan har bir o‘smir uchun ziddiyatli holatni bartaraf etishga qaratilgan individual-psixologik ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq atvorini bilish, uchinchidan, umuman o‘smirlik davri uchun xarakterli bo‘lgan 5 yo‘nalishdagi (“A”, “B”, “V”, “G”, “D”) barcha ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq atvori ko‘rsatkichlarini qiyosiy-tipik tahlil qilish va tegishli qonuniyatlarni o‘rganishdan iboratdir.

Nizoli vaziyatda tanlangan harakat usullari jadvali

№ O‘quvchilarning ismi-sharifi Raqobat Hamkorlik Kelishuvchanlik Nizoda qochish yoki o‘zini olib chiqish Moslashuvchanlik. 1-jadval

№	O‘quvchilarning ismi-sharifi	Raqobat	Hamkorlik	Kelishuvchanlik	Nizoda qochish yoki o‘zini olib chiqish	Moslashuvchanlik
1	Alimova Iroda	12	3	5	6	4
2	Botirova Gulruh	4	7	7	7	5

3	Bahromov Sardor	8	5	6	3	8
4	Bahromov Nodir	9	6	3	4	4
5	Karimov Dilshod	5	5	6	5	9
6	Sobirova Nigina	3	6	6	5	10
7	Elov Oybek	6	6	7	5	6
8	SHavkatov Oxun	8	6	4	8	4
9	Izzatova Laylo	7	7	3	7	6
10	Ozodov Jamshid	5	8	6	6	5
11	Salohiddinov. L.	8	6	9	2	5
12	Azizova. F.	7	8	3	7	5
13	Kozimova.Z.	9	4	6	5	6
14	Kamolov .B.	11	6	6	3	4
15	Ochilov. E.	3	9	6	6	8
16	Tillojev.L.	5	6	7	3	9
17	Nematov.K.	7	4	4	6	9
18	O‘roqov. A	7	5	6	7	5
19	Xolliyeva. M.	6	5	6	5	8
20	Qodirova. D	7	6	5	5	7

2-jadval

YAqqol ifodalangan harakat usullarining foiz hisobidagi ko‘rinishi

№ Harakat

Usullari Yuqori ball to‘plagan o‘quvchilar soni Umumiy foiz hisobida

№	Harakat Usullari	YUqori ball to‘p- lagan o‘quvchilar soni	Umumiy foiz hisobida
1	Raqobatchilik	4	20 %
2	Hamkorlik	5	25 %

3	Kelishuvchanlik	4	20 %
4	Nizodan qochish yoki o'zini olib chiqish	5	25 %
5	Moslashuvchanlik	8	40 %

Keltirilgan jadvallardan (№1, №2, №3, №4, №5) yaqqol ko'rinib turibdiki, Tomas uslubi bo'yicha aniqlangan ziddiyatli vaziyatlarni aniqlash va oldini olish ko'rsatkichlari o'smirlar orasida turli xil darajalarga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. CHunonchi, tadqiqot maqsadiga mos va shartli ravishda qabul qilingan mezonlarning ("bahs-munozara", "hamkorlik" "kelishuv kompromiss", "o'zini chetga olish", "moslashish") o'ziga xos psixologik himoya dinamikasini tashkil etadi. Jumladan, ziddiyatli vaziyatlarda o'smirlar xulq atvori mezoni sifatida – Adekvat xulq-atvor motivatsiyasi o'ziga xos individual uslubni namoyon qila olish kabi xususiyatlarning o'smir shaxsida va faoliyatida namoyon etilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar miqdorini tahlil qilish va shu tahlillarga tayanib tegishli xulosalarni bayon etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinadiki, maktab o'quvchilari ziddiyatli vaziyatga tushganda o'zlarini ko'proq "Bahs-munozara" motivatsiyasi afzal bilishlari yaqqol seziladi. Xar bir motivatsiya yo'nalish bo'yicha va bu motivatsiya yo'nalishining qiyosiy o'rtacha tipik ko'rsatkichlari bo'yicha empirik ma'lumotlar №1 jadvalda qayd etilgan. Biz bu erda o'smirlik davrida Tomas uslubi bo'yicha ziddiyatli vaziyatlarda o'smirlar xulq atvori ko'rsatkichlari iearxik tizimni aniqlashga muvafaq bo'ldik. Ungi ko'ra maktab o'quvchilari orasida ($p=20$) taqdim etilgan 5 yo'nalish bo'yicha 1-o'rinni "hamkorlik" asosidagi himoya motivatsiyasi egallagan bo'lsa, 2-o'rin "kelishuv" (kompromiss) motivatsiyasiga, 3-o'rin "moslashish" motivatsiyasiga, 4-o'rin o'zini chetga olish motivatsiyasiga va oxirigi 5-o'rin "bahs-munozara" motivatsiyasiga to'g'ri kelishi bilan xarakterlanadi. Demak, o'smirlik davrining dastlabki bosqichlarida ziddiyatli vaziyatlarda o'z-o'zini psixologik muxofaza qilish haqidagi tasavvurlar ko'proq hamkorlik va kelishuv (kompromiss) motivatsiyalari asosida shakllanishi mumkinligini ko'ramiz. Ayni paytda, bahs-munozara (1-yo'nalish) asosida o'z-o'zini himoya qilishga moyillik nisbatan (taqdim etilgan beshta yo'nalish bo'yicha atbatta) kamroq uchrashishni ko'rish mumkin.

Litsey o'quvchilari esa ziddiyatli vaziyatlarda o'z-o'zini psixologik himoya qilish haqidagi tasavvurlar nisbatan bir oz o'zgarganligini ko'ramiz. Ya'ni tanlov uchun taklif etilgan besh yo'nalishga nisbatan eng birinchi o'rin "Bahs -munozara" yo'nalishga to'g'ri kelyapti. Demak maktab o'quvchilari bu yo'nalish oxirgi o'rinda

bo'lishi va litsey o'quvchilari birinchi o'ringa chiqib olishining asosiy sababi o'smirlarning o'ziga xos ijtimoiylashuvi, o'smirlardagi "Menlik"ning o'zgarishi va o'smir mustaqil fikrlashga, hayotda o'z fikrini o'zgalarga singdirishga ko'proq moyilligining namoyon etilishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Tadqiqot maqsadiga mos qo'shimcha usullar orqali olingan ma'lumotlarimiz ham ushbu fikrni tasdiqlash mumkin. Masalan, litsey o'quvchisi M-ning ta'kidlashga, u ko'proq turli munozaralarda ishtirok etishni, o'zi aytgan gapida qat'iy turishni o'z maqsadiga erishish uchun juda ko'p intilishni yoqtiradi va u har qanday ziddiyatli holaga duch kelganda mazkur qoidalarga asoslanib ish tutishi juda muhimdir.

Maktab o'quvchisi L esa men ziddiyatli vaziyatga tushganda o'rtoqlarimdan yordam so'rayman, ular bilan birgalikda muvafaqqiyatsizliklarni engishga intilishni afzal ko'raman, deya o'z mulohazasini bildiradi. Yana shuni ta'kidlash joizki, maktabda ham litseyda ham ziddiyatli vaziyatni bartaraf etishga yo'naltirilgan barcha yo'nalishlar xosdir, zero o'smir shaxsi faoliyatida yoki faolligida u yoki bu yo'nalishga xos himoya imkoniyatlarining etakchilik qilish shaxsning o'ziga xos individual va betakror olami mavjudligi bilan belgilanadi va baxolanadi. SHunday bo'lsada, umumiy holatda maktab o'quvchilaridan 28 nafar, litsey o'quvchilaridan 27 nafar o'smirlar tanlanib, ulardan olingan natijalar o'rtacha umumiy va qiyosiy tarzda tahlil qilinganda quyidagi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir yo'nalish o'ziga xos o'rinlarga ega. Jumladan, "Bahsmunozara" yo'nalishi maktab o'quvchilari uchun oxirgi o'rinda bo'lsa litsey o'quvchilari uchun esa birinchi o'rinni egallaydi. Psixologik himoya ierexiyasidagi "hamkorlik" yo'nalishi ko'rsatkichlari ikkala o'smirlik davrida ham yetakchilik qilmoqda.

Uchinchi yo'nalish – "kelishuv"- "kompromiss" esa maktab o'quvchilari orasida 2-o'rinni litsey o'quvchilari orasida esa 4-o'rinni egallash bilan alohida xarakterlanadi.

To'rtinchi yo'nalish hisoblangan "o'z-o'zini chetga olish" motivatsiyasi esa maktab o'quvchilari orasida 4-o'ringa litsey o'quvchilari orasida esa 3-o'ringa to'g'ri keladi.

Beshinchi yo'nalishdagi "Moslashuv" ga moyillik motivatsiyasi ko'rsatkichlari maktab o'quvchilari orasida 3-o'rinni litsey o'quvchilari orasida esa oxirgi 5-o'rinni egallab turibdi. Buni asl sababini qo'shimcha usullar orqali o'rganamizda, asosan o'smirlik davrida o'smirlar o'zgalar fikriga quloq solish, o'zgalar talabiga moslashish, o'z mustaqil fikrlaridan ba'zan voz kechish hisobiga o'zgalarga ko'maklashish kabi xarakterlar orqali o'zlarini kamdan-kam hollarda himoya qilishga urinadilar. CHunki, ular bu davrda ko'proq mustaqil fikrlashga, o'z

menliklarini boʻrttirib koʻrsatishga, oʻzlarini boshqalardan oz boʻlsada ustun ekanligini koʻrsatishga va shu yoʻl bilan oʻzlarini himoya qilishga moyil boʻladilar. Yuqoridagi tahlillardan shu narsa koʻrinadiki, ziddiyatli holatlarda har bir oʻsmirning oʻz-oʻzini himoya qilish haqida oʻz tasavvuri va oʻziga xos, oʻziga mos individual uslubi mavjud.

Testning asosiy funksiyasi muallif fikricha shaxsning nizoli vaziyatdagi harakat usulini aniqlash bilan chegaralanib qolmasdan, koʻproq nizoli vaziyatlarni boshqarish uchun ham xizmat qilishi lozim. Litseyda oʻtkazgan tadqiqotlarimiz natijalariga koʻra nizoli vaziyatlarda yaqqol raqobatchilik usulini tanlovchilar 20 foizni;

- hamkorlik tarafdorlari - 25 foizni;
- kelishuvchanlik tarafdorlari - 20 foizni;
- nizodan qochishga intiluvchilar - 55 foizni;
- moslashuvchilar - 40 foizni tashkil etdi.

Nizoli vaziyatlardagi harakat usulini tanlash testi natijalarini yanada chuqurroq tahlil etadigan boʻlsak, 45 oʻquvchi orasida 20 foizni tashkil etuvchi raqobatchilik usulini tanlovchilar ushbu vaziyatlarda boshqalarga ziyon keltirib boʻlsa ham oʻz qiziqish va manfaatlarini qondirishga harakat qildilar. Albatta bu oʻquvchilar bilan tushuntirish ishlarini amalga oshirib, nizoli vaziyatdagi bunday harakat usuli oʻzaro munosabatlarning buzilishiga tasir qilishini, chunki, bunday harakatda ikkinchi tomon (nizodagi muxolif) norozi boʻlib qolishini uning ehtiyojlari anglatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday vaqtda xuddi shu oʻquvchilar oʻqituvchilar bilan nizoga kirishish orqali oʻrtoqlari orasida obroʻga ega boʻlishga intiladi. Bunday vaziyatdagi nizolarni hal qilishda oʻqituvchining toʻgʻri usullarni tanlab bilishi oʻta muhim boʻladi.

Raqobat usulini tanlanishi nizoli vaziyatda faqatgina bir tomon yutishini, ikkinchi tomon esa doimo yutqazishni bazida esa, ikki tomon ham yutqazishni etiborda tutishi lozim boʻladi. Nizodan chetda boʻlishga (qochishga) intiluvchilar guruhda toʻrt dan bir qismni tashkil etdi, bu holat meyorini bildiradi. Bunda guruh oʻquvchilarning har toʻrt kishidan bittasi nizoli vaziyatdan chetga boʻlishga intilar ekan. Lekin bu oʻquvchilar oʻz oldilariga qatʼiy maqsad qoʻyolmaydilar yoki biror maqsad sari izchil harakat qilishning uddasidan chiqq olmaydi. Agar ular oʻzlari biror qarorga kelishi lozim boʻlgan vaziyatga duch kelib qolishsa sarosima va bezovta holatga tushib, qarorga kelishni, masuliyatini boʻyniga olishni bashqalarga qoʻyib berishga harakat qilishadi. Nizoli vaziyatdagi bunday harakat usulini nizo bartaraf etilmay qoladi va u oʻquvchilarning boshqa vaziyatdagi harakatiga davom etishi mumkin. Guruhdagi nizolarni toʻgʻri hal etilishiga olib keluvchi hamkorlik usulini

tanlovchilar 25 % ni tashkil etdi. Bu o‘quvchilar bilan nizoli vaziyatlarni hal etish o‘qituvchi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi, chunki bu shaxslar har ikkala tomonning ehtiyojlarini qondiruvchi qarorga kelish tarafdorlaridir. Har bir tajribali o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini nizoli vaziyatlarni hal etishning xuddi shu usuliga mo‘ljal berishi, o‘zaro tushunishning optimallashtiruviga yordam beradi. Har qanday nizoli vaziyatlarda o‘qituvchi hamkorlik asosida vaziyatni hal etishga harakat qilishi, o‘quvchilarni ham shunday yo‘l tutishga o‘rgatadi hamda o‘qituvchiga nisbatan hurmatlari ortadi.

Yaqqol ifodalangan harakat usullarining foiz hisobidagi ko‘rinishi





Рисунок 1

Yaqqol ifodalangan harakat usullarining ball hisobidagi ko‘rinishi



Nizoli vaziyatlardagi o'quvchilarning harakat usulini aniqlash orqali bu harakat usullaridan qaysi biri sermahsul qaysi biri buzuvchi ekanligini bilish va sermahsul harakat usulini rivojlantirish yo'llarini tanlash imkonini beradi. Litsey o'quvchilari o'rtasida ijobiy muloqotni tashkil qilish va nizolarni bartaraf etish uchun faqatgina Tomas metodikasidan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, balki "Guruhdagi o'zaro munosabatlarni o'rganish" metodidan ham foydalandik. Bu metodika 4 shkaladan iborat bo'lib unda guruhdagi o'zaro munosabatlarni o'rganiladi. Metodikaning I shkalasi "Guruh azolariga shaxsiy munosabat" deb nomlanadi. Bunda har bir o'quvchining guruhda "o'z do'stim" deb hisoblaydigan kishilari bor, o'quvchi tez-tez muomalada bo'lib turadigan kishilari bor. Hech qanday munosabatda bo'lmaydigan kishilar bor. O'quvchi uchun salbiy munosabatda bo'ladigan kishilar bor. Bu shkala guruh o'quvchilarini ularning har biriga qanday munosabatda bo'lishiga qarab etti bandga bo'linadi.

II shkala - guruhdagi do'stlik va maqbullik to'g'risidagi ustun fikr deb nomlanadi. Bunda har o'quvchi guruh haqida fikriga mos keladigan fikrni belgilaydi.

III shkala - guruhdagi o'zaro yordam to'g'risida ustun fikr deb nomlanadi. Bu shkala har o'quvchining o'zining fikriga mos keladigan fikrni belgilaydi.

IV shkala - guruhdagi o'zaro masuliyat haqidagi ustun fikr deb nomlanadi. Bu shkalada ham II va III shkaladagi har bir o'quvchi o'z fikriga mos keladigan fikrni belgilaydi. Bu metodikani bajarish uchun har bir o'quvchi shkalalarni o'rganib chiqadi va javoblarning anonim bo'lishini taminlash uchun o'z sinfining tavsifnomasini tuzib chiqadi. I shkalani ishlash chog'ida har bir o'quvchi ijobiy munosabat bildirgan (1,2,3 bandlar) u

befarq qaralagan (4-band) va salbiy munosabatda bo'lgan shaxslar (5,6,7, bandlar) miqdori hisoblab chiqiladi. So'ngra munosabatlar % kategoriyalari bo'yicha o'quvchilarning taqsimlanishi % bilan hisoblab chiqiladi. (sinfdagi o'quvchilar soni 100 % deb qabul qilinadi.) Foizlar yakuniy bandga yoziladi va mazkur o'quvchi uchun sinfga nisbatan ustun bo'lgan munosabat belgilab chiqiladi.

I, II, III, IV bandlar maxsus ishlov berishni talab qilmaydi. Ularga faqat aniq bandda alomatini qo'yish va tegishli ballning ostiga chizib qo'yish kerak bo'ladi. Har bir shkala uchun guruhlar ko'rsatgichlari, ustun munosabatlar do'stlik va maqbullik, o'zaro yordam va o'zaro javobgarlik ko'rsatgichlari hisoblab chiqiladi. Barcha shkalalar yordamida olingan malumotlarni qiyoslab chiqish guruhdagi psixologik muhit haqida malum darajada xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shunday qilib, biz ushbu metodika bo'yicha litsey o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlarni bilish uchun quyidagi natijalarni oldik.

XULOSA

Turli yosh davrlarida sodir bo'ladigan bunday o'zgarishlar shaxs turmushi va uning hayoti uchun juda muhim bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Ishimiz davomida yosh inqirozlari va ular keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni, sodir bo'ladigan biologik va psixologik o'zgarishlarni izchil tarzda yoritib berishga harakat qildik.

"...Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdir..." deb takidlagan edi O'smirlik davri boshqa yosh davrlariga nisbatan juda murakkab davr ekanligini inoabtga olgan holda tadqiqotimizda shaxs sifatida shakllanish tamoyillari, uning o'ziga xos jihatlarining ilmiy metodologik va amaliy jihatlarini tahlil qilib berildi.

O'ylaymizki, tadqiqot davomida olingan ma'lumotlari va shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida ota-onalar, maktab psixologlari, ta'lim muassasa o'qituvchilar va murabbiylar pedagogik psixologik ishlarni tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2000y.
2. Nemov R. S. «Psixologiya» T. 1.M. 1998y.
3. Karimova V. M. «Psixologiya» T.SHarq 2002y.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: O'qituvchi. 1994.
5. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. 2002.
6. Karimova V., Akramova F. Psixologiya / Ma'ruzalar matni. T., 2002.

7. Karimova V.M. Targ‘ibotning psixologik uslublari. - T.: Ma’naviyat. 2000.
8. Karimova V.M. Ota-ona kasbi - baxt kaliti. T., 2002.
9. Oila psixologiyasi . prof. G‘.SHoumarov tahriri ostida. - T.: SHarq NMK. 2001
10. Petrovskiy I. V. «Umumiy psixologiya» «O‘qituvchi», 1992y.
11. G‘oziev E. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: «O‘qituvchi», 1992. - 222 b.

O‘ZBEK OILALARIDA OTA-ONA VA FARZANDLAR O‘ZARO MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G‘ulomova Zebiniso Xamidovna
Psixologiya va xorijiy tillar instituti
1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar muammosiga bag'ishlangan. Oilada bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga asosiy falsafiy va psixologik yondashuvlarni ko'rib chiqadilar, zamonaviy oilada ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladilar. Bugungi kunda oiladek ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarni qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy axloqiy munosabatlarni hosil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Ushbu o'ziga hos jixatlarni hisobga olgan holda maqolada fikr yuritishga harakat qildik. Shuningdek maqolada o'zbek oilalarida ota ona va farzandlar o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlari yoritib berilgan. O'zbek oilasida avlodlardan meros shunday tarbiya mezonlari va an`analari mavjudki, ularning xayotiyliigi va bardavomligi bois millatimiz ma`naviyati yuksak pog`onalarga ko'tarildi.

Kalit so'zlar: *avlod, tarbiya, ijtimoiylashuv, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, tarbiya, oilaviy munosabatlar madaniyati.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОТНОШЕНИЙ РОДИТЕЛЕЙ И ДЕТЕЙ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Гуломова Зебинисо Хамидовна
Магистрант Институт психологии
и иностранных языков

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена проблеме взаимоотношений родителей и детей. В них рассматриваются основные философско-психологические подходы к проблеме отношений детей и родителей в семье, анализируются специфические особенности отношений родителей и детей в современной семье. Сегодня через такой влиятельный социальный институт, как семья, одним из актуальных вопросов считается формирование у детей убеждений о ценностях, а значит, формирование позитивных нравственных установок по отношению к семье. Мы постарались отразить в статье с учетом этих

специфических аспектов. Также в статье описываются психологические особенности взаимоотношений родителей и детей в узбекских семьях. В узбекской семье существуют такие воспитательные критерии и традиции, унаследованные от поколений, что благодаря их живучести и стойкости духовность нашего народа поднялась на высокие ступени.

Ключевые слова: *поколение, воспитание, социализация, психология семейных отношений, воспитание, культура семейных отношений.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RELATIONSHIPS OF PARENTS AND CHILDREN IN UZBEK FAMILIES

G'ulamova Zebiniso Xamidovna

Graduate student of the Institute of Psychology and Foreign Languages

ABSTRACT

This article is devoted to the problem of relations between parents and children. They consider the main philosophical and psychological approaches to the issue of relations between children and parents in the family, analyze the specific characteristics of relations between parents and children in a modern family. Today, through such an influential social institution as the family, it is considered one of the urgent issues to form children's belief in values, and thereby to create positive moral attitudes towards the family. We tried to reflect in the article taking into account these specific aspects. Also, the article describes the psychological features of the relationship between parents and children in Uzbek families. In the Uzbek family, there are such educational criteria and traditions inherited from generations that the spirituality of our nation has risen to high levels due to their vitality and durability.

Key words: *generation, education, socialization, psychology of family relations, upbringing, culture of family relations.*

KIRISH

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramay, o'smir-yoshlar o'rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo'lmagan illatlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o'smirlik yoshidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxsning shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar

o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy nizolar oqibatida ro'y berayotgan holatlar, oilalarning barbod bo'lishi, millatlar, davlatlarning o'zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko'pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o'z ilmiy izlanishlarida o'rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D. Mayers, V. Kvinn, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o'rganilgan.

Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o'zbek muhitiga to'g'ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an'ana va milliy qadriyatlari boshqasiniqiga mos kelmaydi. Muhimi, O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish zarur. Ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O'zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G'.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G'. G'oziyev, Sh.R. Baratov, M.Mamatov, B.M. Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o'rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta'sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomondan ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Tanlangan mavzuimiz huddi mana shuning uchun ham dolzarbdir.

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta'sirini o'z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha bo'yicha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatlarini to'g'risida

F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, M.Salayeva, N.Sog'inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utebergenov, G'.Shoumarov va boshqa olimlarimizning olib borayotgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oila inson hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan oilaviy munosabatlar va muloqotda inson ehtiyojlari amalga oshiriladi, ya'ni: ma'lum bir guruhga mansublik tuyg'usini beruvchi insoniy aloqalarga bo'lgan ehtiyoj; o'zini-o'zi tasdiqlash zarurati, bu his-tuyg'ular va uning boshqa odamlar uchun ahamiyati haqida haqiqiy dalillar; mehrga bo'lgan ehtiyoj, bu o'zaro iliqlikni his qilish imkonini beradi; shaxsning o'ziga xosligi, individualligi hissini shakllantiradigan o'z-o'zini anglash zarurati; namuna bo'ladigan orientatsiyaga bo'lgan ehtiyoj. Qadim zamonlardan beri odamlar oiladagi munosabatlar, bolalarni tarbiyalash tajribasini to'plashdi va kristallashtirdilar. Ushbu maqolaning maqsadi oilada bola va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga asosiy falsafiy va psixologik-pedagogik yondashuvlarni yoritib berishdir. Falsafiy va psixologik adabiyotlarda bola-ota-ona munosabatlarining mazmuni va mazmunini tushunishning bir qator nazariy yondashuvlari shakllangan. Z.Freydning klassik psixoanalizida ota-onalarning bolaning aqliy rivojlanishiga ta'siri markaziy o'rinni egallaydi. Ota-onalar (ayniqsa, ona) - bu bola eng erta va eng muhim erta tajribaga ega bo'lgan odamlardir. Ota-onalarning bolaga g'amxo'rlik qilish haqidagi odatiy kundalik tashvishlari sezilarli psixologik ta'sir ko'rsatadi. Chaqaloqning hayotiy ehtiyojlarini qondirishning to'liqligi va yo'li bog'lanish, ishonch, hayot uchun faollik asosiga aylanadi. Psixoanalitik yondashuvning vakili E.Erikson hayot davomida shaxsning shakllanish jarayonini tahlil qilib, har bir shaxs uchun psixoseksual emas, balki psixososyal ziddiyatlarni hal qilish zarur degan xulosaga keldi. Sog'lom shaxsni shakllantirishning asosi - avtonomiya (o'zini tuta bilish, mustaqillik hissi), dunyoga asosiy ishonch hissi (ichki ishonch), tashabbus (o'z faoliyatini saqlab qolish uchun muammolarni hal qilish qobiliyati). ijtimoiy va motorli - ota-onaning tegishli mavqei (ishonchlilik, ishonch, mustaqillikni rag'batlantirish), bola tomonidan boshqariladigan makonning ko'payishi sharoitida yotqiziladi. Psixoanalitik pedagogikaning vakili K.Byutner oila va muassasa ta'limi o'rtasidagi munosabatlarni, xususan, videofilmlar, o'yin sanoati va o'yinchoqlarning tobora ortib borayotgan ta'sirini ko'rib chiqadi. Ushbu sohadagi so'nggi tadqiqotlar Internetning shaxsiyatning shakllanishiga ta'siri, Internetga qaramlik bilan bog'liq. Ushbu masalalar batafsil ishlab chiqishni talab qiladi, ularni shakllantirish bugungi kunda juda dolzarb bo'lib, mualliflar o'zlarining bir qator oldingi ishlarida ushbu muammoni hal qilishgan. Asoschisi E. Bern bo'lgan tranzaksion tahlil (TA) asosi psixoanalitik nazariyalar bo'ldi. TA bir nechta falsafiy

postulatlarga asoslanadi. Bu odamlar, hayot va o'zgarishlarning maqsadi haqida: "Hamma odamlar yaxshi", "Har bir inson o'ylashga qodir", "Odamlar o'z taqdirini o'zi hal qiladi va qarorlarini o'zgartirishi mumkin". Ushbu postulatlardan TA amaliyotining ikkita asosiy tamoyili kelib chiqadi: shartnoma usuli va ochiqlik. Jamg'arma - bu "men" (o'zaro bog'liq bo'lgan fikrlar, his-tuyg'ular va xatti-harakatlarning namoyon bo'lishi) holatlariga asoslangan shaxsiyat modeli: bola, kattalar, ota-ona. Shaxsning uchta printsipti muhim odamlar bilan o'zaro munosabatlarda asta-sekin rivojlanadi. Bir-birlari bilan muloqot qilishda oila a'zolari o'zaro ta'sirning uch turida bo'lishi mumkin: bir-birini to'ldiruvchi bitimlar, ularda aloqa bir xil darajada sodir bo'ladi; Ijtimoiy ta'lim kontseptsiyasining markaziy muammosi - bu biologik holatdan ijtimoiy holatga o'tish jarayoni sifatida sotsializatsiya. Ya'ni, ijtimoiy xulq-atvorni egallash, me'yorlar, qadriyatlar, motivlar, hissiy reaksiyalarning o'tkazilishi o'rganish natijasida yuzaga keladi. Bixeviorizm vakili B. Skinner me'yoriy xulq-atvorni o'rganish imkoniyati masalalarini ishlab chiqdi, xatti-harakatlarning ikkita asosiy turini tan oldi: respondent (tanish stimulg javob sifatida) va natija bilan belgilanadigan va boshqariladigan operant. U xulq-atvorni istalganiga yaqinlashganda kuchaytirishga asoslangan ketma-ket yaqinlashish yoki shakllantirish usulini ishlab chiqdi. Oilada shaxsni shakllantirishning eng mashhur yondashuvlaridan biri A. Adler tomonidan ishlab chiqilgan. Olim ijtimoiy psixiatr bo'lib, bemorlarni davolashdan ko'ra ko'proq profilaktika bilan shug'ullangan. A. Adler, odatda, o'z bemorlarini o'z kuchiga ishonchini yo'qotgan shaxslar deb hisoblardi va shuning uchun asosiy e'tibor ularni rag'batlantirish va hayot qiyinchiliklarini engish qobiliyatiga ishonchni tiklashga qaratilgan. Uning shaxsiyat nazariyasi har bir insonda tug'ma jamiyat tuyg'usi yoki ijtimoiy manfaat (hamkorlikka bo'lgan tabiiy intilish), shuningdek, shaxsning o'ziga xosligi amalga oshiriladigan mukammallikka intilish mavjudligini ta'kidlaydi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi inson hayotining turli sohalarida doimiy o'zgarishlar, ularning dinamikasini belgilovchi ijtimoiy hodisalar va jarayonlar zamonaviy oilaning umumiy faoliyati va rivojlanishini belgilaydi. Bir qator tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, "Zamonaviy madaniyatda sodir bo'layotgan jarayonlar inson hayotining qiymat asoslarining o'zgarishini, qadriyatlar tizimining o'zgarishini o'z ichiga olgan global qadriyatlar inqirozining paydo bo'lishidan dalolat beradi". Oila, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy va axborot va jamiyat hayoti va faoliyatining boshqa sohalarida qadriyatlar inqirozi ayollar va erkaklarning g'oyalari, obrazlari, rollari, maqomlari, xulq-atvor shakllarining o'zgarishiga olib keladi. Bu ota-onalarning bolaning tug'ilishiga bo'lgan munosabatlarini qurishda

namoyon bo'ladi. Ma'lumki, "qadriyatlar inson va insoniyat tajribasini umumlashtiruvchi semantik universallar rolini o'ynaydi".

XULOSA

Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi, ya'ni yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaktinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig' emas. Shu ma'noda oila - inson o'z baxti va saodati, orzu-xavaslarini, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan mukqaddas makondir.

Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir.

Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan boglaydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. - T.: 2022. – 5 b.
2. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'ricida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. – 24 b.
3. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiypsixologik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2014. – 185 b.
4. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T.: 2018. – 48 b.
5. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.

6. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.
7. Ибайдуллаева У.Р., Абдурасулов Р.У. Methods of overcoming internal conflicts between teenagers. EJRRES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 № 6, 2020, 1-7 бетлар.
8. Ибайдуллаева У.Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. Илм Фан ва таълимда инновациялар: туаммо ва истиқболлар.// Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали. // Профессор-ўқитувч

BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MASALALARNI YECHISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Po'latova Kamola Nuraliyevna

T.N.Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda geometrik masalalarni yechishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning ayrim samarali usullari to'g'risidagi fikrlar aytib o'tiladi. Shuningdek maqolada keltirilgan geometrik chizmalar va figuralar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarini o'tishning afzalliklari xususida misollar orqali tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: geometrik figuralar, nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, siniq chiziq, ko'pburchak, burchak, aylanalar, formulalar.

ABSTRACT

This article will tell you about some effective ways to use interactive technologies in solving geometric problems in elementary grades. Also explained by examples on the advantages of passing mathematics lessons to elementary students using geometric drawings and figures presented in the article.

Keywords: geometric figures, point, straight line, cross section, broken line, Polygon, angle, circles, formulas.

АННОТАЦИЯ

В этой статье будут рассмотрены некоторые эффективные способы использования интерактивных технологий при решении геометрических задач в начальных классах. Также на примерах объясняются преимущества прохождения уроков математики для младших школьников с использованием геометрических рисунков и фигур, представленных в статье.

Ключевые слова: геометрические фигуры, точка, прямая, поперечное сечение, ломаная линия, многоугольник, угол, окружности, формулы.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tadbiq etish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlari nuqtai nazaridan ular uchun zarur va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishni bugungi kun talab yetmoqda.

Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rganishning asosiy vazifasi geometrik figuralar, nuqta, to'g'ri chiziq, kesma, siniq chiziq, ko'pburchak, burchak, aylana haqida aniq, tushunchalar va tasavvurlar hosil qilishdan iboratdir. Shuning uchun mashqlar sistemasi va geometrik masalalarning mazmuni fazoviy tasavvurlar to'g'risida bilim, malakalar asosida kuzatishlari, taqqoslash, abstraktlashtirish va umumlashtirishga qaratilmog'i lozim. Eng avvalo o'quvchilarga geometrik figuralarni o'lchash va chizma chizish, shuningdek chizish va o'lchash qurollari bilan hamda ko'z, qo'l va hokazolar bilan malaka berishdir. Shuningdek, tarqatma qurollar, qog'oz, turli xil uzunliklardagi cho'plar, qog'ozlardan turli xil figuralarni yasash ham kiradi. Sinfda albatta chizg'ich, chizg'ich uchburchagi, sirkul bo'lishi shart. Geometrik materiallar mos holda o'qitilishi lozim. Boshlang'ich sinflardagi geometrik materiallar maktabgacha tarbiya muassasalarida o'qitiladigan materiallar bilan bog'liq, bo'lib, biroz murakkablashtirilgan holdir. Hattoki, maktabgacha davrda shar, kub, aylana, kvadrat, uchburchak, to'g'ri burchakli uchburchaklar bilan tanish bo'ladilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda tushunchalarga aniq, bilim va tasavvurni berish kerak. Bu tushunchalarni ko'rsatish, atash, chizish va hattoki, qog'oz va doskada berilgan uzunlikdagi figuralarni yasay olish lozim. 1-sinfdayoq nuqta bilan tanishadilar. Katakli daftarda nuqtalar qo'ygan va ularni tutashtirish vazifasini beradi. Nuqtalar olib ularni to'g'ri chiziq bilan tutashtirishni bajartiradi. Shundan keyin o'quvchilar nuqtalar, to'g'ri chiziq, yoki yozishni va ularni kesmalar yordamida birlashtirishni tushunib oladilar.

Ko'pburchaklar bilan tanishganda ularning uchlari nuqta ekanligini bilib oladilar. 2-sinfda nuqtalarni A, V, S, O, ... harflar bilan belgilaydilar. Doskadagi chizilgan aylana va turtburchakning ichida, ustida va tashqarisida yotgan nuqtalarni yozing va o'qing degan topshiriq beriladi. 1-sinfdan boshlab to'g'ri chiziq to'g'risida tushuncha turli vazifalarni bajarishda beriladi. U bilan bir vaqtda egri chiziq haqida tushuncha ham ipni tortib turish, bo'shatish kabi mashqlarda tushuntiriladi. Endi chizg'ich orqali qog'oz va doskada to'g'ri chizish malakasini egallaydilar, uni atrofdagi predmetlar bilan taqqoslaydilar, qaysilari to'g'ri chiziq, qaysilari egri chiziq ekanligini aytadilar. Kesma bilan ham amaliy ishlarni bajarishda tanishtiriladi. Masalan, ikkita nuqta olib ularni chizg'ich bilan tutashtiradi. Kesma nuqta orasidagi to'g'ri chiziqning qismi ekanligi haqida malaka beriladi. Undan keyin kesmalarni o'lchash to'g'risida santimetr, millimetr, detsimetr, metr kabi birliklar bilan ham tanishadilar. Ko'pburchaklarning elementlari bilan tanishganda uning tomonlari

kesma ekanligini bilib oladilar. 2-sinfda nuqtalarni harflar bilan belgilaganda, nuqtalar yordamida kesmalarni ikki harf bilan belgilash kiritiladi.

Kupburchak, burchak, aylana haqidagi tushuncha boshlang'ich ta'limning barcha sinflarida ketma-ket berib boriladi. 1 – 10 (o'nlik)da bular didaktik materiallar sifatida qo'llaniladi. Ular yordamida o'quvchilar sanashda, sonlarni taqqoslashda, masalalar yechishda foydalanadilar. Keyinchalik aylana, uchburchak, kvadrat shakllari bilan ham tanishadilar. Asta-sekin ko'pburchakning elementlari: tomonlari, burchaklari, uchlari kabilar bilan tanishadilar. Qog'oz, yog'och va plastmassalardan yasalgan uchburchakning 3 tomoni, 3 burchagi, uchi borligini bilib oladilar, keyin ularni turli xil narsalardan o'zlari yasaydilar. Keyingi bosqichlarda uchburchak turlari, (to'g'ri burchakli uchburchak, teng tomonli uchburchak, o'tkir burchakli uchburchak, o'tmas burchakli uchburchak) kabilar bilan tanishadilar. Shu reja asosida to'g'ri burchak bilan tanishib chikiladi. Besh va olti burchaklarni ham o'rgangandan keyin umumiy holda ularni ko'pburchak deb atash va tomonlari, uchlari va burchaklari sonlari bir xil bo'lishini keltirib chikaradilar. 1-sinfdan, to'g'ri burchak tushunchasi kiritiladi, uni tushuntirish quyidagicha olib boriladi. Birgalikda qog'oz olib ularning uchlari baravarlashtirib, ikki martadan buklab teng burchak hosil qilinadi. Har qanday qog'ozni olib shunday ikki buklaganda teng burchaklar hosil bo'lishini bilib, ularni to'g'ri burchaklar deb atashni qabul qiladilar. Shunday to'g'ri burchaklarga nisbatan atrofdagi mavjud burchaklarning undan katta yoki kichikligini taqqoslaydilar, shu asosda to'g'ri burchaklardan kichiklarini o'tkir burchaklar deb qabul qilishga ega bo'ladilar. To'g'ri turtburchakning barcha burchaklarining to'g'ri bulishini va ularning qarama-qarshi tomonlarining tengligini buklash asosida keltirib chikaradilar. 1-2 sinflarda to'g'ri to'rtburchakni o'quvchilarga chizish orqali yasash o'rgatiladi, 3-sinfda esa chizg'ich va chizg'ich uchburchagidan foydalanib to'g'ri to'rtburchak yasash o'rgatiladi. SHu asosda to'g'ri to'rtburchakning tomonlari teng bo'lsa, kvadrat hosil bo'lishini keltirib chikaradi. Ko'pburchaklarga doir tushunchalar turli xil geometrik mazmundagi masalalar yordamida tushuntiriladi va mustahkamlandi.

Birinchidan, “Mas'uliyati cheklangan jamiyat va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi Qonunning 44-moddasiga ko'ra, Agar jamiyatning ustavida yirik bitimlarning ancha katta miqdori nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulki jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulki tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan bitim yoki o'zaro bog'liq bir necha bitim yirik bitim deb hisoblanadi. Yirik bitimni tuzish to'g'risidagi qaror jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Ushbu moddada nazarda tutilgan talablar buzilgan holda tuzilgan yirik bitim jamiyatning yoki uning ishtirokchisining da'vosiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Demak, agar bu jamiyat uchun yirik bitim bo'ladigan bo'lsa, unda jamiyat rahbarining o'zi bunday bitimni tushiga vakolatli bo'lmagan.

Ikkinchidan, Fuqarolik kodeksining 113-moddasida Bitim ushbu Kodeksda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadi (o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitim) ekanligi belgilangan. Bundan tashqari, FK 126-moddasiga binoan Agar shaxsning bitim tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning ta'sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo'yilganiga nisbatan yoinki bitim tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko'rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo'yilgan bo'lsa va bitimni tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo'lsalar, bitimdagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollardagina bitim cheklash belgilanishidan manfaatdor bo'lgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Da'vogar vakilining bildirishicha, jamiyat ta'sischisi jamiyat kafillik shartnomasi bo'yicha majburiyat olganligini kafillik shartnomasiga asosan "Ittifoq ta'mir qurilish" MCHJ hisob raqamidan 27 756 179, 26 so'm pul yechib olgandan so'nggina xabar topgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 2014 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 269-sonli qarori 24-band 1-xatboshisida FK 114-moddasining ikkinchi qismiga asosan bitim haqiqiy bo'lmaganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha qaytarib berish mumkin bo'lmaganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart. Shu boisdan sud restitutsiya qo'llab, olingan 27 756 179, 26 so'm pul mablag'larini "Ittifoq ta'mir qurilish" MCHJ foyasiga undirishni lozim deb topadi.

Sud amaliyoti tahlilidan ham ko'rishimiz mumkinki, sudlar Fuqarolik kodeksining 114, 116, 126-moddalarini qo'llab, tuzilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topishi mumkin. Ammo asosiy zarar ko'rgan taraf shartnomaning qolgan taraflari bo'lib qolaveradi. Ayniqsa, bu o'rinda FK 126-moddasining qo'llanilishi masalasani alohida ko'rib chiqish kerak, nazarimizda. FK 126-moddasidan anglashiladiki, bitim tuzayotgan taraf ikkinchi tarafning shu bitimni tuzishga vakolati bor yoki yo'qligini tekshirishi kerak, agar tekshirmasa, buning oqibatini o'z yelkasida qoldiradi. FKning 113-moddasida bitimlarning haqiqiy emasligining 2 xil ko'rinishi mavjud bo'lsa, bu turdagi bitimlarni nizoli bitimlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Ushbu holat uchun maxsus oqibatlar o'rnatilmaganligi bois ikki tomonlama restitutsiyada ifodalangan umumiy oqibatlarga rioya qilish zarur hisoblanadi.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 81-moddasida jamiyat kuzatuv kengashi a‘zolarining, direktorning, boshqaruv a‘zolarining, ishonchli boshqaruvchining javobgarlik masalari berilgan bo‘lib, ular agar jamiyatga mulkiy zarar yetkazgan taqdirda sud ularning vakolatlarini xo‘jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashni taqiqlagan holda 1 yil muddatga tugatilishi mumkinligi belgilangan. Normaga ahamiyat beradigan bo‘lsak, bu yerda mulkiy zarar haqida so‘z bormoqda. To‘g‘ri, restitutsiya qo‘llanilishi natijasida ba‘zan jamiyatga bir qarashda hech qanday mulkiy zarar yetkazilganga o‘xshamasligi mumkin. Ammo fuqarolik kodeksining 14-moddasi zararni ikkiga – haqiqiy zarar va boy berilgan foydaga bo‘lgan holda ko‘rsatadi. Shuning uchun oddiy restitutsiya qo‘llanilishi natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar haqiqiy zarar ko‘rinishida bo‘lmasa ham boy berilgan foyda ko‘rinishida yuzaga chiqishi mumkin. Misol uchun, jamiyat mablag‘larining ishlatib yuborilishi natijasida jamiyat keyingi shartnomalar tuzish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolishi mumkin. Lekin fikrimizcha, bu har doim ham boy berilgan foydaning mavjud ekanligini yoki bo‘lishi lozimligini anglatmaydi. Albatta, bunda boy berilgan foydani isbotlash majburiyati shunday talabni qo‘yayotgan tomonda qoldiriladi va yuzaga kelgan oqibat hamisha mazkur harakat(harakatsizlik) bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Ushu moddada shuningdek, bizning vaziyatga, ya‘ni yirik bitimlarga aloqador yana bir norma mavjud bo‘lib, “jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o‘zlari yoki o‘z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik” javobgarlikka sabab bo‘lishi belgilangan. Ushbu norma qoidalarini qo‘llash uchun yirik bitimni direktor imzolamay, bu taklifni kuzatuv kengashiga, agar bu bitim summasi jamiyat sof aktivlarining 50 foizidan oshsa, umumiy yig‘ilishga taklif kiritishi va bu bitim imzolanishiga sababchi bo‘lishi kerak edi. Bu paytda bitimni vakolatli organ tasdiqlagani uchun u yuridik kuchga ega bo‘lar edi. Bunday bitim keyinchalik haqiqiy emas deb hisoblanganda oddiy restitutsiya qo‘llanilishi natijasida yana masala boy berilgan foyda bor-yo‘qligi haqida borar edi. Ammo shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, direktorlarning javobgarlik masalalari bu bilan tugamaydi, negaki, zarar bor yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar direktorning jamiyat oldidagi ishonchga asoslangan majburiyati – fidutsiar majburiyati bo‘yicha javobgarligi qolaveradi. Bunda direktor ushbu majburiyatni bajarmaganligi tufayli bir necha huquqiy oqibatlar paydo bo‘lishi mumkin, masalan,

zararni direktor hisobidan qoplash, direktorni muddatdan oldin lavozimidan ozod etish (AJ to'g'risidagi qonunning 79-moddasi) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 415-sonli qarorida 2023 yilning iyul oyiga qadar Adliya vazirligi, Oliy sud, Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga xo'jalik jamiyati bilan shartnoma tuzilayotganda, shartnomaning halol ish olib borgan tarafi ushbu jamiyatning ijro etuvchi organidan xo'jalik jamiyati tomonidan bitimlarni tuzish ichki tartib-taomiliga rioya etilganligi haqida ma'lumot so'rab olishga majbur emas, ushbu shartnoma xo'jalik jamiyati tomonidan bitimlarni tuzish ichki tartib-taomili buzilganligi munosabati bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas, basharti shartnomaning halol ish olib borgan tarafi ushbu tartibga rioya etilmaganligidan xabardor bo'lmagan bo'lsa, degan normalarini o'zida ifodalovchi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Fikrimizcha, bu norma bir tarfdan uchinchi shaxslar uchun foydali bo'ladigan bo'lsa, ikkinchi tarfdan jamiyat ziyoniga amal qilishi ham mumkin. Masalan, jamiyat direktori umumiy yig'ilish vakolatiga kiruvchi maslaha yuzasidan qaror qabul qilgan bo'lsa, keyinchalik bu jamiyat zimmasidagi mas'uliyat bo'lib qolaverishi mumkin bo'lib qoladi.

Ammo fuqarolik huquqining umumiy tamoyillaridan ma'lumki, fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi. Buning ustiga, kodeksda tadbirkorlarning ish odobi qoidalariga ham rioya etishlari kerakligiga urg'u beriladi. Bir so'z bilan aytganda, huquqni suiiste'mol qilishga yo'l qo'yilmaydi. Soliq kodeksining 15-moddasi esa Fuqarolik kodeksining 126-moddasini ayni qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni unga ko'ra, "Soliq munosabatlarida soliq to'lovchilar kontragentlarni tanlash chog'ida ularning soliq organlarida soliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yilganligini, kontragentning ishbilarmonlik obro'sini, ishlab chiqarish bazasi va xodimlari mavjudligini, moliyaviy holatini, bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tekshirib, lozim darajada ehtiyotkorlik qilishi shart"¹⁴⁷. Normaning davomi shuni taqazo etadiki, agar soliq to'lovchi lozim darajada ehtiyotkorlik qilmagan bo'lsa va bundan u zarar ko'rgan bo'lsa, bu soliq solish maqsadida tan olinmasligi belgilangan. Aytmoqchi bo'lganimiz shuki, lozim darajadagi ehtiyotkorlik har doim ham ushbu harakatni bajaruvchi shaxsdan talab qilinadi, ya'ni bu xuddi "qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod etmasligi" prinsipiga o'xshaydi. Chunki xususiy huquq ommaviy huquq sohasi emaski, unda bir tomon bo'ysunuvchi, ikkinchi tomon esa unga nisbatan ustunroq mavqega ega bo'lsa. Xususiy huquq, jumladan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda

¹⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 31.12.2019

tomonlarning tengligining mohiyati ham shunda ko‘rinadi, ya’ni huquq ham majburiyat ham ikkala tomon uchun birdek taalluqli.

Ushbu normani yanada sharhlaydigan bo‘lsak, bu normadan shartnomaning bir tarafi ko‘proq manfaatdor bo‘lib qolishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, aytaylik, A kompaniya B kompaniya bilan mahsulot yetkazib berish shartnomasini tuzdi. A kompaniya uchun bu shartnoma yirik bitim edi, ammo shartnoma direktor tomonidan yirik bitim tuzish tartib-taomiliga amal qilinmay o‘zboshimchalik bilan tuzilgan. A kompaniya endi bu vaziyatda sudga bitimni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha da’vo qilsa, sud PQ-415 asosida ishlab chiqilgan norma bo‘yicha da’voni qanoatlanitirishni rad etishi mumkin bo‘ladi. Chunki bu vaziyatda ikkinchi taraf halol ish yuritgan taraf deb qaraladi va shartnoma A kompaniya uchun ham o‘z kuchida qolaveradi. Bunday vaziyatda ana endi kompaniya uchun boy berilgan foydadan tashqari, haqiqiy zarar ham kelib chiqishi ehtimoli katta. Chunki u shartnoma tarafi sifatida B kompaniya oldida majburiyat egasidir. Kompaniya esa o‘z navbatida o‘ziga yetkazilgan zararni direktordan undirib olishi mumkin bo‘ladi. Bunda zarar deganda, yuridik shaxsning bitim natijasida kontragent oldida yuzaga kelgan majburiyatidan kelib chiqqan haqiqiy zarar va (yoki) boy berilgan foydani, shuningdek, direktorning o‘z majburiyatini bajarmaganligi uchun kelib chiqqan zararni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi tahlillarimiz davomida shuni ko‘rdikki, o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topilgan bitimlarda restitutsiya qo‘llanganda, hamma narsa avvalgi holiga qaytadi. Bundan boshqa huquqiy oqibat olib kelmaslik borasidagi fikrga I.Novitskiy qarshi chiqadi va bunday holat bitim tuzgan shaxslarga boshqa nomaqbul oqibatlar olib kelishi mumkinligi ta’kidlaydi¹⁴⁸. Chunki bitim haqiqiy emas deb topilganda ikkinchi taraf yoki har ikki taraf ham bitim tuzishdan umid qilgan natijaga erisha olmay qolishi mumkin. Agar bitim natijasida olingan mol-mulk uchinchi shaxslarga begonlashtirilib ketgan bo‘lsa, unda eng katta og‘irlik “insofli egallovchi” hisoblangan uchinchi shaxslar zimmasida qolib ketishi ehtimoli ham yuqori. Chunki bitim haqiqiy emas deb topilganda u asosda tuzilgan qolgan barcha bitimlar ham haqiqiy emas deb topiladi. Shuning uchun direktorning vakolatini suiiste’mol qilishi oqibatlariga yengil qarab bo‘lmaydi.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, korporatsiya direktorlari jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki uning butun bashqaruvi, kunlik faoliyati aynan direktor tomonidan boshqarib boriladi. Shuning uchun ham direktorlar zimmasida fuditsiar majburiyat mavjud bo‘ladi va uning javobgarligi ham shundan kelib chiqadi¹⁴⁹.

¹⁴⁸ Новицкий И.Б. Недействительные сделки. Вопросы советского гражданского процесса. - М., 1945, с. 15.

¹⁴⁹ Иброхимов Азимжон Абдумўмин Ўғли (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 841-853. doi: 10.24412/2181-1784-2021-10-841-853

Romana-german huquq tizimi mamlakatlaridan hisoblangan Rossiya Federatsiyasida sudlar javobgarlikni belgilash uchun huquqbuzarlikning quyidagi 3 ta elementi doirasini aniqlaydi:

Birinchidan, javobgar direktor o'ziga berilgan muayyan majburiyatni buzganmi va bu aniq bir shaklda ko'rinadimi;

Ikkinchidan, direktorning bu harakati korporatsiyaga qancha ziyon keltirdi; Uchinchidan, ushbu huquqbuzarlik va korporatsiyaga yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudmi. Agar ushbu elementlarning hattoki bittasi yo'q bo'lgan taqdirda ham direktorni javobgarlikka tortish bo'yicha da'vo qanoatlantirishni rad etilishi mumkin¹⁵⁰. Bu ham bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida ham direktorga nisbatan javobgarlik cheklangan ko'rinishda ekanligini anglatadi.

Ingliz huquq tizimidagi umumiy huquqbuzarliklar tamoyiliga binoan (general tort principles) direktorda fuditsiar majburiyat mavjudligi bois u vakolatlarni faqat o'zi amalga oshira oladi. Shu boisdan agar u uchinchi shaxslarga yoki ikkinchi tarafga qasddan yoki beparvolikdan zarar yetkazgan bo'lsa, shaxsan javobgar bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, direktorlar, agar ular o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida harakat qilsalar, uchinchi shaxslar oldida shaxsan javobgar bo'lmaydilar. Shuningdek, direktorlar kompaniya nomidan har qanday shartnoma uchun uchinchi shaxslar oldida shaxsan javobgar emaslar. 1956 yilgi Hindiston "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonunining 542-moddasiga muvofiq, Agar Direktorlar biznes faoliyati davomida soxta savdo qilishda aybdor deb topilgan bo'lsa, ular sud qarori bilan kompaniyaning qarzlari yoki majburiyatlari uchun shaxsan javobgarlikka tortilishi mumkin. Bundan tashqari, 542-moddaning 3-bandiga ko'ra, yuqorida aytib o'tilgan tarzda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda bila turib ishtirok etgan har bir shaxs, ikki yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinishi yoki ellik ming rupiya jarimaga tortilishi yoki har ikkisi bo'yicha ham bir vaqtda jazolanishi ham mumkinligi qayd etilgan. Bundan tashqari, direktorning aniq javobgarligi odatda faqat direktor shartnomaning bajarilishini shaxsan kafolatlagan taqdirdagina yuzaga keladi. Boshqa tomondan, agar direktor Kompaniya uchun shartnoma imzolasa yoki uning nomini ko'rsatsa, lekin "cheklangan" so'zini yoki uning qisqartmasini qo'shmasa, nazarda tutilgan javobgarlik paydo bo'ladi. Ushbu qoida agentlikning odatiy prinsipiga asoslanadi, agar agent agent sifatida ishlayotganligini oshkor qilmasdan shartnoma tuzsa, u sukut bo'yicha shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bu yerda agent deyilishiga sabab, Hindiston qonunchiligi bo'yicha direktor bir necha pozitsiyalarda, jumladan, ishonch olgan shaxs, agent, direktor, boshqaruv

¹⁵⁰ Корчагин Матвей Андреевич (2020). Ответственность директора перед корпорацией за причиненные ей убытки. Вопросы российской юстиции, (7), 182-202.

menejeri sifatida namoyon bo'lishi mumkin ekan. Bundan tashqari direktor kompaniya tashkil etilgan, ammo hali davlat ro'yxatidan o'tmagan kompaniya nomidan uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzganda ham shaxsan javobgar bo'ladi. Masalan, Kelner va Baxter ishida umumiy yurisdiksiya sudida direktor agar shartnoma imzolagan bo'lsayu, biroq unda bunga vakolat hali mavjud bo'lmasa u o'z harakati uchun o'zi javob berishi aytilgan edi¹⁵¹.

Umuman olganda, romana-german huquq tizimida ham anglo-sakson huquq tizimida aslida shaxslar o'z javobgarligini chegaralash uchun korporatsiyalarga – yuridik shaxslarga birlashadilar. To'g'ri, uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar direktorning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishi natijasida bo'lishi mumkin, ammo u kompaniya nomidan ushbu harakatni amalga oshirgani bois uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik avvalo kompaniyani o'zida qoladi. Chunki yuridik shaxslarda qaysi huquq tizimida bo'lishidan qat'iy nazar yuridik shaxsning mol-mulki, javobgarligi bilan uning ishtirokchilari, direktorlarining mol-mulki, javobgarligi ajratilgan ko'rinishda bo'ladi. Ingliz-amerika huquq tizimida “korporativ niqoblarni olib tashlash” konsepsiyasining “yorib o'tuvchi javobgarlik” shakliga ko'ra odatda direktor bir vaqtning o'zida ham jamiyat ishtirokchisi, masalan, aksiyadori bo'lganda bu konsepsiya qo'llanishi nazarda tutiladi. Agar direktor jamiyat ishtirokchisi bo'lmagan hollarda uning javobgarligida cheklangan javobgarlikni “yorib o'tish”i yuzaga kelmaydi¹⁵². O. V. Gutnikov va D.V. Lomakin ham “yorib o'tish” konsepsiyasini direktorlarning shaxsi kompaniya bilan uzviy bog'liqlikda bo'lsagina qo'llanishi mumkinligini bildiradi¹⁵³. Ya'ni direktor qolgan vaziyatlarda uchinchi shaxslar oldida shaxsan javobgar bo'lmaydi. Umuman olganda, direktor ko'p holarda suvdan ana shunday “quruq” chiqishi ehtimoli katta. Masalan, O'zbekiston qonunchiligi bilan tahlil qiladigan bo'lsak, Fuqarolik kodeksining 48-moddasida yuridik shaxsning majburiyati bo'yicha qonun yoki ta'sis hujjatida belgilangan bo'lgan taqdirdagina faqat muassis (ishtirokchi) yoki mulkdorning hisobdor bo'lishi belgilangan, boshqaruv a'zolarining javobgarligi belgilanmagan ham. Shu boisdan boshqaruv a'zosining, shu jumladan, direktorning javobgarlik doirasi o'ta chegaralangan, deb hisoblashimiz lozim. Bundan tashqari, Fuqarolik kodeksining

¹⁵¹ Surabhi Bairathi. Directors & Their Liabilities. Available on: <https://www.legalservicesindia.com/article/577/Directors-&-Their>

Liabilities.html#:~:text=That%20is%20to%20say%20that,the%20company%20or%20any%20other.

¹⁵² Ibrohimov, Azimjon Abdumomin Ogli, Koryogdiyev, Bobur Umidjon Ogli, & Tojiboyev, Sarvar Zafarovich (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (1), 1068-1082. doi: 10.24412/2181-1784-2022-1-1068-1082

¹⁵³ Гутников О. В. Гражданско-правовая ответственность в отношениях, связанных с управлением юридическими лицами: дисс. ... д-ра. юрид. наук. – Москва, 2018. – с. – 259

989-moddasida “Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari o‘z ishtirokchilari (a‘zolari) tomonidan ular shirkat va jamiyat yoki kooperativning tadbirkorlik, ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatini amalga oshirish vaqtida yetkazilgan zararni qoplashi” belgilangan. Shu paytda yana haqli savol tug‘ilishi mumkin, direktor jamiyatning ishtirokchisi (a‘zosi) bo‘lmaschi?

“Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Oliy xo‘jalik sudi plenumining 262-sonli qaroriga muvofiq, xo‘jalik shirkati qonunda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, yuridik shaxs maqomini olgandan so‘ng unda o‘z ulushi (payi, hissasi)ga ega bo‘lgan yuridik va(yoki) jismoniy shaxs ushbu xo‘jalik shirkatining ishtirokchisi hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda ham aksiyadorlik jamiyatlarida ham direktorlarning ayni vaqtda ushbu jamiyatda ishtirokchi bo‘lishi kerakligi bo‘yicha talab mavjud emas. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, FK 989-moddasida nazarda tutilgan “ishtirokchi” atamasiga direktorni har doim ham nazarda tutib bo‘lmaydi. Buning ustiga, fikrimizcha, garchi ishtirokchi bir vaqtning o‘zida direktor bo‘lgan taqdirda ham uning ishtirokchilik va direktorlik pozitsiyalari alohida-alohida qaralishi kerak. Shuning uchun ham direktorning huquq va majburiyatlari alohida nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, direktorning kompaniya bilan qanday huquqiy munosabatda ekanligini aniqlash ham direktordan zararni undirishda fikrimizcha ahamiyat kasb etadi. Yangi mehnat kodeksining 485-486-moddalarida direktorlar bilan mehnat shartnomasi tuzilishi belgilangan. Agar direktor bilan mehnat shartnomasi tuziladigan bo‘lsa, unda u ish beruvchiga nisbatan xodim hisoblanadi. MK 337-moddasi esa xodimning moddiy javobgarligini cheklaydi. Maslan, unga ko‘ra, xodim ish beruvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazilgan haqiqiy zararning o‘rnini qoplashi shartligi, boy berilgan foyda esa xodimdan undirilmasligi belgilangan.

AQSHning Texas shtati Oliy sudida ko‘rilgan “Fisher v. Carrousel Motor Hotel” sud ishi hujjatlarida shunday yoziladi:

Texas qonunlariga ko‘ra, agentning (xodimining) ishi zarar yetkazuvchi xatti-harakati uchun quyidagi hollarda prinsipial yoki uning boshlig‘i javobgar bo‘ladi:

Birinchi, prinsipial ushbu harakatni sodir etish uchun ko‘rsatma bergan bo‘lsa;

Ikkinchi, agent shu ishni qilishga noloyiq bo‘lsayu, prinsipial buni bilgan holda uni shu vazifaga mas’ul qilib qo‘ygan bo‘lsa;

Uchinchi, agent o‘z ish vazifasidan yoki unga yuklatilgan vazifadan kelib chiqib, burchini bajargan bo‘lsa;

To'rtinchidan, keyinchalik ish beruvchi yoki menijer uning bu xatti-harakatini tasdiqlagan bo'lsa¹⁵⁴. Shunga o'xshash qoida FK 989-moddasida ham mavjud bo'lib, javobgarlikni to'g'ridan to'g'ri direktorga yoki kompaniyaga qaratishda direktorning huquqiy holatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi vaziyada ingliz huquqi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, kompaniyaning kundalik boshqaruvi uning aksiyadorlari tomonidan direktorlarga topshiriladi. Direktorlarning qarorlari direktorlar kengashi tomonidan birgalikda qabul qilinadi. Direktorlar kompaniya oldida, agar to'lovga qobiliyatsizlik vujudga keladigan bo'lsa, kreditorlar oldida ham qarzdor hisoblanadi. Bundan tashqari, direktorlarning asosiy vazifalari 2006-yildagi "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonunda ham ko'rsatib o'tilgan, ushbu qonunga ko'ra, direktorda bitimlar tuzish bo'yicha cheklovlar mavjud. Qo'shimcha ravishda shuni ham aytishimiz mumkinki, korporatsiyalarga yetkazilgan zararni qoplashda direktorlar shaxsiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar u korporatsiya va uchinchi shaxslar o'rtasida tuzilayotgan bitimlarda yolg'on ma'lumot bergan bo'lsa, qonun talablariga rioya qilmay bilib turib ushbu bitimni tuzgan bo'lsa, o'zi shaxsiy javobgarlikka tortiladi.

Gemaniya qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, direktorlar amaldagi qonunchiliklarga rioya qilib, g'amxo'rlik va sodiqlik asosida korporatsiyalar nomidan harakatlar olib borishi kerak. G'amxo'rlik me'yori deganda, mehnatsevar va ehtiyotkor tadbirkor, ishbilarmonlik nuqatai nazari doirasi tushuniladi. Agar u o'zining majburiyatlarini buzib, vakolati doirasidan chetga chiqib korporatsiyalarga zarar yetkazadigan bo'lsa, direktorlarning kompaniya oldidagi shaxsiy va birgalikdagi javobgarligiga olib keladi. Umuman oladigan bo'lsak, boshqaruv a'zolari jamiyatning xatti-harakatlari uchun alohida aksiyadorlar yoki uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lishi mumkin emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham romana-german yoki anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda ham aksariyat hollarda direktorlarning javobgarlik masalalari cheklangan tarzda ifodalangan. Buning izohi sifatida shuni aytish mumkinki, direktorlar mustaqil shaxs sifatida emas, balki korporatsiyalar manfaati yo'lida harakat qiluvchi shaxs hisoblanadi. Shu boisdan u ikkinchi taraf oldida asosan majburiyat olmaydi. Ammo bu uning javobgarlikdan butunlay ozod ekanligini anglatmaydi. Direktor mustaqil shaxs sifatida jamiyat va direktor o'rtasida tuzilgan shartnoma subyekti (tomoni) hisoblanadi va shu tariqa jamiyat oldida ma'lum bir majburiyatlarga ega bo'ladi. Direktorlarning jamiyat oldidagi fidutsiar majburiyati

¹⁵⁴ Emmitt E. Fisher, Petitioner, v Carrousel nMotor Hotel, Inc, et al., Respondents. № B-342. Supreme Court of Texas. Dec.27, 1967

esa u tomonidan uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun to'g'ridan-to'g'ri uchinchi shaxslar emas, balki, jamiyat oldida javobgarligini anglatadi.

Bundan tashqari, direktorning o'z mavqeyini suiiste'mol qilib tuzgan bitimlari natijasida kelib chiqqan zararni hisoblashda haqiqiy zarar yuzaga kelgan-kelmaganidan qat'iy nazar, ayniqsa, bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatida restitutsiya qo'llanishi natijasida boy berilgan foydani direktordan undirish imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Bunda direktor bilan kompaniya o'rtasidagi huquq va majburiyatlar yuzga kelib chiqish asoslariga ham e'tibor qaratish muhim hisoblanib, shu orqali direktordan undirish mumkin bo'lgan zararining haqiqiy qiymatini hisoblab chiqish mumkin. Shuningdek, direktorlarning jamiyatda bir vaqtda ishtirokchilik pozitsiyasi ham mavjud bo'lgan-bo'lmaganidan qat'iy nazar, uning bu ikki pozitsiyasi bir-biridan ajralgan holda qaralishi va direktorning javobgarligi qonunda aniq belgilanmaganligi bois, jamiyat va direktor o'rtasida tuziladigan shartnomada avvaldan belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. 1.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 31.12.2019
3. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun.
4. Merkt H., Göthel S.R. US-amerikanisches Gesellschaftsrecht. S. 98. Fn. 74.
5. Е.А.Суханов "Сравнительное корпоративное право" М.: Статут, 2014. 56с.
6. Новицкий И.Б. Недействительные сделки. Вопросы советского гражданского процесса. - М., 1945, с. 15.
7. Иброҳимов Азимжон Абдумўмин Ўғли (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (10), 841-853. doi: 24412/2181-1784-2021-10-841-853
8. Корчагин Матвей Андреевич (2020). Ответственность директора перед корпорацией за причиненные ей убытки. *Вопросы российской юстиции*, (7), 182-202.
9. Surabhi Bairathi. Directors & Their Liabilities. Available on: <https://www.legalservicesindia.com/article/577/Directors-&-Their-Liabilities.html#:~:text=That%20is%20to%20say%20that,the%20company%20or%20any%20other.>

10. Ibrohimov, Azimjon Abdumomin Ogli, Koryogdiyev, Bobur Umidjon Ogli, & Tojiboyev, Sarvar Zafarovich (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (1), 1068-1082. doi: 10.24412/2181-1784-2022-1-1068-1082
11. Гутников О. В. Гражданско-правовая ответственность в отношениях, связанных с правлением юридическими лицами: дисс. ... д-ра. юрид. наук. – Москва, 2018. – с. – 259

**CHET DAVLATLARDA VA O‘ZBEKISTONDA KOMPLEKS
TADBIRKORLIK LITSENIYASI SHARTNOMASI(FRANSHIZING)
INSTITUTI: HUQUQIY MOHIYATI, XORIJIY MAMLAKATLAR
TAJRIBASI VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

Umarova Xolisxon Nomoz qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti talabasi

Gmail: xolisxonumarova3@gmail.com

Qarshiboyev Jasurbek Komiljon o‘g‘li

Gmail: jasurbekqarshiboyev54@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing)ni tartibga solish muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi huquqiy mohiyati va boshqa ayrim shartnomalardan farqi ochib beriladi. Milliy va xorijiy qonunchilik me‘yorlarini uyg‘unlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi haqidagi 50-bobi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Yevropa Ittifoqi, Amerika Qo‘shma Shtatlari qonunchiligi bilan solishtirma tahlil qilinadi. Huquq egasining shartnoma bo‘yicha yordam ko‘rsatish va tovarlar, ishlar, xizmatlar sifati ustidan nazoratni amalga oshirish majburiyatlari qonunda imperativ shaklda shakllantirilishi kerakligi haqida fikr bildiriladi. O‘zbekiston Fuqarolik Kodeksini litsenziat va litsenziarga shartnomadan bir tomonlama voz kechish huquqini beruvchi norma bilan to‘ldirish zarurati asoslanadi. Shuningdek, tomonlarning majburiyatlarini tartibga soluvchi moddalarni shartnomadan oldingi bosqichida ular tomonidan ma‘lumotlarni oshkor qilish va dastlabki kelishuv to‘g‘risidagi qoidalar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqligi haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi, franshizing, “tijorat konsessiyasi”, kompleks litsenziar, kompleks litsenziat, franchayzi, franzayzer, tadbirkorlik subyektlari, mutlaq huquqlar, tovar belgisi, shartnomadan oldingi dastlabki kelishuvlar, bir tomonlama voz kechish, ro‘yxatdan o‘tkazish.

**THE INSTITUTION OF COMPLEX COMMERCIAL LICENSE
AGREEMENT (FRANCHISING) IN UZBEKISTAN AND FOREIGN
COUNTRIES: LEGAL ESSENCE, EXPERIENCE OF FOREIGN
COUNTRIES AND ISSUES OF IMPROVEMENT OF NATIONAL
LEGISLATION**

ABSTRACT

This article is devoted to the problems of regulation of complex business license agreement (franchising) in the legislation of the Republic of Uzbekistan, and the legal essence of the complex business license agreement under the legislation of Uzbekistan and its difference from some other contracts will be revealed. In order to harmonize national and foreign legislation, Chapter 50 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan on the comprehensive business license agreement is compared with the legislation of the Commonwealth of Independent States, the European Union, and the United States of America. An opinion is expressed that the obligation of the right holder to provide assistance under the contract and control the quality of goods, works, and services should be formulated in an imperative form in the law. The need to supplement the Civil Code of Uzbekistan with a norm that gives the licensee and licensor the right to unilaterally withdraw from the contract is justified. It is also discussed whether it is expedient to supplement the articles regulating the obligations of the parties with provisions on disclosure of information and preliminary agreement at the pre-contractual stage.

Key words: *complex business license agreement, franchising, “commercial concession”, complex licensor, complex licensee, franchisee, franchisor, business entities, exclusive rights, trademark, preliminary pre-contractual agreements, unilateral waiver, registration transfer.*

KIRISH

Yangi tashkil etilayotgan korxonalar uchun biznes muvaffaqiyatini ta'minlash eng asosiy vazifadir. Bugungi kunda globallashuv va raqobatning rivojlanishi sharoitida iste'molchi eng yaxshi sifatdagi, jahon standartlariga mos keladigan mahsulotni tanlashga haqli. Bu esa o'z navbatida, tadbirkorlardan mahsulot (xizmat) sifatini yaxshilashga hamda uni reklama qilishga ko'proq xarajat va g'ayratni talab qiladi. O'z kuchini biznes olamida sinab ko'rmoqchi bo'lganlarga tadbirkorlik faoliyati uchun xavfsiz konstruktsiyalarni tanlash maqsadga muvofiq.

Shulardan biri bo'lgan franshizing biznesni yuritishning samarali shakli sifatida bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda qo'llaniladi, ishtirokchilar esa bir qator afzalliklarni qo'lga kiritadi. Masalan, boshlovchi tadbirkorlar uchun bunday

shakl barqaror va daromadli biznes asosida o'z ishini ochish imkonini beradi, o'z navbatida, taniqli kompaniyalar shu tariqa bozordagi o'z pozitsiyalarini kengaytiradilar va mustahkamlab oladilar. Franshizing bir qator afzalliklarga ega, bu yerda gap haqiqatan ham ushbu vositaning foydali jihatlari haqida ketmoqda, chunki ular jarayonning turli ishtirokchilari uchun qulay hisoblanadi. Chunonchi, franchayzer (franshizani beruvchi) uchun – bu katta investitsiyalarsiz yangi bozorga kirib borish. Franchayzi (franshizani oluvchi) uchun esa bu franchayzerning yordamida tavakkalchilik, muvaffaqiyatsizlik va mag'lub bo'lish xavfi past bo'lgan yangi faoliyat turi bilan shug'ullanishni anglatadi. Franchayzerning yordami muayyan ko'nikmalar, usullarni o'rganish, shuningdek ko'mak berish va xodimlarni o'qitishdan iborat.

Tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing shartnomasi) iqtisodiyotda ham juda muhim rol o'ynaydi:

- Birinchidan, bu ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan yangi boshlanuvchilarga tadbirkor foydalanish uchun taniqli kompaniyani belgilash, tovar belgisi (ba'zan, ayniqsa yuridik bo'lmagan adabiyotlarda, bu birgalikda "brend" deb ataladi), yirik litsenziarning ko'nikma va qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish imkonini beradi;

– Ikkinchidan, asosiysi litsenziar tarmog'ini kengaytirish bilan yanada taniqli va mashhur bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek qo'shimcha tushgan daromadga ega bo'ladi.

Ushbu shartnoma modeliga ko'ra, aralash shartnomalar bo'yicha, shu jumladan, savdo imtiyozining elementlari bo'yicha kafe va qahvaxonalar (masalan, McDonald's, KFC, Black Star Burger, Baskin Robbins), moliya (TBC bank, Tenge Bank, Alif Kapital) moda do'konlari (Emporio Armani, LC Waikiki, FLO), mehmonxonalar (Hilton, Ritz-Carlton), mashinalar (**Hyundai Auto Kazakhstan**, Honda, Kia), ichimliklar (Coca-Cola, RC Cola) va boshqa kompaniyalar franshiza shartnomasi bo'yicha yurtimizga kirib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida franshizing – kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi deb nomlanadi. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing shartnomasi) bo'yicha bir taraf (litsenziar) ikkinchi tarafga (litsenziatga) haq evaziga litsenziarning firma nomidan hamda qo'riqlanadigan tijorat axborotidan, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan mutlaq huquqlarga kiruvchi boshqa obyektlardan (tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va ixtirolar hamda boshqalardan) litsenziatning tadbirkorlik faoliyatida foydalanish huquqini o'z ichiga oladigan mutlaq huquqlar kompleksi (litsenziya kompleksi)ni berish majburiyatini oladigan shartnoma. Bundan kelib chiqadiki, shartnoma ikki tomonlama bo'lib, bir

taraf kompleks litsenziar(franchayzer) ikkinchi taraf esa kompleks litsenziat(franchayzi) bo'lib, har ikkala taraf ushbu shartnomaviy munosabatga kirishish uchun tadbirkorlik subyektini ya'ni, tijoratchi tashkilotlar va tadbirkorlik subyektini sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqarolar bo'lishlari talab qilinadi. Shartnoma taraflarga majburiyatlar yuklash vaqtiga ko'ra, konsessual xarakterli bo'lib, shartnomada shartlar kelishilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Shuningdek, AQSh Federal Savdo Komissiyasiga (FTC qoidasi) ko'ra, franchayzing shartnomasi uchta elementni o'z ichiga olishi kerak:

1) franchayzer franchayziga franchayzerning tovar belgisidan foydalanish huquqini beradi;

2) franchayzer franchayzi ish usullarini nazorat qiladi yoki nazorat qilish va unga yordam ko'rsatish huquqiga ega;

3) franchayzi franchayzerga kamida 615 AQSH dollari miqdorida haq to'laydi.

[1]

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi oddiy yozma shaklda tuziladi va u notarial guvohlantirilmaydi. Chunki shartnoma taraflari tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo'lib, ularning har birida shartnomani tasdiqlovchi muhr va shtamp mavjud bo'ladi. Qonunchilik franchayzing shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qiladi. Xususan, FKning 863-moddasida belgilanganidek, franchayzing shartnomasi yozma ravishda tuzilishi kerak va u shartnomaga muvofiq litsenziar (franchayzer) sifatida ish ko'radigan yuridik shaxsni yoki yakka tadbirkorni ro'yxatga olgan organ tomonidan ro'yxatga olinishi kerak. Ushbu qoidaga rioya qilmaslik shartnomaning haqiqiy hisoblanmasligiga sabab bo'ladi.

A.A.Ivanovning fikricha, shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazishning zaruriyati shartnomaning predmeti bilan bog'liq. Chunki o'ziga tegishli mutlaq huquqlarni kompleks tadbirkorlik litsenziyasi asosida berar ekan, tadbirkor, o'zining bu boradagi huquqdorligini cheklaydi. Bunday cheklashlar esa, ommaga oshkor qilinishi lozim. [2] Bunga qo'shimcha ravishda shuni ta'kidlash lozimki, mutlaq huquqlarning huquq sohibi tomonidan boshqa shaxslarga o'tkazilishi uning ushbu huquqlardan foydalanishga, tasarruf etishga bo'lgan huquqlarini hudud bo'yicha yoki o'zga vakolatlar bo'yicha cheklaydi.

A.U.To'raevning fikricha, tomonlarning qaysi biri ro'yxatdan o'tkazish organiga murojaat qilish to'g'risidagi masala qonunda aniq belgilangan bo'lib, u litsenziar zimmasiga yuklatilgan bo'ladi. [3] Lekin ushbu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasini ro'yxatga olinishi xususidagi qoidalarni belgilovchi FKning 863-moddasida shartnoma ro'yxatdan o'tkazish organiga aynan litsenziarining murojaat qilishi to'g'risidagi qoida

belgilanmagan. Lekin mazkur normaning mazmunidan shartnomani ro'yxatdan o'tkazishni so'rab davlat organiga litsenziar murojaat etishi maqsadga muvofiq bo'lishini anglash qiyin emas. Bu holat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, litsenziar mutlaq huquqlar sohibi sifatida o'ziga tegishli huquqlarning yuridik taqdirini belgilashga faqatgina u haqli hisoblanadi;

ikkinchidan, litsenziar shartnomani ro'yxatdan o'tkazishdan litsenziatga nisbatan bir qancha qulayliklarga ega. Masalan, uning litsenziatga nisbatan hududiy yaqinligi va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar bilan oldindan munosabatning mavjudligi.

Qonun shartnomani ro'yxatdan o'tkazish kimga yuklatilishini taraflarning kelishuviga ko'ra belgilanishini cheklamaydi. Aksincha, o'zaro kelishuvga ko'ra, litsenziat yoki istalgan uchinchi shaxs shartnomani ro'yxatdan o'tkazishni so'rab davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Tadbirkorlikning franchayzing shaklini kengaytirish, shartnomalarni ro'yxatga olish tartibotini takomillashtirish hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay sharoitlarni shakllantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 4-noyabrda 244-son qarori bilan "Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilingan.

Nizomda franshizing to'g'risidagi shartnomalar, ularga muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ularning amal qilishini bekor qilish davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerakligi belgilangan.

Nizomda (II.4.-band) belgilab qo'yilganidek, agar litsenziat xorijiy davlatda yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, franshizing to'g'risidagi shartnomani (muhim o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish)ni davlat ro'yxatidan o'tkazish shartnoma bo'yicha litsenziat sifatida ish ko'radigan yuridik shaxs yoki yakka tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazgan O'zbekiston Respublikasining ro'yxatdan o'tkazuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing)ni yozma shaklda tuzish talab etiladi, ammo AQShda (ba'zi shtatlarda) og'zaki shaklda ham tuzilishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, O'zbekistonda faqat yozma shaklga ruxsat beriladi va huquq ro'yxatga olinishi kerak.

Bundan tashqari, ko'plab mamlakatlar qonunchiligida franchayzing shartnomasini (tijorat konsessiyasi) majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibi ko'zda tutilgan. Bu Shveytsariya, Fransiya, Ispaniya, Xitoy, Koreya, Meksika, Braziliya, AQShning ba'zi shtatlarida qabul qilinadi.

AQSh federal qonunchiligi franchayzing shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmasa ham, o'n to'rtta shtat franchayzing taklifini ro'yxatdan o'tkazishni talab qiladi. Agar franchayzing taklifini ro'yxatdan o'tkazish talabiga rioya qilmasdan sotilgan bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar:

- 1) keyingi huquqbuzarliklarni to'xtatish talabi bilan sudga da'vo qo'zg'atish;
- 2) jabrlangan franchayzilar nomidan zararni qoplash va qoplashni talab qilish;
- 3) jarima solish.

Alohida hollarda bu huquqbuzarlik jinoiy javobgarlikka (jinoiy jazo) sabab bo'lishi mumkin.[4]

Germaniya qonunchiligi franchayzing shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydi. Lekin tovar belgisiga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish zarur.[5]

O'zbekistonda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomalarining nisbatan kam tuzilishi sabablaridan biri ro'yxatga olish tartibining murakkabligi deyishimiz mumkin. Qonun chiqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan ushbu tartib soddalashtirilishi kerak.

Xuddi shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1028-moddasida ham shartnomaning tuzilish shakliga doir shunday talab belgilangan. Bundan tashqari, franshiza shartnomasida qo'shimcha litsenziya berish nazarda tutilishi mumkin, bunda litsenziat belgilangan qoidalar asosida boshqa shaxslarga mutlaq huquqlardan foydalanish uchun qo'shimcha litsenziya berishi nazarda tutilgan bo'lib, Rossiya qonunchiligida bu "subkonsessiya" deb yuritiladi.[6] Uning mohiyati shundaki, franshiza shartnomasi bekor bo'lishi, yoki haqiqiy emas deb topilishi bilan qo'shimcha litsenziyalar ham asosiy shartnomalar bilan birga bekor bo'lishi belgilangan. Shuningdek, Rossiya qonun normasida subkonsessiyadan ya'ni, ikkinchi darajali foydalanuvchilardan franchayzerga yetkazilgan zarar uchun franchayzi ham subsidiar tarzda javobgar bo'lishi mustahkamlangan.

Rus olimi Levushkin fikricha, zamonaviy biznesda franshizing biznesning shunday modeliki, unda bir taraf (franchayzer) boshqa tarafga (franchayziga) haq evaziga o'z nomidan ishlash huquqini beradi va shu tariqa sotuv bozorini kengaytiradi. Oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, bu – brend "ijarasi". Yirik kompaniya tadbirkorga o'z brendi ostida mahsulotni sotish yoki xizmat ko'rsatish huquqini beradi.[7]

Ushbu shartnoma turli davlatlarda turlicha nom bilan tartibga solingan bo'lib, davlatimiz qonunchiligida "kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi" sifatida, Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlarida "tijorat konsessiyasi" ya'ni, "tijorat huquqi, imtiyoz" atamasida, shuningdek, ingliz huquq tizimida esa "franshiza shartnomasi"

deya mustahkamlangan. Lekin kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing) tushunchasining qat'iy ta'rif AQSh, Moldova va Ruminiya, Buyuk Britaniya qonunchiligida mavjud. Rossiyada Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi ham "tijorat imtiyozi" tushunchasini beradi. Ammo ularning mazmuni va mohiyati barcha davlatda ma'lum darajada farq qilishi mumkin.

Rus olimi Lukashovning ta'kidlashicha, sud amaliyotida, qarorlar qabul qilishda Rossiya sudlari "tijorat imtiyozi" tushunchasidan ham, "franchayzing" kontsepsiyasidan ham teng ravishda foydalanadi. Demak, qonuniy mustahkamlangan modelning yo'qligi Rossiya Federatsiyasida franchayzing munosabatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi.[8]

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 862-moddasi 3-qismiga muvofiq, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo'yicha faqat tijorat tashkilotlari va tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan fuqarolargina taraflar bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, kompleks litsenziar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, tadbirkorlik faoliyatining subyekti hisoblanishi kerak. Bunda kompleks litsenziar tadbirkorlik faoliyati bilan shartnoma tuzishdan oldin shug'ullangan bo'lishi talab etilmaydi, muhimi shartnoma tuzilayotgan paytda u tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida ro'yxatga olingan bo'lishi zarur.[9]

Kompleks litsenziar mutlaq huquqlardan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan shaxs bo'lib, u ham shartnoma tuzilayotgan paytda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Garchi Fuqarolik kodeksi notijorat tashkilotlari va davlatning kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasining subyektlari bo'lishi mumkinligini qat'iy taqiqlamagan bo'lsa-da, Fuqarolik kodeksi 862-moddasining 3-qismi (kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo'yicha faqat tijorat tashkilotlari va tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan fuqarolargina taraflar bo'lishi mumkin) mazmunidan notijorat tashkilotlari va davlat bu shartnomaning obyektlari bo'lishi mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1027-moddasida ham tijorat imtiyozi shartnomasi bo'yicha faqat tijorat tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uning taraflari bo'lishi mumkin ekanligi belgilangan.¹⁵⁵

Shuningdek, Belorussiya Respublikasining Fuqarolik Kodeksi ham tijorat tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar shartnoma taraflari bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi (Belarus Respublikasining Fuqarolik kodeksining 910-

¹⁵⁵ http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_9027/49c2afdf04c1ba13e815aa8b44287cd4b6cac9f5/

moddasi 3-bandi).¹⁵⁶ Lekin Qozog‘iston qonunchiligida boshqacha yondashuv o‘z aksini topgan. Qozog‘iston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati uchun to‘liq litsenziya (franchayzing) to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida franchayzing munosabatlarining subyektlari jismoniy va yuridik shaxslardir deb belgilangan.¹⁵⁷ Ehtimol, Qozog‘iston qonun chiqaruvchisi jismoniy shaxs tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorni nazarda tutar, ammo qonunda bunday ko‘rsatma mavjud emas. Yuridik shaxslarga kelsak, Qozog‘iston qonunchiligida qaysi yuridik shaxslar (tijorat yoki notijorat) shartnoma subyektlari bo‘lishi mumkinligi aniqlanmagan, qonun chiqaruvchi bizning fikrimiz mos keladigan umumiy tushunchani belgilab qo‘ygan. Moldova Respublikasining “Franchayzing to‘g‘risida”gi qonunida jismoniy va yuridik shaxslar franchayzing shartnomasining tarafi bo‘lishi mumkinligi ham qayd etilgan.¹⁵⁸

Germaniyada franchayzingni tartibga solish tajribasi ham qiziq. Individual asosda ishlaydigan ko‘plab “kichik franchayzi”lar mavjud. Franchayzerlar keyinchalik mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida boshqaruv kompaniyasini tashkil etish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga franchayza berishlari mumkin. Shu bilan birga, franchayzer franchayzingni berishdan oldin, u franchayzidan uning o‘tmishi, ma‘lumoti, moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, shuningdek, sudlanmaganligi to‘g‘risidagi guvohnomani talab qiladi.¹⁵⁹

Masalan, Xitoyda maxsus talablar franchayziga emas, balki franchayzerga qo‘yiladi. Xitoydagi “Tijorat franchayzing to‘g‘risidagi ma‘muriy reglament”ning 7-bandiga binoan, franchayzer kamida ikkita sho‘ba yoki sho‘ba korxonaga, shuningdek franchayzing biznesini yuritishda kamida bir yillik tajribaga ega bo‘lishi kerak.¹⁶⁰ Agar ushbu talablar buzilgan bo‘lsa, aybdor shaxs 100 ming yuan miqdorida katta miqdorda jarima to‘laydi, franchayzing shartnomasi majburiy ravishda bekor qilinadi va franchayzer tomonidan olingan barcha summalar undan undiriladi. O‘zbekiston qonunchiligida Germaniya yoki Xitoyda bo‘lgani kabi tomonlar uchun alohida maxsus mezonlar yo‘q. Bizning fikrimizcha, tomonlar uchun aniq belgilangan mezonlarni qonunchilikda birlashtirish kerak, chunki har bir o‘ziga xos

¹⁵⁶ Гражданский кодекс Республики Беларусь : Федер. закон от 7 дек. 1998 г. № 218-3 // Ведомости Национального собрания Республики Беларусь. 1999. № 7-9. Ст. 101.

¹⁵⁷ О комплексной предпринимательской лицензии (франчайзинге) : Закон Республики Казахстан от 24 июня 2002 г. № 330 II. URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1031861&pos=5;-106#pos=5;-106

¹⁵⁸ О франчайзинге : Закон Республики Молдова от 1 окт. 1997 г. № 1335XIII. URL: lex.justice.md/viewdoc.php?action=view&view=doc&id=312758&lang=2

¹⁵⁹ <http://oceanlaw.ru/wp-content>

¹⁶⁰ Administrative Measures for the Record Filing of Commercial Fran-chises. URL: http://project.mofcom.gov.cn/1800000121_39_3395_0_7.html.

munosabatlar qonunchilikda yanada aniq nazarda tutilsa va ularning ishtirokchilari moslashtirilsa, keyinchalik bu borada nizolar kelib chiqishining oldini oladi.

Rus olimlari Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik Kodeksiga o'zgartirishlar kiritishni, shartnomada ishtirok etuvchi subyektlar doirasini kengaytirishni, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari va ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan shaxslarni ham kiritishni taklif qilishmoqda. Bunday o'zgarishlar tufayli, masalan, universitetlar va boshqa shaxslar ta'lim xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega standartlarga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan ta'minlanadi.[10] Fikimizcha, bu kabi o'zgarishlar bizning qonunchiligimizga ham kiritilsa, ya'ni ushbu shartnoma subyektlari kengaytirilsa, yurtimizda ushbu shartnomalarni tuzish yanada ommalashadi va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasining predmetini litsenziar tomonidan litsenziatga berilayotgan mutlaq huquqlar kompleksi tashkil etadi. Bu huquqlarga quyidagilar kirishi mumkin:

- Firma nomi
- Qo'riqlanadigan tijorat axboroti
- Tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi
- Ixtirolar
- Liseziatning tadbirkorlik faoliyatida foydalanish huquqini o'z ichiga oladigan boshqa mutlaq huquqlar kompleksi.

Shartnomaga muvofiq ushbu huquqlarning hammasi yoki bir nechtasi yoxud bittasi litsenziatga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun berilishi mumkin. Litsenziat litsenziardan ularning hammasini berishni talab qilishga (shartnomadan qaysi huquqlarning berilishi aniq ko'rsatilgan hollar bundan mustasno) haqli emas. Agar kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida litsenziatning tadbirkorlik faoliyatida foydalanishi uchun faqat bitta mutlaq huquq, masalan firma nomi berilsa ham, mutlaq huquqlar kompleks berilmaganligidan qat'iy nazar bu shartnoma kompleks tadbirkorlik litsenziyasi sifatida e'tirof etiladi.

Shartnoma predmeti hisoblangan "mutlaq huquqlar kompleksi"ga litsenziarning ishchanlik obro'si va nou-xaularni ham kiritish mumkin. Zero, ishchanlik obro'si va nou-xaular ham mutlaq huquq obyektiga sifatida shartnoma predmeti bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi intellektual mulk huquqi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi (FKning 862- moddasi 5-qismi).

Shuningdek, yuridik adabiyotlarda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi muddati to'g'risidagi shart muhim shart ekanligi haqida ilmiy munozaralar mavjud. Ayrim mualliflar shartnoma muddatini ushbu shartnomaning

muhim sharti sifatida belgilaydilar.[11] Ko‘rsatilgan xulosaga qo‘shilish biroz qiyin, chunki Fuqarolik kodeksining 871-moddasida kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi mutlaq huquqlar majmuidan foydalanish uchun muddat ko‘rsatilgan yoki belgilanmagan holda tuzilishi haqida qoida mavjud. Shuning uchun bu holatni muhim deb tasniflash uchun hech qanday sabab yo‘q. A. A. Eremin, huquq egasining tijorat sirini himoya qilish maqsadida, shartnomaning kamida uch yillik muddatini belgilashni taklif qiladi.[12]

Mualliflik huquqi egasi ya‘ni litsenziarning majburiyatlari Fuqarolik kodeksining 866-moddasida nazarda tutilgan. Moddaning 1-qismi 1-bandi litsenziarning litsenziatga texnikaviy va tijorat hujjatlarini topshirishi hamda litsenziat kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo‘yicha o‘ziga berilgan huquqlarni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan boshqa axborotni taqdim etishi, shuningdek litsenziat va uning xodimlariga ushbu huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar berish majburiyatidir. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo‘yicha mualliflik huquqi egasi (lisenziar)ga tegishli bo‘lgan mutlaq huquqlar majmuasidan foydalanuvchi(lisenziat)ga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish huquqini berishning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlash, mualliflik huquqi egasi(lisenziar)ga yuklatilgan. Foydalanuvchi(lisenziat)ga doimiy texnik va maslahat yordamini ko‘rsatish, shu jumladan xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirishda yordam ko‘rsatish ham shartnomaga muvofiq mualliflik huquqi egasi(lisenziar)ga yuklanishi mumkin bo‘lgan majburiyatdir. Faoliyatini endigina boshlayotgan foydalanuvchi(lisenziar) uchun uning manfaatlaridan kelib chiqib, zamonaviy texnik va axborot bazalarini olish, ishga yuqori malakali kadrlarni jalb etishda bunday yordam katta ahamiyatga ega. Sergeevning so‘zlariga ko‘ra, lisenziar dastlab tadbirkorlik faoliyatida ma‘lum bir natijaga erishmoqchi bo‘lgan, litsenziarni individuallashtirish vositalaridan foydalangan holda va o‘z tajribasini amalda qo‘llagan holda, kompleks tadbirkorlikning huquqiy munosabatlar tizimini ishga tushiradi. Muallif ta‘kidlaganidek, foydalanuvchi shartnomada litsenziarning bunday majburiyati nazarda tutilganligini talab qilishi kerak. Yordam berish majburiyatining ixtiyoriy xususiyati foydalanuvchi(lisenziat)ni ancha noqulay ahvolga solib qo‘yadi.[13]

Shuningdek, rus professori Popovanning ta‘kidlashicha, huquq egasi(lisenziar)ning tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini nazorat qilish majburiyati ham dispozitiv shaklda ifodalanadi. Huquqiy nazariyada ushbu majburiyat bo‘yicha bir nechta pozitsiyalar mavjud. Ba‘zi olimlarning fikricha, sifatni nazorat qilish majburiyatini dispozitiv qoida sifatida tasniflash o‘rinli, chunki

foydalanuvchi(litsenziat)larning ko'pligida litsenziar tomonidan nazorat qilish deyarli imkonsiz ko'rinadi.[14]

Shuningdek, fransuz olimi R.Baldining fikricha, tadbirkorlik faoliyati (tovarlar, ishlar, xizmatlar) natijalarining yakuniy oluvchilari iste'molchilar bo'lib, ularning huquqlarini to'g'ri himoya qilishni ta'minlash maqsadida sifat nazorati shartnomada majburiy belgilanishi shart bo'lgan majburiyat sifatida qaraladi. Ammo bu holatda nafaqat iste'molchining manfaatlari muhim rol o'ynaydi, balki litsenziarning ham manfaatlari alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyati natijalarining sifati mualliflik huquqi egasi(litsenziar)ning ishbilarmonlik obro'siga ta'sir qiladi, shuningdek, litsenziar va litsenziat sifati o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda ular subsidiar javobgar bo'lishi va alohida mahsulot ishlab chiqaruvchisi sifatida litsenzizatga qo'yiladigan talablar uchun birgalikda javobgar bo'lishi ham juda muhimdir.[15]

Shuni ta'kidlash kerakki, chet elda huquq egasi(litsenziar)ning majburiyatlarini ta'minlashni osonlashtirish va sifat nazorati ham dispozitiv tarzda tuzilgan. Masalan, Belarus Respublikasi Fuqarolik kodeksining 910.3-moddasida va Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 1031-moddasida ushbu narsalar nazarda tutilgan. Qozog'iston Respublikasining "Franchayzing to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, sifat nazorati litsenziarning majburiyatlari sifatida tasniflanmagan, lekin litsenziarning huquqlari sifatida keltirib o'tilgan.

Bizning fikrimizcha, tomonlarning manfaatlarini himoya qilish uchun yordam ko'rsatish va tovarlar, ishlar, xizmatlar sifati ustidan nazoratni amalga oshirish majburiyati huquq egasi uchun imperativ ko'rsatmalar sifatida tasniflanishi kerak. Ko'p sonli foydalanuvchilar bilan shartnoma tuzgan litsenziar qonunda nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni mustaqil ravishda bajara olmasligi aniq, shu tufayli foydalanuvchilarga nisbatan nazorat choralari uchun yordam ko'rsatadigan, amalga oshiradigan uchinchi shaxslarni jalb qilish tavsiya etiladi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 866-moddasida biz buni quyidagicha bayon qilishni taklif qilamiz: "Litsenziar litsenziatga texnikaviy va tijorat hujjatlarini topshirishi hamda litsenziat kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi bo'yicha o'ziga berilgan huquqlarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan boshqa axborotni taqdim etishi, shuningdek litsenziat va uning xodimlariga ushbu huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan yo'l-yo'riqlar berishi shart; litsenziatga shartnomada nazarda tutilgan litsenziyalarni berishi, ularning belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlashi; litsenziatga doimiy texnikaviy va maslahat yordami ko'rsatishi, shu jumladan xodimlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishda yordam berishi shart. Foydalanuvchi tomonidan

kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi asosida ishlab chiqarilgan (bajarilayotgan, ko'rsatilgan) tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini nazorat qilish, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, litsenziar ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishni ushbu bandga muvofiq uchinchi shaxslarga topshirishga haqli.”

Kodeksimizdagi keyingi muammoli jihat - shartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etish yoki bir tomonlama bekor qilishning aniq tartibi yo'qligi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi 1037-moddasi 1.1-bandida huquq egasi (ya'ni bizning qonunchilikda litsenziar), agar foydalanuvchi(litsenziat) sifat talablarini buzgan bo'lsa, shartnomani bajarishni to'liq yoki qisman rad etishga haqli; mualliflik huquqi egasi(litsenziar)ning mutlaq huquqlar majmuasidan foydalanish tartibiga oid ko'rsatmalari va ko'rsatmalarini qo'pol ravishda buzganlik; shartnomada belgilangan muddatda huquq egasi(litsenziar)ga haq to'lash majburiyatini buzganlik uchun shartnomaning litsenziar tomonidan bir tomonlama bekor qilishga yo'l qo'yishi belgilangan. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, mualliflik huquqi egasi yozma ravishda litsenziatdan qonunbuzarliklarni bartaraf etishni talab qilsa va litsenziat vaqtida bartaraf etmasa, mualliflik huquqi egasi bir tomonlama rad etishi mumkin.¹⁶¹ Shunisi e'tiborga loyiqki, hattoki Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksida ham litsenziat shartnomani bir tomonlama bajarishdan bosh tortishi mumkin bo'lgan qoidalar nazarda tutilmagan. Masalan, garchi bunday majburiyat shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa ham litsenziat foydalanuvchiga biznes yuritishda yordam bermasligi mumkin.

AQSH qonunchiligida ham franchayzing shartnomalarida odatda franchayzi franchayzer bilan bir xil turdagi tijorat faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlovchi qoidalar mavjud. AQShda keng tarqalgan cheklovlar shartnoma muddati davomida amal qiladi (in-term covenants). Ba'zi shartlarda, agar ular quyidagi mezonlarga javob bersa, keyingi muddatli shartnomalar(post-term covenants)ga ruxsat beriladi:

1) davomiyligi, geografik miqyosi va taqiqlangan xatti-harakatlari bo'yicha oqilona faoliyat ko'rsatishi;

2) franchayzerning biznes manfaatlarini himoya qilish zarurligiga mutanosib harakat qilishi.

Agar franchayzi raqobatbardosh bo'lmagan majburiyatlarni buzsa, franchayzerlar turli xil himoya usullariga murojaat qiladilar, shu jumladan shartnomani darhol bekor qilishi va zararni undirishi mumkin.[16]

Aksariyat shartnomalar yoki shartnoma shartlarining qismlari ikki toifadagi buzilishlarni o'z ichiga oladi:

¹⁶¹ http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_9027/49c2afdf04c1ba13e815aa8b44287cd4b6cac9f5/

✓ tuzatilishi mumkin bo'lgan buzilishlar (curable breaches) - franchayzi tomonidan yozma ravishda ogohlantirilgandan keyin bartaraf etilishi mumkin;

✓ tuzatib bo'lmaydigan buzilishlar (incurable breaches) - tuzatib bo'lmaydigan va shartnomaning darhol bekor qilinishiga olib keladigan holatlar (masalan, sotish to'g'risida qasddan kam hisobot berish, uzoq muddatli raqobatga qarshi shartnomalarni buzish).

Shartnoma muddati davomida franchayzi tomonidan olingan nomoddiy aktivlarga (mijoz bazasi, ish usullari, ishbilarmonlik obro'si) franchayzerning huquqlariga egalik qilish masalasiga e'tibor qaratiladi.

Shartnoma amaliyoti AQShda shunday rivojlanadiki, nomoddiy aktivlarga bo'lgan huquqlar franchayzerga o'tadi. Bu tovar belgisidan foydalanish tovar belgisining ro'yxatdan o'tgan egasining manfaati uchun ekanligini ko'rsatadi.[17]

Shu bilan birga, ayrim shtatlar, xususan, Vashington qonunlari agar birinchi kontragentni shartnomani uzaytirmaslik niyati haqida oldindan xabardor qilmagan bo'lsa franchayzerlardan o'z franchayzilariga nomoddiy aktivlarning yo'qolishi uchun kompensatsiya to'lashni talab qiladi.[18]

Shuningdek, AQShda franchayzing munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

✚ franchayzing shartnomasi bo'yicha munosabatlarni tartibga solishning ikki darajali tizimi (federal va davlat darajasida);

✚ shartnoma tuzish uchun shartnomadan oldingi bosqichning muhim roli;

✚ franchayziga shartnoma muddati davomida ham, uni bekor qilgandan keyin ham franchayzer bilan bir xil turdagi tijorat faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlovchi qoidalar;

✚ shartnoma bekor qilingandan keyin franchayzi aktivlari nomoddiy obyektlarni franchayzerga o'tkazish.[19]

Germaniyada tarafni oldindan ogohlantirmasdan franchayzing shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish faqat uzrli sabab bo'lgan taqdirdagina mumkin (masalan, franchayzi tomonidan to'lovni to'lamaslik yoki kontragent tomonidan raqobatchilar bilan hamkorlik qilish taqiqini buzish).

Shartnoma muddati tugagandan so'ng franchayzining nomoddiy aktivlariga bo'lgan huquqlarni franchayzerga o'tkazish masalasi (masalan, franchayzi mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar) qonun chiqaruvchi tomonidan tartibga solinmaydi. Biroq, o'xshashlik bo'yicha normalarni qo'llashda savdo vakilligi bo'yicha, biz ko'ramizki, agar franchayzer shartnoma bekor qilingandan keyin franchayzi mijoz bazasidan foydalanishda davom etsa, ikkinchisi kompensatsiya olish huquqiga ega bo'ladi.[20]

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 871-moddasi Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi va AQSH federal qonunchiligida ko‘rsatilgani kabi litsenziarga va litsenziatga ham shartnomadan bir tomonlama voz kechishga imkon beradigan qoidalar bilan to‘ldirilishi kerak. Hozirgi vaqtda bunday qoidaning yo‘qligi litsenziarning majburiyatlari ko‘p jihatdan qonunda dispozitiv tarzda belgilanganligi bilan bog‘liq. Biroq, litsenziarning majburiyatlariga nisbatan yuqorida taklif qilingan o‘zgartirishlar litsenziat tomonidan shartnomadan bir tomonlama voz kechish masalasini hal qilish zarurligiga olib keladi va ushbu holatlarda 871-moddada nazarda tutilgan olti oylik muddatga nisbatan qisqa muddat nazarda tutilishi mumkin.

Shuningdek, Belarus Respublikasi qonun hujjatlarida litsenziar yoki litsenziat shartnomani bir tomonlama ravishda bajarishdan bosh tortish huquqiga ega bo‘lgan maxsus qoidalarni nazarda tutmaydi. Belarus Respublikasining Fuqarolik kodeksida bizning kodeksdagi kabi faqat bu muddat ko‘rsatmasdan tuzilgan franchayzing shartnomasi taraflarining har biriga boshqa tomonni 6 oy oldin (agar shartnomada uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo‘lsa) xabardor qilish orqali istalgan vaqtda shartnomani bajarishdan butunlay voz kechishga imkon beradi.(910-moddasi) Qozog‘iston Respublikasining “Franchayzing to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida bir tomonlama rad etish huquqi faqat litsenziarga, shuningdek, yuqorida Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksida ko‘rsatilgan holatlarga muvofiq beriladi. Bu tomonlarning himoya vositalaridagi tengsizlikka olib borishi mumkin.

Fransiya va Germaniyada franchayzer ko‘pincha shartnomaga franchayzi huquqlarini cheklovchi qoidalarni kiritadi. Fransiyada franchayzing shartnomasining amal qilish muddatiga qo‘yilgan cheklovlar adolatli va asosli bo‘lsa, amal qiladi. Shartnoma muddati tugaganidan keyin amalda bo‘lgan cheklovlar quyidagi shartlarni birgalikda qondirish sharti bilan amalga oshiriladi (Fransiya Savdo kodeksining L. 341-2-moddasi):

- faqat shartnoma predmetini tashkil etuvchi tovarlar va xizmatlarga nisbatan qo‘llanilishi;
- franchayzer faoliyat yuritadigan hudud bilan cheklangani;
- shartnoma bo‘yicha berilgan ishlab chiqarish sirlarini (nou-xau) himoya qilish uchun zarurligi.[21]

Kodeksimizdagi yana bir dolzarb masala - franshizani shartnomadan oldin tartibga solish masalasi. Bir qator xorijiy mamlakatlarda, masalan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Xitoyda bu masalaga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, rus professori D.P. Strigunova ham tadqiqot asosida, bir qator xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi franchayzing shartnomasini tuzishdan oldin

ma'lumotlarni oshkor qilish bilan bog'liq qoidalarni nazarda tutadi degan xulosaga keladi.[22]

AQSHda Federal savdo komissiyasi franchayzing qoidasi va ko'pgina shtat qonunlari franchayzerlardan bo'lajak franchayzilarga franchayzingni oshkor qilish hujjatini (FDD) taqdim etishlarini talab qiladi.

Nyu-York shtati qonunchiligi bo'lajak franchayzilarga franchayzingni oshkor qilish hujjatini tomonlarning birinchi yuzma-yuz uchrashuvida yoki shartnomani bajarish yoki mukofotni to'lashdan 10 ish kuni oldin taqdim etishni talab qiladi.[23]

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish (franchayzi franchayzi olishdan oladigan savdo, daromad, yalpi foyda yoki sof foydaning har qanday namoyishi) franchayzerning huquqi emas, balki majburiyatidir. Ilgari bu qoida AQSH qonuchiligida huquq sifatida e'tirof etilgan va keyinchalik majburiyat etib belgilangan. "Great Clips" kompaniyasi vitse-prezidenti Charli Simpson ta'kidlaganidek, moliyaviy hisobot potentsial franchayzining ishonchini ilhomlantirish uchun o'z kompaniyangizni namoyish qilish imkoniyatidir.[24]

Fransiya savdo kodeksining L. 330-3-moddasi boshqa tarafga tovar belgisidan foydalanish huquqini beruvchi barcha shartnomalar uchun shartnomadan oldin majburiy oshkor qilish va dastlabki kslishuvlarni belgilaydi hamda mutlaq majburiyatlarni belgilaydi. Fransiya Fuqarolik Kodeksining 1112-1-moddasi, keng talqinda, shuningdek, franchayzerning shartnoma tuzish to'g'risidagi franchayzi qarori uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini belgilaydi. Shartnomadan oldin oshkor qilish "Document d'information Pré-contractuelle, DIP" deb nomlangan bitta hujjatda amalga oshiriladi. Moliyaviy hisobotlarni oldindan taqdim etish majburiyati, shartnomani tartibga soluvchi qonundan qat'i nazar, Fransiya hududida tuzilgan franchayzing shartnomasiga nisbatan qo'llaniladi. Yuqoridagi talablarga rioya qilmaslik Germaniya yoki Fransiya yurisdiksiyasida shartnomaning avtomatik ravishda bekor qilinishiga olib kelmaydi. Shartnomani franchayzi adashganligi munosabati bilan haqiqiy emas deb topish masalasi sudning vakolati hisoblanadi.[25]

Shartnomadan oldin oshkor qilish majburiyatlari Germaniyada Fuqarolik Kodeksining 311-moddasi 2-qismida ifodalangan bo'lib, ushbu nozma "yaxshi niyat tamoyili" deb nomlanadi. Bundan tashqari, noto'g'ri ma'lumot to'g'risidagi ma'lumot berganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Muzokaralar davomida ikkala tomon - nafaqat franchayzer - haqiqatni aytishi, yolg'on va dalar bermasliklari va bir-birlariga barcha muhim faktlarni oshkor qilishlari kerak. Bu, ayniqsa, franchayzing muvaffaqiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan va potentsial franchayzini tarmoqning bir qismi bo'lishga undashi mumkin bo'lgan faktlarga nisbatan to'g'ri keladi. Daromad

bo'yicha da'volar ayniqsa murakkab, ishonchli va tegishli empirik ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak hamda hisob-kitoblar ham aniq belgilangan bo'lishi kerak. Hatto, agar franchayzerning direktorlari yoki agentlari potentsial franchayzilarga nohaq yoki noto'g'ri bayonotlar bergan bo'lsa, ular Fuqarolik Kodeksining 311-moddasi 3-qismiga muvofiq shaxsan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shuning uchun franchayzerlar o'zlarining franchayzalarini Germaniyada sotishda juda ehtiyot bo'lishlari kerak. "Yaxshi niyat tamoyili" prinsipiga har qanday rioya qilmaslik shartnomani bekor qilish va to'langan har qanday to'lovni to'liq to'lash kerakligini anglatadi. Shartnomaning ushbu tamoyiliga rioya qilmaganligi to'g'risidagi da'volar uchun qonunda belgilangan da'vo muddati uch yil bo'lib, u da'vo paydo bo'lgan va franchayzi da'voga sabab bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumot olgan yilning oxirida boshlanadi.[26]

Shartnomadan oldingi bosqichda tomonlar muzokaralar olib boradilar, kelajakdagi shartnoma shartlarini muhokama qiladilar, oshkor etmaslik to'g'risidagi bitimlarni imzolaydilar va bu bosqichda ma'lumotlar oshkor qilinadi.

Bir tomondan, O'zbekiston fuqarolik qonunchiligi munosabatlarni shartnomadan oldin tartibga solish qoidalarini o'z ichiga oladi, xususan, Fuqarolik kodeksining 359 va 361-moddalariga muvofiq, tomonlar dastlabki shartnoma va kelishuvlarni tuzishlari mumkin, shuningdek, kelishuv tuzilgunga qadar muzokaralar davomida ularni qiziqtirgan barcha masalalar bo'yicha kelishuvga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu qoidalar barcha fuqarolik-huquqiy shartnomalarga nisbatan qo'llanilishi mumkin, ammo ular majburiy hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida kompleks tadbirkorlik munosabatlarning shartnomadan oldingi bosqichini tartibga soluvchi alohida normalar nazarda tutilmagan, qonun tahlil qilingan shartnomani tuzishdan oldin tomonlardan ma'lumotlarni oshkor qilishni talab qilmaydi, shartnomadan oldingi bosqich kontragent munosabatlarning mustaqil va majburiy bosqichi hisoblanishi mumkin. Nazariyada bu holat ma'lum darajada O'zbekiston kompleks tadbirkorlik shartnomasini xalqaro franchayzingdan ajratib turadi degan pozitsiya mavjud, chunki faqat keng talqin O'zbekiston qonunchiligi qoidalarini xorijiy tartibga solishga muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati har doim moliyaviy, tijorat, bozor va tashkiliy risklar bilan bog'liqdir.[27] Shartnomadan oldingi vosita va kelishuvlar, birinchi navbatda, axborotni oshkor qilish, ularni minimallashtirishga qaratilgan.

Shartnoma bo'yicha litsenziar va litsenziatning majburiyatlariga bag'ishlangan moddalar shartnoma tuzishdan oldin tomonlarni ma'lumotlarni oshkor qilishga majburlovchi alohida bandlar bilan to'ldirilishi kerak, deb hisoblaymiz.

Biz O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 866-moddasini quyidagi qoida bilan to‘ldirishni taklif qilamiz: “Shartnoma tuzishdan oldin litsenziar o‘z biznesining ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, shu jumladan, aylanma, xarajatlar, foyda, rentabellik, hamkor kompaniyalar, biznes tajribasi, o‘tgan va davom etayotgan sud jarayonlari haqidagi ma‘lumotlarni oshkor qilishga majburdir”.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1032-moddasi: “Shartnoma tuzishdan oldin litsenziat litsenziarga o‘zining to‘lov qobiliyati va biznes tajribasi to‘g‘risida xabar berishi shart”.

Ta’kidlaymizki, bunday tartibning ko‘zlangan maqsadi tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan tadbirkorlar va rivojlanayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qat’iy cheklovlar o‘rnatishni nazarda tutmasligi, ma‘lumotlarni oshkor qilish tomonlar uchun qidiruv xarakteriga ega bo‘lishi kerak. Biznesni yuritish uchun bir-biri haqida muhim ma‘lumotlarni biladigan kontragentlar uchun hamkorlik strategiyasini rejalashtirish va biznesni rivojlantirish istiqbollarini baholash osonroq. Shartnomadan oldingi tartibga solish qoidalari, shuningdek, xorijiy sheriklar bilan bitimlar foizini oshiradi, chunki ular o‘rganilayotgan shartnomaning shartnomadan oldingi bosqichini huquqiy tartibga solishdagi farqlar tufayli yuzaga kelgan mavjud to‘siqni yo‘q qiladi. Ushbu yangilik O‘zbekiston kompleks tadbirkorlik shartnomasini xorijiy franchayzing modeliga yaqinlashtiradi va shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 50-bobi yanada to‘g‘ri va mantiqiy ko‘rinadi.

O‘zbekiston va xorijiy qonun hujjatlarida kompleks tadbirkorlik litsenziyasini (franshizing) huquqiy tartibga solish masalasini o‘rganish asosida biz taqqoslash uchun muhim mezonlarni shakllantirish va umumlashtirishga harakat qilamiz. Bunga quyidagilar kiradi: Fransiya (1989), Braziliya (1994), Malayziya (1998), Qozog‘iston (2002), Koreya (2002), Italiya (2004), Belgiya (2006), Shvetsiya (2006) kabi mamlakatlarda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) sohasidagi alohida maxsus qonunlar mavjud. Rossiyada “Franchayzing to‘g‘risida” gi Qonun Davlat Dumasi tomonidan 2014-yilda rad etilgan. Franchayzing qoidalari Albaniya, Gruziya, Belarusiya, Litva, Moldova, Ukraina kabi davlatlarning fuqarolik kodeksiga kiritilgan. O‘zbekistonda ham kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing) to‘g‘risidagi qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga kiritilgan. Franchayzingni bilvosita tartibga soluvchi qoidalar Meksika (1991), Xorvatiya (1994), Ispaniya (1996) kabi mamlakatlarda mavjud. O‘zbekistonda tartibga solish uchun, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing) qoidalariga qo‘shimcha ravishda, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining boshqa qoidalari ham qo‘llaniladi. Franchayzingni tartibga

soluvchi qonun hujjatlari Indoneziya, Ruminiya, Xitoy, Vetnam kabi mamlakatlarda ham alohida qonun sifatida amal qiladi.

Yuqorida keltirilgan davlatlarning tajribasini o'rgangan holda, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing) faqatgina Fuqarolik kodeksidagi qoidalar bilan emas, aniq belgilangan alohida maxsus Qonun bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun O'zbekistonda ham kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing)ni tartibga soladigan Qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuningdek, mazkur shartnomada fuqarolik huquqidagi bir qancha shartnomalarga xos jihatlar ifodalaganligi uchun, uni talabdan uchinchi shaxs foydange voz kechish shartnomasidan, mulk ijarasi shartnomasidan, ilmiy tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati shartnomasidan va litsenziya shartnomasidan farqlarini ko'rsatib o'tish zarur.

Talabdan uchinchi shaxs foydasiga voz kechish shartnomasida kreditorning talab qilish huquqi franshizing shartnomasidan farq qilib, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lmaydi. Bundan tashqari kreditorning o'z huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazishi bilan uning o'z huquqlariga nisbatan vakolati barham topadi. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida esa muayyan muddatdan so'ng yoki belgilangan shart amalga oshirilganidan so'ng foydalanishga olingan mutlaq huquqlar o'z sohibiga qaytariladi.

Odatda, mulk ijarasi shartnomasida mulkiy huquqlar foydalanishga berilsa, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida mutlaq huquqlar foydalanishga beriladi. Ba'zi hollarda ijara shartnomasida ham mutlaq huquqlar berilishi nazarda tutilishi mumkin. Masalan, korxonani ijara berish shartnomasida korxonani individuallashtirish vositalari mulkiy kompleksning tarkibiy qismi sifatida foydalanishga beriladi va alohida ijara obyektini sifatida qaralmaydi.

Ilmiy-tekshirish ishlari pudrati shartnomasida esa, bajarilgan ishning natijasida intellektual mulk huquqi obyektini yaratilishi, bu esa o'z navbatida mutlaq huquqlarni vujudga keltirishi mumkin. Lekin bunday holat har doim ham yuzaga kelmaydi. Ya'ni ilmiy-tekshirish ishlari pudrati shartnomasida hamma vaqt ham ko'zlangan natijaga erishilavermaydi. Qolaversa, bu turdagi pudrat shartnomalarida hamma vaqt ham intellektual mulk obyektini yaratish talabi qo'yilmaydi. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasida esa predmet sifatida faqatgina mutlaq huquqlar e'tirof etiladi.

Litsenziya shartnomalaridan kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomasining farqi shundaki, franshizing shartnomasida mutlaq huquqlardan

foydalanish maqsadi belgilab qo'yiladi, mualliflik litsenziyasi yoki litsenziya shartnomalarida bunday cheklashlar belgilanmaydi.[28]

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasini o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olib, uni fuqarolik huquqidagi shartnomalarning mustaqil turi deb hisoblash mumkin.

XULOSA

Yuqorida tahlil qilingan masalalar bo'yicha umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, umumiy nom bilan franshiza shartnomasi – taraflari hisoblangan franshiza beruvchi “franchayzer”(litsenziar) va franshiza oluvchi “franchayzi”(litsenziat) o'rtasida mutlaq huquqlar ya'ni, firma nomi, tovar (xizmat ko'rsatish) belgisi, ixtirolar, tijorat siri va boshqa individuallashtirish vositalaridan foydalanish uchun haq evaziga litsenziya(ruxsat) berish mazmunida tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Bu munosabat nafaqat shartnomalar to'g'risidagi qoidalar bilan, balki, intellektual mulk huquqini himoya qilish qoidalari bilan ham bevosita taribga solinishi belgilangan.

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasining asosiy maqsadi (huquqiy jihatdan) faqat tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun mutlaq huquqlar majmuini vaqtincha foydalanishga berish hisoblanadi. Shartnoma asosida kompleks litsenziar o'zining firma nomi va qo'riqlanadigan boshqa tijorat axboroti, hamda litsenziarning mutlaq huquqlariga kiruvchi obyektlar: tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, ixtirolarini (patent bo'lgani holda) kompleks litsenziatning tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun berish majburiyatini oladi. Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasiga muvofiq ikkinchi tomon-litsenziatga berilayotgan huquqlar odatdagi mulkiy yoki talab qilish huquqi emas, balki mutlaq huquqlar hisoblanadi. Mutlaq huquq esa, odatdagidek egallab turish mumkin bo'lmagan, bir vaqtning o'zida nomuayyan doiradagi shaxslar foydalanishi mumkin bo'lgan obyektlarga nisbatan huquq sohibi mulkiy huquqlarini amalga oshirilishini ta'minlovchi muhim vositadir.

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasining iqtisodiy ahamiyati shundaki, ushbu shartnoma orqali yirik kompaniyalar o'z mahsulotlari uchun bozorlar vujudga keltiradilar, tovarlar, ishlar va xizmatlarning muomalada qiyinchiliksiz harakati ta'minlanadi. Bundan tashqari kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi orqali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, tadbirkorlik faoliyatini boshqa usullar (masalan, yuridik shaxs va qo'shma korxonalar tuzish, alohida sarmoya olib kirish va boshqalar) orqali amalga oshirishga nisbatan ancha qulaydir.

Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi mamlakatlar, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Amerika davlatlarining franshizing shartnomasini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qonunchiligini yanada chuqur o'rganib, keltirilgan takliflarni Fuqarolik kodeksimizga

kiritib, qonunchilikni mukammallashtirish va franshiza sohasini tartibga soladigan alohida Qonun qabul qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning natijasida nafaqat yurtimizdagi tadbirkorlik subyektlari bo'lgan shartnoma taraflari, balki xorijdan franshiza shartnomasi orqali yurtimizda biznesini kengaytirmoqchi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlari yanada kuchli himoya qilinishi mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 916 CFR Part 436 et seq [Электронный ресурс] / Сайт «Cornell Law School». - Режим доступа: <https://www.law.cornell.edu/cfr/text/16/part436>
2. Гражданское право. Ч.2./Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К.Толстого. - М.: Проспект. 2017-633 с.
3. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. 2 қисм. /Ҳ.Раҳмонқуло И Зокировларнинг умум тахр остида.-Т.: Адолат 1999. -282 б.
4. Steven Feirman, Daniel Deane, Keri A. McWilliams, Kendal Tyre, Nathan Warecki, Brad Steinbrecher. The Franchise Law Review: USA [Электронный ресурс] / Сайт «The Law Reviews». - Режим доступа: <https://thelawreviews.co.uk/title/the-franchise-law-review/usa>.
5. Benedikt Rohrßen Martin Rothermel Giorgia Carandente Ulrich Spiegel. Franchise & Licensing: Germany [Электронный ресурс] / Сайт «The legal 500»: <https://www.legal500.com/guides/chapter/germany-franchiselicensing>.
6. Кулеева И. Ю. Проблемы и противоречия законодательного регулирования договора коммерческой концессии в Российской Федерации и в зарубежных странах // Современное право. 2019. № 3. С. 74–79.
7. Левушкин А. Н. Договоры в предпринимательской деятельности : учебник. — М. : Проспект, 2021. — 400 с.
8. Лукашова А.С. Проблемы ответственности сторон по договору коммерческой концессии // Юрист. 2016. № 14. С. 10–14.
9. Гражданское право Ч. 2. Под. ред. А.П.Сергеева, Ю.К. Толстого. - М.:Проспект, 2017. 617-с.
10. Бондаренко Д.П. Правовое регулирование договора коммерческой концессии в российском праве : автореф. дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.03 / Д.П. Бондаренко. — Москва, 2013. — 26 с. — EDN SVFFGT.
11. Брагинский М. И., Витрянский В. В. Договорное право. Договоры о выполнении работ и оказании услуг. Кн. 3. М., 2020. 1055 с.
12. Еремин А. А. Франчайзинг и договор коммерческой концессии: теория и практика применения : автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Саратов, 2015. 34 с.

13. Гражданское право : учебник : в 3 т. / ред. А.П. Сергеев. — Москва : Велби, 2020. — Т. 2. — 880 с.
14. Попова Т.В. Правовые проблемы договора коммерческой концессии / Т.В. Попова. — EDN PZEEWT // Вестник Сибирского университета потребительской кооперации. — 2013. — № 1 (4). — С. 130–133.
15. Baldi, R. Le droit de la distribution commerciale dans e' Europe communautaire. Kluwer. Bruxelles, 2019.
16. United States: Franchise & Licensing / Сайт «The legal 500». - Режим доступа: <https://www.legal500.com/guides/chapter/united-states-franchise-licensing/>.
17. Dale A. Cohen. USA: Franchise and Licensing. 2021 edition.
18. Eric Johnson. Franchising industry. A Reference for U.S. Exporters. 2018 Edition
19. Daniel Deane. The Most Profitable Franchise Businesses in USA. «The Law Reviews». - Режим доступа: <https://thelawreviews.co.uk/title/the-franchise-law-review/usa>.
20. Tsahik Kolinko, Krystyna Rezvorovych, Maryna Yunina. Legal characteristic of the franchise agreement in Germany // Baltic Journal of Economic Studies. Vol. 5, №. 1, 2019. - P. 96–100.
21. Tom Billing. Germany: Franchise Law and Regulations 2021 [Электронный ресурс] / Сайт «ICLG». — Режим доступа:<https://iclg.com/practiceareas/franchiselawsandregulations/germany#:~:text=In%20Germany%2C%20there%20are%20no,law%20and%20unfair%20trade%20law>.
22. Попова Т.В. Правовые проблемы современного общества // Вестн. Сибирского ун-та потребительской кооперации. 2013. № 1 (4). С. 130–133.
23. United States: Franchise & Licensing / Сайт «The legal 500». - Режим доступа: <https://www.legal500.com/guides/chapter/united-states-franchise-licensing/>.
24. Item 19 of an FDD and Researching Potential Franchise Profitability [Электронный ресурс] / Сайт «Franchise direct». - Режим доступа: <https://www.franchisedirect.com/information/item19ofanfddandresearchingpotentialfranchiseprofitability/>.
25. Julien Rivet. Franchise & Licensing: France. [Электронный ресурс] / Сайт «The legal 500». - Режим доступа: <https://www.legal500.com/guides/chapter/france-franchise-licensing>.

26. The Franchise Law Review: Germany Stefan Münch, Dr. Alexander Duisberg, Dr Markus Körner and Michael Gaßner Bird & Bird LLP.01 February 2022.
27. Ковалерова Л.А. Финансовая среда предпринимательства и предпринимательские риски : учеб. пособие / Л.А. Ковалерова, Ю.С. Караваева — Брянск : Изд-во БГУ им. И.Г. Петровского, 2015. — 132 с. — EDN WZXIQP.
28. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 364-bet.

CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA

Искандаров Б.М. // Қонун бўйича ворислик билан боғлиқ низоларнинг турлари.....	5
Исломов Б. // Лизинг шартномасининг таркибий тузилиши ва бошқа ижара шартномаларига нисбатан ўзига хос хусусиятлари.....	14
Tursinova Z.Sh. // Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik layoqatini baholash mexanizmlarining metodologik asoslari.....	22
Xonqulov Sh.X. // Oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini yaratishning nazariya va amaliyotdagi holati.....	26
Эшмуродов А.И. // Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир қонунлар ижроси устидан прокурор назоратининг ҳуқуқий асослари	37
Madaminov N.M. // Dizayn tushunchasining etika, estetika bilan hamohangligi va tarbiyaviy ahamiyati.....	47
Karimova M.O., Todjimamatova M.E., To'ychiyeva R.N. // Iqtidorli yoshlarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik asoslari.....	55
Mamurov A.A. // Pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	64
Sohibov R. // Ranglarning asosiy xususiyatlari va ularning amaliy san'atda qo'llanilishi.....	74
Тўрақулов Х.С., Шокирова Д.Ш., Бозоров Т.А. // Ўзбекистон бугдой сариқ занг касаллиги маҳаллий ирқларига ўсимлик сариқ занг генларининг химоя реакцияси.....	81
Qodirov M.D., Jamolova H.M. // Qishloq xo'jaligida organik va mineral o'gitlarning qo'llanilishining tuproq unumdorligiga ta'siri.....	90
Shokirova G.N. // Changes in the sensitivity (resistance) cotton bollworm <i>helicoverpa armigera</i> hb to insecticides.....	96
Ziyayev K.Z., Abdurazzokov U.A., Omarov J.A., Abdujalilova M.V. // Modellashtirish hududini transport rayonlarga ajratish.....	103
Axmatjanov R.N., Abdujalilova M.V. // O'zbekiston sharoitida iqlim o'zgarishining asosiy sabablari.....	108
Ziyayev K.Z., Abdurazzokov U.A., Omarov J.A., Abdujalilova M.V. // Urganch shahri jamoat transport tarmog'ini samaradorligini baholash.....	111
Xujayeva M.A., Ibadullayev B.M., Kurambayev Sh.R., Achilova S.S., Atajanov S.A. // Xorazm viloyatida yetishtirilgan qovun navlaridan marmelad tayyorlash va uni saqlash jarayonlarida mahsulot sifat ekspertizasi.....	116
Shoumarova M., Abdillayev T., Yusupov Sh.A. // Vertikal shpindelli paxta terish apparati barabanlarining mexanik yuritmasini elektrlashtirish zarurligi....	124

Tolipova B.R. // <i>Cultural differences in uzbek and english magazine advertising: a pragmatic approach</i>	131
Shokirova M.M. // <i>English for specific purposes: teaching professional communication to chemical-technology institute students</i>	134
Иномжон А., Менглиев Б. // <i>Жадидлар унлилар ва сингармонизм ҳақида</i>	140
Қурбонова Б.М. // <i>Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини мактаб ўқувчиларида бадиий тафаккур элементларини шакллантиришга тайёрлаш</i>	154
Самадов Ғ.Х. // <i>Сиёсий лидерлик ва имидж масалалари таҳлили</i>	161
Қурбонова Б.М. // <i>Эстетик идрок бадиий тафаккур маҳсули</i>	170
Вахабова Д.Р. // <i>Философские взгляды Абу Абдулло Рудаки</i>	182
Atayev Sh. // <i>Davlat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari</i>	190
Fayzullayev U.O'. // <i>Allomalar merosini o'rganishning o'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati</i>	194
Komilova F.M. // <i>Yengil sanoat va uni tadqiq etishning geografik jihatlarini</i>	198
Qulmatov R.A., Mirzaev J.A., Odilov S.A., Alimov A.X., Indaminova Z.A. // <i>Sug'oriladigan maydonlarda yer osti sizot suvlari sathi va minerallashuvini GAT texnologiyalari yordamida aniqlash va baholash (Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani misolida)</i>	204
G'ayratova G., Nazarov M., Muqimov M. // <i>Sirdaryo yuqori oqimida uchrovchi uchlab balig'i (opsariichthys bidens)ning morfobiologik ko'rsatkichlari</i>	215
Саъдуллаев Ҳ.Х. // <i>Корпоратив низоларни ҳал этишда моддий ҳуқуқ нормаларини қўллашнинг айрим масалалари</i>	220
Rahmatullayev I.T. // <i>Mediatsiya – huquqiy nizolarni hal qilishning o'ziga xos shakli sifatida: nazariy va amaliy masalalar</i>	235
Сакеева Р.П. // <i>Компетенция как важнейший фактор системной организации исполнительной власти в республике каракалпакстан</i>	243
Сяо Чжен (Xiao Zheng). // <i>Foreign policy concepts of the Republic of China</i>	249
Pardaeva M.F. // <i>Task-based approach to teaching foreign languages to older adults</i>	256

Pardaeva M.F. // <i>Change in teaching content and test design in ESL.....</i>	263
Yunusaliyev M.T. // <i>Akvarel texnikasida ranglar loyqalanshning oldini olish shartlari.....</i>	269
Boboxo‘jayeva L.A. // <i>Xalq og‘zaki ijodining Usmon Azim ijodiga ta’siri masalasi.....</i>	277
Xolmatova A.Q. // <i>Tilshunoslikda lingvopoetika va lingvopoetik vositalarning o‘rganilishi tarixi.....</i>	282
Умарова Н.Р., Холматова О.Ў. // <i>Мақол бирликлари семантикасининг когнитив асослари.....</i>	285
Xolmatova O.O‘. // <i>O‘zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari.....</i>	292
Бахрамова М.М. // <i>Языковая и концептуальная картина мира.....</i>	300
Ortikov U. // <i>Practical uses of corpus analysis in designing language teaching materials.....</i>	304
Bovanova U.A. // <i>The model of improving the positive attitude of elementary school students to the environment in the information environment and the importance of increasing environmental literacy in it.....</i>	310
Яхшибаев Ш.Қ. // <i>Сиёсий маданиятни юксалтиришнинг миллий ва умумбашиарий масалалари.....</i>	317
Farxodjonov F. // <i>Usmonlilar davlatining Bolqon davlatlari bilan olib borgan tashqi siyosati va qudratli imperiyaga aylanishidagi ahamiyati.....</i>	326
Бегамова Н.Х. // <i>Ўзбекистонда аграр соҳага оид қабул қилинган қонун ҳужжатлари: ислоҳотлар ва унинг натижалари.....</i>	331
Abdullayev I.A. // <i>Yoshlar media madaniyati: O‘zbekiston amaliyoti.....</i>	337
Saidova Sh. D. // <i>Types of vocabulary and their role in human life.....</i>	343
Tojimatova M.U. // <i>Nofilologik yo‘nalishlarda kompetensiyaviy yondashuv asosida ingliz tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish xususiyatlari: tarixi va istiqbollari.....</i>	348
Шодмонов Б.А. // <i>Маъмурий ислоҳотлар жараёнида маҳаллий вакиллик органлари фаолиятини такомиллаштириш масаласи.....</i>	353
Атажанова Д.М. // <i>Ташилотларда менежмент бошқаруви ва унинг функциялари.....</i>	362
Akhmadjonova G. A. // <i>Theoretical study on the improved cotton trap.....</i>	365
Ро‘latov M. // <i>Raqamli O‘zbekistonda mehnat huquqi.....</i>	371

Himmatova N.N. // <i>The effect of personal standards on the process of economic socialization of the population.....</i>	377
Radjabova H.Sh. // <i>Xavfsiz turizm terminlarining struktur-semantik va chog'ishtirma tadqiqi</i>	387
Mukhammetkharisova A.I. // <i>Rhetoric in the english and russian languages.....</i>	396
Boboyeva F.N. // <i>O'smirlarda iroda shakllanishining psixologik xususiyatlari.....</i>	399
Jo'rayeva D.I. // <i>O'smirlarda xulqiy og'ishlar namoyon etilishini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.....</i>	410
G'ulomova Z.X. // <i>O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlari.....</i>	423
Po'latova K.N. // <i>Boshlang'ich sinflarda geometrik masalalarni yechishda interfaol texnologiyalardan foydalanish.....</i>	430
Равшанова М.Д. // <i>Социально-психологические особенности формирования педагогических способностей.....</i>	439
Ibragimova S.M. // <i>Yashil energetika manbalari va ularning ahamiyati.....</i>	447
Abdualiyev N.H., Toyirov M.Z. // <i>Evaluating the operation of open reclamation networks of bukhara region and justifying the scientific efficiency of improvement.....</i>	450
Abdullayev M. // <i>Corruption and law: an intricate nexus and its consequences.....</i>	460
Мардонова М. // <i>Мавлоно Жалолiddин Румий ҳаёти: ибрат ва ҳикмат кўзгуси.....</i>	463
Tadjibayeva D.O. // <i>Ma'fkuraviy faoliyatda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni</i>	471
Oblomuradova X.N. // <i>Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash – barqaror taraqqiyot omili.....</i>	478
Ахунов М.М., Гуломова Б.М. // <i>Инглиз ва ўзбек тилларида қўшма сўзларнинг сўз ясаш тизимида тутган ўрни.....</i>	485
Mamatqulova N.X. // <i>Tyantay maktabining “Uch haqiqat” ta'limoti haqida mulohazalar.....</i>	492
Umarova X.N. // <i>Korporatsiyalarda direktorlarning o'z vakolatlari doirasidan chiqib tuzgan bitimlar yuzasidan javobgarlik masalalari.....</i>	500
Umarova X.N., Qarshiboyev J.K. // <i>Chet davlatlarda va O'zbekistonda kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi(franshizing) instituti: huquqiy mohiyati, xorijiy mamlakatlar tajribasi va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari.....</i>	513

“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2023. – 539 b.

ISSN 2181-1784

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Oriental Renaissance" MChJ tomonidan ta'sis etilgan "ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)" ilmiy jurnalining 3-bo'lim 7-soni o'rin egallagan.

Mas'ul muharrir:
falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov

Ilmiy kotib:
J.B. Sulaymonov
SH.N. Pulatov
I.R. Ikramova

Texnik muharrir:
Sh.S.Jurayev

